



# PEDAGOGIK AKMEOLOGIYA

xalqaro ilmiy-metodik jurnal

6(8)  
2023





**ISSN 2181-3787**  
**E-ISSN 2181-3795**

**“PEDAGOGIK AKMEOLOGIYA”**  
**xalqaro ilmiy-metodik jurnal**

**«ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ АКМЕОЛОГИЯ»**  
**международный научно-методический журнал**

**“PEDAGOGICAL ACMEOLOGY”**  
**international scientific-methodical journal**

**№6(8) 2023**

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi OAK Rayosatining 2023-yil 5-maydagi 337-qarori bilan **07.00.00 - tarix, 13.00.00 - pedagogika, 19.00.00 - psixologiya** fanlari bo‘yicha dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo‘lgan zaruruiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

2



### Jurnal haqida

*Jurnalga O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti administratsiyasi huzuridagi axborot va ommabiy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan ommaviy axborot vositasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risida 1672 raqamli guvohnoma berilgan.*

*“Pedagogik akmeologiya” xalqaro ilmiy-metodik jurnali*

“Pedagogik akmeologiya” xalqaro ilmiy-metodik jurnaliga taqdim etilgan ilmiy maqolalarga qo‘yiladigan asosiy talablar falsafa doktori (PhD), fan doktori (DSc) dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini xalqaro standartlar va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Oliy attestatsiya komissiyasi to‘g‘risidagi Nizom” talablari, shu jumladan elektron ilmiy-texnik jurnallarga qo‘yiladigan talablar tizimi hisoblanadi.

*«Педагогическая акмеология» международный научно-методический журнал*

Основные требования к научным статьям, представляемым в международном научно-методическом журнале «Педагогическая акмеология» являются научные труды, рекомендованные для публикации основных научных результатов докторских (PhD), (DSc) диссертаций в соответствии с международными стандартами и «Положением о Высшей аттестационной комиссии» при Кабинете Министров Республики Узбекистан, в частности требования к электронным научно-техническим журналам.

### About the magazine

*“Pedagogical akmeology” international scientific-metodical journal*

The main requirements for scientific articles submitted to the international scientific-metodical journal "Pedagogical akmeology" are scientific publications recommended for the publication of the main scientific results of doctoral (PhD), (DSc) dissertations in accordance with international standards and the "Regulation on the Higher Attestation Commission" Under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan, including from templates in the system of requirements for electronic scientific and technical journals.

**Muassislar:** "Sadriddin Salim Buxoriy" MCHJ "Durdona" nashriyoti,  
Buxoro davlat pedagogika instituti

**Tahririyat manzili:** O'zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy

**Web-sayt:** [www.paresearchjournal.uz](http://www.paresearchjournal.uz)

**Bosh muharrir:**

Hamroyev Alijon Ro'ziqulovich, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**Bosh muharrir o'rinnbosari:**

Husenova Aziza Sharipovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Mas'ul kabit:**

Bafayev Muhiddin Muhammadovich, psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

### **TAHRIR HAY'ATI:**

*Muqimov Komil Muqimovich, O'zR FA akademigi, fizika-matematika fanlari doktori, professor*

*Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor*

*Adizov Baxtiyor Rahmonovich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Ibragimov Xolboy Ibragimovich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Abdullayeva Barno Sayfiddinovna, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Yanakiyeva Yelka Kirilova, pedagogika fanlari doktori, professor (N. Rilski nomidagi Janubiy-G'arbiy Universitet, Bolgariya)*

*Madzigon Vasiliy Nikolayevich, akademik, pedagogika fanlari doktori, professor (Ukraina pedagogika fanlari milliy akademiyasi, Kiyev)*

*Maksimenko Sergey Dmitriyevich, psixologiya fanlari doktori, professor (Ukraina pedagogika fanlari milliy akademiyasi, Kiyev)*

*Chudakova Vera Petrovna, psixologiya fanlari nomzodi (Ukraina pedagogika fanlari milliy akademiyasi, Ukraina)*

*Kozubsov Igor Nikolayevich, pedagogika fanlari doktori, dotsent (Kiyev, Ukraina)*

*Mustafa Said Arslon, filologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)*

*Tadjixodjayev Zokirxo'ja Abdusattorovich, texnika fanlari doktori, professor*

*To'xsanov Qahramon Rahimbo耶evich, filologiya fanlari doktori, dotsent*

*Muhitdinova Xadicha Sobirovna, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Niyozmetova Roza Hasanovna, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Sobirova Maxbuba Yusupjanovna, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor*

*O'rayeva Darmonoy Saidaxmedovna, filologiya fanlari doktori, professor*

*Raximov Sharof Amonovich, fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent*

*Rasulov To'lqin Husenovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor*

*Hayitov Shodmon Axmadovich, tarix fanlari doktori, professor*

*To'rayev Halim Hojiyevich, tarix fanlari doktori, professor*

*Mahmudov Nosir Mahmudovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor*

*Bo'taboyev Muhammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor*

*Ibragimova Gulsanam Nematovna, pedagogika fanlari doktori, dotsent*

*Kadirov Xayot Sharipovich, pedagogika fanlari doktori, dotsent*

*Jalilova Saboxat Xalilovna, psixologiya fanlari nomzodi, dotsent*

*Atabayeva Nargis Batirovna, psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

*Muxtorov Erkin Mustafoyevich, psixologiya fanlari nomzodi, dotsent*

*Jumaniyozova Muhabbat Husenovna, filologiya fanlari nomzodi, dotsent*

*Farmonova Shabon Muhamadovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

*Qo'ldoshev Rustambek Avezmurodovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*

**MUNDARIJA****07.00.00 - TARIX ..... 6**

**Abdinabiyev Hikmatilla Ehsonovich.** O‘zbekistonning eng yangi tarix masalalari bo‘yicha markazining tashkil etilishi va faoliyati ..... 6

**13.00.00 - PEDAGOGIKA FANLARI ..... 10**

**Dilova Nargiza Gaybullayevna.** Bo‘lajak o‘qituvchilarni shaxslararo munosabatlarga tayyorlashda ta’lim uzviyligini ta’minlovchi tamoyillar ..... 10

**Alijon Ro‘ziqulovich Hamroyev.** Boshlang‘ich sinf ona tili ta’limida o‘quvchini faollashtirish metodikasi ..... 15

**G‘ayrat Muhammedovch Salimov.** Maktabgacha ta’lim muassasalarida harakat faolligining turli shakllaridan foydalanish ..... 19

**Jumaniyozova Muhabbat Xusinovna.** Ona tili ta’limi mashg‘ulotlarida muammoli ta’lim texnologiyalaridan foydalanishning metodik jihatlari ..... 25

**Husenova Aziza Sharipovna.** Boshlang‘ich sinf o‘qish savodxonligi darslarida blum taksonomiyasining amaliy ahamiyati ..... 29

**Tog‘ayeva Umida Shavqi qizi.** Boshlang‘ich sinf ona tili ta’limida neyrolingvistik yondashuvning dolzarb muammolari ..... 33

**Baymuradov Radjab Sayfitdinovich.** Yosh mutaxassisni shakllantirishda o‘qituvchi-murabbiyning o‘rni ..... 37

**Yuldasheva Mashxura Muzafarovna.** Qadriyatli yondashuvlar asosida talabalarning fuqarolik pozitsiyasi va bag‘rikenglik tafakkuri texnologiyalarini shakllantirish ..... 42

**Sirojov Qilich Ochilovich.** Nodavlat ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirishning metodik asoslari ..... 47

**Raximova E’tibor Rustamovna.** Muloqot borasidagi dastlabki fikrlarning yuzaga kelishi ..... 52

**Baxtiyorova Mahliyo, Ganjayeva Maftuna.** 3-sinf ona tili darslarida ta’limiy o‘yinlardan foydalanish orqali o‘quvchilarning fonetik-grammatik tushunchalarini shakllantirish ..... 58

**Xolmuradova Jamila Irmetovna.** Yordamchi so‘zlar turkumini o‘qitishda didaktik o‘yinli darslarning ahamiyati ..... 62

**Bazarov Sobirjon Bektashevich.** O‘zbek romanlarida motivlar rang-barangligi ..... 67

**Кучимов Маъруф Кучимович.** Повышение качества обучения студентов вуза методом внедрения экспертной оценки компетенций ..... 71

**Boynazarova Sayyora Ruzikulovna.** O‘qituvchilarda biologiya faniga doir kasby kompetensiyani shakllantirish va tarmoqlash ..... 76

**Badalov Dilmurod Abdixalilovich.** Boshlang‘ich ta’lim sohasida boshqaruva tizimiga logistik yondashish ..... 80

**Abduqodirov Jasur Baxtiyor o‘g‘li.** Fizika fanining optika bo‘limiga doir nostandart masalalar yechish metodikasini takomillashtirishning nazariy jihatlari ..... 86

**To‘raboyeva Muqaddas Yoqubjanovna.** Ona tili ta’limida o‘quvchilarining tafakkur tezligini shakllantirish yo‘llari ..... 91

**Ma’rufjonova Rohila Lutfulla qizi.** Maktabgacha yoshdagisi (5-7) yoshli bolalarda tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirish ..... 96

**K.R.Badalov.** Darsni ratsional tashkil etish yo‘llari ..... 104

**Ережепов Ислам Юсупович.** Значение физического воспитания для дошкольников ..... 108

**Allambergenova Baxargul Xudaybergenovna, Duysenbayeva Nilufar Rashidovna.** Ingliz tilini o‘rganish motivatsiyasini rivojlantirishning pedagogik xususiyatlari ..... 112

**Hikmatov Akmal Sadulloyevich.** Tibbiyot xodimlarida ijtimoiy -kommunikativ kompetensiyaning o‘rni va ahamiyati ..... 115

<b>Жуманиязова Тамара Адамбаевна.</b> Социально-педагогическая характеристика занятий художественной гимнастикой .....	119
<b>Ikromov Oybek Ibrogimovich.</b> Talabalar xotirasining xorijiy tillarni o‘rganish sharoitidagi individual - tipologik xususiyatlari .....	123
<b>Якубаев Алишер Алымбаевич.</b> Педагогические аспекты гуманизации спортивной подготовки в вольной борьбе.....	127
<b>Шаниязов Рашид Жанабаевич.</b> Роль теории физического воспитания и физической культуры в системе наук .....	131
<b>19.00.00 – PSIXOLOGIYA FANLARI.....</b>	<b>135</b>
<b>Ro‘ziqulov Faxriddin Rasulovich.</b> Nikoh-oila munosabatlarida bolalar tarbiyasining o‘ziga xos ijtimoiy – psixologik xususiyatlari.....	135
<b>Qodirov Obid Safarovich.</b> O‘smirlarda jinoyat motivlari shakllanishining empirik o‘rganish tahlili .....	140
<b>Ostanov Shuhrat Sharifovich.</b> O‘smirlilik davrining ijtimoiy-psixologik muammolari va destruktiv xulq-atvorning ijtimoiy psixologik xususiyatlari .....	144
<b>Djumaniyozova Muxayya Xusinovna.</b> Talabalar o‘quv motivatsiyasini rivojlanishi - psixologik muammo sifatida.....	148
<b>Rustamov Shavkat Shuxratovich.</b> Ta’lim jarayonida talabalarning innovatsion kompetenligini takomillashtirishning psixologik xususiyatlari .....	154
<b>Ro‘ziyev Umar Muzaferovich.</b> O‘sirinlarda ijtimoiy fobiya holatlarining diagnostikasi .....	158
<b>Элмуратова Айсулув Усаховна.</b> Психологические закономерности изучение механизмов психологической защиты у спортсменов .....	166
<b>Mamirova Feruza Sulaymonovna.</b> Talaba yoshlarning psixologik yetuk inson bo‘lib rivojlanishiga ijtimoiy tarmoqlarning salbiy ta’siri .....	171
<b>Ismoilova Asilpashsha Rojabovna.</b> Tafakkur psixologiyasi: nazariyalar va ilmiy yondashuvlar .....	177
<b>Rahmatova Nasiba Sobirovna.</b> Shaxsda irodaviy boshqaruvi namoyon bo‘lishining yosh va jins xususiyatlariga bog‘liq o‘zgarishi .....	184
<b>Jumabayev Timur Jalgasbayevich.</b> Sportchilarni musobqaga psixologik tayyorlash jarayonida umumiylar va maxsus psixologik tayyorgarlik asoslari .....	189
<b>Sayitova Umida Hikmatillo qizi.</b> Talabalarda internetga tobelikning diagnostik tahlili .....	192
<b>Уразимбетова Марджина Султамуратовна.</b> Методика обучения детей плаванию брасом .....	195
<b>Ahmedov Farhod Furqatovich.</b> Ichki ishlar xodimlarida muloqotning ijtimoiy-psixologik kompetentlik bilan bog‘liqligi.....	199
<b>Kalillaryeva Ulbosin Ayapbergenovna.</b> Deviant xulq-atvori o‘smirlarda kasb tanlash muammosi .....	203
<b>Казакбаева Гулмира Узакбай қизи, Эрежепова Шахсанем Абат қизи.</b> Социально-педагогические особенности формирования психологической устойчивости в личности спортсмена .....	208
<b>Sherjanova Nodira Alisherovna.</b> O‘smirlilik davrida empatik xususiyatlarning namoyon bo‘lishi .....	213
<b>Султамуратов Джумамурат.</b> Педагогико-психологическая характеристика спортсменов, занимающихся спортом дюздо .....	217
<b>Sa’dullayeva Moxinur G‘ulomjon qizi.</b> Ta’lim jarayonida psixologik zo‘ravonlikning namoyon bo‘lishi.....	221

**Abdinabihev Hikmatilla Ehsonovich**

Termiz shahri. O'zbekiston

[habdinabihev@gmail.com](mailto:habdinabihev@gmail.com)

---

## O'ZBEKISTONNING ENG YANGI TARIX MASALALARI BO'YICHA MARKAZINING TASHKIL ETILISHI VA FAOLIYATI

---

*Annotatsiya.* Ushbu maqolada O'zbekistonning eng yangi tarix masalalari bo'yicha markazining tashkil etilishidan maqsad, uning vazifalari va tashkil etilgandan hozirgi vaqtgacha bo'lgan davrdagi faoliyati haqida ma'lumot berilgan.

**Kalit so'zlar:** O'zbekistonning eng yangi tarixi masalalari bo'yicha muvofiqlashtiruvchi-metodik markaz, O'zbekistonning eng yangi tarixi bo'yicha Jamoatchilik kengashi, O'zbekiston eng yangi tarixinining dolzarb masalalari.

### ORGANIZATION AND ACTIVITIES OF THE CENTER FOR CONTEMPORARY HISTORICAL ISSUES OF UZBEKISTAN

*Abstract.* This article provides information about the goals of creating the Center for Contemporary History of Uzbekistan, its tasks and activities from the time of its creation to the present.

**Key words:** Coordination and Methodological Center for the Contemporary History of Uzbekistan, Public Council for the Contemporary History of Uzbekistan, topical issues of the contemporary history of Uzbekistan.

### ОРГАНИЗАЦИЯ И ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ЦЕНТРА НОВЕЙШИХ ИСТОРИЧЕСКИХ ВОПРОСОВ УЗБЕКИСТАНА

*Аннотация.* В данной статье представлена информация о целях создания Центра новейшей истории Узбекистана, его задачах и деятельности со времени его создания и по настоящее время.

**Ключевые слова:** Координационно-методический центр по вопросам новейшей истории Узбекистана, Общественный совет по новейшей истории Узбекистана, актуальные вопросы новейшей истории Узбекистана.

**Kirish.** Davlatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng tarix fanini yanada chuqur o'r ganib, izchillik va xolisona yoritish uchun Fanlar Akademiyasi tarkibida bir qancha tarix masalalari bilan shug'ullanuvchi ilmiy-tadqiqot markazlari tashkil etilganligini alohida e'tirof etish mumkin. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi O'zbekistonning eng yangi tarixi masalalari bo'yicha muvofiqlashtiruvchi-metodik markaz O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimovning qaroriga, asosan Jamoatchilik kengashining ishchi organi sifatida tashkil etilgan edi. Tarixini zamonaviy nazariy-metodologik, fanlararo yondashuvlarga, tarixiylik va xolislik tamoyillariga asoslangan holda tizimli o'rganishni tashkil etish, O'zbekistonning eng yangi tarixi bo'yicha dolzarb muammolarni ishlab chiqish, shuningdek, buyuk tarixiy-madaniy merosga ega bo'lgan va jahon svilizatsiyasining rivojiga ulkan hissa qo'shgan o'zbek xalqining tarixiy o'tmishi va bugungi kuniga baho berishda bir yoqlama yondashuvlarga, aqidaparastlikka yo'l qo'ymaslik ishlarini muvofiqlashtirish, demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini shakllantirishning "o'zbek modeli" mohiyati va mazmunini, jamiyatda barqarorlikni, millatlararo

totuvlik va diniy bag'rikenglikni saqlash bo'yicha keng ko'lamli ishlarni, hozirgi dunyoda 7 O'zbekistonning roli va o'rnini chuqur o'rganish va yaqqol oshib berish, ilmiy, o'quv, o'quv-metodik adabiyotlarning yangi avlodini tayyorlash va chop etish ishlarini muvofiqlashtirish, ularda O'zbekistonning eng tarixini umumjahon va mintaqaviy jarayonlar bilan, shuningdek, hozirgi O'zbekiston hududida shakllangan xalqlar va davlatlar sivilizatsiyasining tarixiy-madaniy merosi bilan uzviy bog'liq holda ko'rib chiqishni ta'minlash, O'zbekistonning tarixi bo'yicha ilmiy, o'quv va o'quv-metodik adabiyotlar, o'quv dasturlari monitoringini olib borish, ushbu sohada ilmiy-tadqiqot, o'quv-metodik ishlarning sifatini yaxshilash bo'yicha takliflarni ishlab chiqish va joriy etish, fuqarolarda tarixiy xotira, milliy o'zlikni anglash, yuksak ma'naviyat, xalqning tarixiy an'analarini, madaniy merosiga hurmat, mamlakatimiz mustaqillikka erishganligining buyuk tarixiy ahamiyatini anglash kabi fazilatlarni shakllantirishga yo'naltirilgan ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini, shu jumladan, ommaviy axborot vositalari orqali oshirib borishga ko'maklashish kabi bir qator ustuvor vazifalar yuklatilgan bo'lib hozirgi kunda ushbu vazifalar bilan shug'ullanib kelmoqda.

**Adabiyotlar tahlili.** O'zbekiston tarixi bo'yicha zamonaviy chet el ilmiy va o'quv adabiyotlarini o'rganishga yo'naltirilgan tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish, hozirgi O'zbekistonning tarixiy o'tmishi, sotsial-iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy rivojlanishi, mamlakatda olib borilayotgan demokratik islohotlar to'g'risidagi xolis axborotni keng xalqaro jamoatchilikka yetkazish maqsadida faoliyati qaytadan tashkil qilindi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning "Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2789-sonli qaroriga muvofiq Markaz Fanlar akademiya tasarrufiga o'tkazilib, Fanlar akademiyasi huzuridagi O'zbekistonning eng yangi tarixi bo'yicha Jamoatchilik kengashining ishchi organi etib tashkil etildi. Unga quyidagi asosiy vazifalar yuklanadi: jamoatchilik kengashi faoliyatini ilmiy-metodik ta'minlash, O'zbekistonning eng yangi tarixini o'rganish bo'yicha dolzarb masalalarni ishlab chiqishni tashkillashtirish, ilmiy-tadqiqot, o'quv-metodik ishlarning sifatini yaxshilash chora-tadbirlari tizimini tayyorlash va amalga oshirish, o'quv, ilmiy-metodik adabiyotlarni tayyorlash va chop etish, shuningdek, Jamoatchilik kengashiga yuklangan boshqa vazifalarni bajarish, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Oliy va o'rtalik maxsus ta'lim vazirligi bilan birgalikda O'zbekistonning eng yangi tarixi bo'yicha o'quv, o'quv-metodik adabiyotlar yaratish yuzasidan tanlovlardan o'tkazishda ishtiroy etish, davlat ilmiy-texnika dasturlari doirasida O'zbekistonning eng yangi tarixi tadqiqotlari bo'yicha ilmiy-texnika loyihalari tanlovlarni vazifalari ro'yxatiga kiritish uchun takliflar ishlab chiqish hamda ularni ko'rib chiqish uchun O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligiga kiritish, O'zbekistonning eng yangi tarixini o'rganishning nazariy-metodologik asoslarini takomillashtirish yuzasidan tadqiqotlar olib borish, har yili ushbu sohada tadqiqotlar va ta'lim berish darajasini oshirishga, zamonaviy O'zbekiston, uning tarixiy o'tmishi to'g'risidagi ishonchli axborotni xalqaro jamoatchilikka yetkazishga yo'naltirilgan, O'zbekiston eng yangi tarixining dolzarb masalalari bo'yicha o'tkaziladigan xalqaro va respublika konferensiya va seminarlari ro'yxatini belgilangan tartibda ishlab chiqish kabi ustuvor vazifalar belgilab berildi.

Ilm-fanni davlat va xususiy sektor tomonidan ham qo'llab-quvvatlash yildan yilga ortib bormoqda 2025-yilga qadar ilm-fanni umumiyligi moliyalashtirish hajmida ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstrukturlik ishlariga xususiy sektor tomonidan ajratiladigan mablag'lar ulushini amaldagi 8 foizdan 20 foizga, 2030-yilgacha esa 30 foizga yetkazish belgilab berilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017-yil 30-iyundagi "O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiya huzurida O'zbekistonning eng yangi tarixi bo'yicha Jamoatchilik kengashi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi 3105-sonli qarori bilan Markaz Fanlar akademiyasi huzurida o'z faoliyatini boshladi.

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi O'zbekistonning eng yangi tarixi masalalari bo'yicha muvofiqlashtiruvchi-metodik markaz O'zbekistonning eng yangi tarixini tadqiq etish va o'qitish samaradorligini, mazkur sohada ilmiy, o'quv-metodik adabiyotlar, ma'naviy-ma'rifiy ishlar sifatini oshirishga ko'maklashish maqsadida tashkil etilgan hamda

8 jamoatchilik asosida faoliyat yurituvchi idoralalararo ilmiy-muvofiqlashtirish va maslahat organi maqomidagi O'zbekistonning eng yangi tarixi bo'yicha Jamoatchilik kengashining ishchi organi hisoblanadi. "O'zbekistonning eng yangi tarixi masalalari" jurnalini "O'zbekistonning eng yangi tarixinining dolzarb masalalari" nomi bilan belgilangan tartibda qayta ro'yxatdan o'tkazilib sohaga doir ma'lumotlar bilan to'ldirildi.

Markazni bosma va kitob mahsulotlari tarixiy, huquqiy, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy-ma'rifiy nashrlar nazorat nusxalarini bepul oladigan tashkilotlar ro'yxatiga kiritildi. Markaz o'z faoliyati doirasida xorijiy mamlakatlarning ilmiy-tadqiqot tashkilotlari va xalqaro jamg'armalar bilan hamkorlik qilib, "O'zbekiston eng yangi tarixinining dolzarb masalalari" jurnalini nashr qildi. Jurnalda O'zbekistonning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotida sodir bo'lgan tarixiy voqeа va jarayonlarga bag'ishlangan, ularning mazmun-mohiyatini yorituvchi tahliliy materiallarni e'lon qilib kelmoqda. Shuningdek, nashrda eng yangi tarixni tadqiq etishning xorij tajribasini o'rganish masalalari ham o'rin oladi. Maqolalar tadqiqotchilar, o'qituvchilar va talabalarga O'zbekistonning eng yangi tarixini o'rganishga ilmiy-metodik jihatdan ko'mak beradi, fanlar sohasida olib borilayotgan hamda XX-XXI asrlarda O'zbekiston va xorij mamlakatlari ijtimoiy-siyosiy rivojlanishining dolzarb masalalari bilan bog'liq fundamental tadqiqotlarning natijalari chop etiladi. Shuningdek, yosh tadqiqotchilarni sohaga jalb etish maqsadida ularning o'rtacha yoshini 45ga 2030-yilga kelib 39ga yetkazish belgilab berilgan.

Markaz O'zbekistonning eng yangi tarixinining dolzarb masalalari bo'yicha xalqaro va respublika konferensiyalari, seminarlarni tashkil qiladi hamda o'tkazib kelmoqda, o'quv, ilmiy-metodik adabiyotlar chop etyapti, Markazda Tarix bo'yicha ma'naviy-ma'rifiy va o'quv-metodik adabiyotlarni ekspertizadan o'tkazish, ilmiy tadqiqotlarni tashkil etish va o'quv, ilmiy-metodik adabiyotlarni tayyorlash; O'zbekistonning eng yangi tarixi masalalari bo'yicha xorijiy tadqiqotlar monitoringi va tahlili bo'limlari faoliyat yuritadi. 2025-yilga qadar ilmiy-tadqiqot va ishlanmalar sohasidagi texnologik innovatsiyalarga xarajatlarning umumiy hajmida tashkilotning o'z kuchi bilan bajarilgan texnologik innovatsiyalarga xarajatlarning ulushini 3,5 baravarga, 2030-yilgacha esa 9 baravarga oshirish belgilangan. "Poytaxt" biznes markazida "Markaziy Osiyodagi etnosiyosiy jarayonlar umumjahon sotsiomadaniy vaziyati kontekstida" mavzusida davra suhbat o'tkazilib mavzuga doir fikrlar almashinilgan edi. Mazkur tadbir Konrad Adenauer jamg'armasi, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix instituti va O'zbekistonning eng yangi tarixi masalalari bo'yicha muvofiqlashtiruvchi-metodik markaz tomonidan tashkil etildi, davra suhbat davomida O'Z FA Tarix instituti katta ilmiy xodimi Rinat Shig'abdinov "O'zbekiston diasporalari tarixiga doir (tatar va boshqird diasporalari misolida)" mavzusida ma'ruza qildi. Shuningdek, tarix fanlari nomzodi Alisher Sobirovning "O'zbekistondagi etnosiyosiy vaziyatning yangi palitrsasi", t.f.n Shuhrat Muxamedovning "O'zbekiston mintaqaviy kesimidagi etnomadaniy jarayonlar (Buxoro viloyati misolida)" hamda f.f.n. Ravshan Nazarovning "Etnosiyosiy va sotsiomadaniy jarayonlardagi zamонавија jahon tendensiyalari"ga bag'ishlangan ma'ruzalari tinglandi. 2017-yilning 15-sentabr kuni O'zbekistonning eng yangi tarixi masalalari bo'yicha muvofiqlashtiruvchi-metodik markazda Vivekananda xalqaro fondi vakili doktor Rashmini Koparkar (Hindiston) bilan birgalikda "Eng yangi tarix sohasida hamkorlik istiqbollari" mavzusida davra suhbat o'tkazilib, davra suhbatida Hindistonning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan zamонавија munosabatlari haqida fikr almashildi, eng yangi tarixni o'rganish sohasida hamkorlik qilish, jumladan, qo'shma konferensiyalar, seminarlar, davra suhbatlarini o'tkazish masalalari muhokama qilindi. 2018-yilning 26-fevralda O'zbekistonning eng yangi tarixi masalalari bo'yicha Muvofiqlashtiruvchi-metodik markazda O'zbekiston-Rossiya hamkorligiga oid davra suhbat tashkil etildi. Tadbirda O'zR FA Tarix instituti, Rossiyaning birinchi Prezidenti B.N.Yelsin nomidagi Ural federal universiteti hamda Toshkentdagi Rossiya fan va madaniyat markazi vakillari qatnashdi. Davra suhbat davomida O'zbekistonning eng yangi tarixi masalalari bo'yicha Muvofiqlashtiruvchi-metodik markaz direktori, t.f.d., prof. M.A.Raximov, O'zR FA Tarix instituti direktori, t.f.d. R.M.Abdullayev, f.f.n. R.R.Nazarov tomonidan Ozbekistonning Rossiya bilan hamkorlik munosabatlari yangi bosqichga ko'tarilganligi va u yanada rivojlanib borayotganligi ta'kidlandi. Ural Federal universitetidan

qatnashayotgan t.f.n., dots. R.T.Ganiyev, f.f.n. K.Pogorelskiy Rossiyada, umuman, jahonda Ipak 9 yo‘li brendi katta qiziqish uyg‘otayotganligini qayd etishar ekan, fan va ta’lim sohasida ham hamkorlikni yanada kengaytirish zarurati haqida fikr-mulohazalar bildirishdi. Ilmiy tashkilotlarda faoliyat ko‘rsatayotgan ilmiy darajali tadqiqotchilarning o‘rtacha yoshi 51 yoshni tashkil etayotganligi yoshlarni ilm-fanga jalb etmoqda. Albatta yoshlarni ilm-fanga yo‘naltirish bugungi kunning eng dolzARB masalasi hisoblanadi. Shu o‘rinda “Bizning vazifamiz - to‘plangan tajriba va ilg‘or xalqaro amaliyotga suyangan holda, o‘zimizning taraqqiyot va yangilanish modelimizni qat’iy amalga oshirishdan iborat. Shu boroda prezidentimizning yaqin va o‘rta muddatga belgilangan marralarga erishish uchun qat’iyat bilan harakat qilishimiz zarur degan fikrlari o‘rinlidir. Jamiyatada ilm-fan qanchalik tez taraqqiy etsa shuncha jamiyatning olg‘a borish jarayoni shuncha tezlashadi.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, markazning tashkil etilishi bilan bирgalikda tarix fanida o‘z yechimini kutayotgam muammolarni yechishga qaratilgan ilmiy seminarlar konfrensiyalar chaqirilmoqda, markaz faoliyatida ham tizimli o‘zgarishlar amalga oshirilganligini ko‘rib o‘tdik. Ilm-fanining rivojlanishining asosiy bosqichi sifatida davlatimiz 2017-yildan keyingi davrda ilm-fanni yuksaltirishning yangi davri bo‘ldi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Yuritilayotgan islohotlarning mohiyati ham ilm-fan, ta’lim tizimidagi tarkibiy o‘zgarishlarga alohida e’tibor qaratilganini ko‘rishimiz mumkin, albatta bu islohotlar o‘z samarasini bermoqda.

### **Adabiyotlar**

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik o‘zbekiston davlatini bирgalikda barpo etamiz.// O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutq.T.”O‘zbekiston” NMIU. 2016 y.20- bet
2. Oliy va o‘rta maxsus ta’limini tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risidagi 2012-yil 27-yanvardagi PQ-1694
3. Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida 2017-yil 7-fevral PQ-2789 son.
4. Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiysi.

# 13.00.00 - PEDAGOGIKA FANLARI

Dilova Nargiza Gaybullayevna  
Buxoro davlat universiteti professori

## BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI SHAXSLARARO MUNOSABATLARGA TAYYORLASHDA TA'LIM UZVIYLIGINI TA'MINLOVCHI TAMOYILLAR

**Annotatsiya.** Maqolada bo'lajak o'qituvchilarni shaxslararo munosabatlarga tayyorlashda ta'lum uzviyligini ta'minlovchi tamoyillar, ularning ahamiyati, mazmuni va o'ziga xos jihatlari, Uzluksiz ta'lum jarauoni sifatini oshirishda zamonaviu o'qituvchi oldida qo'yilgan talablar, o'qituvchining o'zini-o'zi rivojlanadirish va o'z ustida ishlash kompetentligini oshirishning dolzarbliji, o'qituvchi va o'quvchilar orasidagi shaxslararo munosabatlarni samarali tashkil yetish orqali ta'lum sifatiga yerishish hamda yegallangan bilimlar natijadorligini kafolatlashda o'qituvchining o'quvchilarining kompetentsiularini xolisona baholash mahoratining muhimligi haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** bo'lajak o'qituvchi, shaxslararo munosabatlar, pedagogik tamoyillar, ijtimoiy jamiyat, o'zaro munosabat, ijtimoiy faoliyat, bilim, kompetentsiya, strategiya, rasmiy va norasmiy, diagnostik, umumiy yondashuv, baholash, usul, o'quv faoliyati.

## ПРИНЦИПЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ЦЕЛОСТНОСТИ ПРИ ПОДГОТОВКЕ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ К МЕЖЛИЧНОСТНЫМ ОТНОШЕНИЯМ

**Аннотация.** В статье представлены принципы, обеспечивающие преемственность образования при подготовке будущих педагогов к межличностным отношениям, их значение, содержание и специфика, современные подходы к повышению качества процесса непрерывного образования, требования, предъявляемые к учителю, актуальность повышения компетентности педагога в саморазвитии и работе над собой, в нем говорится о важности умения учителя объективно оценивать компетенции учащихся в достижении качества образования путем эффективной организации межличностных отношений между учителем и учениками и гарантии эффективности приобретенных знаний.

**Ключевые слова:** будущий учитель, межличностные отношения, педагогические принципы, социальное общество, взаимодействие, социальная деятельность, знания, компетентность, стратегия, формальный и неформальный, диагностический, общий подход, оценка, метод, учебная деятельность.

## PRINCIPLES FOR ENSURING EDUCATIONAL INTEGRITY WHEN PREPARING FUTURE TEACHERS FOR INTERPERSONAL RELATIONSHIPS

**Annotation.** In the article, the principles that ensure educational continuity in the preparation of future teachers for interpersonal relationships, their importance, content and specifics, the requirements set before the modern teacher in improving the quality of continuing education jarauo, the relevance of increasing the competence of the teacher for self-development and work on himself, the importance of the teacher's skill in impartially assessing students' competencies is discussed in the provision of an effective organization of interpersonal relations between the teacher and students to the quality of education, as well as in guaranteeing the consequentiality of acquired knowledge.

**Keywords:** future teacher, interpersonal relations, pedagogical principles, social society,

Mamlakatimizda asosiy e'tiborni eng katta investitsiya bo'lgan sifatli ta'limga qaratish, zamonaviy ta'lim-tarbiya berish orqali o'quvchilarda erkin va kreativ fikrlash, jamoada ishlay olish va muloqot qilish ko'nikmalari hamda hayot uchun zarur bo'lgan ijtimoiy-huquqiy kompetensiyalarni shakllantirish muhim strategik vazifa hisoblanadi. Ushbu vazifani to'laqonli bajarish bugungi ta'lim tizimi zimmasiga katta ma'suliyat yuklaydi.

Uzluksiz ta'lim jarayoni sifatini oshirish zamonaviy o'qituvchi oldida bir qator talablarni qo'yadi. Bu talablarni bajarishda o'qituvchining o'zini-o'zi rivojlantirish va o'z ustida ishlash kompetentligi ham muhim ahamiyatga egadir.

Bo'lajak o'qituvchi zamonaviy ta'lim jarayonini tashkil etar ekan, o'z kasbiy mahoratini oshirish rejasini tuza olishi, kasbiy rivojlanishiga oid manbalarni izlashi va aniqlay olishi, o'zi faoliyat yuritayotgan ta'lim muassasasi ehtiyojlaridan kelib chiqib kasbiy malakasini oshirish bo'yicha o'quvlarni tanlay olishi va ularda ishtirok etish, AKT va global tarmoq resurslaridan foydalangan holda doimiy tarzda o'z kasbiy malakasini rivojlantirishi, boshqaruv usullari, ta'lim va axborot texnologiyalaridan ta'lim jarayonida foydalanishga oid innovatsiyalar bilan tanishib borishi, kasbiy faoliyatini takomillashtirishda turli texnologiyalardan foydalanishi, o'z kasbiy bilim va mahoratini oshirish hamda takomillashtirishda kollegial forumlardagi muhokamalarda ishtirok etishi uning pedagogik mahorati va kasbiy kompetentligini oshib borishida yordam beradi.

Zero, o'qituvchi zamonaviy ta'lim-tarbiya jarayonida yuz berayotgan turli o'zgarishlarga, yangilanish jarayonlariga tez, oson moslasha olishi, ta'limdagi yangi yondashuv va strategiyalarni qabul qilishi, ularni egallash hamda o'zining kasbiy amaliyatiga joriy eta olishi, o'ziga, o'quvchilar jamoasiga, ota-onalarga va jamiyatga nisbatan mas'uliyatlari bo'lishi, yuqori marra va standartlarni belgilashi, ularga erishishi, ta'lim jarayonining markaziga o'quvchini qo'yishi va har bir o'quvchining o'zlashtirishi, sifatli ta'lim olishi bo'yicha mas'uliyatni zimmasiga olish shart hisoblanadi.

Uzluksiz ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilar orasidagi shaxslararo munosabatlarni samarali tashkil etish orqali ta'lim sifatiga erishish hamda egallangan bilimlar natijadorligini kafolatlashda o'qituvchining o'quvchilarning kompetentsiyalarini xolisona baholash mahorati ham yana bir muhim shartlarani biri hisoblanadi.

O'qituvchining o'quvchilardagi fanga oid va tayanch kompetentsiyalarni egallash darajalarini xolisona baholash mahorati quydagilarda o'z aksini topadi:

o'quvchilar bilimlari va kompetentsiyalarini baholashning turli strategiyalaridan, ya'ni rasmiy va norasmiy, diagnostik va umumiylar yondashuvga asoslangan baholash usullaridan foydalana olishi;

o'quvchilarning o'quv faoliyatini, bilim va kompetentsiyalarini baholashga qaratilgan turli usul va vositalarni tanlay olishi;

baholashni ta'lim jarayonining ajralmas qismi sifatida tan olishi, u orqali o'quvchilar bilan teskari aloqani o'rnata olishi;

o'quvchilar o'zini baholashi, o'quvchilar boshqa o'quvchilarni baholashi va o'qituvchi tomonidan baholash yondashuvlaridan keng foydalanishi;

o'quvchilarning kompetentsiyalarini baholash natijalarini tahlil qilish va ushbu tahlillar asosida pedagogik amaliyatga o'zgartirishlar kiritish va o'zining pedagogik faoliyatidagi keyingi qadamlarni belgilashi;

ota-onalarni o'quvchilarning o'zlashtirishini ko'rsatuvchi baholash natijalari bilan o'z vaqtida tanishtirib borish kabilari.

O'quv jarayonida o'qituvchining o'quvchilar bilan do'stona muloqotga kirisha olishida o'quvchilarning jismoniy, ijtimoiy va intellektual rivojlanish qonuniyatlarini bilishi va bu qonuniyatlardan kelib chiqib o'quvchilarning ta'lim olish sifatini oshirishga qaratilgan turli strategiya, texnologiya va metodlardan foydalana olishi, o'quvchilarning qobiliyatlaridan kelib chiqqan holda ularning ta'limiy ehtiyojlarini qondirishda ta'lim berishning differentsiallashgan

12 yondashuvlaridan foydalana olishi, ta'lim mazmuni va strategiyalarini tushunishini namoyish qila olishi, DTS, o'quv dasturlari va baholash me'zonlarini inobatga olgan holda dars rejalarini tuza olishi va ularni amalgalash oshira olishi, o'quvchilarda kechadigan kognitiv jarayonlarni yaxshi bilishi, ta'lim oldidagi dolzARB maqsadlarni qo'ya olishi va ularni amalgalash oshirishning samarali vazifalarini belgilay olishi, turli ta'lim yondashuvlari, strategiyalar, texnologiya va metodlarini tushunishi va farqlay olishi, o'quvchilarda ijodiy fikrlash, muammolarni hal eta olish va bilimlarni rivojlantirishga qaratilgan turli ta'lim yondashuvlari, strategiyalar, texnologiya va metodlaridan foydalana olishi, ota-onalarni ta'lim jarayoniga jalb etishning turli strategiyalarini bilishi, sinfni boshqarish va o'quvchilar o'rtasida turli tadbirlarni tashkil eta olishi, fan yo'nalishlari bo'yicha o'qitishning joriy qilingan texnik-didaktik vositalarini bilishi, o'quv xonalari, fan kabinetlari va laboratoriyalarining namunaviy jihozlanish normativlarini bilishi va ulardan samarali foydalana olishi, tegishli jihoz, vosita va didaktik materiallardan foydalangan holda o'quv mashg'ulotlarini mahorat bilan o'tkazish kabi pedagogik kompetentsiyalarga ega bo'lishi talab etiladi.

O'qituvchi va o'quvchilar orasida ijodkorlikka yo'naltirilgan pedagogik muloqotni o'rnatishda undagi kommunikativ kompetentsiyaning rivojlanganligi ta'lim sifatini oshirishning yana bir muhim omillaridan biridir.

Ya'ni o'qituvchidagi o'quvchilarning sinfdagi faoliyatini qo'llab-quvvatlashda verbal va noverbal usullardan foydalananish, fikr bildirish, tuzatishlar kiritish, olqishlash, savollar berish, ularning fikrlarini hurmat qilishni namoyish etishi, shaxslararo munosabatlarni o'rnatishga qaratilgan o'quvchini qo'llab-quvvatlash, unga motivatsiya berish, unga do'st bo'la olish, uning qiziqishlariga e'tiborli bo'lish, quvchilarning ehtiyojlarini inobatga olish, ta'lim – tarbiya jarayonida o'zaro do'stona munosabatlarga asoslangan do'stona muhitni tashkil eta olish, o'quvchilar va ularning ota-onalari bilan uzviy hamkorlik qila olish, bilim berishni amaliyot bilan bog'lagan holda muammoli ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalana olish, o'quvchilar orasida sog'lom raqobatga asoslangan muhitni yarata olish kabi kompetensiyalar kelajakda o'quvchilarning hayotiy ko'nikmalarga ega bo'lishlarida muhim ahamiyatga egadir.

Bugungi globollashuv jarayonida jamiyat rivojlanishini sifatlari ta'limsiz tassavvur etib bo'lmay qoldi. Har qanday sohadagi asosiy e'tibor muayyan yo'nalish bo'yicha zamonaviy va eng yangi bilimlarga ega bo'lishga qaratilmoqda.

Uzluksiz ta'lim tizimida bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik faoliyatini samarali tashkil etish – ularning o'quv jarayonlariga ijodiy yondashuv va novatorlik, kommunikabellik va hamkorlik, moslashuvchanlik kabi kasbiy ko'nikmalariga ega bo'lishi bilan baholanadi. Bu esa, o'quvchilarning jahon standartlari talablariga javob bera oladigan kadrlar bo'lib yetishishida yaqindan yordam beradi.

O'qituvchining dars jarayonini tashkil etishdagi ijodiy yondoshuvi va undagi novatorlik sifatlari o'quv va mehnat faoliyatida ijodkorlik, ixtirochilik ko'nikmalarini namoyon qilish, yangi g'oyalarni rivojlantirish, qo'llash va boshqalarga yetkaza olish, muammolarni hal eta olish, tanqidiy fikrlash, murakkab vaziyatlarda qaror qabul qila olish, axborotlarni tanqidiy tahlil qilish, turli nuqtai-nazarlargacha aniqlik kirituvchi muqobil yechimga olib keluvchi savollarni qo'yish, masala va muammolarni hal etishda hamda savollarga javob topishda axborotlarni strukturalash, tahlil qilish va umumlashtirish da namoyon bo'ladi.

Ta'lim jarayonida o'quvchilar bilan o'zaro do'stona munosabatlarga kirishishda o'qituvchining kommunikabellik va hamkorlik qilish ko'nikmalarini asosida uning g'oya va fikrlarni og'zaki, yozma tarzda aniq va lo'nda ifoda etish, o'quvchilar, o'qituvchilar, ota-onalar jamoalarida samarali faoliyat yurita olish, o'zaro hamkorlikdagi faoliyatda mas'uliyatni bo'lisha olish kabi fazilatlargacha ega ekanligi muhim hisoblanadi.

O'qituvchidagi moslashuvchanlik kompetensiyasi unga yuklatilgan turli xil mas'uliyatlargacha moslashish, notanish sharoitlarda ham o'zini tuta olish, tashabbuskorlik va mustaqillikni qo'lga olish, o'quvchilarning o'qishga bo'lgan ehtiyojlarini belgilay olish, ularning bilim darajalarini kengaytirish va yangi tajribaga ega bo'lish maqsadida o'quv dasturi doirasidan chiqa olish, pedagogik ko'nikmalardan professionallik darajasiga ko'tarishda shaxsiy tashabbus ko'rsatish, mustaqil ravishda vazifalarni belgilay olishi va hal eta olish, vaqtadan samarali

foydalananish va ish yuklamasini boshqara olish, butun hayoti davomida ta'lim olishni namoyish eta 13 olishga egaligi bilan baholanadi.

Natijada, o'qituvchi va o'quvchi orasidagi shaxslararo munosabatlarga kirisha olishda o'qituvchidagi quyidagi samaradorlilik ko'nikmlari muhim ahamiyat kasb etadi:

yuklatilgan vazifalarni o'z vaqtida sifatli bajarish uchun yuqori standart va maqsadlarni belgilash va ularga erishish;

tirishqoqlilik va ijobiy axloqiy fazilatlarni namoyon eta olish (masalan, punktuallilik);

boshqaruvchanlik, liderlik va mas'uliyatlilik;

umumiy maqsadga erishish yo'lida o'quvchilar va ota-onalarning kuchli jihatlaridan foydalana olish;

o'z imidjiga ega bo'lish, namuna ko'rsata olish, halollik va axloqiy normalarni namoyish eta olish kabilari.

Ijtimoiy jamiyat taraqqiyotining asosiy drayveri ta'lim va unga qo'yilgan sifat mazmuni hisoblanilib, mazkur jarayonda ta'limning uzviyligini ta'minlovchi tamoyillarga tayanish muhim ko'rsatgich sanaladi (1-jadvalga qarang).

### **1-jadval**

#### **Ta'limning uzviyligini ta'minlovchi tamoyillar**

Ta'limning ustuvorligi va ilmiyligi	Ta'limning demokratlashuvi va ochiqligi	Ta'limning insonparvarvarlashuvi
Ta'limning milliy yo'naltirilganligi	Ta'lim va tarbiyaning uzviy bog'liqligi	Ta'limning ehtiyojlarga asoslanganligi
Ta'limga qadriyatli yondashuvchanlik	Ta'limning hayotiyligi va amaliy faoliyat bilan bog'liqligi	Iqtidorli yoshlarga ta'limning eng yuqori darajasida, izchil ravishda fundamental va maxsus bilim olishlari uchun shart-sharoitlar yaratilganligi
Ta'limning mustaqil ishlashga yo'naltirilganligi	Ta'limning individualligi va o'zini namoyon etishga asoslanganligi	Akmeologik yondasuv asosida kreativlikka yonaltirilganligi

Ushbu tamoyillarning o'zaro bir - biri bilan aloqadorligi asosida ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro shaxslararo munosabatlarga, muloqotga kirisha olishini tashkil etishning o'ziga xos talablari va shartlari mavjud.

Ta'lim-tarbiya jarayonida shaxslararo munobatatlarga kirishishda Bo'lajak o'qituvchilarda muloqot qilish ko'nikmasiga ega bo'lish muhim ahamiyatga ega. Bunda o'qituvchining kommunikativ kompetentligi har qanday o'quv jarayoni natijadorligini ta'minlashda yetakchi omillardan biri hisoblanadi.

Ya'ni, bo'lajak o'qituvchidan quyidagi ko'nikmalarga:

- o'quvchilar fikrini hurmat qilishni namoyish eta olishi;

- o'quvchilar fikriga ta'sir etuvchi (ishontira olish, to'g'rilash, fikrni qarama-qarish qo'yish) muloqot maneralarini tanlay olishi;

- o'quvchilarning huquqlari va hissiyotlarini hurmat qilishga hamda o'zaro munosabatlarni o'rnatishga qaratilgan (qo'llab-quvvatlash, konstruktiv, ruxlantiruvchi) muloqot shakllarini tanlay olishi;

- ta'lim jarayoni sifatini oshirish va ta'lim oluvchilarning o'quv ehtiyojlarini qondirish maqsadida o'z hamkasblari bilan AKTning turli vositalari yordamida aloqa o'rnata olishi;

- o'quvchilar bilan hamkorlik qila olishi;

- 14 - ta'lim sifatini oshirish maqsadida global tarmoqdagi turli pedagogik hamjamiyatlarda ishtirok etishi;
- o'quvchilar bilan o'zaro hurmat asosiga qurilgan munosabatlarni o'rnata olishi;
  - o'zini tutishda, o'quvchilar bilan munosabatga kirishishda, qaror qabul qilishda va resurslarni boshqarishda axloq normalariga rioya etishi;
  - milliy qadriyatlarni, shaxs erkinligi va uning mas'uliyati, ijtimoiy adolatni himoya qilaga ega bo'lish talab etiladi.

Mahoratlari o'qituvchi ta'lim jarayonida shaxslararo munosabatlarga kirishar ekan, unda mas'uliyat va moslashuvchanlik kompetentligi ham rivojlangan bo'lishi kerak.

Bugungi globallashuv jarayonida juda ko'p sohalarning rivojlanishi har tomonlama ilmiy salohiyati yuqori bo'lgan kadrlarga bog'liq bo'lib qolayotganligi, shubhasiz, albatta.

Ta'lim tizimining sifatini oshirishda xalqaro tajribalar hamda milliy dasturlarimizni integratsiyalashda o'qituvchilarning bilim va mahorati asosiy rol o'ynashini nazarda tutib, ulardagi kasbiy kompetentlik hamda pedagogik mahoratning zamon talablariga javob berishi va uning darajasini aniqlash zarur hisoblanadi. Shuning uchun ushbu mezonlarni ishlab chiqishga diqqat-e'tibor qaratish muhim vazifadir. Bunda pedagogik faoliyat bilan shug'ullanuvchilar oldiga qo'yiladigan malaka talablari aniq va tushunarli bo'lishi, ularni o'z-o'zlarini baholashlari va muvofiq ravishda o'z ustlarida muntazam ishlashlarini ta'minlashini nazarda tutib, Oliy ta'lim, fan va innovatsiya vazirligi tomonidan o'qituvchi va kasbiy ta'lim o'qituvchisining lavozim majburiyatları, vazifalari, mutaxassisligi bo'yicha ishlab chiqarish texnologiyalari, iqtisod va boshqarishni tashkil etish asoslarini bilishi, amalga oshira olishi kerakligi belgilangan. Aynan, Bo'lajak o'qituvchilarda shaxslararo munosabatlarga kirisha olish ko'nikmalarini shakllantirish zarurati eng asosiy talablardan biri bo'lib qolmoqda.

### Adabiyotlar

1. Davletshin M.G. Umumiy psixologiya. T.2002.62-bet
2. Кан-Калик В.А. Учителю о педагогическом общении. 1987.
3. Dilova N. Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarda shaxslararo munosabatlarga kirishish ko'nikmalarini shakllantirish imkoniyatlari/ "Science and Education" Scientific Journal / ISSN 2181-0842 October 2021 / Volume 2 Issue 10
4. Dilova N. G., Boltayev S. B. Ta'lim jarayonini zamonaviy yondashuvlar asosida tashkil etishda pedagog kadrlarning o'rni/ TA'LIM VA INNOVATSION TADQIQOTLAR/ 2022y. 5 son
5. Dilova N. G., Boltayev S. B. Ta'lim va tarbiya samaradorligini oshirishda pedagogik-psixologik aloqaning ahamiyati / TA'LIM VA INNOVATSION TADQIQOTLAR/ 2022y. 8 son

**Alijon Ro'ziqulovich Hamroyev**  
 Buxoro davlat universiteti  
 boshlang'ich ta'lif kafedrası  
 professori, pedagogika fanlari doktori (DSc)  
 a.r.hamroev@buxdu.uz

## **BOSHLANG'ICH SINF ONA TILI TA'LIMIDA O'QUVCHINI FAOLLASHTIRISH METODIKASI**

**Annotatsiya.** Maqolada boshlang'ich sinf ona tili ta'limi jarayonida kognitiv-pragmatik usul elementlaridan foydalanish, ona tili darslarida o'quvchilarning tafakkurini o'stirish va uning yo'nalishlari xususida fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** ona tili ta'limi uzlusizligi, ona tili ta'limi mazmuni, o'quvchilar tafakkuri, fonematik eshitish, orfografik malaka, prosodik malaka, ijodiy topshiriqlar, nutq madaniyati.

### **МЕТОДИКА АКТИВИЗАЦИИ УЧАЩЕГОСЯ В НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЕ ПО ОБУЧЕНИЮ РОДНОМУ ЯЗЫКУ**

**Аннотация.** В статье рассматривается использование элементов познавательно-прагматического метода в процессе обучения родному языку в начальных классах, развитие мышления учащихся на уроках родного языка и его направления.

**Ключевые слова:** непрерывность обучения родному языку, содержание обучения родному языку, мышление учащихся, фонематический слух, орфографическая компетентность, просодическая компетентность, творческие задания, культура речи.

### **THE METHODOLOGY OF ACTIVATING A STUDENT IN PRIMARY SCHOOL TO TEACH HIS NATIVE LANGUAGE**

**Annotation.** The article examines the use of elements of the cognitive-pragmatic method in the process of teaching the native language in primary grades, the development of students' thinking in the lessons of the native language and its directions.

**Keywords:** continuity of native language teaching, the content of native language teaching, students' thinking, phonemic hearing, spelling competence, prosodic competence, creative tasks, speech culture.

Mustaqillik yillarda ona tili o'qitish metodikasi fani beqiyos darajada rivojlandi. Shu yillar ichida ona tili o'qitish metodikasidan qator dissertatsiyalar himoya qilindi. Bu tadqiqotlarda ona tili o'qitish metodikasiga oid muammolar nazariy va eksperimental o'rganilgan: A.Y.Bobomurodova(1)ning olib borgan izlanishlarida ona tili ta'limida o'yin-topshiriqlardan foydalanish, T.U.Ziyadova(2)ning dissertatsiyasida ona tili ta'limining o'quvchilar nutqini o'stirish imkoniyatlari atroflicha tahlil qilingan. Ona tilidan o'quvchilar tafakkurini rivojlantirishga oid tadqiqotlar ham mavjud. M.S.Saidov(3) bolalar tafakkuriga mo'ljalab tuzilgan o'quv topshiriqlarini ona tili ta'limiga tatbiq qilish yo'llarini o'rgandi, bu yo'nalishda aniq tavsiyalar berdi. T.T.G'aniev(4) ona tilidan mashq bajarish jarayonida o'quvchilarning bilish faolligini oshirish masalasini tahlil qilgan. E'tiborlisi shundaki, ona tili ta'limining samaradorligini oshirish tadqiqotchilarning diqqati markazida turgan, ammo bilimni o'quvchiga yetkazishda qanday yo'l tanlash, o'quvchini ijodkor shaxs etib tarbiyalash muammosiga yetarli ahamiyat berilmagandek tuyuladi. Jumladan, uzlusiz ta'limning o'rta bosqichida ona tili ta'limini induktiv mohiyatli kognitiv-pragmatik metodga asoslanib o'qitish allaqachon yo'lga qo'yilgan. Ammo boshlang'ich ta'lim bo'g'ini hali ham deduksiyaga tayanadigan retroskopiya (reproduktiv,

**16** ko'rgazmali bayon) usulida qolib ketmoqda. To'g'ri, savod, imlo, bilim va zamonaviy fanlar alifbosini beradigan boshlang'ich ta'lim bo'g'inida retroskopik usul yetakchilik qilmog'i shart. Biroq, nazarimizda, ta'limda uzlusizlikni ta'minlash uchun boshlang'ich sinfdan boshlab o'quvchilarga kognitiv-pragmatik metod asosida o'rgatishning elementlaridan foydalanib borish vaqtি keldi deb o'yaymiz. Chunki o'quvchining tafakkurini rivojlantirish zamonaviy ta'limning bosh maqsadi sanaladi. Bu talab dastur va DTSda ham o'z ifodasini topgan. Bu esa amaldagi darsliklar mazmunini qisman yangilash vazifasini qo'yadi. Hozirgi kunda boshlang'ich sinflarda ona tili ta'limi mazmuni to'rt yo'nalishdagi bilimlarni o'z ichiga oladi. Bular quyidagilar:

**Birinchi yo'nalish.** Ona tili qurilish birliklari haqida elementar bilimlarni o'zlashtirish. Bunda o'quvchilar nutq tovushi va harf to'g'risidagi dastlabki bilimlarni, unli va undosh tovush, jarangli va jarangsiz undosh, bo'g'in, ochiq va yopiq bo'g'in, bo'g'in ko'chirish qoidalariga oid axborotlarni o'rganadi. Shuningdek, so'z va uning ma'nolarini farqlashga oid, so'z ma'nolari va so'roqlariga ko'ra guruhlash - ot, sifat, son, fe'l so'z turkumlari haqida ilk tasavvurlarga ega bo'ladi.

**Ikkinchchi yo'nalish.** Ona tilidan ilk ilmiy axborotlarni o'zlashtirish nutq ko'nikmalarini shakllantirish bilan uzviy aloqadorlikda o'rgatiladi. Ona tilida so'zlash va aytilganlarni yozuv vositasida qayd etish, gapirish va eshitish, fikrni nutq vositasida ro'yobga chiqarish ehtiyoji o'quvchilarda turli nutq ko'nikmalarini shakllantirish, ularni malaka darajasiga ko'tarish imkoniyatlarini yuzaga chiqaradi. Boshlang'ich sinflarning ona tili o'quv predmeti bo'yicha hosil qilinadigan ko'nikma-malakalar quyidagi guruhlarga ajratib tahlil qilinadi.

1. Fonematik eshitish malakalari-nutq tovushini so'z tarkibida to'g'ri ijro etish va eshitish, nutq tovushlariga ko'ra so'z ma'nolarini farqlash, urg'uli va urg'usiz bo'g'lnlarni talaffuz qilish, so'zlarni bo'g'linlar ketma-ketligida aytish va eshitish layoqatlari.

2. Grafik malakalar-har bir nutq tovushini o'ziga xos harf va belgilar bilan yozish demak.

3. Orfografik malakalar – so'z va uning tarkibiy qismlari – o'zak va negizni, yasovchi, turlovchi, tuslovchi qo'shimchalarni, ajratib va qo'shib yoziladigan so'z, so'z birikmalarini, atoqli otlarni orfografik qoidalar asosida yozish.

4. Uslubiy malakalar – so'z va uning tarkibiy qismlarini matnda ortiqcha takrorlamasdan, gap tarkibida gap bo'laklari tartibiga rioxaya qilib, matnni shakllantirish.

5. Tinish belgilarni yozma nutqda to'g'ri ishlatish malakalari – boshlang'ich sinflarning dasturlari hamda Davlat ta'lim standartlarida ko'zda tutilgan nuqta (.), so'roq (?), undov(!), vergul (,) kabi belgilarni matnda to'g'ri ishlatish va matnni jonlantirish, ya'ni o'qish paytida ularga rioxaya qilgan holda faoliyatni amalga oshirish.

6. Prosodik malakalar – nutq tempi, ovozning past-balandligi, diksiya, ohangga rioxaya qilib o'qish, gapirish malakalari.

**Uchinchi yo'nalish.** Ijodiy faoliyat tajribasini rivojlantirish. Bola ona tili vositasida ijtimoiy tajriba va uni o'zlashtirish vositalarini egallaydi.

**To'rtinchi yo'nalish.** Tilga, til orqali til ijodkori bo'lgan – xalqqa munosabatni shakllantirish. Bu yo'nalish boshlang'ich sinf ona tili ta'limida yetakchi bo'lib, bolalarda til bilimlari asosida dunyoqarashni, tabiat va jamiyat hodisalariga munosabatlarni tarbiyalashni taqozo qiladi.

Yuqorida izohlangan yo'nalishlarga rioxaya qilib, boshlang'ich sinf ona tili ta'limi mazmunini ijodiy o'zlashtirish jarayonini boshqarish mumkin. Buning uchun boshlang'ich sinf ona tili predmeti mazmunini tahlil qilishga ehtiyoj tug'iladi. Boshlang'ich sinf ona tili ta'limi jarayoniga kognitiv-pragmatik usul elementlarini kiritish muammosi haligacha nazariy va amaliy jihatdan maxsus o'rganilmagan. Boshlang'ich sinflarda ona tili ta'limi jarayonini kognitiv-pragmatik usul elementlari asosida tashkil etishning maqsadi, vazifa va imkoniyatlari haligacha tahlil qilinib, kompleks o'rganilmagan; boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilish imkoniyatlariga mos va boshlang'ich sinf ona tili ta'limi mazmuniga muvofiq ijodiy topshiriqlarning samaradorligi nazariy hamda amaliy jihatdan tahlil qilinmagan. Ona tili ta'limida ijodiy va noijodiy o'quv topshiriqlarini o'zaro farqlash imkoniyatlari mavjudmi? Boshlang'ich sinf ona tili ta'limi jarayoniga kognitiv-pragmatik usul elementlarini kiritish orqali o'qitishda quyidagilarga alohida e'tibor qaratish zarur:

1. Boshlang‘ich sinf ona tili ta’limi jarayonida kognitiv-pragmatik usul elementlari asosida o‘qitish — o‘ziga xos nazariy va amaliy asosga, ya’ni o‘z maqsadi, tamoyillari, usullariga ega mustaqil tizim.

2. Boshlang‘ich sinf ona tili ta’limi jarayonida kognitiv-pragmatik usul elementlarini kiritish asosida o‘qitish bolalarning ichki affektlari—emotsiya, motiv, qiziqishlarini rag‘batlantirishga mo‘ljallab o‘tkaziladi.

3. Boshlang‘ich sinf ona tili ta’limi jarayoniga kognitiv-pragmatik usul elementlarini kiritish o‘quvchilar tafakkuri va mustaqil fikrlash layoqatlarini o‘stirishning yetakchi vositasidir.

4. Boshlang‘ich sinf ona tili ta’limiga kognitiv-pragmatik usul elementlarini kiritish ta’lim jarayoni samaradorligi, bolalar o‘zlashtirishining sifatini yaxshilashga olib keladi.

Maktabda ona tili ta’limining asosiy vazifalaridan biri o‘quvchilarda nutq madaniyatini tarkib toptirishdir. Madaniy nutq milliy tilning o‘ziga xosligi, ma’no jihatidan aniqligi, so‘zlarning rang-barang, turli-tumanligi, badiiy ifodaliligi bilan ajralib turadi. Madaniy nutqning og‘zaki shakli adabiy tilning orfoepik me’yorlariga, yozma shakli orfografiya, uslub kabi me’yorlariga mos bo‘lishi lozim.

Nutq madaniyati adabiy til me’yorlari ustida o‘quvchilarning aqliy va amaliy faoliyatini tashkil etish natijasida shakllanadi. Hamma tomonidan e’tirof etilgan, shu tilda so‘zlovchilarning barchasi riousa qilishi lozim bo‘lgan qonun-qoidalar adabiy til me’yorlari hisoblanadi. Adabiy til me’yorlariga ma’lum tilda mavjud so‘zlar, so‘zlarning qurilishi, so‘z yasash va so‘z o‘zgartirish modellari, so‘z birikmasi, so‘zni nutqda to‘g‘ri qo‘llash qoidalari kiradi.

Tilning mohiyati uning inson faoliyati ekanligida. Nutq faoliyati bir individning o‘z mulohazalari, istak va talablarini ikkinchi individga uzatishi, ikkinchi individning esa birinchisining fikrlarini tushunib olishi, uning talablariga tasdiq yoki inkor shaklida javob qaytarishi bilan xarakterlanadi. Demak, nutq faoliyatida ikki shaxs: xabar uzatuvchi—gapiruvchi va qabul qiluvchi—tinglovchi ishtirot etadi.

Nutq faoliyati jarayonida so‘zlovchi ham, tinglovchi ham so‘z, so‘z birikmasi va gapga tayanadi. So‘z, so‘z birikmasi va gapning “aytilish” xususiyati so‘zlovchiga, “eshitilish” xususiyati tinglovchiga xizmat qiladi. “Aytilish” va “eshitilish” ma’noli jarangdorlik bo‘lib, u tilning birinchi shakli – og‘zaki nutqdir. So‘zning ko‘riladigan (yozuv) va o‘qiladigan xususiyati tilning ikkinchi shakli–yozma nutqdir.

Ta’limda og‘zaki va yozma nutqining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish, ularning o‘zaro aloqadorligiga riousa qilish nihoyatda zarur. Grammatika mashg‘ulotlarida nutq maqsadiga muvofiq so‘z tanlash yo‘llarini o‘quvchilarga o‘rgatish, so‘zlarning ma’nolarini ochish orqali bolalar to‘g‘ri nutq tuzish sirlarini egallay boradilar. O‘quvchi nutq maqsadiga muvofiq so‘zlarini qancha tez tanlay olsa, nutq faoliyatida shuncha faol qatnashshadidi. Maktab grammatikasini izchil o‘rganish natijasida o‘quvchilarning nutq jarayonida faol qatnashishlarini ta’minlaydigan nutq qobiliyatları tarkib topadi. Nutq qobiliyati nima? Hozirgi zamon psixologiyasi o‘rganayotgan muammolardan biri shaxs qobiliyati masalasıdır. Shaxs psixologiyasiga ko‘ra, qobiliyat inson faoliyati talablariga javob bera oladigan shaxsiy individual xususiyatlarning ansamblı yoki sintezidir. Nutq qobiliyati inson qobiliyatining bir ko‘rinishi sanaladi. Tilni muvaffaqiyatli o‘zlashtirish uchun zaruriy qobiliyatlarini o‘rganib chiqish va shu qobiliyatlar rivojiga bevosita ta’sir etadigan o‘qitish tizimini yaratish ona tili ta’limi sohasida eng dolzARB muammo hisoblanadi.

Boshlang‘ich sinf ona tili ta’limi jarayonini kognitiv-pragmatik usul elementlari ijodiy ta’lim kontekstida tashkil etish talab etiladi. Bu esa o‘qitishning samaradorligini oshirish, yoshlarni hayot, ishlab chiqarish va ijtimoiy munosabatlarga tayyorlashning sifatini yaxshilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ammo shunga qaramasdan, fan mutaxassislari, shuningdek, maktab o‘qituvchilari orasida ijodiy ta’limni noijodiy ta’limdan farqlash sohasida tushunmovchiliklar, ularning o‘zaro tafovutlarini ajratishda kamchiliklar ko‘zga tashlanadi. Shundan bo‘lsa kerak, o‘quvchilarga beriladigan mustaqil ishlarning barchasi ijodiy ish sifatida qabul qilinadi. Yana bir munozarali muammo – ijodiy ishni noijodiy ishdan farqlash masalasıdır. Bulardan ko‘rinadiki, boshlang‘ich sinf ona tili ta’limi jarayoniga kognitiv-pragmatik usul elementlarini kiritish metodik

18 hodisadir. Boshlang‘ich sinf ona tili ta’limi jarayonida kognitiv-pragmatik usul elementlarini qo’llash - bu:

-ta’limda o‘quvchi maqomini o‘zgartirish, uni ta’lim jarayoni sub’ektiga aylantirish;

-ta’limni me’yoriy ta’limlar doirasidan chiqib o‘tkazish,

-o‘quvchilar faoliyatini bilim, ko‘nikma-malaka, ijodiy faoliyat tajribasi, munosabatlar kompleksiga yo‘naltirish;

- ta’limni o‘ziga xos maqsad, vosita, natija, motivlarni ko‘zlab tashkil etish;

-ta’limni tafakkurga mo‘ljallab o‘tkazish;

-o‘quvchilar o‘zlashtirishini istiqbol (kelajakda ijodiy tafakkuri rivojlangan shaxs bo‘lib yetishishi)ga yo‘naltirish demakdir.

Kognitiv-pragmatik ta’lim usulida ta’lim jarayoni sub’ekti – faol o‘rganuvchisi, ta’lim tizimi markazi - o‘quvchi. O‘quvchiga o‘rgatilmaydi, u o‘rganadi va ta’lim jarayonining hamma tarkibiy qismlari mana shunga muvofiqlashtirilishi lozim. Demak, ona tili darslari ham tafakkur, fikrlash darslari, bilim durdonalarini olishga ehtiyoj – izlanish, topish, tahlil qilish va qo’llash – foydalanish darslari bo‘lmog‘i zarur. Kognitiv-pragmatik ta’lim usuli elementlaridan boshlang‘ich sinf ona tili darslarida foydalanish kerak. Bu 7-11 yoshli bolalarda ijod va bunyodkorlikka alohida qiziqish bilan ona tilining ichki imkoniyatlari asosida mustaqil fikrlash, izlash, topish va topganlaridan sharoitga mos va samarali ravishda mustaqil foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish zarurati bilan uzviy bog‘liqdir.

Boshlang‘ich sinf ona tili ta’limi jarayoniga kognitiv-pragmatik usul elementlarini kiritish – bu o‘quvchilarning tashabbuskorligi, mustaqilligi va fikrlashiga asoslangan ongni rivojlantirishga qaratilgan, ijodiy fikrlaydigan va o‘z fikrini ravon bayon qiladigan shaxsni shakllantiradigan ona tili ta’limini joriy qilish demakdir.

### **Adabiyotlar**

1. Bobomurodova A.Y. Ona tili ta’limi jarayonida o‘yin-topshiriqlardan foydalanish. Ped. fanl. nomz. ilm. daraj. olish uchun yozilgan dissertatsiya. –T.: 1996. -145 b.
2. Ziyadova T.U. Ona tili ta’limi jarayonida o‘quvchilarning so‘z boyligini oshirish. Ped. fanl. nom. ilm. daraj. olish uchun yozilgan diss. –T.: 1995. -161 b.
3. Saidov M. O‘zbek maktablarining 5-sinfida ona tili ta’limi jarayonida tafakkurni rivojlantiruvchi o‘quv topshiriqlari va ulardan foydalanish metodikasi. Ped. fanl. nom. ilm. daraj. olish uchun yozilgan diss. –T.: 2000. -147 b.
4. G‘aniev T.T. Ona tilidan mashq bajarish jarayonida o‘quvchilarning bilish faolligini oshirish. Ped. fanl. nomz. ilm. daraj. olish uchun yozilgan diss. –T.: 1991. -194 b.

G‘ayrat Muhammedovich Salimov  
Buxoro davlat universiteti professori,  
pedagogika fanlari nomzodi

## **MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA HARAKAT FAOLLIGINING TURLI SHAKLLARIDAN FOYDALANISH**

**Annotatsiya.** Maqolada maktabgacha ta'lismuassasalarida bolalarning harakat faolligining turli shakllaridan foydalanish masalasi tadqiq etilgan va bu borada xorij tajribasidan kelib chiqib, muammoni yoritishga harakat qilingan, mazkur tizimni yaxlit uzlusiz ta'limgizining muhim bo'g'ini sifatida yanada takomillashtirish yo'lida turli taklif va tavsiyalar o'rta ga tashlangan.

**Kalit so'zlar:** maktabgacha ta'lism, yosh bolalar, harakat faolligi, jismoniy ko'nikmalar, mashqlar, harakatlari o'yinlar.

### **ИСПОЛЬЗОВАНИЕ РАЗНЫХ ФОРМ АКТИВНОСТИ ДЕЙСТВИЙ В ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ**

**Абстрактный.** В статье исследован вопрос использования разных форм двигательной деятельности детей в дошкольных образовательных учреждениях, в связи с этим на основе зарубежного опыта предпринята попытка внести ясность в проблему, а также выдвинуты различные предложения и рекомендации для того, чтобы дальнейшее совершенствование этой системы как важного звена интегрированной системы непрерывного образования.

**Ключевые слова:** дошкольное образование, дети раннего возраста, двигательная деятельность, физические умения, упражнения, двигательные игры.

### **THE USE OF DIFFERENT FORMS OF ACTIVITY IN PRESCHOOL EDUCATIONAL INSTITUTIONS**

**Abstract.** The article examines the issue of using different forms of motor activity of children in preschool educational institutions; in this regard, on the basis of foreign experience, an attempt was made to clarify the problem, and various proposals and recommendations were put forward in order to further improve this system as an important link in an integrated system continuing education.

**Key words:** preschool education, young children, motor activity, physical skills, exercises, motor games.

**Kirish.** Maktabgacha ta'limgizining muhim bo'g'ini sifatida yanada takomillashtirish, maktabgacha ta'lismuassasalari tarmog'ini kengaytirish hamda moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ularni malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni har tomonlama intellektual, ma'naviy-estetik va jismoniy rivojlantiruvchi zamonaviy ta'limgizining dasturlari va texnologiyalarini ta'limgizning tarbiya jarayoniga joriy etish, ularning maktabga tayyorlarlik darajasini tubdan oshirish maqsadida tadqiqotlar yaratish bugungi kunda dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Kelajagimiz bo'lgan bolalarning sog'ligini mustahkamlash va jismoniy jihatdan to'liq rivojlantirish uchun harakat faolligining turli shakllaridan foydalilanadi. Qo'yilayotgan vazifaga bog'liq holda bolalarning yoshidagi o'ziga xosliklar va boshqa shartlar bolalar faoliyatining shakllari sifatida aniqlanadi. Masalan, yilning issiq vaqtida ko'pincha bolalarga turli sport o'yinlarning elementlarini, shu bilan birga velosiped va samokatda sayr qilish

20 kabilardan foydalanish tavsiya etiladi. Qishda esa o'yinlar maktabgacha ta'lim muassasalarida sport zalida o'tkaziladi. Ba'zan qor yoqqanda qorbo'ron o'ynash mumkin.

"Ilk qadam" Davlat dasturida ham bolaning jismoniy rivojlanishiiga katta ahamiyat qaratilgan, shu bilan birga bolaning kompetensiyalari bola organizmi rivojining sohalarini belgilashda bиринчи о'rinda "jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzining shakllanishi" ga e'tibor qaratiladi [2, 21]. Shunday ekan, o'quv rejasida qo'yilgan jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini sonini haftasiga 5 kunga ko'paytirish lozim. Jismoniy mashqlar, toza havoda jismoniy mashg'ulotlar, sport o'yinlari elementlari va mashqlar, sayrda jismoniy mashg'ulotlar, harakatli o'yinlar va mashqlar, jismoniy mashg'ulotlar (sport zali yoki toza havoda) va bolani jismoniy jihatdan sog'lom qilishga qaratilgan harakatli o'yinlar va mashqlar sonini ko'paytirish kerak.

Xorij tajribasi fikrimizni isbotlashga yordam beradi. Masalan, Bolgariyada maktabgacha yoshdag'i bolalarni tarbiyalash bo'yicha davlat dasturi mavjud. Maktabgacha ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya - sport bayramlarini tashkil etish va o'tkazish, suzish mashg'ulotlari, chiniqtirishga katta e'tibor qaratilgan.

Buyuk Britaniyada ta'lim bolaning individualligini, uning turli xil faoliyat turlarini o'zlashtirishdagi mustaqilligini rivojlantirishga qaratilgan. Buyuk Britaniya bino ichida "bolalar bog'chasi" juda xilma-xil jihozlar va materiallarga ega, jumladan, suvli vanna, unda suzuvchi o'yinchoqlar va suv tegirmonlari kabi maxsus "suv o'yinchoqlari" mavjud; quruq va ho'l qum qutilari qum va bolaning aqliy va jismoniy rivojlanishiga hissa qo'shadigan ko'plab boshqa materiallarr.

Buyuk Britaniyada maktabgacha yoshdag'i bolalarning jismoniy tarbiya darslarida asosiy mashg'ulotlari gimnastika, raqs va ochiq o'yinlardir.

Xitoya jismoniy qobiliyatlarni rivojlantirishga katta e'tibor beriladi. Maktabga tayyorgarlik jarayonida jismoniy tarbiyaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: optimal jismoniy rivojlanishga ko'maklashish; intizom kabi ijtimoiy fazilatlarni shakllantirish,adolat, mas'uliyat, halollik, hamkorlik; asosiy vosita ko'nikmalarini va xavfsizlik qoidalari tushunchasini rivojlantirish; sportga qiziqish va muhabbatni shakllantirish. Bolalar bog'chasi o'quvchilarining jismoniy faoliyatining asosiy turlari - ochiq o'yinlar, gimnastika, raqs, yugurish, sakrash, uloqtirishdan iborat [10].

Germaniyada bolalar bog'chalarida rejalshtirilgan va yaxshi jihozlangan markazlar - rol o'ynash, syujet, rejissyorlik o'yinlari, loyihalash va eksperimentlar uchun xonalar bo'lishi taxmin qilinmoqda. Jismoniy tarbiya mashg'ulotlari uchun zal ajratilgan. Jismoniy tarbiya darslarida ko'chma o'yinlar, gimnastika, yugurish, sakrash, uloqtirish, ko'pincha suv o'yinlari va suzish darslari dasturga kiritilgan. Bolalar bog'chalaridan birida tajriba sifatida darslar joriy etilgan.

Amerikalik mutaxassislar maktabgacha yoshdag'i jismoniy tarbiyaning asosiy maqsadi bolaning barkamol rivojlanishiga yordam berishdir, deb hisoblashadi. Jismoniy tarbiya maktabgacha yoshdag'i bolalarning psixomotor, aqliy va hissiy rivojlanishiga hissa qo'shishi kerak. Qo'shma Shtatlardagi maktabgacha jismoniy tarbiya dasturining asosiy jihatlari psixomotor ko'nikmalarini shakllantirish, ochiq o'yinlar, tayoq, raqs, jismoniy tayyorgarlik, suv o'yinlaridan iborat.

Finlyandiyada, 1984 yil tavsiyalariga ko'ra, maktabgacha yoshdag'i bolalar uchun jismoniy tarbiya dasturi gimnastika, musiqa mashqlari, ochiq va sport o'yinlari, chang'i, konkida uchish, suzish bo'yicha darslar, dam olish uchun orientiratsiya kabi turlarni o'z ichiga oladi.

Fransiyada kichik yoshdag'i bolalarni tarbiyalash o'yin faoliyatini, sezgi organlarini va harakat qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan. Darslar jadvalida ko'p vaqt jismoniy tarbiya, musiqaga bag'ishlangan.

Yaponiyada jismoniy tarbiya dasturida bolalar bog'chalarida Ta'lim quyidagi jismoniy faoliyat turlarini o'z ichiga oladi:

- 1) yurish, chopish, sakrash;
- 2) otish, surish, tortish, dumalash;
- 3) yugurish, sakrash, nishonga uloqtirish bo'yicha musobaqalar;
- 4) jamoaviy ochiq o'yinlar;

5) to‘plar, arqonlar va boshqa qurilmalar bilan o‘yinlar;

6) ritm.

Yaponiyada maktabgacha jismoniy tarbiya vazifalari quyidagilardan iborat: vosita va aqliy rivojlanish, shakllantirish tomon yaxshi niyat muhit va intizom [4,115].

Xorijiy davlatlar maktabgacha ta’lim tizimining tahlili shuni ko‘rsatadiki, ko‘rsatilgan mamlakatlar maktabgacha ta’lim tizimida jismoniy tarbiyaga katta e’tibor qaratilgan. Shuning uchun mustaqil yurtimizda ham bolalar jismoniy tarbiyasining samaradorligini oshirish uchun MTMlар tarbiyachisining kunlik ish rejasiga jismoniy tarbiyaning turli shakllarini kiritish zarurligi yaqqol ko‘rinmoqda. Va bu orqali bog‘cha yoshidagi bolalarning jismoniy tarbiyaga qiziqishini ham oshirish mumkin bo‘ladi. Haftalik reja barcha rivojlanish sohalari bo‘yicha maqsadlarni belgilash, tegishli markazlarni tayyorlash, mashg‘ulotlarni hafta mavzusiga mos ravishda taqsimlashga yo‘naltirilgan. Hafta mavzusi barcha erkin faoliyat markazlari orqali o‘tishi lozim. Haftalik rejada guruhdagi va sayr vaqtidagi didaktik va harakatli o‘yinlar rejalashtiriladi. Bolalar bilan olib boriladigan ishning mazmuni va izchilligi faoliyat turi (faol faoliyat/ passiv faoliyat; individual faoliyat/ kichik guruhda, katta guruhda; tarbiyachi rahbarligi ostida o‘tadigan faoliyat/ bola rahbarligi ostida o‘tadigan faoliyat) va uni o‘tkazish joyi (xona ichidagi faoliyat/ ko‘chadagi faoliyat)ni hisobga olgan holda rejalashtirilishi kerak.

Haftalik reja xilma-xil va moslashuvchan bo‘lishi lozim. Boshqacha aytganda, ob-havo o‘zgarishi va bolaning qiziquvchanligini hisobga olgan holda, rejalashtirilayotgan faoliyat boshqasiga almashtirilishi yoki faollik vaqt biroz ko‘proq yoxud kamroq vaqtga mo‘ljallanishi mumkin. Masalan, agar tarbiyachi bahorda gullagan boqqva borishni rejalashtirgan bo‘lsa-yu, ob-havo juda yomg‘irli bo‘lsa, bu tadbirni xonada o‘tkazishning imkonini bo‘lgan boshqa tadbirga almashtirishi mumkin.[ 2,24].

“Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi namunasi asosida \_\_\_\_ yoshgacha bo‘lgan bolalar bilan o‘tkaziladigan jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari rejasi”da “Jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzini shakllantirish” ga dushmanba kuni, “ To‘g‘ri usullar bilan yurishga, yugurishga o‘rgatish”ga esa chorshanba kuni belgilangan. Bizningcha, jismoniy tarbiyasining samaradorligini oshirish, bolalarni yoshligidan sog‘lom va baquvvat qilib tarbiyalash uchun rejaga o‘zgartirish kiritish kerak bo‘ladi. Chunki O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning “Kichik yoshdagи bolalarni tarbiyalash va ta’lim berish bo‘yicha butunjahon konferensiysi”dagi nutqida shunday deyiladi.“ Bu borada, avvalambor, yoshlari va bolalarga e’tibor va amaliy g‘amxo‘rlik ko‘rsatish, ularni jismoniy va ma’naviy barkamol etib tarbiyalashga alohida ahamiyat qaratmoqdamiz. Bolalarni kichik yoshdan boshlab rivojlantrish, ularning

o‘qishi uchun munosib shart-sharoitlar yaratish orqali kelajakda yoshlarning o‘zligini to‘la namoyon etishiga mustahkam zamin yaratyapmiz. Zero, bu ezgu maqsadimiz yo‘lida sarflangan investitsiyalar ertaga bir necha barobar ortig‘i bilan qaytishiga shubha yo‘q” [1].

Rus olimi V.Frolov hafta davomida rejalashtirilgan jismoniy mashg‘ulotlarga alohida e’tibor qaratadi. Shundan kelib chiqib, o‘yinlar va jismoniy mashqlarni quyidagicha almashtirib foydalanish mumkin:

1.Dushmanba – sport zali yoki toza havoda jismoniy mashg‘ulotlar; (O‘z joyingizni top o‘yini)

O‘yinlar nomi	Dastlabki holat	Bajarish	Takrorlash
O‘z joyingizni top o‘yini	Bolalar birin-ketin to‘siqlarni yengib o‘tishadi	Ular gimnastika skamey kasi bo‘ylab o‘tishadi, gardish (obruch)orasidan o‘tishadi va qaytishda skameyka orasidan "ilon shaklida" o‘tkazishadi va o‘z joyini egallaydi.	3-4 marta
"Darvozaga kiring" o‘yini.	Qo‘llarida to‘p bo‘lgan bolalar 3-4 ta qatorga saflanadilar va chiziq oldida turadi..	Chiziqdan 3 m masofada, kublarning har bir ustuni qarshisida darvoza yotqizilgan. Bolalar birin-ketin to‘pni	

22

		darvozaga aylantiradilar. Har kim mashqni bajarib bo'lgach, darvozaga urilgan to'plar soni hisoblanadi, bu g'olib ustunni aniqlaydi Bolalar to'plarni olishadi va o'yin davom etadi.	
--	--	--	--

2.Seshanba – sport o'yinlari elementlari va mashqlar -ertalabki sayrda (haftaning qolgan kunlari kechki sayrda);

O'yinlar nomi	Dastlabki holat	Bajarish	Takrorlash
"Gardish sakrash" poygasi	Barcha ikkita bo'lingan vaqtning orqali ustunlar estafeta joylashgan. Har bir yugurib, uning markazida turing, ustun oldida 3 va 5 uni qo'llari bilan oling, boshdan metr masofada ikkitayuqoriga turadi.	Rahbarning ishorasi bilan har bir jamoaning birinchi o'yinchilari birinchi gardishga yuguradilar, jamoagauning oldida to'xtaydilar, uni ikki bo'lingan va qo'li bilan olib, boshlari ustiga o'zidako'taradilar, gardishni o'zlariga bo'ylab qo'yadilar; ikkinchi halqaga yugurib, uning markazida turing, ustun oldida 3 va 5 uni qo'llari bilan oling, boshdan metr masofada ikkitayuqoriga turadi. Shundan so'ng, gardish birin-ketintushiriladi. Vazifani birinchi bo'lib bajargan jamaa g'alaba hisoblanadi.	3-4 marta

3. Chorshanba - sayrda jismoniy mashg'ulotlar;

O'yinlar nomi	Dastlabki holat	Bajarish	Takrorlash
Yalmog'iz kampir	Ohak sifatida oddiy chelak, supurgi sifatida ishlatalidi	Ishtirokchi bir oyog'i bilan chelakda turadi, ikkinchisi yerda qoladi. Bir qo'li bilan chelakni tutqichidan, ikkinchi qo'lida shvabrani ushlab turadi. Bu holatda, butun masofani bosib o'tish va ohak va supurgini keyingi ishtirokchiga o'tkazish kerak	3-4 marta

4.Payshanba -harakatli o'yinlar va mashqlar sayr vaqtida; ("Boshdan do'ppini olish" o'yini , "Quvlashmachoq" o'yini)

O'yinlar nomi	Dastlabki holat	Bajarish
Tez poezd	Bayroqlar har bir jamoadan 6-7 metr masofada joylashtiriladi.	"Mart!" buyrug'i bilan. tez qadam bilan birinchi o'yinchilar (yugurish taqiqlangan) o'z bayroqlari oldiga boradilar, ularni aylanib o'tadi lar va ustunlarga qaytadilar, u yerda ikkinchi o'yinchilar ularga qo'shila di va ular birligida yana bir xil yo'lni qiladilar va hokazo. O'yinchilar bir-birlarini tirsaklaridan ushlab, yurish paytida qo'llarini lokomotiv bog'lovchi tayog'i kabi harakatga keltiradilar. Old o'yinchi - lokomotiv - to'liq to'ldiruvchi bilan joyga qaytganda, u uzoq hushtak chalishi kerak. Stansiyaga birinchi kelgan jamaa g'alaba hisoblanadi.

5.Juma – jismoniy mashg‘ulotlar ( sport zali yoki toza havoda).

<b>To‘p bilan pingvin</b>	Ikkita jamoa bir vaqtning o‘zida ustunlarga joylashadi. Ularning oldiga 10 qadam joyda bayroq qo‘yishadi	Jamoalarning birinchi raqamlari voleybol to‘pini oladi. Uni tizza lari orasiga olib, sakr ashda harakatlanib, ular bayroqqa shoshilishadi, uni o‘ngga aylantirib, orqaga qaytishadi. To‘plar ikkinchi o‘yinchilarga, keyin uchinchisiga va hokazolarga uzatiladi. O‘yinni birinchi bo‘lib yakunlagan jamoa g‘alaba hisoblanadi. Bolalar o‘rgatilganda, o‘yinni qiyinlashtirishi mumkin: har bir kishi ikkita to‘p bilan harakatlanishi kerak - biri tizzalari orasiga, ikkinchisi esa qo‘llarida ushlab turishi kerak.	2-3marta
<b>BARGLAR</b>	Orqa tarafingiz da yotib, qo‘llar bo‘sh	qorningizda ag‘daring	5-6marta
<b>VELOSIPED</b>	Orqa, qo‘llar va oyoqlarda yotish	Oyoqlarni tizzada egish va yechib olish - "keling, velosipedda yuramiz"; oyoqla ringizni pastga tushiring.	2-3 marta, nafas olish mashqlari bilan almash tiriladi

### **Ertalabki mashqlarga kiritilgan mashqlar quyidagilar bo‘lishi kerak.**

- Bolalarga tanish va ular tomonidan yaxshi o‘rganilgan mashqlar.( tekislan, shamol daraxtlarni tebratadi,barglar)
  - Tuzilishi sodda, muvofiqlashtirish oson mashqlar.(G‘ozlar, qushlar, quyonchalar)
  - Ular, albatta, qulay, oyoq kamarini shakllantirishga qaratilgan mashqlar. (tizza qaerda, keling sinaylik)
  - Nafas olish mashqlarini, sakrashlarni o‘z ichiga oladi mashqlar.(to‘plar, biz qo‘ziqorinlarni yig‘amiz)
  - Chaqqonlik, moslashuvchanlik, kuchni rivojlantirish bo‘yicha mashqlar yoshga qarab asta-sekin kiritilishi kerak.( oyoqlar yuradi,velosiped)

Ertalabki mashqlar uchun qo‘llanmalar faqat bolalar tomonidan yaxshi o‘zlashtirilganlardan foydalaniladi.(qo‘shningizni ko‘rsating,sharik, oynada qo‘shningizni ko‘rsat)

Hafta davomida boshqa jismoniy mashg‘ulotlar bilan almashtirish mumkin.Bundan tashqari har kuni harakatlari o‘yinlar o‘tkazib turish kerakligini ham unutmaslik lozim.

### **Jismoniy tarbiya, ertalabki mashqlar uchun mashqlar to‘plamini tuzishda siz ma’lum mashqlar ketma-ketligiga rioya qilish kerak.**

- Orqa tomonni to‘g‘rilash va egilish bilan hatlash.
- Qo‘llarning dumaloq va uchish harakatlari.
- Tananing oldinga, orqaga, yon tomonga egilishi va dumaloq harakatlar.
- Boshning egilishi va dumaloq harakatlari.
- O‘tirgan va yotgan holatda oyoqlarni ko‘tarish (yoki oyoqlari mahkamlangan holda ).
- Oyoqlarini silkitib (oldinga, orqaga, yon tomonga).
- Sakrashlar.
- Joyida yurish va yugurish.

24 ➤ Jismoniy mashg‘ulotlar bolaning yurak-tomir, nafas olish tizimi, muskul va boshqa muhim organlarining rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Bunga mashg‘ulotlarda harakatli o‘yinlar, estafeta o‘yinlari, sport mashqlari, yugurishning turli shakllari, umuman harakatga asoslangan mashqlardan foydalanish orqali erishiladi.

**Xulosa.** Hozirgi davrda har tomonlama rivojlangan barkamol insonni tarbiyalashning maqsad va vazifalari ma’naviy boylik, axloqiy poklik, jismoniy mukammallikni o‘zida mujassamlashtirgan ijtimoiy faoliyotni tarbiyalashni taqozo etadi. Maktabgacha ta’limning maqsadi tarbiyachi murabbiylarning o‘z oldiga aniq maqsad qo‘yishi, yosh avlodni har tomonlama rivojlangan yetuk. shaxs qilib tarbiyalash uchun o‘z ustida ishlashi, intilishi, izlanishi, ayollarni zamon talablari asosida tarbiyalash uchun tarbiyaning yangi usul va vositalaridan keng foydalana olish kabi tarbiyachilik mahoratini shakllantirishga qaratiladi. O‘sib kelayotgan yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalash borasidagi mavjud muammolarni hal etish, ta’lim va tarbiya samaradorligini zamon talablari asosida ta’minalash, uni dunyo talablari darajasiga olib chiqishga erishish, yosh avlodga ta’lim-tarbiya berishda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tayanish orqali ta’lim-tarbiyaning mohiyati, mazmunini shakllantirish va takomillashtirish, maktabgacha ta’lim pedagogikasi fanining qoida va qonunlarini xalqimizning boy tajribalari asosida boyitib borish va uning yangi qirralarini izlash bugungi kunning dolzarb muammolaridan bo‘lib qolmoqda.

### Adabiyotlar

1. Mirziyoev Sh.M. “Kichik yoshdagi bolalarni tarbiyalash va ta’lim berish bo‘yicha butunjahon konferensiyasi”dagi ma’ruza. // “Yangi O‘zbekiston”, 2022-yil, 16-noyabr, № 234.
2. Ilk qadam. “Maktabgacha ta’lim muassasalarining Davlat o‘quv Dasturi”. - Toshkent.2018.
3. Nuriddinova M. M. Maktabgacha ta’lim muassasalarvda jismoniy hujjatlar majmui – Toshkent, “Muhammadi” nashriyoti. 2013.
4. Пащенко Л.Г.Организация физического воспитания в дошкольных образовательных учреждениях.Учебное пособие.Нижневартовск.Изд-во Нижневарт. гос. ун-та, 2014. - 115 с.
5. Salimov G‘.M. Maktabgacha ta’lim muassasalarida ertalabki gimnastika mashg‘ulotlarining o‘rni “Nozirgi taraqqiyot bosqichida jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlarini tashkil qilishning istiqbollari: muammo va yechimlar” Xalqaro miqiyosdagi ilmiy amaliy-anjuman. www.openscience.uz 2022 yil, 28-29 aprel.
6. Salimov G‘.M.Sog‘lom turmush tarzining asosiy omillari .Science and education scientific journal. issn 2181-0842 .volume 3, issue. 4april . 2022.
7. Salimov G‘.M.Maktabgacha yoshdagи bolalarning jismoniy imkoniyatlarini rivojlanirish. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. VOLUME 2 | ISSUE 8 ISSN 2181-1784 Scientific Journal Impact Factor SJIF 2022: 5.947 Advanced Sciences Index Factor ASI Factor = 1.7 -S.279-284 .
8. Salimov G‘.M. Maktabgacha ta’limda o‘yin, tarbiya va o‘rgatish usullari. “jismoniy madaniyat va sport: ta’lim dasturlarini takomillashtirish, muammolar va yechimlar” mavzusidagi xalqaro miqyosidagi ilmiy amaliy-anjuman. 2023-yil. 1-2-may. 557 -bet.
9. Фролов В.Г. Физкультурные занятия, игры и упражнения на прогулке Москва «Просвещение», 1986.
10. <http://www.mext.go.jp>.

**Jumaniyozova Muhabbat Xusinovna**  
 Urganch davlat universiteti  
 boshlang‘ich ta’lim metodikasi kafedrasi  
 dotsenti, filologiya fanlari nomzodi  
[khiva1970@mail.ru](mailto:khiva1970@mail.ru)

**Tilavova Munavvar Durdiyevna**  
 Urganch davlat universiteti  
 boshlang‘ich ta’lim metodikasi  
 kafedrasi katta o‘qituvchisi

## **ONA TILI TA’LIMI MASHG’ULOTLARIDA MUAMMOLI TA’LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING METODIK JIHATLARI**

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada muammoli ta’lim texnologiyalari va ulardan ona tili ta’limi mashg’ulotlarida foydalanishning metodik jihatlari haqida fikrlar bayon etilgan. Unda o‘quv materiallari mazmunini o‘zlashtirishda muammoning qo‘yilishi va hal etilishi bosqichlari aks ettirilgan.*

***Kalit so‘zlar:** muammo, muammoli ta’lim, muammoli vaziyat, muammoni qo‘yish bosqichlari, muammoning yechimi, baholash, dars samardorligi.*

### **ПРОБЛЕМНЫЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ И МЕТОДИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ИХ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ НА ЗАНЯТИЯХ ПО РОДНОМУ ЯЗЫКУ**

***Аннотация.** В данной статье описаны методические аспекты проблемных образовательных технологий и их использование в обучении родному языку. В нем отражены этапы постановки и решения задач освоения содержания учебных материалов.*

***Ключевые слова:** проблема, проблемное обучение, проблемная ситуация, этапы постановки проблемы, решение проблемы, оценка, эффективность урока.*

### **PROBLEM-BASED EDUCATIONAL TECHNOLOGIES AND METHODICAL ASPECTS OF THEIR USE IN NATIVE LANGUAGE EDUCATION CLASSES**

***Annotation.** This article describes the methodological aspects of problem-based educational technologies and their use in native language training. It reflects the stages of setting and solving problems in mastering the content of educational materials.*

***Key words:** problem, problem-based education, problem situation, stages of problem-setting, problem solution, assessment, lesson effectiveness.*

**Kirish.** Hozirgi davrda mamlakatimizning ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishini jadallashtirish va uning iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashda ta’lim tizimining o‘rnini beqiyos. Zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar hamda bo‘lajak mutaxassislarining ma’naviy-axloqiy, intellektual va kasbiy salohiyatiga nisbatan qo‘yilayotgan yuqori talablar ta’lim muassasalarini oldiga xalqaro talablarga javob bera oladigan sifatli kadrlar tayyorlash vazifasini qo‘ymoqda. Bu vazifalarni bajarish yo‘lida esa oliy ta’limda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish talab etiladi. Bugungi kunda samaradorligi bilan ajralib turadigan pedagogik texnologiyalardan biri muammoli ta’lim texnologiyasi sanaladi. Bu texnologiya talabalarning mavzudan kelib chiqib, turli muammoli masala yoki vaziyatlarning to‘g‘ri yechimini topish, muammo mohiyatini aniqlashga doir malakalarini shakllantirish, uni yechishning ayrim usullari bilan tanishtirish, yechimni topish uchun mos usullarni to‘g‘ri tanlash, muammoning kelib chiqish sabablari, shuningdek, yechimni topishga yo‘naltirilgan harakatlarning maqsadga muvofiqligini aniqlashga o‘rgatadi.[1.46]

Muammoli ta’limning asosini muammo (yun. “to‘siq”, “qiyinchilik, arab. “jumboqli”, “sirli”, “tushunilishi qiyin”) – hal qilinishi muhim) [2.315] yoki muammoli vaziyat tashkil etib, muammoli ta’lim texnologiyasi ularning yechimini topishga xizmat qiladi.

**26** Muammoli o'qitish shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalarga taalluqli, chunki bu yerda shaxs subyekt sifatida qaraladi, muammoli vaziyatlarning maqsadi - pedagogik jarayonda o'ziga xos qiziqish uyg'otishdir.

O'quv materialini muammoli taqdim etilishining mohiyati shundaki, unda o'qituvchi bilimlarni tayyor holda taqdim etmasdan, o'quvchilar oldiga muammoli masalalar qo'yadi, ularni yechimining yo'llari va vositalarini izlashga undaydi. Muammo yangi bilimlar va harakat usullar sari o'zi yo'lga boshlaydi. Muammoli vaziyat muayyan pedagogik vositalarda maqsadga muvofiq tashkil etiladigan o'ziga xos o'qitish sharoitida yuzaga keladi. Shuningdek, o'rganilgan mavzular xususiyatlaridan kelib chiqib, bunday vaziyatlarni yaratishning maxsus usullarini ishlab chiqish zarur. Muammoli vaziyat har qanday fikrlash mashaqqatlaridan farq qilib, unda talaba mashaqqat talab qilgan obyekt (tushuncha, fakt) ning unga avval va ayni vaqtda ma'lum bo'lган vazifa, masala bo'yicha ichki, yashirin aloqalarini anglab yetadi. Ta'lim jarayonida muammoni qo'yish bir necha sathda kechadi.

### **Muammoni qo'yish darajalari**

<b>Darajalar</b>	<b>Muammoni qo'yish mohiyati</b>
1-daraja	O'qituvchi muammoni qo'yadi va talabalarni uni hal qilishga yo'naltiradi.
2-daraja	O'qituvchi muammoli vaziyatni bayon qiladi va talabalarning o'zлari mustaqil ravishda muammoni shakllantiradi.
3-daraja	O'qituvchi muammoni ko'rsatib bermaydi, balki unga talabalarni ro'para qiladi. Talabalar muammoni anglagan holda uni o'zлari shakllantirib, muammoni yechish usullarini tahlil qiladi.

Ta'lim jarayonida masalani qo'yishda mavjud shart-sharoitlarni aniqlashda muammo fundamental asos sifatida namoyon bo'ladi. O'quv materiallari mazmunini o'zlashtirishda muammoning qo'yilishi va hal etilishi quyidagi bosqichlarda kechadi:

1. Masalaning asosini tashkil qiluvchi muammoni belgilab olish.
2. Maqsadni aniqlashtirish.
3. Masala yechimi shartini tahlil qilish.
4. Tashkiliy-pedagogik ishlarni amalga oshirishga sharoit yaratish.
5. Masalaning yechimini topishga yo'naltirilgan amaliy harakatni tashkil etish.
6. Muammoning yechimini bayon etish.
7. Muammo yechimini muhokama qilish.

Muammoli ta'limdan foydalanishni boshlang'ich ta'lim yo'nalishida o'qitiladigan ona tili ta'limi misoldida ko'rib chiqaylik.

### **O'quv topshiriqlari**

#### **1. Muammoli topshiriq**

##### *Vaziyat.*

Jamiyatning hamma sohasida barchadan o'zbek adabiy tili leksikasidan to'g'ri va samarali foydalanish talab qilinadi.

##### *Vazifa.*

Adabiy til va badiiy tilda shevalarning o'rnini misollar asosida ko'rsating.

#### **2. Metodik ko'rsatma**

##### **Muammoli tahlilni o'tkazish bosqichlari**

*Birinchi bosqich-* muammoning asosiy mazmunini berilishini va tadqiqot obyektini aniqlash.

*Ikkinci bosqich* – muammoli vaziyatning diagnostikasi – obyektning holatini aniqlash, muammoli vaziyatning hamma tomonlariga tavsif berish.

##### *Diagnostika uch blokli operatsiyaga bo'linadi:*

- 1) tanlangan parametrlar bilan obyektning haqiqiy holatini tasvirlaydi;
- 2) obyektning holatini xuddi shunday parametr orqali aniqlaydi;

3) obyektni to‘g‘rilash usullari va yo‘nalishlarini, haqiqiy va kerakli holatini solishtirish.

*Uchinchi bosqich* – muammoning yechimini topishda turli xil variantlardan foydalanish.

*To‘rtinchi bosqich* – muammoning yechimini topishda baholash va yechimini topishda optimal holat tanlash.

### Muammoning yechimi

#### “Ommaviy axborot vositalarida dialektal leksikaning mavjudligi” muammosi

#### 1-guruuh uchun muammocha: Suxandon-boshlovchilarining adabiy til me’yorlariga rioya qilmasligi

sabablari	omillari
<p>a) suxandon-boshlovchilarining adabiy til me’yorlarini bilmasligi;</p> <p>b) ommaviy-axborot vositalarida badiiy kengashlar nazorati susayganligi;</p> <p>d) ko‘plab xususiy telekanalarning paydo bo‘lganligi;</p> <p>e) professional suxandon-boshlovchilarining kamligi;</p> <p>f) kino va teatr yulduzlarining ayrim ko‘rsatuvlarda boshlovchi vazifasini bajarishi.</p>	<p>a) o‘zbek adabiy tili va uning me’yorlari haqidagi bilimlarning yetishmasligi;</p> <p>b) ko‘pgina ko‘ngilochar ko‘rsatuvs xususiy telekanallarda namoyish etiladi, badiiy kengash nazoratidan o‘tkazilmaydi;</p> <p>d) har bir telekanal turli ko‘ngilochar ko‘rsatuvs bilan tomoshabinlar auditoriyasini o‘ziga jalb qilishga intilishi;</p> <p>e) madaniyat va san’at sohasidagi ta’lim muassasalarida bu kasbga e’tiborning susayishi;</p> <p>f) yulduzlarning ishtiroki tomoshabinlarni ko‘proq jalb qilishi.</p>

### YECHIM

Mazkur muammoni hal etish, asosan, uni keltirib chiqarayotgan sabab va omillarni aniqlashga bog‘liq bo‘ladi. Ya’ni ko‘plab xususiy telekanallarda professional suxandon-boshlovchilar emas, balki havaskor yoshlar yoki kino va san’at yulduzları bu vazifani bajarmoqdalar. Ularning ko‘pchiligi o‘zbek adabiy tili va uning me’yorlarini bilmaydilar. Shuningdek, badiiy kengashning nazorati keyingi paytlarda susayganligi saviyasi past teleko‘rsatuvlarning efirga berilishiga va unda boshlovchilar shevada gapi rayotganining guvohi bo‘lmoqdamiz. Shu yo‘nalishda mutaxassis tayyorlovchi ta’lim muassasalarining faoliyatini kuchaytirish lozim. Kasbiy talablar asosida boshlovchilik kasbiga qobiliyati bor, ijodkor, adabiy tilda ravon va ifodali so‘zlovchi kishilarni shu faoliyatga jalb qilish kerak.

#### 2-guruuh uchun muammocha: Davriy matbuot sahifalarida shevaga xos so‘zlarning ishlatalishi

sabablari	omillari
<p>a) viloyat va tuman gazetalari tahriri yati tarkibi layoqatsizligi;</p> <p>b) tahririylarda kasbiy iqtidorga ega bo‘limgan kishilarning faoliyat ko‘rsatishi;</p> <p>d) tahririyat kengashining sust faoliyati;</p> <p>e) muharrirlarning loqaydligi;</p> <p>f) mualliflarning adabiy til leksikasini hamda adabiy til me’yorlarini bilmasligi.</p>	<p>a) Professional jurnalistlarning kamligi;</p> <p>b) Oliy va o‘rta maxsus ta’lim muassasalarida jurnalistik kasbiga e’tiborning yaxshi berilmayotganligi, o‘qitish jarayonining pastligi;</p> <p>d) tahririyat kengashi har bir maqolani to‘g‘ri tahrir etmasligi;</p> <p>e) muharrirlar o‘z vazifalarini to‘la bajarmasligi, gazeta materiallariga e’tiborsizlaik bilan qarashi;</p> <p>f) maqola mualliflari lug‘at boyligi kamligi, adbiy til haqidagi bilimlarining yetishmasligi; jurnalistika bo‘yicha bilimi pastligi.</p>

### YECHIM

Mazkur muammoni hal etish, asosan, uni keltirib chiqarayotgan sabab va omillarni aniqlashga bog‘liq bo‘ladi. Ayrim viloyat va tumanlarning davriy matbuoti sahilafalarida

28 shevaga xos so‘zlardan foydalaniyaotganligiga guvoh bo‘lamiz. Bu hol shu gazeta muharriri va tahririyatining o‘z vazifalariga loqaydlik bilan qarashi orqali kelib chiqadi. Shuningdek, maqola mualliflari ham o‘zbek adabiy tilining lug‘at boyligini to‘la bilmasliklari, adabiy til me’yorlarini o‘zlashtirmaganliklari tufayli yuzaga keladi. Jurnalistika yo‘nalishida mutaxassis tayyorlovchi ta’lim muassasalarida kasbiy mahoratni shakllantirishga e’tiborning susayganligi, bitkazuvchi talabalarning barchasi ham o‘z kasbiga fidoiy emasligi oqibatida shunday hollar ucharmoqda. Agar har bir kasb egasi o‘z ishiga mas’uliyat bilan yondashib, faoliyat olib borsa bu hol yuzaga kelmaydi. Mualliflar so‘z boyligini oshirib borsa, adabiy til me’yorlarini chuqur bilsalar gazeta sahifalarida shevaga xos so‘zlardan o‘rinsiz foydalananish va ularni ko‘p qo‘llash holati kuzatilmaydi.

### YAKUNIY YECHIM

Yuqorida keltirilgan muammolar bugungi kunda bozor iqtisodiyoti sharoitida mamlakatimiz ijtimoiy hayotida tilga bo‘lgan e’tibor kuchayishiga olib keladi. Barcha ommaviy axborot vositalarida o‘zbek adabiy tilidan foydalanish belgilab qo‘yilgan. Ommaviy axborot vositalarida dialektal leksikaning o‘rinsiz qo‘llanilishi nutq madaniyatiga salbiy ta’sir qiladi. Zero, nutq madaniyati umummadaniyatning ajralmas qismidir. Shuningdek, teleko‘rsatuvlarda ma’lum bir sheva unsurlari uchraydiki, ular boshqa shevada gaplashuvchilar uchun tushunarsiz bo‘ladi. Shuning uchun har bir soha vakillarinining kasbiy tayyorgarligiga katta ahamiyat berish, ularning bilim, ko‘nikma va malakalarini tinmay takomillashtirib borish, ko‘rsatuv va davriy matbuot tahririyatlari mas’ulligini oshirish, tayyorlanayotgan mutaxassis kadrlar sifatini oshirish, o‘zbek adabiy tili boyligini tinmay egallab borish, dialektal leksika va uning qo‘llanilish darajasi haqidagi bilimlarni bilish kabilar yuqoridagi muammoning yechimini aniqlashda muhim o‘rin tutadi.

### Eng yaxshi g‘oya topgan mini-guruhlarni baholash tizimi

1. Har bir qatnashuvchi 5 baholi ball oladi. U topgan barcha g‘oyalarini tezda topshirishi yoki ikkiga bo‘lib (2:3, 1:4), yoki uchga (2:1:2 ) bo‘lib topshirishi mumkin.
2. Har bir g‘oya bo‘yicha olingan ballar bo‘linadi.
3. Tartib bo‘yicha umumiylar pasayib boradi (masalan, 10 dan to 1 gacha).
4. Tortishuv (bahslashuv) holatlarida ovoz berish o‘tkaziladi.
5. Tanlab olingan qatnashchilarning fikrlari guruhiy fikrlar shaklida talqin etiladi.

Ta’kidlash joizki, o‘qituvchi talabalarni muammoli ta’lim texnologiyasidan foydalanish qoidalari bilan tanishtirishda mashg‘ulotning bosqichli bo‘lishi, har bir bosqichda talabandan e’tiborli bo‘lish talab qilinishi, mashg‘ulot davomida ular yakka, guruh va jamoa bo‘lib ishlashlariga urg‘u berib o‘tishi lozim. Bunday yo‘l tutish o‘quvchilarning topshiriqlarni bajarishga ruhan tayyor bo‘lishlariga yordam beradi, ularda qiziqini uyg‘otadi.

Xulosa qilganda, ona tili ta’limidan amaliy mashg‘ulotlarda muammoli ta’lim texnologiyasidan foydalanishdan asosiy maqsad o‘qituvchi va o‘quvchi mushtarakligiga erishish, o‘quvchilarni fanga qiziqtirish, ta’limga bo‘lgan munosabatni o‘zgartirish, o‘rganilgan bilimlarni ijtimoiy sharoitlarda qo‘llay olish ko‘nikmasiga ega bo‘lish, axborot kommunikatsion texnologiyalar va didaktik materiallarni mavzu bilan uyg‘unlashtirish kabilardir.

### Adabiyotlar

1. Ro‘ziyeva D., Usmonboyeva M. va b. Interfaol metodlar: mohiyati va qo‘llanishi.- Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU nashriyoti, 2013.
2. Pedagogika: ensiklopediya. II jild.- Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2015.
3. Ступина С.Б. Технологии интерактивного обучения в высшей школе/ Учебно-метод. пособие. - Саратов: Издательский центр “Наука”, 2009. - 52 с.

Husenova Aziza Sharipovna 29

Buxoro davlat universiteti  
katta o‘qituvchisi,  
pedagogika fanlari bo‘yicha  
falsafa doktori (PhD)  
[a.sh.husenova@buxdu.uz](mailto:a.sh.husenova@buxdu.uz)

---

## BOSHLANG‘ICH SINF O‘QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA BLUM TAKSONOMIYASINING AMALIY AHAMIYATI

---

**Annotatsiya.** Maqolada boshlang‘ich sinf o‘qish savodxonligi darslarida Blum taksonomiyasining amaliy ahamiyati, bu sohada olingan bilimlarni mustaqil ravishda qayta takrorlash, ularni egallangan ko‘nikma va malakalar bilan uyg‘unlashtirish natijasida yangi mustaqil faoliyat yuritish va mashq bajarish qonun - qoidalarini o‘rganish zarurati, mohiyati va metodikasi berilgan. O‘quvchilar mustaqil ta’limi natijasida erishiladigan yutuqlar bayon etilgan.

**Kalit so‘zlar:** boshlang‘ich sinf, mustaqil ish, mustaqil ta’lim, taksonomiya, kognetiv, affektiv, psixomotor, bilish, tushunish, qo‘llash, tahlil, sintez, baholash, o‘quvchi, metodika.

### ПРАКТИЧЕСКАЯ ЦЕННОСТЬ ТАКСОНОМИИ БЛУМА НА НАЧАЛЬНЫХ ЗАНЯТИЯХ ПО ЧТЕНИЮ

**Аннотация.** В статье рассматривается практическое значение таксономии Блума на занятиях по читательской грамотности в начальной школе, необходимость, сущность и методика обучения новым самостоятельным видам деятельности и упражнениям в результате самостоятельного повторения полученных знаний в этой области, сочетания их с приобретенными навыками и компетенциями дано. Описаны достижения, достигнутые в результате самостоятельного обучения студентов.

**Ключевые слова:** начальный класс, самостоятельная работа, самостоятельное обучение, таксономия, познавательное, аффективное, психомоторное, знание, понимание, применение, анализ, синтез, оценка, ученик, методика.

### THE PRACTICAL VALUE OF BLOOM’S TAXONOMY IN ELEMENTARY READING LITERACY CLASSES

**Abstract.** In the article, the practical importance of Bloom’s taxonomy in primary school reading literacy classes, the necessity, essence and methodology of learning new independent activities and exercises as a result of independently repeating the knowledge gained in this area, combining them with acquired skills and competencies, are given. Achievements achieved as a result of independent education of students are described.

**Key words:** primary class, independent work, independent education, taxonomy, cognitive, affective, psychomotor, knowledge, understanding, application, analysis, synthesis, assessment, student, methodology.

**Kirish.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 5712-sон Farmonida 2030-yilga kelib PISA xalqaro dasturi reytingida jahoning birinchi 30 ta ilg‘or mamlakatlari qatoriga kirishiga erishish hamda xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish asosida o‘quvchilarning o‘qish, matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholashga yo‘naltirilgan ta’lim sifatini baholashning milliy tizimini yaratish vazifalari belgilangan

30 Ta'limda o'qitish metodikasi bo'yicha mutaxassis amerikalik mashhur psixolog va pedagog Benjamin Blum tomonidan 1956-yilda ishlab chiqilgan Blum taksonomiysi usuli o'qitishning o'ziga xos shakli hisoblanadi. Blum asos solgan savol va topshiriqlar tizimi – bilish faoliyati darajalariga asoslangan o'quv maqsadlari taksonomiysi zamonaviy ta'lim olamida yetarli darajada keng tarqalgan. Taksonomiya so'zi borliqdagi murakkab sohalarni ma'lum bir tizimda sistemalashtirish, joylashtirish nazariyasi hisoblanadi. O'quv jarayonidagi o'qitish taksonomiysi esa o'quvchilarni oddiydan murakkabgacha bo'lgan ma'lumotlarni o'zlashtirib borish bosqichlaridan iborat. O'qitish jarayonida interfaol metodlardan foydalanish, o'quvchilarni o'sha ma'lumotlarni o'rganishi, tahlil qilishi, o'z bilimlarini mustaqil bayon qila olishlari, ma'lum bir vaziyatda munozaraga kirishishlari, o'zlarining dunyoqarashlarini va xulosalarini himoya qila olishlari hamda vaziyatni baholash ko'nikmalarini o'z ichiga oladi.

Bugungi globallashuv davri ta'lim-tarbiya tizimining barcha sohalarida ilg'or innovatsiyalarga asoslanish taqozo etilmoqdaki, o'qish darslarining milliy va xorij tajribalari integratsiyasi asosida tashkil etilishi zamonaviy o'qituvchi zimmasidagi mas'uliyatni yanada oshirishi tabiiy hol. Bu borada pedagogika va psixologiya sohasida so'nggi yillarda e'tirof etilayotgan ilg'or nazariyalarning samarali jihatlarini milliy metodikaga tatbiq etish ehtiyoji tug'ilmoqda.

Jamiyat va hayotda sodir bo'layotgan yangilanishlar ta'lim tizimiga ham yangicha innovatsion yondashuvni, ta'lim, fan va ishlab chiqarish o'rtasidagi integratsiya jarayonlarini yanada tezlashtirishga zamin yaratadi, natijada yangicha innovatsiyalarni ta'lim jarayoniga tatbiq etish dolzarb masalalar qatoridan joy oldi. Ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda xorij tajribalarni o'rganish, tizimga xalqaro standartlar talablarining joriy etilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tajribalarni o'rganish, mavjud tizim bilan qiyosiy, xalqaro va xorijiy tashkilotlar bilan yaqindan hamkorlik qilish, tizimda ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro loyihalarni joriy qilish, zamon talablariga javob beradigan munosib milliy baholash tizimini takomillashtirish muhim sanaladi.

Ma'lumki, xorijlik olimlar Dj.Dyuning konstruktivizm, J.Piajening bola intellektining rivojlanishi, G.Gardnerning intellekt ko'p turliligi, L.S.Vigotskiyning eng yaqin rivojlanish sohasi, V.Erxardning yorib o'tish texnologiyasi, shuningdek, V.F.Shatalovning o'quv materialining chizmalar va shartli belgilardan iborat modellari (tayanch signallar konspektlari) kabi bir qator nazariyalari ta'lim oluvchilar pluralistik tafakkurini rivojlantirishni nazarda tutadi. Xususan, ta'limda amerikalik psixolog va pedagog Benjamin Blum nomi bilan ma'lum bilish va emotsiyonal sohalardagi pedagogik maqsadlar taksonomiyalari o'quvchi faolligi va tashabbusini oshirish, mantiqiy fikrlash, analiz va sintez, muammolarga oid yechimlar bera olish kabi malaka va layoqtatlarni rivojlantirishga qaratilgani bilan samaralidir. Ta'limga Blum taksonomiyasini tatbiq etish nazariyasi mamlakatimizda J.Yo'ldoshev, S.Ulmonov, H.Muslimov, M.Ulmonboyeva, M.Mirsoliyeva, E.Abduvalitov, B.To'xliyev, I.Rajabova kabi pedagog va metodist olimlar tomonidan o'rganilgan.

Taksonomiya (yunoncha "taxis" – tartib bilan joylashish, "nomos" – qonun) butun borliqning murakkab, odatda, ierarkik tuzilmali sohalarini (jonli tabiat, yerning tuzilishi; geografiya, geologiya, tilshunoslik, etnografiya va shu kabi obyektlar) tasniflash va tartibga solish nazariyasi, shu haqidagi fan.

Pedagogik taksonomiya – o'quv maqsadlarining toifalari va darajalari ketma-ketligi aniq belgilangan tizim.

Chikago universiteti professori Benjamin Blum tomonidan bilim olish sohasidagi o'quv maqsadlari taksonomiyasining yaratilishi diqqatga sazovordir.

Blum taksonomiysi o'quv faoliyatining turli sohalarini qamrab oladi: kognitiv (bilish), affektiv (hissiy - qadriyatli), psixomotor (harakat). O'quvchilarning kompetentligini oshirishda har bir soha bo'yicha mustaqil ta'lim jarayonidagi holati haqida to'xtalib o'tamiz.

1. **Kognitiv soha.** Bu sohada olingan bilimlarni mustaqil ravishda qayta takrorlash, ularni egallangan ko'nikma va malakalar bilan uyg'unlashtirish natijasida yangi mustaqil faoliyat

yuritish va mashq bajarish qonun - qoidalarini o'rganish zaruratiga tegishli o'quv maqsadlari **31** kiritiladi.

**2. Affektiv soha.** Mustaqil ish bajarish jarayonida qiziqish va moyilliklarni shakllantirish, ichki hamda tashqi psixologik ta'sirlar natijasida bilim olish munosabatni shakllantirish, uni mustaqil faoliyat davomida tushunib yetish orqali faoliyat amaliyotiga tatbiq qilish maqsadlari kiritiladi.

**3. Psixomotorli soha.** Bunga mustaqil ish bajarish jarayonidagi psixologik faoliyat, jarayonlarda jismoniy faoliyat natijasida, asab muskullarini markazlashtirish ko'nikmalarini shakllantirish bilan bog'liq maqsadlar kiritiladi. Mustaqil ta'limni tashkil etish metodikasi bevosita B. Blumning bilim olish sohasidagi o'quv maqsadlari taksonomiyasi asosida quyidagi *olti* toifadagi asosiy o'quv maqsadlaridan iborat holda qarab chiqildi:

Bilish	Tushunish	Qo'llash	Tahlil	Sintez	Baholash
--------	-----------	----------	--------	--------	----------

деятельности, интенсивная подготовка к выполнению будущих профессиональных обязанностей требуют от студентов способности ориентироваться в незнакомой социальной среде. За счет этого закладываются основы для развития социальных компетенций, которые в дальнейшем будут расширяться по мере знакомства с практической деятельностью в избранной профессии.

Формирование гражданской позиции студентов становится закономерным следствием развития социальных компетенций, поскольку умение анализировать социальные ситуации и ориентироваться в них заставляет студентов определять личную позицию по отношению к различным проблемам, встречающимся в процессе профессиональной подготовки. Значительную роль в этом играет практическая составляющая профессиональной подготовки, требующая от студентов самостоятельной деятельности по выбранной специальности. Формированию гражданской позиции студентов на этапе вузовского обучения может способствовать эффективное управление процессом развития социальных компетенций. Для этого необходимо соблюдение следующих условий: во-первых, дифференцированный подход, учитывающий личностные особенности студентов, имеющихся у них социальный опыт и различный уровень готовности к социальному взаимодействию. Во-вторых, значительное внимание должно уделяться организации взаимодействия студентов и преподавателей, так как отношения педагога и обучающегося могут в дальнейшем стать прообразом модели взаимодействия будущего специалиста с окружающими. В-третьих, увеличение количества видов деятельности, предлагающей практическую направленность, и требующей от студентов принятия самостоятельных решений. Важность данного условия определяется тем, что только в практической деятельности у студента появляется возможность в полной мере проявить свою активность, без чего развитие собственной позиции, в том числе и гражданской, оказывается невозможным. В-четвертых, поддержание интереса студентов к саморазвитию в ходе обучения в вузе. Важно понимать, что интенсивное развитие современных общественных процессов требует понимания их сущности и обстановки, в которой они протекают, что невозможно без постоянного повышения своего профессионального и общекультурного уровня. В-пятых, совершенствование правовой подготовки студентов к выполнению профессиональной деятельности. Внимание при этом должно направляться не только на знание юридических норм, но и на развитие у студентов понимания роли правовой регуляции в современном обществе. Таким образом, гражданская позиция студентов заключается в осознанном ценностном отношении к обществу и государству, а также в деятельности, направленной на реализацию ценностей и интересов данного общества. Такое понимание гражданской позиции предполагает умение понимать и интерпретировать процессы, происходящие в современном мире, выражать свое отношение к ним. Социальные компетенции выступают в данном случае важным условием формирования гражданской позиции, так как указанные умения невозможны без их развития.

Важность развития гражданской позиции студентов определяется тем, что они, являясь наиболее активной частью общества, могут влиять на процессы, происходящие в нем, способствуя снижению числа социальных конфликтов. Одним из важных факторов формирования гражданской позиции студентов является обучение в вузе, что позволяет управлять данным процессом. Это может происходить за счет развития социальных компетенций. Основными направлениями деятельности в этом случае выступают учет возможностей и готовности студентов к социальному взаимодействию; применение таких форм работы, которые, будучи тесно связанными с практикой, позволяли бы студентам проявить самостоятельность; развитие юридических знаний студентов. Указанные направления развития толерантного мышления могли бы помочь в решении проблем формирования гражданской позиции, главнейшей из которых является отношение к обществу, как к средству достижения благополучия.

## Литература

1. Muzafarovna, Y. M. . (2022). TIBBIY PEDAGOGIK YO‘NALISH TALABALARIDA MILLIY AN’ANALAR ASOSIDA BAG’RIKENGLIKNI RIVOJLANTIRISHGA OID TARIXIY TAJRIBALAR. IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(12), 80–84. Retrieved from <http://sciencebox.uz/index.php/jis/article/view/5050>
2. Yuldasheva, M. M. (2021). The development of tolerance and its efficiency based on national traditions. Middle European Scientific Bulletin, 8.
3. Muzafarovna, Y. M. (2020). Development of tolerance in the history of eastern culture. Chief Editor, 5(10), 7.
4. Yuldasheva, M. M. Development of tolerance in the history of eastern culture. SJIF Impact Factor, 7.
5. Yuldasheva, M. M. The development of tolerance on the basis of national ideas and traditions in student. International Journal for Advanced Research In Science & Technology (IJARST) ISSN, 2457-0362.
6. Mashkhura Yuldasheva WAYS TO DEVELOP TOLERANCE IN MEDICAL PEDAGOGICAL STUDENTS ON THE BASIS OF NATIONAL TRADITIONS // Scientific progress. 2021. №6. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/ways-to-develop-tolerance-in-medical-pedagogical-students-on-the-basis-of-national-traditions> (дата обращения: 03.11.2023).
7. Yuldasheva, M. M. (2022). Development of Tolerance in Students of Medical Pedagogical Direction on the Basis of National Traditions. Pindus Journal Of Culture, Literature, and ELT ISSN, 2792-1883.
8. Yuldasheva, M. M. (2020). Tolerance and students: what brings them together?. International Engineering Journal For Research & Development, 5(1).

## **NODAVLAT TA'LIM MUASSASALARIDA TA'LIM SIFATINI OSHIRISHNING METODIK ASOSLARI**

**Annotatsiya.** Zamonaviy jamiyat innovatsiyalarga asoslangan Nodavlat ta'limi muassasalaridan malakali mutaxassislarni tayyorlashni talab qiladi. Shu bois nodavlat ta'lim muassasalarining sifati masalasi ta'limni isloh qilish nuqtai nazaridan hal qiluvchi ahamiyatga ega. Kognitiv, kommunikativ, tashkiliy, ahloqiy va o'z-o'ziga yordam ko'rsatish tajribasi faol ta'lim usullaridan foydalanish o'quvchilar uchun shart-sharoitlarni yaratishni o'z ichiga olgan kompetentsiyalarga asoslangan ta'lim innovatsion ta'lim jarayonida eng samarali ekanligi malum. Shu bilan birga kasbiy faoliyatning boshqa masalalari- erishilgan natijalarni baholash, ya'ni talaba kompetensiyasini baholash muhimdir. Shu nuqtai nazardan ta'lim jarayoni kompetension g'oyalar asosida tashkil etilganligi ta'lim sifati va kasbiy kompetentsiyaga ega raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashga yordam beradi. Maqolada ana shu masalalarning ayrim jihatlari ochibberilgan.

**Kalit so'zlar.** Ta'lim sifati, kadrlar tayyorlash, kompetentsiya, professional model, kompetentsion yondashuv, innovatsion o'qitish usullari, raqobatbardosh mutaxassis, innovatsion ta'lim jarayoni, kognitiv, kommunikativ, tashkiliy, ahloqiy, o'z-o'ziga yordam ko'rsatish.

**Аннотация.** Современное общество требует подготовки квалифицированных специалистов от негосударственных образовательных учреждений на основе инноваций, поэтому вопрос качества негосударственных образовательных учреждений имеет решающее значение с точки зрения образовательной реформы. Познавательный, коммуникативный, организационный, нравственный опыт и опыт самопомощи, использование активных методов обучения, компетентностное обучение, включающее создание условий для обучающихся, является важнейшей частью инновационного образовательного процесса. является эффективным. В то же время важна оценка и других вопросов профессиональной деятельности - оценка достигнутых результатов, то есть оценка компетентности студента. С этой точки зрения образовательный процесс, организованный на основе компетентностных идей, помогает подготовить конкурентоспособных специалистов с качеством образования и профессиональной компетентностью. Некоторые аспекты этих вопросов раскрыты в статье.

**Ключевые слова.** Качество образования, подготовка кадров, компетентность, профессиональная модель, компетентный подход, инновационные методы обучения, конкурентоспособный специалист, инновационный образовательный процесс, познавательный, коммуникативный, организационный, этический, самопомощь.

**Abstract.** Modern society requires the training of qualified specialists from non-state educational institutions based on innovations. Therefore, the issue of the quality of non-state educational institutions is of decisive importance from the point of view of educational reform. Cognitive, communicative, organizational, moral and self-help experience, the use of active learning methods, competence-based education, which includes the creation of conditions for students, is the most important part of the innovative educational process. It is known that it is effective. At the same time, it is important to evaluate other issues of professional activity - the evaluation of the achieved results, that is, the evaluation of the student's competence. From this point of view, the educational process organized on the basis of competence ideas helps to prepare

48 competitive specialists with quality of education and professional competence. Some aspects of these issues are revealed in the article.

**Keywords.** Quality of education, personnel training, competence, professional model, competent approach, innovative teaching methods, competitive specialist, innovative educational process, cognitive, communicative, organizational, ethical, self-help .

Kirish.Bugungi kunda Markaziy va Sharqiy Yevropaning aksariyat mamlakatlari, shu jumladan Rossiya, o‘z mamlakatlari ta’lim tizimini global isloq qilish doirasida ta’lim faoliyatini monitoring qilish va baholash uchun asoslarni ishlab chiqdi.O‘zbekistonda ham ta’limni rivojlantirish masalasi davlat siyosati darajasida ko‘tarildi.Bu borada keng ko‘lamli islohotlar boshlandi,sohada jidiy o‘zgarishlar qilinmoqda.Mamlakatda ta’lim sohasidagi islohotlar ,yoshlarni ta’lim tizimi bilan qamrab olish borasida amalga oshirilgan islohotlar dunyo hamjamiyoti tomonidan e’tirof etilmoqda.Yangi Oz’bekistonda so‘ngi yillarda har tomonlama taraqqiy etirish maqsadida barcha sohalar qatori ta’lim tizimida ham tub islohotlar olib borilayotgani yoshlarimizni ilm-fan ma’rifat va ma’naviyat ,taragiyot yutuqlarini ,zamonaviy bilimlar bilan qurullantirish har qachongidan ham muhim bo‘layotganini ko‘satmoqda. Bu mamlakatlar ta’lim va uning sifatini nazorat qilishning tarkibiy qismi sifatidagi milliy siyosatning muhim bosqichi bo‘lgan kadrlar tayyorlash dasturlarini ishlab chiqishda normalarni (standartlarni) belgilashga kirishdilar. Ushbu normalar (standartlar) ta’lim maqsadlarini belgilash, mamlakatda yagona pedagogik makonni yaratish uchun zarur asos bo‘lib, ular tufayli yoshlarning turli turdagи ta’lim muassasalarida yagona umumiyyat ta’lim darajasi ta’milanadi.Ta’lim sohasining har qanday tahlili, ta’lim tashkilotlari yoki tizimlari faoliyatining har qanday reytingini ishlab chiqish har doim baholashni tanlash bilan bog‘liq.Bu ta’lim sifati parametrlarini mustaqil kategoriya sifatida o‘rganishga yondashuvlarni shakllantirishda hal qiluvchi omil bo‘ladi.Ta’lim sifatini oshirish masalalarini o‘rganish, ta’lim tizimini rivojlantirish imkoniyatlarini izlash bilan pedagoglar, iqtisodchilar, siyosatchilar shug‘ullanadi.Sifatli ta’lim olish, kadrlar salohiyatini shakllantirishdan manfaatdorlik yangi standartlarni ishlab chiqishda, sifatni baholash tizimlarining yangi mexanizmlarini joriy etishda namoyon bo‘lmoqda. Ko‘pincha ta’lim xizmatlarini ko‘rsatishning hozirgi holati va qoniqish darajasi to‘g‘risida tegishli va ishonchli ma’lumotlarni olish uchun monitoring o‘tkaziladi: o‘quvchilarni o‘qitish natijalario‘qituvchilarning ishi, o‘quv dasturlari, moddiy-texnika ta’minoti, talab qilinadigan talablarnodavlat ta’lim muassasalari soni va boshqalar. Shuning uchun, kompleks tahlil Biz baholash usullari va sub’ektlariga qarab tasniflash doirasida bir nechta yondashuvlarni ajratib ko‘rsatamiz.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Tasniflarga ko‘ra yondashuv ko‘rib chiqiladi: ob’ektiv va relativistik. Ob’ektiv yondashuvga ko‘ra, sifat deganda ob’ektiv o‘lchovlar, faktlarni bayon qilish va turli ta’lim muassasalari, nodavlat ta’lim muassasalari darajalari va ta’lim shakllari natijalarini taqqoslash imkoniyati tushuniladi. Tadqiqot jarayonida olingan ma’lumotlar muayyan ta’lim muassasasining rivojlanish ko‘rsatkichlari bo‘lib, butun ta’lim tizimini qiyosiy tahlil qilish imkonini beradi. Ushbu yondashuv ma’lum bir sanaga qadar erishish kerak bo‘lgan qadriyatlarni tasdiqlash, samaradorlik ko‘rsatkichlari bo‘yicha maktablar, nodavlat ta’lim muassasalarini reytingini tuzishda qo‘llaniladi. Turli baholash tizimlari samaradorlik maqsadlaridan foydalanadi. Ko‘rsatkichlar monitoringi barcha faoliyatning aksidir: o‘quvvchilarning faoliyati, yangi loyihalarni amalga oshirish, uslubiy tadbirlar va boshqalar. Ko‘pincha tizimlar rasmiy hisobot shaklida, davlat, mintaqaviy va mahalliy rivojlanish rejalarida nazarda tutilgan ko‘rsatkichlar, maqsadli qiymatlarni o‘z ichiga oladi.Shunday qilib, ob’ektiv yondashuv aks ettiradi ijobjiy tomoni o‘quvvchilar bilim sifat»samaradorligi» ko‘rsatkichlarini rejalshtirishda, ammo ta’limda, ijtimoiy sohada bo‘lgani kabi, ba’zi sohalarda ham aniq sifat komponenti mavjud bo‘lib, uni foizlarda ob’ektiv tavsiflash juda qiyin. Va birinchi navbatda, ifodalovchi ko‘rsatkichlarni tanlash muammosi alohida rol, chunki qabul qilingan qarorlarning to‘g‘riliqi erishilgan qiymatlarni to‘g‘ri shakllantirish, qo‘llash va tahlil qilishga bog‘liq bo‘ladi. Keyingi yondashuv relativistikdir.U ta’lim samaradorligi yoki sifatini baholash mumkin bo‘lgan mutlaq mezonnarni ko‘rsatkichlar inkor etadi.Bunday yondashuv nuqtai nazaridan qaraganda, u yoki bu hodisaga erishish yo‘lidagi ilg‘or qadamlar

emas, balki natijaga erishish – yakuniy maqsadga erishish, ta’lim tizimini rivojlantirishdagi aniq muvaffaqiyatlar baholanadi. . Bu erda «ta’lim sifati» toifasi baholanishi kerak bo‘lgan mutlaq qiymatdir.. Shunday qilib, relyativistik yondashuvning asosiy hissasi shundaki, u ta’lim tizimidagi barcha o‘zgarishlarning natijasini, uning jamiyat hayotiga ta’sirini ko‘rsatadi. Yondashuv yakuniy natijaga erishilgan marralarni ajratib ko‘rsatmaydi: dasturni ishlab chiqish va amalga oshirish, sinfdan tashqari ishlarni amalga oshirish yoki «4» va «5» da o‘qiyotgan o‘quvchilarulushini oshirish. U oliv maqsad – jamiyatni ta’lim sifatidan qanoatlantirdimi yoki yo‘qmi, bolalar va yoshlarning intellektual, ijodiy, madaniy, axloqiy rivojlanishiga zamin yaratildimi, deb baho beradi. Agar «ta’lim sifati» toifasini aniqlashga yondashuvlarni ta’lim jarayoniga va ta’lim muassasalari faoliyatiga bo‘lgan munosabat nuqtai nazaridan ko‘rib chiqsak, baholashning tashqi tomoni uchun ob’ektiv va relativistik yondashuvlar javob beradi. Uchinchi yondashuv muassasaning o‘zida sodir bo‘layotgan jarayonlarni tahlil qilishga, ya’ni «rivojlanish kontseptsiyasi» doirasidagi tadqiqotlarga asoslanadi.Ushbu yondashuvning asosiy qiymati yuqori hokimiyat tomonidan berilgan tashqi baho emas, balki ichki o‘z-o‘zini tekshirishdir.Bunday tadqiqotning maqsadi hozirgi vaqtida ta’lim sifatini ta’minalash uchun shart-sharoitlardir.Ushbu sharh ham ko‘rsatkichlarni, ham so‘rovlarni o‘z ichiga oladi. Birinchisi, o‘quv yutuqlari darajasini o‘qituvchilar tarkibini belgilash uchun hisobga olinadi, ikkinchisi ta’lim muassasasining o‘ziga, uning o‘quv jarayonidagi roliga munosabatni baholashga, norozilik sabablarini aniqlashga yordam beradi. Bunday yondashuv tashqi baholash o‘rnini bosa olmaydi, lekin u ijobjiy tajribani yoki umuman ta’lim jarayoniga ta’sir etuvchi kamchiliklarning sabablarini to‘liqroq ochib beradi. Bunday vosita ta’lim sifatini muassasa faoliyati sifati bilan taqqoslaydigan va natijada resurslarni taqsimlashga tushadigan ob’ektiv va relativistik yondashuvlardan farqli o‘laroq, ichkaridan takomillashtirishni o‘z ichiga oladi.Mavzular bo‘yicha yondashuvlar tasnifi ushbu baholash sub’ekti (mijoz va iste’molchi) «ta’lim sifati» tushunchasiga beradigan semantik yukni o‘z ichiga oladi. Ichki baholash tizimida bular o‘quvchilaro‘qituvchilar, nodavlat ta’lim muassasalari, ta’lim organlari. Tashqi baholash tizimida - shaxs, ishlab chiqarish, jamiyat, davlat, ta’lim tizimi.Novikov o‘zining «Ta’lim sifatini qanday baholash mumkin?» U sub’ektlar va ob’ektlar munosabatlari orqali reyting tizimini taqdim etdi.Bugungi kunga kelib, Markaziy va Sharqiy Evropaning juda ko‘p mamlakatlari, shuningdek, Rossiya global qayta qurish doirasida shakllangan.Rossiya ish faoliyatini baholashning muntazam tizimini yaratish uchun hali zarur choralarни ko‘rmadi. Nodavlat ta’lim muassasasi va umuman ta’lim tizimi. Aytish kerakki, bu sohada muhim buzilmas qarama-qarshilik mavjud: birinchi navbatda, ta’lim muassasasining avtonomligi va pedagogik hodimlar yetarli darajada kengaytirilgan kadrlar tayyorlash dasturlarini aniqlash sohasida davlatdan, ikkinchidan, tizimli jarayonlarga zid keladigan ta’lim muassasasi va pedagogik xodimlarning mustaqilligi, ularning faoliyati natijalarini davlat tomonidan baholash.

Muhokama va natijalar. Ta’lim sohasidagi yangi siyosatning muvaffaqiyati jamiyatda sodir bo‘layotgan ijtimoiy, iqtisodiy jarayonlar bilan bog‘liq. Shunday qilib, ochiqlik, mas’uliyat taqsimoti, ehtiyojlar bilan bog‘liq turli xil takliflarga bo‘lgan huquq siyosiy va iqtisodiy sohalarda joriy etilgan va amalga oshirilayotgan, ta’lim sohasida qo‘llaniladigan tamoyillar bilan belgilanadi. Ta’lim sifatini baholash uchun nafaqat o‘quvchilar bilimini tekshirishdan foydalanish kerak , ta’lim sifatini baholash uchun ta’lim muassasasini uning faoliyatining har tomonlama o‘rganadigan kompleksni amalga oshirish kerak.Sifatning bir qator ta’riflari mayjud, masalan, Jahon standartlari instituti nuqtai nazaridan, sifat - bu ob’ektning standartlarga javob berish qobiliyatiga bog‘liq bo‘lgan xususiyatlar yig‘indisi bo‘lib, u shaxs, jamiyat ehtiyojlarining kutilayotgan ehtiyojlariga javob beradi. , davlat. A. V. Glichev ob’ektning belgilangan yoki kutilayotgan ehtiyojlarini qondirish qobiliyati bilan bog‘liq bo‘lgan xususiyatlar va xususiyatlar to‘plami sifatida qaraladigan sifat tushunchasining o‘ziga xos ta’rifini taklif qildi. «Ta’lim sifati» sotsiologik kategoriyasi nuqtai nazaridan u mahalliy fanda turlicha talqin qilinadigan, ammo ularga yetarli darajada investitsiya qilinmagan asosiy komponentni tahlil qilish zarurligini ochib beradi. Ko‘pgina olimlarning tushunchasida ta’lim sifati tizimstrukturaviy va qiymat-pragmatik jihatlarning birligini aks ettiruvchi ta’riflar tizimi orqali ochiladi, masalan, I.Vyskoch sifat - mahsulotning bajarilishi uchun xossa, deb hisoblaydi. u mo‘ljallangan funktsiyalar. A.Yakushev

50 sifatni ularning maqsadga muvofiq muayyan ehtiyojlarni qondirishga yaroqlilagini belgilovchi xususiyat va ko'rsatkichlar yig'indisi sifatida talqin qiladi. P.Vasilevskiy "mahsulot sifati deganda uning iste'molchi talablariga qanchalik mos kelishi tushuniladi" deb yozadi. G.Makayning qo'shimcha qilishicha, «sifat» so'zi nafaqat yakuniy mahsulotning holatini yoki uning darajasining nisbiy o'sishini, balki tadqiqot, rejalashtirish, texnologiya, ishlab chiqarish, nazorat qilish, boshqarish operatsiyalari uchun barcha «sifat vazifalarini» ham anglatadi. , va boshqalar.».G.A.Bordovskiy «O'quv jarayoni sifatini boshqarish» monografiyasida sifatni xususiyatlar to'plami sifatida belgilashga urinishlar muvaffaqiyat bilan yakunlanmaydi, deb ta'kidlaydi, chunki «sifat toifasini individual xususiyatlarga qisqartirish mumkin emas, u ajralmas xususiyatni aks ettirishi kerak.ushbu ob'ektning muhim xususiyatlarining funktional birligi» va «ob'ekt (hodisa, jarayon) sifati uning individual xususiyatlariga tushmaydi, balki uni yaxlit ob'ekt sifatida tavsiflaydi.I.N. Iqtidorli pedagogik TA'LIM SIFATI muammosi sifatida olingan.fan Bizning fikrimizcha, « ta'lism sifati» deganda jamiyatning nafaqat ob'ektiv tabiatini, balki jamiyatning ijodiy tamoyilini aks ettiruvchi murakkab tabiat tushuniladi. Shaxsiy o'lchovda « ta'lism sifati» - bu ma'lum ta'lism standartlariga javob beradigan bilimli kadrlarni tayyorlash jarayoni. Kasbiy va shaxsiy ta'limga o'quv jarayoni har bir talabaga uning qobiliyati, moyilligi, qiziqishi, qadriyat yo'nalishi va fan tajribasidan kelib chiqib, bilimda o'zini anglash imkoniyatini beradi; o'quv faoliyati, xulq-atvor. Bunday ta'limga asosiy e'tibor o'rganishning yakuniy maqsadlariga –bilimli o'quvchilarni tarbiyalash jamiyatga vatanparvar yoshlarni tarbiyalashga qaratilgan.Shu bilan birga, mustaqil ishlash uchun ajratilgan vaqtidan optimal foydalanish muammosi mavjud. Vaziyat shundayki, zamonaviy o'quvchilarbunga etarlicha e'tibor bermaydilar va natijada asosiy yukni uning tafakkuri emas, balki o'quvchining xotirasi boshdan kechiradi. Bundan tashqari, o'quv jarayonida, bu juda ko'p qobiliyat emas mustaqil qaror ta'limga vazifalari, olingan ma'lumotlarning qanchalik ishonchliligi. Shu munosabat bilan mustaqil o'zlashtira oladigan faol o'quvchini shakllantirish muammosi kelib chiqadi o'quv materiali, olingan bilim va ko'nikmalarni amaliyatda qo'llash va o'z-o'zini yanada rivojlanirishga intilish. Bakalavr darajasini tayyorlash tashkiliy modelni amalga oshirish natijasida mumkin bo'ladi kasbiy ta'limga, ta'limga dasturining allaqachon mavjud takomillashtirilgan modeli asosida yaratilgan bo'lib, bu erda keljakdag'i mutaxassislarning kognitiv mustaqilligini shakllantirishga katta e'tibor berilishi kerak. Bilimliyoshlarni muvaffaqiyatli tayyorlash muammosi keljakdag'i kasbiy faoliyat sub'ektining kasbiy ahamiyatli fazilatlari haqidagi aniq g'oyalarga asoslanadi..Har qanday ta'limga muassasasida sifat monitoringi bevosita o'z-o'zini sertifikatlash, ichki monitoring yoki tashqi monitoring shaklida amalga oshiriladi. Ta'limga standartini shakllantirish uchun ular mazmun, standartlarning maqsadlari va o'quvchilar erishadigan natijalarning plyuralistik qarashlariga asoslanadi. Standartlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishini ta'minlaydigan standartlar ta'limga «jarayonini» ta'minlash standartlari sifatida belgilanadi. Kerakli miqdordagi darsliklar vamalakali o'qituvchilarning mavjudligi, tegishli moddiy-texnik ta'minot mavjudligi bunday standartlarga misol bo'la oladi. ta'limga jarayoni va hokazo.Shuning uchun ta'limga har birining faoliyati natijasi va jarayonini baholashni nazarda tutadi ta'limga muassasasi o'quvchilarning bilim va ko'nikmalar darajasini nazorat qilish bo'yicha; pedagogik xodimlar va tashqi, davlat organlari, shuningdek, o'qituvchilar faoliyatini nazorat qilish, baholashni amalga oshiradi.

**Xulosa.** Ta'limga sifatini nazorat qilish - bu o'qituvchilar tomonidan bilimlarni o'zlashtirishni nazorat qilish, pedagogik jamoaning faoliyati haqida bir necha so'z aytish mumkin. O'qituvchining bilim darjasini vao'quvchilarning erishgan natijalari o'rtasida bog'liqlik mavjudligi isbotlangan. Shuni yodda tutish kerakki, o'qituvchilar va ta'limga muassasalari faqat bir element hisoblanadi ta'limga tizimi, bu eng muhimlaridan biri bo'lib, o'quvchilarning o'quv jarayonidagi yutuqlari bunga bog'liq. Shu sababli, ta'limga sifatini nazorat qilish uchun o'qituvchining ish faoliyatini baholash zarurligini tushunganda, ushbu element o'quv va ta'limga yutuqlariga oilaviy muhitga yoki o'quvchining individual xususiyatlariga (moyillik, motivatsiya, va boshqalar.). Shunday qilib, sifat birdan paydo bo'lishi mumkin emas, deb aytishimiz mumkin, uni rejalashtirish kerak.Bunday rejalashtirish ta'limga muassasalari faoliyatining uzoq muddatli yo'nalishlarini ishlab chiqish bilan bog'liq.

**Adabiyotlar**

1. “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 08.10.2019 yildagi PF-5847 son farmoni \https\lex.uz\docs\4545884
2. Alekseeva, L. P., Shablykina, N. S. O‘qituvchilar tarkibi: kasbiy kompetentsiya holati va muammolari / L. P. Alekseeva, N. S. Shablykina.- Moskva: NIIVO, 1994.
3. Bezrukova, VS Yangi pedagogik fikrlash lug‘ati / VS. Bezrukov. - Yekaterinburg: Muqobil pedagogika, 2006 .- 94 b.
4. Bordovskiy, GA Ta’lim jarayoni sifatini boshqarish - Sankt-Peterburg: A. I. Gerzen nomidagi Rossiya davlat pedagogika universiteti / GA Bordovskiy. - 2001 yil .-- 34- bet.
5. Vasilevski, P. Integral sifatni baholash uchun ba’zi formulalar EOKK konferentsiyasi materiallari: mahsulot sifatini miqdoriy baholash usullari (kvalimetriya) / P. Vasilevski. - M: Standartlar nashriyoti. - 1972 .-- bet. b2.
6. Ivanova L.A. Zamonaviy Rossiyada oliv kasbiy ta’limni innovatsion rivojlantirish strategiyasida ommaviy axborot vositalarining ta’lim maydoni: muammoning bayoni // Pedagogik nazariya, eksperiment, amaliyot / Ed. T.A. Stefanovskaya. Irkutsk: Irkut nashriyoti. Inst. malakali ishlaydi.Ta’lim, 2008. S. 215-228.
7. Matveeva M.A. Talabalarning kasbiy tayyorgarligida kompyuter texnologiyalari. // Kompyuter o‘qitish dasturlari, № 11. - M .: 2000. - - B. 52 - 61.

## MULOQOT BORASIDAGI DASTLABKI FIKRLARNING YUZAGA KELISHI

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada sharq mutafakkirlarining ilmiy merosida muloqot borasidagi qarashlari dastlabki fikrlari kiritilgan. Ular tomonidan shaxs kamolotida muomala va muloqot masalalariga ustuvor ahamiyat berilganligi o'rganilib, muloqot, muomala masalalariga doir ko'plab ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** muloqot, muomala, shaxs kamoloti, do'stona munosabat, xulq-odob qoidalari, ta'lim-tarbiya, do'stlik.

### ПОЯВЛЕНИЕ ПЕРВОНАЧАЛЬНЫХ МЫСЛЕЙ ОБ ОБЩЕНИИ

**Аннотация.** В данной статье включены первые идеи взглядов на общение в научном наследии восточных мыслителей. Им было изучено, что вопросам общения приоритет отдается в развитии человека, было представлено много информации о вопросах общения.

**Ключевые слова:** общение, поведение, развитие личности, доброжелательное отношение, правила поведения, воспитание, дружба.

### THE EMERGENCE OF INITIAL THOUGHTS ABOUT COMMUNICATION

**Abstract.** In this article, the first ideas of the views on communication in the scientific heritage of eastern thinkers are included. It was studied by them that priority is given to the issues of communication in the development of a person, and a lot of information about the issues of communication was presented.

**Key words:** communication, behavior, personality development, friendly attitude, rules of conduct, education, friendship.

**Kirish.** Sharq mutafakkirlarining ilmiy merosida shaxs shakllanishi va rivojlanishi uning ta'lim-tarbiyasi masalalari muhim o'rinn egallaydi. Ayniqsa, ular tomonidan shaxs kamolotida muomala va muloqot masalalariga ustuvor ahamiyat beriladi. Shunga ko'ra, Sharqning qomusiy olimlaridan Unsurulmaoliy Kaykovus, Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobi, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Muhammad Qoshg'ariy, Yusuf Xos Xojib, Jomiy, Amir Temur va boshqalarning asarlarida muloqot, muomala masalalariga doir ko'plab ma'lumotlar keltirilgan.

Qadimi manbalardan hisoblangan Zardushtiylik dinida ham muomala muloqot masalalarini atroflicha tahlil qilishgan. Zardushtiylik inson kamolotida bilimning kuchiga qattiq e'tiqod qiladi va oqibat natijada bilimli kishi yutib chiqadi, deb hisoblaydi.

"Avesto"da inson o'z mehnati tufayli barcha yomonliklardan qutilishi mumkin, degan ulug' g'oya yotadi. Unda ahloqiylikning asosi – saxovatlilik deb kuzatilgan. Ahloq – yaxshi fikr, yaxshi so'z va amaliyot birligidan iborat deyilgan. Yaxshi fikr deganda yaqin kishisiga mehribon bo'lish, muhtojlarga ko'maklashish, yovuzlikka qarshi kurashish, kishilarning baxt-saodatini muhofaza qilish, ahillik va totuvlikda yashashga intilish ruhidagi niyatlar va fikrlar tushunilgan. Bu fikrlarni kishi niyat qilibgina qolmay, ular to'g'risida tinmay so'zlashishi va ularni amalga oshirishi shart, deyiladi "Avesto"da [4].

Darhaqiqat insonlarning kamolga yetishishida muloqot muhim o'rinn egallaydi. Ayniqsa, odamlarni bir-birlariga samarali ta'sir ko'rsatishi so'z orqali amalga oshirishi ko'rsatib o'tilgan.

**Adabiyotlar tahlili.** "Qur'on"ning ma'lum oyatlari shirinsuxanlikka bag'ishlanadi [9]. To'g'ri so'z va muomala madaniyatiga rioya qilish qonun-qoidalari Islomgacha ham bo'lган.

Ammo faqat Islomgina uning asl mohiyati, inson kamoloti, jamiyat taraqqiyotida naqadar katta ahamiyatga ega ekanini yoritib bera oldi. Chunki kishilarda shirinso‘zlik, madaniy muomala taraqqiy etgan mamlakatdagina amalga oshadi. Shirinso‘zli insonning muomala madaniyatiga ega ekanligini ko‘rsatadi, obro‘sini orttiradi, hurmatga sazovor qiladi. Shunga ko‘ra, “Qur’on” da har bir inson shirinso‘z bo‘lishi, agar muloqotdagilar o‘zaro shirinso‘z bo‘lmasa, dushmanlik sodir bo‘lishi ta’kidlanadi. Boshqa bir oyatda Alloh kishilarni so‘zlashganda past ovoz bilan so‘zlashga undaydi: “Kishilarga chiroysi so‘zlar so‘zlangiz” (“Baqara” surasi, 53-oyat).

So‘zlashganda ochiq yuzli bo‘lish, qo‘pollik qilmaslik, xushmuomala bo‘lish odoblari hayotda tinchlik va baxt-saodatga erishishda yorug‘ yo‘l sifatida talqin etiladi: “Alloh tomonidan bo‘lgan bir marhamat sababli ularga (sahobalariningizga) yumshoq so‘zli bo‘ldingiz. Agar qo‘pol, qattiqqo‘l bo‘lganiningizda edi, albatta atrofingizdan tarqalib ketgan bo‘lar edilar” (“Ol-i Imron” surasi, 159-oyat).

Haqiqatan ham so‘zlashish madaniyati har bir inson uchun eng zarur bo‘lgan, unga baxt-saodat, jamiyatga esa ravnaq keltiradigan muhim fazilatdir. Zero, davlat ahamiyatiga ega bo‘lgan diplomatik aloqalarning amalga oshishi ham elchilarimizning ana shu so‘zlashish madaniyatini ne chog‘lik o‘zlashtirib olganligiga bog‘liqdir.

“Qur’on”da insonning ahloqiy kamolga yetkazishda yaxshi kishilar bilan hamsuhbat bo‘lish katta ahamiyatga ega, deb ko‘rsatiladi. Bu hayotda yaxshilar bilan do‘st bo‘lishda yordam beradi, do‘st-dushmani ajratib o‘ziga hamkor do‘st tanlashda madad beradi. “Van-n-jam” surasining 24-oyatida “Bizning zikrimizdan qochgan va faqat hayoti –dunyonigina istagan kimsalardan yuz o‘giring” [9], deyiladi.

“Kaxf” surasining 28-oyatida esa “Biz qalbini Bizni zikr etishdan g‘ofil qilib qo‘ygan, havoyi nafsi ergashgan va qilar ishi isrofgarchilik bo‘lgan kimsalarga itoat etmang!” -deya ta’kidlanib, ahloqan tuban kishilar bilan do‘st tutinib, xato qilmaslikka undaydi.

Yaxshi kishilar bilan ham, yomon kishilar bilan ham muomala-muloqotda bo‘lganda albatta uning o‘ziga xos odob qoidalari mavjud. Islomda ruxsat so‘rash va salomlashish odoblariga ham e’tibor beriladi. “Nur” surasining 27-28-oyatlarida bu borada aniq tavsiyalar berilganki, mazkur tavsiyalarga rivoja qilish inson ma‘naviy kamolotidan dalolat beradi.

Islomda salom alik olish xususida “Niso” surasining 86-oyatida “qachon sizlarga biron ibora bilan salom berilsa, sizlar unda chiroyliroq qilib alik olinglar yoki (hech bo‘lmasa) o‘sha iborani qaytarinqlar” [9], -deyiladi.

Ma’lumki, islom diniga oid manbalarda muomala, muloqot odobi har qachongidan ham dolzarb sanaladi. Shu bois, insonlar o‘rtasidagi do‘stoni munosabat hamkorlikka intilish oliy fazilat ekanligi yondashuvlar asosida bayon qilingan.

Imom al-Buxoriyning inson sifatlari haqidagi qarashlarida jaholat kishiga o‘lim keltiruvchi fojia deb qoralanadi. U odamlarni to‘g‘ri so‘zli bo‘lishga, va’daga vafo qilishga da’vat etib, munofiq kishining uchta belgisi bo‘lishini ko‘rsatadi, ular: yolg‘on gapirish, va’daga vafo qilmaslik va omonatga xiyonat qilishdan iboratligini aytadi. U odamlarni, ayniqsa, mo‘min-musulmon kishini haqorat qilishni gunoh, u bilan urishishni kofirlik deb biladi. U insonning kuch-qudrati jismonan pahlavonlikda emas, balki jahl chiqqanda o‘zini tiya olishida, deb hisoblaydi. Uning uqtirishicha, baland tovush bilan o‘rinsiz kulish boshqalar diliga ozor beruvchi xislatdir. Xalqqa yoqimli va ehtiromli bo‘lib, uning muhabbatiga sazovor bo‘lishni go‘zal axloqlilik deb biladi alloma.

**Muhokama.** Sog‘lom tanda sog‘ fikr bo‘ladi, degan xalq maqoliga amal qilib, alloma yoshlikdanoq sog‘liqni saqlashga, vaqtini bekor o‘tkazmaslikka da’vat etadi: “Ikki narsa borkim, ko‘pchilik ularning qadriga yetmaydi: biri sog‘liq, ikkinchisi bo‘sh vaqt” [7].

Haqiqatdan ham insonning emosional holatini o‘rinli ravishda boshqarishda til muhim o‘rinda ekanligi ko‘rsatib berilgan. Insonlar o‘rtasidagi sog‘lom psixologik muhitni barqarorlashtirishda o‘zgalarga nisbatan ta’na-dashnomlarni ifodalamaslik muhim mezonligi ochib berilgan.

Imom at-Termiziy to‘plagan hadislar orasida inson kamolotiga bag‘ishlangan hadislar yetakchi o‘rin tutadi. Chunonchi: “Chinakam sabr-toqali deb musulmon kishining musibat yuz

54 berganda chidamliligiga aytildi”, “Marhumlarning faqat yaxshi sifat va qilmishlarini so‘zlaganlar. O‘lgan kishi haqida yomon so‘zlar aytilmasin”, “Haqiqiy mo‘min deb xushxulq va ayoliga nisbatan xushmuomala kishiga aytildi” [13].

Allomaning fikriga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, komil inson o‘zga inson, o‘zga odamlar bilan muloqotga kirishish jarayonida yomon so‘zlardan o‘zini tiyishi kerakligi aytib o‘tiladi.

Shuningdek, Alisher Navoiyning Adib Ahmad haqida yozganlarida biroz o‘zgargan holda takror etiladi. Adib fikricha kishi boshiga har qanday ish tushsa, tili tufayli sodir bo‘ladi, ba’zilar yaxshilik ko‘radi, ba’zilar afsus chekadi. Ahmoq odamning tili – dushman ko‘p kishilarning tili tufayli qoni to‘kiladi. Adib Ahmad behudago‘ylik va yolg‘on so‘zlashni qattiq qoralaydi. So‘zning to‘g‘risi va qisqasi yaxshi deb hisoblaydi. Bob davomida sir saqlashning muhimligi ta’kidlanadi, hatto yaqin do‘stingdan ehtiyot bo‘l deya ogohlantiradi shoir. Bunday ogohlantirishlar zamonaning qaltsligini eslatib turardi [7].

Haqiqatdan ham allomaning fikriga nazar tashlaydigan bo‘lsak, insonning tili o‘ziga dushman bo‘lib, boshiga tushadigan har qanday kulfatning asosiy omili ekanligi bayon qilinadi.

Abu Nasr Forobi yattadi: “Ta’lim – degan so‘z xalqlar va shaharliklar o‘rtasida nazariy fazilatni birlashtirish, tarbiya esa shu xalqlar o‘rtasidagi tug‘ma fazilat va amaliy kasb-hunar fazilatlarini birlashtirish degan so‘zdir”.

Ta’lim faqat so‘z va o‘rgatish bilangina bo‘ladi. Tarbiya esa, amaliy ish tajriba bilan, ya’ni shu xalq, shu millatning amaliy malakalardan iborat bo‘lgan ish-harakat, kasb-hunarga berilgan bo‘lishi, o‘rganishidir” [2], – deydi.

Forobiy nazariy bilimlarni egallashga kirishgan har bir kishi xulq-odobda ham qay daraja pok bo‘lishi kerakligini “Falsafani o‘rganishdan oldin nimani bilish kerakligini to‘g‘risida”gi risolasida shunday ta’riflaydi: “Falsafani o‘rganishdan avval o‘zingizni hirs-havaslardan shunday tozalashingiz lozimki, sizda maishiy va shahvoniyat kabi noto‘g‘ri tuyg‘ularga emas, balki kamolotga bo‘lgan hirs-havas qolsin [2].

Bunga xulq-ahloqni faqat so‘zdagina emas, balki haqiqatda (amalda) tozalash orqali erishish mumkin. Shundan so‘ng xato va dashishdan saqlovchi, haqiqat yo‘lini tushunib olishga boshlovchi (notiq-so‘zlovchi, fikrlash ma’nosida) nafsini, jonini, ruhini tozalash zarur” [2].

Beruniy yoshlarni o‘qitish uchun o‘qituvchi tanlashni birinchi va asosiy ish deb bilgan. U bolalarni yoshligidanoq, aniqrog‘i 5 – 6 yoshidan o‘qitish tarafdori edi.

Abu Rayhon buning uchun o‘qituvchi xushmomalali, rostgo‘y, o‘z fanini yaxshi biladigan, pokiza toza va ozoda yurish va turmushida namuna bo‘lishini talabdir. Agar tarbiyachi o‘rnak bo‘lmasa, uning bolaga bergen tarbiyasi samarasizdir.

Abu Rayhon Beruniy o‘quvchini o‘qitish uchun muallim rostgo‘y savodxon, shogirdlariga prinsipial yumshoq muomalali bo‘lishi kerak. Muallim o‘quvchini doimo to‘g‘ri yo‘lga boshqarishi uni sezgir va talabchan bo‘lish lozimligini uqtiradi [3]. Buyuk murabbiy Beruniy muallim shogirdiga yumshoq muomala qilishi, ularga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatishi, yaxshi yo‘lga yo‘llashi, niyatini to‘g‘ri qilishi, o‘zini katta olmay, ochiq ko‘ngil bo‘lishi haqida ta’lim bergen. Zotan, bolaga mehr - muhabbatli bo‘lish ta’lim – tarbiya mezonidir.

**Natija.** Ta’kidlash joizki, o‘qituvchining o‘quvchi shaxsiga samarali ta’sir ko‘rsatishida nutqiylarining o‘rni muhim ekanligi qayd etiladi. M.Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘atit turk” asarida “Odobning boshi til” iborasida esa xushxulqlikning talablaridan biri – odobning boshi til ekanligi, shirinso‘z kishi martabaga ega bo‘ladi degan ma’no yotadi. Xalq orasida g‘iybatchi kishilarga nisbatan “Ilon o‘zining egriligini bilmay tuyaning bo‘ynini egor deydi” maqoli qo‘llanilgan. Inson o‘zini ayab, yaxshi yeb ichsa, tez qarimasligi “Maishatlik odam tez qarimas” maqolida ifodalangan. “Alp chirikda, bilga tirikda – botir jangda – dono majlisda sinaladi” maqolida esa insonning qanday kishi ekanligini uning jasorati va oqiligiga bog‘liqligi ifodalangan. “Yuziga qarama, arzam tila – yuziga qarama, fazilatini (ilmini, ahloqini) ista (tila)” maqolidan insonga xulq odobi, bilimiga qarab baho berilishi bayon etilgan [11].

Allomaning fikriga nazar tashlaydigan bo‘lsak, har qanday jarayonning asosida til muhim o‘ringa ega bo‘ladi. Natijada insoniy munosabatlarni samarali ko‘rishga olib kelishi aniqlangan.

Yusuf xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarida barcha yaxshi ishlarning manbaini ezgulik, yomon ishlarning asosini essizlik nomlari bilan talqin etadi. U inson hayotda qilgan ishi bilan yo yaxshi nom qoldiradi, yoki yomon nom oladi, deydi [12]. Asarda olim barcha ezgulikning boshi til deb qaraydi. Asarning bir bobti odobi, uning foyda va zararlariga bag‘ishlanadi. Til insonning qadr-qimmatini oshiradi yoki shu til orqali inson yuz tuban ham ketishi mumkin, deydi. Kishi ikki narsa bilan hayotda mangu qoladi: biri xushxulqlik bo‘lsa, ikkinchisi yaxshi so‘z, deydi olim. Uning til haqida, so‘z haqida aytgan fikrlarining har biri xikmatli so‘zga aylanib ketgan. Kumush va oltin tugaydi, ammo so‘z muomalaga kiritilsa, oltin va kumush qozoniladi, oz so‘zlash, lekin ko‘p tinglash kerak, hech kim ko‘p so‘zlab olim yoki dono bo‘lmagan, qizil til qora boshning yovi, avval o‘ylab keyin so‘zlash kerak kabi hikmatlarga aylangan fikrlaridan bilsak bo‘ladi.

Insoniy munosabatlarning eng oliy mezoni sanalgan hurmat va ehtiromni tarkib toptirishning barcha ko‘rinishlari asarda o‘z ifodasini topgan. Yusuf xos Hojib jamiyat taqdirini hal etuvchi eng ulug‘ mansabдорлардан tortib, oila a’zolarigacha bir-biriga bo‘lgan muomala-munosabat masalalarini ham hayotiy misollar vositasida yoritadi. Katta yoshlilarning kichiklarga, kichiklarning ulug‘larga, amaldor va mansab-dorlarning o‘z xizmatchilariga, xizmatchilarning o‘z xo‘jalariga, turli ijtimoiy guruh a’zolarining bir-birlariga, oilada oila a’zolarining bir-birlariga muomala madaniyatining eng oddiy ko‘rinishlarigacha tasvirlab, kishining ko‘z oldida yaqqol namoyon etadi. Buni biz farzand tarbiyasida uning tug‘ilganidan boshlab xulq-odob qoidalarini, bilim va hunarni o‘rgatish, buning uchun pok va bilimli muallim-murabbiy tanlash, farzandning xatti-harakatini doimo nazoratda saqlash kabi masalalarning bayon etilishidan ham bilsak bo‘ladi.

Olim ulug‘lar va kichiklar o‘rtasidagi xulq-odob qoidalari haqida gapirar ekan, shu asnoda kamtarlik, salomlashish odobi talablari, qoidalarini ham tavsiya etadi.

Unsurulmaoliy Kaykovus o‘zining “Qobusnoma” asarida axloqlilikning birinchi belgisi, suxandonlik deb biladi. U (suxanguylik) notiqlikda rost so‘zlash kerakligini ta’kidlaydi. U so‘zlarni to‘rt xilga bo‘lgani kabi odamlarni ham to‘rt xilga bo‘ladi. Birinchi xil kishilar ko‘p narsani biladi va yana bilgisi kelaveradi. Bular olimlar bo‘lib, ularga buysunish kerak, deydi. Ikkinchisi, bilmagan narsasini bilishga harakat qiladi, ular qobil kishilar bo‘lib, bunday kishilarga o‘rgatish kerak. Uchinchisi, bilganini ham bilmaydi, uyguda yashagandek, ularni “uyg‘otish” kerak. To‘rtinchisi, bilmaydi va bilmaganini tan olmaydi. Bular johil kishilar bo‘lib, ulardan qochish kerak, deydi [6].

So‘zlearning esa birinchi xili bilinmaydi va aytilmaydi; ikkinchisi aytildigan va biladigan; uchinchisi, ham bilinadi, ham bilishga zarurati yo‘q, ammo aytsa bo‘ladi. To‘rtinchisi, bilinadigan va aytildigan. Eng yaxshisi, to‘rtinchisi, ya’ni bilinadigan va aytildigani deydi. So‘zlaganda andishalik bo‘lish, sovuq so‘zlik bo‘lmaslik, kam gapirish, kamtarlik, maqtanmaslik, birovning so‘zini diqqat bilan eshitish odoblarini ta’kidlaydi.

Muhammad Sodiq Qoshg‘ariyning “Odob as-solihin” asarining muqaddimasida asarning maqsadi ifoda etiladi, ya’ni insonga yaxshi xulq egallash zarurligi ta’kidlanadi va u odob qoidalarini egallab olmasa va yaxshi xulq bilan muaddab (odobli) va muxazzab (toza) bo‘lmasa, nafaqat o‘ziga, balki butun dunyoga yomonlik tarqatadi, deydi.

Shunday ekan, har bir inson odobi zohiri hamda odobi botiniyi bilib, unga amal qilishi zarurligi va bu odob qoidalarini mo‘tabar kitoblardan jam etganligini aytadi. So‘ngra yuqorida ta’kidlaganimizdek, insonning barkamol bo‘lib yetishishidan kundalik turmushida zarur botiniy va zohiri odob qoidalarini: salomlashish va ruxsat so‘rash, muloqot odobi, uplash va yo‘l yurish, suhbat ahlining o‘zini tutishi, er-xotin odobi, tozalik va ozodalik qoidalari, mehmon kutish, ziyofat va ovqatlanish odobi, safar qoidalari bayon etiladi.

Birinchi bob ruxsat so‘rash va salomlashish, ko‘rishish, qo‘l olishish haqida bo‘lib, u to‘rt fasldan iborat.

Ma’lumki, sharq xalqlarida biror kimsa birorta uyga kirganda u yerga ruxsatsiz kirib boravermay, ma’lum urf-odat qoidalari rioya qiladi. Ana shu qoidalarning eng muhimlari deb, Muhammad Sodiq Qoshg‘ariy har bir odam kelganligini bildirish (eshikni qoqish yoki yo‘talish), ovoz berilgandan so‘ng kirishga ruxsat so‘rash va so‘ng kirish kerakligi bayon etiladi.

**56** Ikkinchasi faslda esa salomlashishning o'n ikki odob qoidasi haqida fikr yuritiladi. Shunda salom berish va javobi masalasida hozirgi paytda ham yuz berayotgan munozarali fikrlarga nuqta qo'ygandek bo'ladi. Muallifning aytishicha, adabi avval ikki mo'min kishi kelsalar, xoh oshno va xoh nooshno, salom berishgailarki, salom bermak sunnatdur, javobi farzi ayndur, deydi [7].

Shuningdek, olim "Ulug' kichikka, oqliq piyodaga, yuruvchi o'ltiruvchiga, va oz ko'pga salom bergay", deb ta'kidlar ekan, bir kishi ko'pchilik oldiga kirib kelganda, birinchi bo'lib salom berishi, ko'pchilik esa baravar ovoz chiqarmasdan salomga alik olishi joizdir. Maktab hamda o'quv dargohlaridagi muallim sinf xonasiga yoki auditoriyaga kirib kelganda, "Kim oldin salom berishi kerak?", degan muammoni yechgan bo'ladi.

Buyuk Sohibqiron har vaqt: "Insonparvarlik va mardlikni Olloham, xalq ham ulug'laydi" [8], degan hikmatli so'zni takrorlashni xush ko'rgan va hayotda o'zi bunga amal qilishga intilgan.

Shuni aytish kerakki, Amir Temur odob-ahloq, iymon, e'tiqod, ta'lim-tarbiya sohasida mukammallikka erishgan siymlardan biridir. Bunga ishonch hosil qilish uchun uning o'zi tomonidan yaratilgan odob va ahloqqa oid dasturlar, o'gitlar, pand-nasihatlarni o'qish kifoya.

Amir Temur o'zining "Tuzuklari"da bunday deydi: "Men sifatlarimni eng avvali deb beg'arazlikni tushundim. Hammaga ham bir xil: jiddiy va odil qaradim, hech bir kimsani boshqasidan faqr qilmasdim, boyni kambag'aldan ustun qo'ymasdim" [10].

Abduraxmon Jomiy yosh avlodning nutq madaniyatiga, ayniqsa shirinsuxanlikka, katta e'tibor berish kerakligini ta'kidlaydi. Uningcha odam o'ylab gapirishi, boshqalarning fikrini ko'proq eshitishi lozim, o'ta sergaplik kishining aqlsizligidan dalolat beradi [1].

Abduraxmon Jomiy yoshlarda saxiylik, shirinsuxanlik, kamtarlik qanoat, do'stlik, aqlilik, rostgo'ylik, mehnatsevarlik kabi xislatlarni singdirmoqchi bo'ladi, bu fazilatlarni ko'klarga ko'tarib maqtaydi.

Abduraxmon Jomiy har bir so'zni o'z vaqtida so'zlashni, o'ylab gapirish lozimligini ta'kidlaydi. U o'z gapida bema'ni so'zlarni ishlatuvchi kishilarini tanqid qiladi, ayrim kishilarning nutqida ma'no yo'qligini, gaplarida xato ko'pligini aytadi. Lekin ayni vaqtida shunday shaxslar borki, ularning nutqi tashqi tarafdan juda chiroyli, lekin ularning qilgan ishlari, xatti-harakatlari, fe'l-atvori yomon bo'lib, gapirgan gaplariga to'g'ri kelmaydi. Abdurahmon Jomiy shirinsuxanlikning eng yaxshi alomatlaridan biri rost gapirishdir, kishi o'z gapida yolg'oni ishlatmasligi, rostlikni o'ziga bezak qilib olishi lozim, deb o'laydi. U yoshlarni to'g'ri bo'lishiga, qing'ir yo'llardan yurmaslikka, tili bilan dili doimo bir xil bo'lishiga chaqiradi [1].

**Xulosa.** Uchrashganda qo'l berib ko'rishish, lekin qo'l uchi bilan emas, astoydil, lekin qo'lni silamay, ochiq yuz bilan ko'rishish odobi bayon etiladi. Quchoqlashib ko'rishish, safardan qaytgan kishi bilan ko'rishish va yosh bolalar bilan ko'rishish, o'pib ko'rishish odoblari bayon etiladi. Suhbatning yaxshi niyat va beg'araz bo'lishi, unga pokiza libos bilan borish, tanning tozaligiga erishish, og'iz va tishlarni tozalab borish, suhbat ahlining bir-birlariga hurmat va iltifot ko'rsatishi, ulug'larga e'tiborini qaratish, o'tirish qoidalariга rioya etish, ahli suhbat kirganda va chiqqanda o'rnidan turish va ulug'larni yuqoriga o'tkazish, bebadab so'zlar, yomon xatti-harakatlar, noo'rin jimlikdan saqlanish, barchaga yaxshi muomalada bo'lish, izzat qilish, aksa kelsa og'zini to'sib, past ovozda, yengil aksa urish, suhbat ahliga ish buyurmaslik, suhbat ahliga beminat xizmat ko'rsatish, do'st va notanishlarga bir xil ochiq chehra bilan muomalada bo'lish, aka-ukalar, opasingillarning xatosini kechirish hamda ular aybini yuziga solmaslik, boshqalardan chetda nasihat qilish, suhbat ahlidan biror kishining yomon qilig'i, qabih fe'li haqida gapirmaslik, uni chetlatishga harakat qilish kabi odob qoidalariga rioya etish haqida fikr yuritiladi [5].

Muloqot bo'yicha o'rganilgan manbalarning tahliliga ko'ra, shaxsning kamolga yetishida muloqot muhim omil sanaladi. Ayniqsa shaxs bilim, ko'nikma, tasavvur, tushuncha, fikrlash imkoniyatiga ega bo'lish uchun albatta insonlar bilan muomala munosabatga kirishishi lozim. Shu bois allomalarimiz tomonidan keltirilgan fikrlar hozirgi kun yosh avlodni tarbiyalashda dasturi-amal vazifasini o'tab kelmoqda.

**Foydalanigan adabiyotlar**

57

1. Abdurahmon Jomiy. Tanlangan asarlar. – T.: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1971. – 354 b.
2. Abu Nasr Forobi. Fazilat, baxt-saodat va kamolot haqida muqaddima, tarjima va izohlar muallifi: M.Qodirov: ma’sul muharrir: A.Jalolov. – T.: Yozuvchi, 2001. – 64 b.
3. Abu Rayhon Beruniy. Feruza (Javohirlar haqida naql va hikoyatlar). – Toshkent: A.Qodiriy nomidagi nashriyot, 1993. – 96 b.
4. Avesto. O‘zbekcha tarjima (Asqar Mahkam tarj.)-T.: Шарқ,2001. – 134 b.
5. Hoshimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi. T.: A.Navoiy nomidagi O‘zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti, 2005. –B. 175.
6. Kaykovus. Qobusnoma. – T.: O‘qituvchi, 2006. – 176 b.
7. Ma’naviyat yulduzları: (Markaziy Osiyolik mashhur siymolar, allomalar, adiblar)// To‘plovchi va mas’ul muharrir:M. M.Xayrullayev/.—To‘ldirilgan qayta nashr.— T.: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashr., 2001.— 408 b.
8. Pedagogika tarixi: (Pedagogika oliv o‘quv yurtlari va dorilfununlar talabalari uchun o‘quv qo‘llanma)/ K.Hoshimov, S.Nishonova, M.Inomova va boshq. – Toshkent: O‘qituvchi, 1996. – 48 b.
9. Qur’oni Karim: o‘zbekcha izohli tarjima. Tarjima va izohlar muallifi Alauddin Mansur. – T.: G‘ofur G‘ulom nomidagi nashriyot, 1992 – 339 b.
10. Temur Tuzuklari. So‘zboshi muallifi va mas’ul muharrir M.Ali, forschadan tarj. A.Sog‘uniy va H.Karomatov. – Toshkent: Sharq, 2005. – 160 b.
11. To‘xliyev B. Yusuf xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asari. T.; “O‘zbekiston” 1991. – 60 b.
12. Yusuf xos Hojib. Qutadg‘u bilig (Saodatga yo‘llovchi bilim). Nashrga tayyorlovchi Qayum Karimov. – T.: Fan nashriyoti, 1971. – 57 b.
13. Зиёмухаммедов Б., Исмоилов Ф., Баркамол авлодни вояга етказиш сирлари. – Т.: Сано-стандарт, 2011. – 72 б.

Baxtiyorova Mahliyo

Urganch davlat universiteti  
boshlang‘ich ta’lim metodikasi  
kafedrasи o‘qituvchsi  
[mahliyob22@gmail.com](mailto:mahliyob22@gmail.com)

Ganjayeva Maftuna

Urganch davlat universiteti  
boshlang‘ich ta’lim metodikasi  
kafedrasи o‘qituvchsi  
[ganjayevamaftuna@gmail.com](mailto:ganjayevamaftuna@gmail.com)

---

### 3-SINF ONA TILI DARSLARIDA TA’LIMIY O‘YINLARDAN FOYDALANISH ORQALI O‘QUVCHILARNING FONETIK-GRAMMATIK TUSHUNCHALARINI SHAKLLANTIRISH

---

*Annotatsiya.* Mazkur maqolada ona tili darslarida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining fonetik va grammatik tushunchalarni shakllantirishda ta’limiy o‘yinlardan foydalanish yo’llari 3-sinf misolida ko‘rsatib beriladi.

*Kalit so‘zlar:* boshlang‘ich ta’lim, fonetik-grammatik tushuncha, tovush va harf, ta’limiy o‘yin, nutqni rivojlantirish, faollik, ta’lim samaradorligi.

#### ФОРМИРОВАНИЕ ФОНЕТИКО-ГРАММАТИЧЕСКИХ ПОНЯТИЙ У УЧАЩИХСЯ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ИГР НА УРОКАХ РОДНОГО ЯЗЫКА З КЛАССА

*Аннотация.* В данной статье на примере 3-го класса показаны способы использования обучающих игр при формировании фонетических и грамматических понятий учащихся младших классов на уроках родного языка.

*Ключевые слова:* начальное образование, фонетико-грамматическое понимание, звук и буква, обучающая игра, речевое развитие, деятельность, образовательная эффективность.

#### FORMATION OF STUDENTS' PHONETIC-GRAMMATICAL CONCEPTS USING EDUCATIONAL GAMES IN MOTHER LANGUAGE LESSONS (IN THE EXAMPLE OF 3RD CLASS)

*Annotation.* In this article, the ways of using educational games in the formation of phonetic and grammatical concepts of elementary school students in mother tongue lessons are shown on the example of the 3rd grade.

*Key words:* primary education, phonetic-grammatical understanding, sound and letter, educational game, speech development, activity, educational efficiency.

Yangi O‘zbekistonda ta’limni tubdan isloh qilish borasida benihoya ko‘lamli ishlар amalgalashirilmоqda. Bugungi kunda milliy va umuminsoniy ruhda tarbiya topgan, yuksak ma’naviyatga ega, mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti yo‘nalishini modernizasiya qilish va zamonaviy demokratik jamiyat qurish yo‘lidagi keng qamrovli vazifalarни hal qilishga qodir bo‘lgan yangi avlod kadrlarini tayyorlash masalasi xalqimiz oldiga qo‘ygan ulkan maqsadlarni amalgalashirishida muhim va asosiy vazifa hisoblanadi.

Ona tili maktabda o‘quvchining kamol topishida, fikrlash darajasining o‘sishida, bilim va mehnatga havasini uyg‘otishda, ilmiy tushunchalarini, nutqiy malakalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ona tilidan olib boriladigan barcha mashg‘ulotlar tizimi shunday qurilishi kerakki, bu tizim o‘quvchilarda ona tiliga muhabbat, o‘z yurtiga, xalqiga mehr, Vataniga cheksiz hurmat va sadoqatni o‘stirishi zarur.

Boshlang‘ich sinflarda ona tili ta’limi, yuqorida ta’kidlanganiday, bolalarning tafakkur qilish faoliyatlarini kengaytirishga, ularda erkin fikrlay olish, o‘zgalar fikrini anglash, o‘z fikrini

og‘zaki va yozma ravishda ravon bayon qila olishga, jamiyat a’zolari bilan erkin muloqotda bo‘la olish ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu o‘rinda ona tili ta’limiga o‘quv fani sifatida emas, balki butun ta’lim tizimini uyushtiruvchi ta’lim jarayoni sifatida qarash lozimligini alohida ta’kidlash joizdir.

Boshlang‘ich ta’lim davlat qonunini hayotga tatbiq etishda muhim bosqich hisoblanadi va unda ona tili o‘qitish asosiy o‘rin egallaydi. “Boshlang‘ich ta’limning samaradorligini ta’minlashda o‘qituvchining shaxsiy sifatlari va pedagogik kasb mahorati ham muhim ahamiyat kasb etadi. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi barcha pedagogik -psixologik vositalarni qo‘llagan holda kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda yaxlit tarzdagagi o‘quv faoliyatini shakllantira olishi kerak”. (1.14)

Ona tili fani shunchaki fonetik-grafik va grammatik tushunchalarni bir yoqlama shakllantirish vazifasini bajarmaydi, balki o‘quvchilarni badiiy til vositalari bilan ta’minlashi, ularda go‘zal nutq madaniyatini tarbiyalashi. Og‘zaki va yozma nutqini o‘stirishi, fikrmulohazalarini ifodali bayon etishga o‘rgatib borishi zarur. O‘quvchilar har bir ilmiy-nazariy tushunchani amalda qo‘llay olishlari uchun ona tili mashg‘ulotlarida samarali mashqlar tizimi qo‘llanib borilishi maqsadga muvofiqdir.

Ona tili o‘qitish metodikasida o‘quvchilarning savodini chiqarish, grammatik tushunchalarini shakllantirish, ularning nutqiy va imloviy savodxonligini oshirishda qo‘llaniladigan usullar, mashqlar variantlari ko‘p. Fonetik-grammatik, orfografik tushunchalarni mustahkamlash, nutqiy malakani mukammal shakllantirishda metodika fanidan belgilangan mashqlar qatorida ta’limiy o‘yinlar muhim o‘rin tutadi. (2, 42)

Ta’limiy o‘yin mashqlari ma’lum talab asosida berilib, mavzu yuzasidan o‘quvchini amaliy faoliyatga yo‘naltira oladigan ta’limiy materialdir. Ular har bir mavzu doirasida shu mavzuni ongli o‘zlashtirish, mavzu yuzasidan o‘qituvchining olgan bilimini mustahkamlash va sistemaga solish, og‘zaki va yozma nutq malakalarini o‘stirish maqsadida beriladi.

Ta’limiy o‘yinlarning boshqa mashq turlari (ko‘chirib yozuv, tahlil, diktant, bayon, insho) dan farqi shuki, bunda, bir tomondan, o‘quvchilarning zerikishi, charchog‘iga barham berilsa, ikkinchi tomondan, bolalarning fikrlash jrayoni tezlashadi, muayyan belgilangan malakalarning mufassal shakllanishi osonlashadi.

Boshlang‘ich sinflar ona tili dasturidagi har bir mavzu bo‘yicha muayyan shakldagi ta’limiy o‘yinni tashkil qilish mumkin. O‘qituvchi, avvalo, ta’limiy o‘yinning ta’limiy-tarbiyaviy maqsadini belgilab, o‘yinga kerakli materialni tayyorlab, o‘quvchilarga ta’limiy o‘yinni o‘tkazish tartibini aniq tushuntirib berishi, ta’limiy o‘yinni o‘zi boshqarib borishi, o‘quvchilarning xatolarini yo‘l-yo‘lakay tuzatib borishi kerak. O‘yin oxirida tegishli xulosalar chiqarib, qo‘yilgan ballar e’lon qilinadi.

Ta’limiy o‘yinning asosiy mohiyati shundaki, kattalar tomonidan bolalarga o‘yin shaklida aqliy vazifani bajarishni hal etish vazifasi topshiriladi. Buning asosiy maqsadi bolalarning bilishga bo‘lgan qiziqishini shakllantirishni faollashtirishidir. Bilim berishda ta’limiy o‘yinlardan bilimlarni mustahkamlashdagina emas, balki ta’lim shakli sifatida ham keng foydalaniлади.

Joriy o‘quv yildan boshlab amaliyotga tadbiq etilgan 3-sinf “Ona tili” darsligida fonetikaga doir tovush va harflar, unli tovush va harfalar, undosh tovush va harflar, jarangli va jarangsiz undoshlar, talaffuzda tushub qoladigan va yonma-yon kelgan undoshlar yuzasidan ma’lumotlar berilgan. [3.17-44] Bu mavzularni o‘rganishda quyidagi ta’limiy o‘yinlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

### **1-o‘yin. “Harflarni o‘zgartirib, so‘z tuzing!”**

1-variant – og‘zaki ravishda. Bunda o‘qituvchi so‘zni og‘zaki ayta boshlaydi: o‘quvchilar bir so‘z tarkibidagi unli yoki undosh tovushni o‘zgartirib yangi so‘z topishib, bu so‘zlar ishtirotida og‘zaki gaplar tuzadilar.

2-variant – yozma ravishda. Bunda doskaga so‘zlar qator qilib yozib qo‘yilgan bo‘ladi. 2 guruhdagi o‘quvchilar unli yoki undosh harflarni o‘zgartirib, yangi so‘zlar tuzib yozadilar. O‘yin musobaqa shaklida o‘tkaziladi.

**Unlilarni o‘zgartirish.**

Kun: ko'n, kon.

Ko'z: kuz, kar, kor, ker.

Dil: do'l, dol.

Pichoq: pachoq, po'choq, puchuq.

**Undoshlarni o'zgartirish.**

Moy, toy, loy, boy, voy, joy, poy, soy, choy.

Til, dil, bil, jil, zil, yil, fil, shil, qil.

**Bir harfni olib so'z tuzish.**

Qo'y ( o'y)

Kalla ( alla)

Toy (oy)

Karra ( arra)

So'zlarga harf qo'shib yangi ma'noli so'zlar toping vva ular ishtirokida gaplar tuzing:

Alla ( salla) ayiq (qayiq)

Ayron (hayron) asal (kasal)

**2-o'yin – "So'z o'yini".** Qaysi tovush yoki harf so'zlarning ma'nosini o'zgartirishga xizmat qilyapti?

1-variant – og'zaki ravishda. Bunda o'qituvchi navbat bilan so'zlarni og'zaki aytar boshlaydi: o'quvchilar qo'l ko'tarib so'zlarning ma'nosini o'zgartirayotgan tovushni aytishadi va ma'nosini o'zgarayotgan so'zlar ishtirokida og'zaki gaplar tuzadilar.

2-variant – yozma ravishda. Bunda 2 guruhdan iborat o'quvchilar musobaqa tarzida doskada yozilgan so'zlarning ma'nosini o'zgartirayotgan harfnining tagiga chizib borishadi.

Til, tin, tir, tiz, tim, tish, to'l, to'r, to'n, to'p, to'y, to'k, to's, tom, ton, tol, tosh, tob, tog', tor, toj, toy, tok, top, tot, tut.

*Boshlang'ich sinf o'quvchilar so'z turkumlari (ot, sifat, son, olmosh, fe'l) bilan umumiy tanishtirilgandan so'ng bar bir leksik-grammatik guruh alohida o'rganiladi. Bu so'z turkumlarini o'rganishning boshlang'ich bosqichidayoq ularni taqqoslashga qulay sharoit yaratadi va shakllantiriladigan grammatik tushunchaning asosiy tomonlarini aniqroq ajratishga imkon beradi. Dasturga ko'ra, boshlang'ich sinfda so'zlar dastlab javob bo'ladigan morfologik so'roqlariga qarab guruhlanadi. 3-sinfda "So'z turkumi" tushunchasi shakllantiriladi.*

Grammatik tushunchalar bo'yicha o'quvchilar 1-sinfdan boshlab nazariy ma'lumotlarga ega bo'la boshlaydilar. Ya'ni shaxs va narsa nomlari, narsalarning belgisi, narsalarning harakati kabi ma'lumotlarni o'rganish jarayonida ularda grammatik tushunchalar shakllantirishga asos solinadi.

Boshlang'ich sinflarda grammatik tushunchalarga oid quyida ta'limiy o'yinlardan samarali foydalanish mumkin.

**1-o'yin. "Bir so'z bilan javob top" o'yini**

Beshik tebratib aytildigan qo'shiq ... – alla.

Daraxtni bo'laklarga ajratadigan asbob .... arra.

Ko'paytirish jadvali ... – karra.

Bolalar qog'ozdan yasab uchiradigan narsa ... - varrak.

Kuch so'zining sherigi ... – quvvat.

Rasm chizuvchi kasb egasi ... – rassom.

Don hosili ... – g'alla.

Chollar tayanadigan tayoq ... – hassa.

**2-o'yin. "So'zlarni guruhlarga ajratish" o'yini.**

1-variant. (og'zaki ravishda)

O'qituvchi so'zlarni navbat bilan aytib turadi, o'quvchilar nima? so'rog'iga javob bo'lgan so'zlarni eshitganda sariq varaqani, kim? so'rog'iga javob bo'lgan so'zlarni eshitganda ko'k varaqani ko'taradilar.

2-variant. (yozma ravishda)

So'zlar yozilgan varaqalar alohida stolga aralashtirilgan holda ochiq qilib qo'yiladi. O'quvchilardan tuzilgan ikki guruhnning biri nima? so'rog'iga javob bo'lgan so'zlarni, ikkinchisi kim? so'rog'iga javob bo'lgan so'zlarni "Kim oldin yozish" sharti bilan doskaga yozib boradilar.

**“Teskari so‘zni top!” o‘yini.**  
 1-variant. (og‘zaki ravishda)  
 O‘yin uchun so‘zlar:  
 Suv: oqadi – to‘xtaydi.  
 Kun: isiydi – soviydi.  
 Qush: uchadi – qo‘nadi.  
 Daraxt: ko‘karadi – quriydi.  
 Bola: uxlaydi – uyg‘onadi.  
 Oy: ko‘rinadi – bekinadi.

**“Noto‘g‘ri belgini top!” o‘yini.**  
 Qizil taom (shirin)  
 Oq qarg‘a (qora)  
 Shirin gul (qizil)  
 Mavzu: Ot – so‘z turkumi.

### **“So‘z zanjiri” o‘yini.**

O‘yin tartibi: 5 – 6 ta o‘quvchi doska oldiga tiziladi. Boshlovchi o‘yin shartini tushuntiradi va narsa nomini bildirgan so‘zni aytadi, navbatdagi o‘quvchi bu so‘zing oxirgi tovushi bilan boshlanadigan otni aytadi. To‘xtalib qolgan o‘quvchi o‘yindan chiqadi. Namuna: Ayiq – qarg‘a – asal – lola – ariq – qalam – maktab – bola – alla – arra – alam – mashina –adolat – tandir – ruchka – ayoz....

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinf ona tili darslarida ta’limiy o‘yinlardan fo‘ydalanish o‘rganilayotgan tushunchaning oson o‘zlashtirilishiga yordam beradi. O‘quvchilarda olgan bilimlarini amalda tezkorlik bilan qo‘llay olish salohiyatlarini shakllantiradi.

Ta’limiy o‘yinlarni tanlashda o‘yining ta’lim jarayoni bilan uyg‘unlashishiga, ta’limtarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga, o‘quvchilarning faolligi va tashabbuskorligi hamda ijodiy qobiliyatini o‘stirishga alohida ahamiyat beriladi.

Ta’limiy o‘yinlar nafaqat o‘quvchilarning bilimini tekshirishda, balki ularni darsga qiziqtirish uchun ham qo‘llanadi. Ta’limiy o‘yinlarni o‘tkazishda o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini ham hisobga olish zarur. O‘yinlar mavzuga mos bo‘lishi va o‘quvchilarni zeriktirib qo‘ymasligi kerak.

### **Adabiyotlar**

1. Boshlang‘ich ta’lim konsepsiysi // “Boshlang‘ich ta’lim, 1998-yil, 6-son.
2. Yoqubov Sh., Mustafoqulov R. Grammatik o‘yinlar orqali o‘quvchilarni faollashtirish// Yigirma birinchi asrda o‘zbek tili ta’limi masalalari.-T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007.
3. Toirova M.E. Ona tili. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik. I qism. – Toshkent, “Novda Edutainment”, 2023.- 88 b.

Xolmuradova Jamila Irmetovna  
Toshkent amaliy fanlar universiteti dotsenti,  
filologiya fanlari nomzodi  
[jamilaxalmuratova66@gmail.com](mailto:jamilaxalmuratova66@gmail.com)

## YORDAMCHI SO‘ZLAR TURKUMINI O‘QITISHDA DIDAKTIK O‘YINLI DARSLARNING AHAMIYATI

**Annotatsiya:** Maqolada yordamchi so‘zlarni o‘qitishda foydalaniladigan didaktik o‘yinli darslarning turlari haqida fikr yuritilgan va ba’zi didaktik o‘yinlardan namunalar keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** didaktik o‘yinli darslar, yordamchi so‘zlar, bog‘lovchi, uslub.

### ПРИ ОБУЧЕНИИ РЯДА ВСПОМОГАТЕЛЬНЫХ СЛОВ ЗНАЧЕНИЕ ДИДАКТИЧЕСКИХ ИГРОВЫХ ЗАНЯТИЙ

**Аннотация:** В статье рассматриваются типы дидактических игровых уроков, используемых для обучения вспомогательным словам, и приводятся примеры некоторых дидактических игр.

**Ключевые слова:** дидактические игровые уроки, вспомогательные слова, соединители, стиль.

### IN TEACHING THE SERIES OF AUXILIARY WORDS THE SIGNIFICANCE OF DIDACTIC GAME LESSONS

**Annotation:** The article discusses the types of didactic game lessons used to teach auxiliary words and provides examples of some didactic games.

**Keywords:** didactic game lessons, auxiliary words, connectors, style.

Ta’lim jarayonida didaktik o‘yinli texnologiyalar didaktik o‘yinli dars shaklida qo‘llaniladi. O‘zbek tilida yordamchi so‘zlarni o‘qitishda talabalarning bilim olish jarayoni o‘yin faoliyati bilan uyg‘unlashtiriladi. Talabalarning bilim olish faoliyati, o‘yin faoliyati bilan uyg‘unlashgan darslar didaktik o‘yinli darslar deb ataladi.

Inson hayotida o‘yin faoliyati quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- o‘yin har doim shaxsning ma'lum bir faoliyatga bo‘lgan qiziqishini orttiradi;
- o‘yin davomida shaxsning muloqotga kirishishi kommunikativ-muloqot madaniyatini egallahsga yordam beradi;
- shaxsning o‘z iqtidori, qiziqishi bilimini va o‘zligini namoyon etishga imkon yaratadi;
- hayotda va o‘yin jarayonida yuz beradigan turli qiyinchiliklarni yengishga mo‘ljalni to‘g‘ri olish ko‘nikmalari tarkib topadi.
- o‘yin jarayonida ijtimoiy me‘yorlarga mos xulq-atvorni egallah, kamchiliklarga barham berish imkoniyati yaratiladi;
- shaxsning ijobiy xislat va fazilatlarni shakllantirishga zamin tayyorlaydi;
- insoniyat uchun ahamiyatli bo‘lgan qadriyatlar tizimi, ayniqsa, ijtimoiy, ma‘naviy-madaniy qadriyatlarni o‘rganishga e‘tibor qaratiladi;
- o‘yin ishtirokchilarida jamoaviy muloqot madaniyatini rivojlantirish ko‘zda tutiladi.

O‘yin faoliyati o‘zining quyidagi xususiyatlari bilan tavsiflanadi:

- o‘yin ishtirokchilar rollarni, vazifalarni tanlashi natijasida erkin rivojlantiruvchi faoliyat, ya’ni talabalarning o‘z faoliyatini tahlil va nazorat qilishi, maqsadga muvofiq natijaga erishgan hollarda o‘z faoliyatidan ko‘ngli to‘lishi, o‘z bilimi va kuchiga ishonch vujudga keladi;

- ijodiy muhit tarkib topadi. O‘yin ishtirokchilari muammolarni hal etishda tegishli ijodiy va mustaqil faoliyatga ega bo‘ladilar;

- o‘yin davomida musobaqa, raqobat, hamkorlik, o‘zaro yordam vujudga keladi. Shu asnoda his-hayajonli vaziyat paydo bo‘ladi. His-hayajonga yo‘g‘rilgan bilim, ko‘nikmalar inson xotirasida bir umr muhrlanib qoladi;

- o‘yin davomida belgilangan qonun-qoidalarga amal qilinadi. O‘yin ishtirokchilarida ijtimoiy me‘yorlarga mos ongli intizom vujudga kelishiga zamin tayyorlaydi;

- o‘yin mazmuni, borishi, mantiqiy ketma-ketligi, vaqt balansi va talabalarning muammoli vaziyatlarni zudlik bilan hal etish, mo‘ljalni to‘g‘ri olishga o‘rgatadi.

Didaktik o‘yinli darslarning muvaffaqiyati, avvalo, talabalarning mazkur o‘ynlarga puxta va qizg‘in tayyorgarlik ko‘rishlariga, o‘qituvchining mazkur faoliyatni tashkil etish va mohirlik bilan boshqarishiga bog‘liq.

Didaktik o‘yinli darslarni talabalarning bilim olish va o‘yin faoliyatining uyg‘unligiga ko‘ra sujetli-rolli o‘yinlar, ijodiy o‘yinlar, ishbilarmonlar o‘yini, konferensiyalar, o‘yin mashqlarga ajratish mumkin.

O‘yinlar vositasida talabalarga yangi bilimlar berish, ko‘nikma hosil qilish, kichik guruuhlar a’zolarining ijodiy qobiliyatlarini rag‘batlantirish mumkin. O‘yinlarni darsning kirish yoki yakunlovchi qismida o‘tkazish mumkin. O‘yinlarni maqsadiga ko‘ra 7 turga ajratish mumkin. [1.7]

### **1. Guruh bo‘lib ishlash uchun sog‘lom muhit tashkil etishga qaratilgan o‘yinlar:**

- guruh a’zolarining o‘zaro tanishishlariga yordam beradi;
- guruh bo‘lib ishlash ishtiyoqini tug‘diradi;
- guruh a’zolarining o‘zini erkin his etishlarini ta’minlaydi, charchoqni tarqatadi.

### **2. Umumiy qiziqishlarni aniqlashga yo‘naltirilgan o‘yinlar:**

- guruh a’zolarining ichki munosabatlarini tezda tiklashga yordam beradi (umumiy qiziqishlar, orzularni aniqlash orqali);
- yangi qo‘silgan a’zolarning (o‘quvchilarning) yangi sharoitga moslashishlariga yordam beradi.

### **3. Guruhning birligini qo‘llab-quvvatlovchi o‘yinlar:**

- o‘zaro munosabat me‘yorlarini o‘rnatishga yordam beradi;
- guruhning birligini, jipsligini mustahkamlashga yo‘naltirilgan bo‘ladi.

### **4. O‘zaro bog‘lovchi o‘yinlar:**

- bir mavzudan ikkinchi mavzuga yengillik bilan, tabiiy o‘tishni ta’minlaydi;
- turli tushunchalarni o‘zaro bog‘lash uchun xizmat qiladi;
- yangi mavzuni o‘rganishni yakunlash bosqichini faollashtiradi.

### **5. Rag‘batlantiruvchi o‘yinlar:**

- guruh bo‘lib ishlashga rag‘batlantiradi;
- murakkab mavzularni muhokama qilishga yordam beradi;
- dars davomida “nafasni rostlab”, ishni davom ettirishga yordam beradi.

### **6. Ijodkorlikni rag‘ batlantiruvchi o‘yinlar:**

- dunyoga boshqacha ko‘z bilan qarash, ta’limda innovatsion metodlarni qo‘llashga yordam beradi;
- o‘yin qatnashchilari o‘zlarining yangi qirralarini kashf etadilar, yangilikni qabul qilish ko‘nikmasini hosil qiladilar.

### **7. Yakunlovchi o‘yinlar:**

- katta mavzularni o‘rganishni yakunlash, egallangan bilim va ko‘nikmalarni mustahkamlashga yordam beradi;
- ta’limming innovatsion metodlarini baholash va unga munosabat bildirishga o‘rgatadi.

Ta’lim jarayonida qo‘llangan har bir o‘yin yakunida o‘qituvchining sharhiga vaqt ajratiladi. Bunda u yoki bu o‘yin guruh a’zolari tomonidan qanday qabul qilingani, guruhda qanday g‘oyalar tug‘dirganini sharhlashga e’tibor beriladi.

O‘qituvchi avval talabalarni individual, so‘ngra guruqli o‘ynlarga tayyorlashi va o‘tkazishi ular muvaffaqiyatli chiqqandan so‘ng, ommaviy o‘ynlarga tayyorgarlik ko‘rishi lozim.

64 Chunki talabalar didaktik o‘yinli darslarda faol ishtirok etishlari uchun kerakli bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishi, shuningdek, sinf jamoasi o‘rtasida o‘zaro hamkorlik, o‘zaro yordam vujudga kelishi lozim.

Psiyologlarning ta’kidlashicha, o‘yinli faoliyatlarning psixologik mexanizmlari shaxsning o‘zini namoyon qilish, hayotda o‘z o‘rnini barqaror qilish, o‘zini o‘zi boshqarish, o‘z imkoniyatlarini amalga oshirishning fundamental ihtiyojlariga tayanadi. O‘yinli texnologiyalardan fodalanishning asosini talabalarning faollashtiruvchi va jadallashtiruvchi faoliyatni tashkil etadi. O‘yin olimlarning tadqiqotiga ko‘ra birgalikdagi faoliyatning asosiy bir turi hisoblanadi. O‘yin ijtimoiy tajribalarni o‘zlashtirish va qayta yaratishga yo‘nalgan vaziyatlarda faoliyat turi sifatida belgilanadi va unda shaxsning o‘z xulqini boshqarishi shakllanadi va takomillashadi [3, 216].

O‘yin ijodiyligi bilan ajralib turadi. U mumkin qadar boy, faol harakterga “ijod maydoni”ga ega bo‘ladi. O‘yin uchun hissiy ko‘tarinkilik xosdir. U o‘zaro kurash, musobaqalashish, raqobal shaklida namoyon bo‘ladi. O‘yining o‘yin mazmunini aks ettiruvchi, uni rivojlantirishning mantiqiy va vaqtincha izchilligini ko‘zda tutgan bevosita tegishli va unga nisbiy aloqador qoidalari bo‘lishini ko‘rsatadilar. Tadqiqotchilar nazariy aspektda o‘yinga faoliyat, jarayon va o‘qilish metodi sifatida qaraydilar. O‘yin faoliyat sifatida maqsadni belgilab olish, rejalashtirish va amalga oshirish. Natijalarni tahlil qilishni qamrab oladi va bunda shaxs subyekt sifatida o‘z imkoniyatlarini to‘la amalga oshiradi. O‘yinli faoliyatni motivatsiyalash o‘yin harakterining musobaqalashish shartlari, shaxsning o‘zini namoyon qila olishi, o‘z imkoniyatlarini amalga oshirish ehtiyojlarini qondirishdan kelib chiqadi. Jarayon sifatida o‘yin tuzilmasi (G.K.. Selevko ta‘biricha) quyidagilarni qamrab oladi: o‘yinlar turli maqsadlarga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Ular didaklik, tarbiyaviy, faoliyatni rivojlantiruvchi va ijtimoiylashuv maqsadlarda qo‘llanadi. O‘yindan tushunchalar, mavzu va xatto o‘quv predmeti bo‘limini o‘zlashtirishda o‘qitish metodi va mustaqil texnologiya sifatida foydalaniladi. O‘yining didaklik maqsadi bilimlar doirasi, bilish faoliyati, amaliy faoliyatida bilim, malaka va ko‘nikmalami qo‘llash, umumta’lim malaka va ko‘nikmalarni rivojlantirish, mehnat ko‘nikmalarini rivojlantirishni kengaytirishga qaratilgan bo‘ladi. O‘yining tarbiyaviy maqsadi mustaqillik, irodani tarbiyalash, muayyan yondoshuvlar, nuqtai nazarlar, ma’naviy, estetik va dunyoqarashni shakllantirishdagi hamkorlikni, kollektivizmni, jamoaga kirishib keta olishni, kommunikativlikni tarbiyalashga qaratilgan bo‘ladi. Faoliyatni rivojlantiruvchi o‘yinlar diqqat, xotira, tafakkur, qiyoslash malakasi, o‘xhashini topish, faraz, hayol, ijodiy qobiliyat, empatiya, refleksiya, optimal yechimni topa olish, o‘quv rivojlantirishga qaratilgan. Ijtimoiylashuv o‘yinlari qadriyatlariga jalb qilinish, ehtiroslarni nazorat qilish, o‘rgatish, psixoterapiyani nazarda tutadi.

### “SO‘Z ZANJIRI” didaktik o‘yini

Darsda “So‘z zanjiri” o‘yinini o‘ynash. Talabalar birma-bir yozuv taxtasiga chiqib, “so‘z zanjiri” ni tuzadilar. Bir daqiqa ichidan qancha so‘z yozadi, uzun zanjir tuzgan g‘olib bo‘ladi. O‘yin mushoira tarzida davom etadi. “So‘z zanjiri” o‘yini darsda qo‘llashda ma’lum bir vazifa qo‘yiladi. Masalan: birinchi chiqqan juftlik ko‘makchilar zanjiri, ikkinchi chiqqan juftlik bog‘lovchilar zanjirini, uchinchi chiqqan juftlik yuklamalar zanjirini hosil qiladilar.

2-bosqich. “So‘z zanjiri” o‘yini murakablashtirish maqsadida savolni boshqasiga almashtirish mumkin. Masalan: guruhlar faqat sof yordamchi so‘zlar janjirini tuzadilar yoki faqat vazifadosh so‘zlar janjirini tuzadilar.

1-guruhi: *Bilan + ko‘ra + sari + sayin + kabi + uzra + yanglig + qadar + dovur*

2- guruhi: *Va + hamda + ammo + lekin + biroq + balki + holbuki + vaholanki*

3- guruhi: *Axir+ hatto+ nahot+tim+qoq+ liq+ lim+ g‘irt+g‘arq+shilta + ham...*

Shu tariqa bir nafas to‘xtamay davom etiladi. Kim ko‘p so‘z topgan bo‘lsa, g‘olib, lekin bironqa so‘z qaytarib yozilmaydi. Bu o‘yin orqali nafaqat yordamchi so‘zlarni urganadilar balki, doska bilan ishslash malakasi oshadi.

O‘quvchilar shu tartibda o‘yinda ishtirok etib, berilgan so‘zlarning “juftini” topadilar. Bu o‘yin talabalarning o‘rganilayotgan mavzuni yaxshiroq yodda saqlab qolishlariga yordam beradi, ularning ijodiy tafakkurini o‘stiradi. Guruhlar topshiriqni o‘z o‘rinlarida yoki yozuv taxtasida

bajarishlari mumkin. O‘qituvchi guruhlarning javoblarini ko‘rib chiqadi va o‘z munosabatini **65** bildiradi.

### “BINGO” o‘yini

Dars mashg‘ulotidan oldin o‘qituvchi bingo-jadval tuzadi. Bingo-jadvali 25 ta katakdan iborat bo‘ladi va shu kataklarga eng muhim ma’lumotlar va topshiriqlar joylashtiriladi. Dars vaqtida bingo-jadval har bir talabaga tarqatiladi. Uni to‘ldirish uchun 10 daqiqa vaqt beriladi. Qaysi talaba barcha kataklarga topshiriqlarni birinchi bo‘lib bajarsa, “bingo” deb xitob qiladi. G‘olib talabaga rag‘batlantiruvchi sovg‘a beriladi (kitob, jurnal kabi). Biz hozir laboratoriya mashg‘lotimizda “Bingo” o‘yinini o‘tkazamiz. Buning uchun quyidagi bingo-jadvalni talabalarga tarqatamiz:

	<b>B</b>	<b>I</b>	<b>N</b>	<b>G</b>	<b>O</b>
	<i>Mustqil so‘z turkumlari</i>	<i>Yordamchi so‘z turkumlari</i>	<i>Ko‘mak-chilar</i>	<i>Bog’lov-chilar</i>	<i>Yuklamalar</i>
So‘z turkumlariga ta’rif bering	Bunday so‘zlar mustaqil so‘roq qabul qilib gapda turli gap bo‘lagi vazifasida kela oladi. Fe’l, ot, sifat, son, ravish kabilar.	Gap bo‘lagi va qo‘shma gap tarkibidagi sodda gapni o‘zaro bog‘laydi yoki ularga qandaydir qo‘shimcha ma’no yuklaydi. U lug‘aviy ma’noga ega emas, so‘roqqa javob bo‘lmaydi va yakka holda gap bo‘lagi bo‘lib kelmaydi.	ot, olmosh, sifatdosh va harakat nomidan keyin kelib, uni hokim so‘zga bog‘lash uchun xizmat qiluvchi yordamchi so‘z turkumi.	Gap bo‘laklari va sodda gaplarni bir-biriga bog‘lash uchun xizmat qiladigan yordamchi so‘z turkumi.	Yuklama— ayrim so‘z yoki gapga so‘roq, ta’kid, ayirish-chegaralash, gumon, o‘xshatish, inkor kabi ma’nolarni yuklovchi so‘z va qo‘shimchalar.
Leksik ma’ noga egalik	Shaxs, predmet, o‘rin, harakat va holat, predmet belgisini, miqdor, harakat belgisini ifodalaydi.	Lug‘aviy ma’noga ega emas	Lug‘aviy ma’noga ega emas	Lug‘aviy ma’noga ega emas	Lug‘aviy ma’noga ega emas
Grammatik ma’ noga shaklga egalik	son, kichraytirish-erkalash, daraja, tartib, dona, chama, jamlovchi, taqsim shakli, nisbat, harakat tarzi, zamon, mayl, harakat tarzi.	Lug‘aviy shakli yo`q	Lug‘aviy shakli yo`q	Lug‘aviy shakli yo`q	Lug‘aviy shakli yo`q
Yasalish belgisi	Yasaladi. Son va olmosh yasalmaydi.	yasalmaydi	yasalmaydi	yasalmaydi	yasalmaydi

6	Sintaktik vazifasi	So‘roq qabul qilmaydigan, mustaqil gap bo‘lagi bo‘lib kela olmaydigan gap bo‘lagi bo‘lib keladi	So‘zni so‘zga bog‘lovchi, gap bo‘lagi vazifasida kela olmaydigan so‘zlar	So‘zni so‘zga teng, gapni gapga teng va tobe bog‘laydi. Gap bo‘lagi vazifasida kela olmaydi	Gap b ‘lagi vazifasida kela olmaydi
---	--------------------	--	--	---	-------------------------------------

### “JUFTINI TOPING” o‘yini

Bu o‘yin ijodkorlikka undovchi o‘yinlardan bo‘lib, undan yangi mavzuni mustahkamlashda, takrorlash va mustahkamlash darslarida foydalanish mumkin.

Nº	so‘z	bog‘lovchi	“jufti”	Guruhi
1.	ham	Kitob <u>ham</u> daftar oldim.	Men <u>ham</u> kitob o‘qiymen. <i>yuklama</i>	“Yog‘du” guruhi
2.	na... na	<u>Na</u> kitob, <u>na</u> daftar oldi.	Na daftar, na qalam olmadi. <i>yuklama</i>	“Tafakkur” guruhi
3.	go‘yo	Qor yog‘di, <u>go‘yo</u> don yog‘di.	go‘yo suv quyganday jim-jit. <i>yuklama</i>	“Yog‘du” guruhi
4.	ham... ham	<u>Ham</u> kitob o‘qidim, <u>ham</u> vazifalarni bajardim.	Kitob ham daftar ham oldim. <i>yuklama</i>	“Tafakkur” guruhi
5.	balki	Men o‘qimayman, <u>balki</u> yodlab olaman	Balki, u kelgandir. <i>modal so‘z</i>	“Yog‘du” guruhi
6.	-u, -yu	qo‘y-u qo‘zi, gul-u lola.	Men bor-u, bilib qoldi-yu. <i>yuklama</i>	“Tafakkur” guruhi

“Morfologiya” bo‘limining “Bog‘lovchi” mavzusi o‘rganiladi. Bog‘lovchi kelib chiqishiga ko`ra sof va vazifadosh kabi turlarga bo‘linadi. “Bog‘lovchilar” mavzusi o‘rganilganda, shu o‘yindan foydalanish yaxshi samara beradi. O‘yin quyidagi tartibda o‘tkaziladi. Talabalar ikki guruhga bo‘linadi. Har bir guruh talabalariga bitta bog‘lovchi aytildi va talaba shu so‘z faqat bog‘lovchi bo‘lsa bog‘lovchiga, agar bu so‘z bog‘lovchidan boshqa so‘z ham bo‘lib kelsa shu so‘zning “Juftini” ya’ni boshqa ma’noda kelayotgan shaklini topish kerak shu so‘zлади. Guruh a’zolari topshiriqni quyidagi tartibda bajaradilar.

### Adabiyotlar

1. Po‘latov I., Odilov S. Ona tili ta’limida didaktik o‘yinlar texnologiyasi. Qo‘qon: TDPU - 2014. 7-b.
2. Ziyodova T.U. Hozirgi o‘zbek adabiy tilini o‘rganishda kommunikativ jadvallardan foydalanish. T., 2002.
3. Kamenskiy Y.A. Buyuk didaktika asari. Toshkent: Sharq, -1996. 216-b

---

## O'ZBEK ROMANLARIDA MOTIVLAR RANG-BARANGLIGI

---

**Annotatsiya.** Salkam bir asr mobaynida o'zbek adabiyotida yaratilgan romanlarning badiiy xususiyatlarini qamrab olgan bo'lib, taraqqiyoti davomidagi janr tarkibidagi o'zgarishlar, jahon romanchiligining ta'siri haqidagi mulohazalar o'rinni olganligini kuzatish mumkin. Mazkur maqolada o'zbek romanchiligining taraqqiyoti, uning tarkibidagi badiiy-poetik o'zgarishlar, ayniqsa, Istiqlol yillariga kelib janr tarkibidagi mavjud an'analarning o'zgarish sabablari haqidagi fikrlar o'rinni oлган. "O'zbek romanchiligi" o'zbek adabiyotiga tegishli bo'lgan ijod namunalari, ular yaratgan asarlar badiiyati, romanring kelib chiqishi tarixi, genezisi, bir birlaridan farqli tomonlari, hozirgi davr o'zbek adabiyotining yutuq va muammolari, ijodkorlarning o'ziga xos uslubi kabilar to'g'risidagi ma'lumot ham berilgan.

**Tayanch so'zlar:** badiiy xususiyat, janr, o'zbek romanchiligi, badiiy-poetik o'zgarishlar, genezis, hozirgi davr o'zbek adabiyoti.

### РАЗНООБРАЗИЕ МОТИВОВ В УЗБЕКСКИХ РОМАНАХ

**Аннотация.** В ней освещены художественные особенности романов, созданных в узбекской литературе на протяжении почти столетия, и можно заметить, что в ходе его развития происходили изменения в структуре жанра и влиянии мировых романов. В данной статье изложены мысли о развитии узбекского романа, художественно-поэтических изменениях его содержания, особенно о причинах изменения сложившихся традиций жанра к годам независимости. «Узбекские романы» представляют собой примеры творчества, принадлежащего узбекской литературе, художественности созданных ими произведений, истории возникновения романов, их генезиса, их различных аспектов, достижений и проблем современной узбекской литературы, неповторимого стиля создатели. также приведена информация о и т.п.

**Ключевые слова:** художественная особенность, жанр, узбекский роман, художественно-поэтические изменения, генезис, современная узбекская литература.

### DIVERSITY OF MOTIVES IN UZBEK NOVELS

**Abstract.** It covers the artistic features of the novels created in Uzbek literature for almost a century, and it can be observed that the changes in the structure of the genre and the influence of world novels took place during its development. This article contains thoughts about the development of Uzbek novels, the artistic and poetic changes in its content, especially the reasons for the change in the existing traditions of the genre by the years of independence. "Uzbek novels" are examples of creativity belonging to Uzbek literature, the artistry of the works they created, the history of the origin of novels, their genesis, their different aspects, the achievements and problems of modern Uzbek literature, the unique style of the creators. information about etc. is also given.

**Key words:** artistic feature, genre, Uzbek novel, artistic and poetic changes, genesis, contemporary Uzbek literature.

**Kirish.** XX asrning o'ninchi yillaridan e'tiboran yaratilayotgan o'zbek romanlari xalqimizning estetik ehtiyojini qondirishga bo'lgan intilishlar samarasini o'laroq, ijodiy tafakkur va janr poetikasining tadrijiy taraqqiyotini ta'minladi. Yuksak umuminsoniy g'oyalarni, yangilanish jarayoni tabiatini, badiiy tafakkur va ijodiy tajriba takomili borasidagi o'zgarishlarni betakror badiiy shakllarda aks ettirgan o'zbek romanchiligi tadrijini yaxlit holda kuzatish ma'naviy-estetik tafakkur sarchashmalarini davrimizga hamohang tarzda anglash imkonini beradi.

Jahon adabiyotida, qolaversa, o'zbek adabiyotida roman janri uning vujudga kelishi haqida

68 turli adabiy tanqidiy qarashlar vujudga kelganligini ko'ramiz [1]. Roman nazariyasi va roman janrining tarixi muammosi haqida ham nazariy tushunchalar vujudga kelgan [2; 176-b.]. Keyingi yillarda esa roman janrining badiiy estetik xususiyatlari ya'ni, roman poetikasi haqida ham ko'plab tadqiqotlar yaratildi. Hozirgi o'zbek adabiyotida mavjud badiiy shakllarnng ko'pchiligi, uslub vositalari, nozik latofat, yuksak badiiy mahorat xalqimizning necha asrlik adabiy-badiiy kashfiyotlariga tutashdir. Zero, dunyo xalqlari so'z san'ati hamisha madaniy-adabiy hamkorlik zaminida rivojlanadi. Uzoq o'tmishning umuminsoniy g'oyalari, badiiy obrazlari, shakliy-uslubiy vositalari ulug' qalam sohiblari uchun hamisha ilhom bulog'i bo'lib kelgan.

**Adabiyotlar tahlili.** Roman janri har bir xalq adabiyotining o'ziga xos jahatlarini namoyon etuvchi janr sifatida baholanmoqda. Chunki roman voqelikning butun kengligi va o'ta murakkab tomonlarini ham o'zida mujassamlashtiruvchi janr sifatida ijtimoiy jamiyatning mohiyatini to'liqroq ochishga, insonning o'zligini anglash, ruhiy iztiroblari, inson va jamiyat, jamiyat va inson o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni badiiy tadqiq etuvchi asardir. «Badiiy asar sifatida romanning vazifasi kundalik hayotdan va tarixiy voqealardan barcha tasodifiy narsani olib tashlash, ularning yashirin qalbiga, jonli ideyasiga kirish, tashqi, tarqoq voqealarni ruh va aql maskani qilishdir. Roman badiiyligining darajasi asosiy ideyaning chuqurligiga va ayrim xususiyatlardan u ideyaning tashkil etgan kuchga bog'liqdir», - deb ta'rif etadi rus adabiyotshunosi V.G.Belinskiy [3; 176-b.].

Darhaqiqat, roman janri voqelikni bir butunligicha badiiy tahlil etib, insonga ijtimoiy munosabatlar qonuniyatini, tarixiy o'zgarishlarni inson ruhiyati orqali namoyon etuvchi xususiyatini teran tahlil etishga qaratilgan. Shuning uchun ham «Roman uchun hayot odamdadir, inson qalbining, inson ruhining mistikasi, inson taqdiri, xalq hayotiga uning hamma munosabatlari roman uchun boy materialdir», deya qayd qilsa, M.Baxtin esa «Roman boshidan zamonni his etish zamonida shakllandi va rivojlandi», - deb ko'rsatadi. Shuningdek, P.Zarev «Romanning birinchi va asosiy vazifasi – jamiyatni tadqiq etish va anglashdir», - deb yozadi. Haqiqatdan ham, jamiyatni uning asosiy tayanchi bo'lган inson va uning xarakteri orqali namoyon etuvchi vositadir. «O'zbek, qirg'iz, turkman romani o'zbek, qirg'iz, turkman kitobxonlari tomonidan milliy roman tarzida, yangi milliy shakldagi xalq tafakkurining, xalq ongingin ifodasi tarzida, yaratuvchilik- ijodiy qobiliyatning, o'z badiiy so'zlarning taraqqiyoti tarzida qabul etildi », - deb qayd qilgan edi Muxtor Avezov.

Romanga xos tafakkur haqida so'z yuritgan adabiyotshunos S.Mamajonov shunday yozadi: «... eng avvalo hayotni, voqealikni bir butunligicha, yaxlitligicha –butun ziddiyatlari ...insonning ruhiy izlanishlarini teran tahlil qilishda, yozuvchining hayotga, voqelikka va insonga yangicha qarashi, uning o'z konsepsiyasiga ega bo'lishi, g'oyaviy pozitsiyasining aniq va mustahkamligida ko'rindi».

So'z san'atining rivojida roman muhim o'rinn tutganligini ko'rish mumkin. Roman boshqa janrlardan voqelikni keng qamrovda badiiy obrazlar vositasida ifodalashi bilan ajralib turuvchi janrdir. Roman o'z mohiyati va yo'nalishiga ko'ra yildan-yilga rivojlanib hayotni, inson ruhiyatini chuqur va har tomonlama badiiy tasvirlayotgani bilan o'z janriy xususiyatlarini namoyon qildi.

Jahon romanchilik taraqqiyoti shuni ko'rsatadiki, har qanday janr o'zining ma'lum bir xususiyatlari bilan xalq og'zaki ijodi bilan chambarchas bog'liq holda bo'lган. Shuningdek, o'zbek romanchiligi ham ma'lum darajada ana shu xususiyatlarni o'zida mujassamlashtirgan. To'g'ri, milliy roman janrining vujudga kelishida xalq og'zaki ijodi an'alarini ta'sirini alohida qayd qilib o'tish zarur. Bu xususiyat jahon adabiyotidagi roman janrining tarixida ham mavjudligini M.Baxtin: «...unda borliqni falsafiy bilish imkonni to'la shakllanganligi» da deb ko'rsatadi. Milliy romanchilikning tug'ilishiga nazar qilinsa, uning milliy adabiy zamin bilan birga, ichki imkoniyatlar asosida rivojlanib borganligini ko'ramiz. To'g'ri, biz jahon romanchiligin o'zbek romanchiliginning vujudga kelishida ta'siri yo'q degan fikrdan yiroqmiz. Ammo roman janrining tug'ilishida folklor an'analari ham o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatganligini alohida ta'kidlamoqchimiz.

«Al isloh» jurnali 1915-yil 15-iyul sonida Hamzaning «Yangi saodat» romani haqida to'xtalar ekan, shunday axborot beradi: «Yangi saodat ismli 46 sahifali turkiy va Turkiston shevasinda bir milliy ro'monning yangidan tab' bo'lub, nashr qilinuvni bizni ko'p masrur etdi. Xalqni o'quv va yozuv tarafiga targ'ib qilmoq uchun hozirg'acha Turkiston shevasinda

buningdek ta'sirli ro'mon nashr o'linmamish, desak mubolag'a bo'lmasa kerak. Bu ro'monning muharriri Hamza Hakimzoda Niyoziy janoblari va noshiri Xo'qandda «Madoro» kutubxonasiidir. «Yangi saodat» asarining janri muallif tomonidan «milliy ro'mon» deb belgilangan bo'lib, ushbu asarni o'zbek adabiyotida roman janrini yaratishga bo'lgan dastlabki urinish deb qarash to'g'ri bo'ladi. Haqiqatan ham bu roman yaratilgan davrlarda ilk «ta'sirli ro'mon» sifatida e'tirof etilgan. Uning nashridan ilmiy-adabiy jamoatchilik «ko'p masrur» bo'lganligida zinhor mubolag'a yo'q.

Adabiyotshunos olim Yu.Sultonov yozuvchining avtobiografiya-siga tayangan holda Hamza 1908-yildayoq «*Haqiqat kimda?*» nomli «ro'mon» yaratgan degan fikrni ilgari suradi<sup>9</sup>. Shoiringning «*YAshil gul*», «*Sariq gul*» (1916) to'plamlari oxirida keltirilgan «*H.Hakimzoda tarafindan tab'o'lub sotilmaqda o'lan risolalar*» ro'yxatida «*Yangi saodat*» dan tashqari «*Turmush achchiqlari*» (Milliy ro'mon.) nomli asar ham qayd qilinadi 10. Bunday faktni «*Sariq gul*» (1916) to'plamining oxiridagi ro'yxatda ham uchratamiz. Biroq bu o'rinda «*Yangi saodat*» romanı «*Turmush achchig'i*» (Milliy ro'mon) nomi bilan tilga olinadi. Mazkur asarlarning qo'lyozmasi mavjud emas. Hamzaning «*Uchrashuv*» (1916) nomli roman yozganligi ma'lum. Ayrim manbaalarda bu asar «*To'rt ishq*» nomi bilan tilga olinadi. Asar qo'lyozmasining to'la nusxasi hozirgacha topilmagan bo'lsa-da, bizgacha etib kelgan birinchi qismi nashr qilingan (1988) Keltirilgan manbaalarga tayangan holda Hamza romanlari quyidagilardan iborat degan xulosaga kelish mumkin:

1). «*Yangi saodat yoxud milliy roman*». 1908-1910-yillarda qo'lyozmasi tayyorlanib, muallif tomonidan 1914-yilda qayta tahrir qilingach, 1915-yil 5-martda «*Madoro*» kutubxonasi noshirligida bosilib chiqqan. Keyinchalik Hamza besh tomlik “*To'la asarlar to'plami*”ning. Ikkinchi tom (1988) iga kiritilgan.

2). «*Haqiqat kimda?*». Bu asarning 1908-yilda yozilganligi fakti ma'lum.

3) «*Turmush achchig'i*»(Milliy roman) 1916-yilda nashr qilinganligi haqida ma'lumot bor.

Adabiyotshunos L.P.Qayumov Hamza romanlari haqida to'xtalar ekan, quyidagilarni ta'kidlaydi: «*O'zbek adabiyoti tarixida romanning birinchi namunasini, shu termin, shu janr, shu tushunchani birinchi marta olib kirgan*» [4].

Dunyo adabiyoti tarixiy taraqqiyotidan shu narsa ma'lumki, barcha xalqlar adabiyotida xoh og'zaki shaklda bo'lsin, xoh yozma shaklda bo'lsin dastlab nazmiy asarlar vujudga kelgan. Davrlar o'tishi mobaynida nazmiy asarlar o'rnida nasriy asarlar ham vujudga kela boshlagan. Bu adabiy hodisani g'arb xalqlari adabiyotida ham, sharq xalqlari adabiyotida ham kuzatish mumkin.

**Tahlil va natijalar.** Roman so'zi fransuzcha roman-dastlab roman tillarida yozilgan asarlarni ifodalagan. Keyinchalik esa katta hajmli epik asarlarga nisbattan qo'llanila boshlagan. Roman termini va uning kelib chiqishi haqida turlicha qarashlar mavjud. Bu haqida L.Timofeev, A.Abramovich, A.Shevilo, N.Vengerov, Piyer Deks, Ralf Foks, Emil' Litter o'zbek adabiyotshunoslardan Izzat Sulton, B.Sarimsoqov, S. Mirvaliev kabi olimlarimiz ham o'z qarashlarini bayon qilgan. Roman termini haqida asosan ikki xil qarash mavjud bo'lib, L. Timofeevning ta'rifiga ko'ra, «Bu termin taxminan XII-XIII asrlarda g'arbiy evropa adabiyotida roman tili bilan bog'liq ravishda yuzaga kelgan. Keyinchalik esa-badiiy asarning roman tilida yaratilganligini anglatgan. Ammo, davrlar o'tishi bilan katta epik asarlarga nisbatan qo'llangan», - deb xulosa chiqaradi.

Darhaqiqat, L. Timofeevning roman termini haqidagi qarashlari fransuz olimi Emil Litterning fikriga juda yaqin: «Eski (roman) tilida she'riy yoki nasriy yo'lda yozilgan bo'lib, haqiqiy yoki afsonaviy voqealarni tasvirlovchi asar. YOki, nasriy yo'lda yozilgan afsonaviy tarix, bunda avtor dahshatli yoki odatdan tashqari voqealarni tasvirlaydi», - deb qayd qiladi. Fransuz olimlaridan yana biri P. Deks: «Roman, fransuzcha so'z o'yini bilan bog'liq bo'lib, buni boshqa tillarda ifodalab bo'lmasligini», - ko'rsatadi [5; 26-27-b.]

L.Shevilo roman termini haqida: «...o'rta asrning ko'pgina romanlarida turmush haqiqiy holidagidan ko'ra ancha yorqin, ajoyibroq tasvirlanganligini inobatga olib, o'rta asr kitobxoni dastlab uni qadimgi hayotning ajoyib turli-tumanligi bilan, jumladan, unga ancha yaqin bo'lgan qadimgi Rim hayoti bilan taqqoslash mumkin», -degan xulosaga keladi.

To'g'ri, XII-XIII asrlardagi roman termini paydo bo'lgani bilan hozirgi roman tushunchasini berolmasligini unutmaslik kerak. XII-XIII asrlarda fransuz, italyan, portugal, roman tillarida yozilgan hikoyalarni boshqa tillarda yozilgan epik asarlardan farqlab turish uchun roman deb

70 atashgan. Nemis olimi A.Felkerning qayd qilishicha, so‘nggi davrlargacha «roman» termini ostida asosan «ritsar tarixi» tushunilganligini yozadi. Dastlab, hikoyalash, bayonlash yo‘li bilan yuzaga kelgan «roman»larda ritsarlar sarguzashtlari tasvirlangan. Shuning uchun ham o‘rta asrlardagi ritsar romanida ayrim feodallar, ularning sarguzashtlari, qahramonliklari fantastik bo‘yoqlarda ifodalanganligi uchun ham, ularga bugungi kundagi bizning nazarimizdagi «roman» termini o‘Ichovi bilan qarab bo‘lmaydi. Ana shu ma’nodagi romanlar XIV asrda Angliyada, XVII asrda nemis tilida, XVIII asrda rus tilida vujudga kelgan. Bu davr romanlari ham o‘z davri uchun tarixiy sharoit tufayli vujudga kelgan, hamda o‘z davriga nisbatan badiiy qiymatini yo‘qotmaydi. XVIII asrlardan boshlab haqiqiy ma’nodagi romanlar yaratila boshladi. Bu davrga kelib, roman keng epiklik bilan bir qatorda, psixologik tasvir jihatidan ham ancha boyib bordi. Chunki bu davrda Filding, Stollet kabi ijodkorlarning ijtimoiy-maishiy romanlari bilan bir qatorda Russo, Gyotelarning psixologik romanlari vujudga keldi. Shuning uchun ham adabiyotshunos S.Mirvaliev: «XVIII asr romanlari XIX va XX asr realistik romanlari uchun fundament bo‘ladi. Agar inson obrazi XVIII asr romanlariga asta-sekin kirib kela boshlagan bo‘lsa, XIX asarning ikkinchi yarimlaridan shaxs va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlar roman asosini tashkil etadi»[6; 14-18-b.]. Keyinchalik roman janrining yangi turi bo‘lgan-tarixiy roman yuzaga kelgan bo‘lib, uning namoyandalari Valter Skott, Viktor Gyugo va Gogol kabi ijodkorlar deb e’tirof etiladi. XIX asrning ikkinchi choragidan boshlab roman janrining tarixiy taraqqiyotida klassik davr boshlanganidan dalolat beradi. Bu davrga kelib esa, Stendal, Balzak, Dikkens, Lermenov, Turgenev, Flober va Mopassanlarning o‘nlab romanlari yaratilishi bilan alohida ajralib turadi. XIX asrning ikkinchi choragida rus adabiyotida L.Tolstoy, F.Dostoevskiyarning etuk san’at asari hisoblangan romanlari yaratilgan davr bo‘ldi. Bu romanlar jahon romanchiligining rivojiga o‘zlarining sezilarli ta’sirini ko‘rsatdi.

Jahon romanchiligining uzviy bo‘lagi bo‘lgan o‘zbek adabiyotida romanchilik XX asrning birinchi yarmiga kelib vujudga keldi. Shuning uchun rus adabiyotshunosi E.E.Bertels haqli ta’kidlaganidek: «...Dunyoda beshta, ya’ni fransuz, rus ingliz, nemis va hind romanchilik maktabi bor edi. Endi oltinchisini, ya’ni o‘zbek romanchilik maktabini Abdulla Qodiriy yaratib berdi», - deb yozgan edi. Mana bu romanlar esa tom ma’nodagi badiiyat namunalari deb qaralmoqda. Shu tarzda roman termini ham o‘z ifodasini topib kelmoqda.

O‘zbek adabiyotida H.H.Niyoziy yetuk romanlar yaratmagan bo‘lsa-da, roman terminini ilk marta qo‘llagan adib bo‘lib, shuning bilan birga roman janriga qo‘yilgan ilk qadam sanaladi.

**Xulosasi.** Umuman, xalq og‘zaki ijodidagi mavjud an’analar, roman janriga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatganligini ko‘ramiz. Shuningdek, bu kabi an’analar roman janrining shakllanishiga emas, balki rivojiga ham sezilarli ta’sirini ko‘rish mumkin. Shuning uchun bugungi kun romanlarida qahramonlar xarakterini ochishda, ularning ichki dunyosini yoritishda xalq maqollari, afsonalaridan ham unumli foydalanimoqda.

## **Adabiyotlar**

1. Матылева Т. Зарубежный роман сегодня. - М.; «Сов. писатель», 1965; Евнина, Современный французский роман. – М.; 1962; Днепров В. Черты рамана XX века, - М.-Л.: «Сов..писатель», 1965.
2. Mirvaliyev S. O‘zbek romani. – T.: “Muxlis”, 1969.
3. Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. – T.: “O‘qituvchi” 1986.
4. Belinskiy V.G. Tanlangan asarlar. – T.: 1955-yil, 176-bet.
5. Qayumov L. Hamza Hakimzoda Niyoziniing izhtimoiy-siyosiy faoliyati va poetik ijodi. Fil. fanlari doktor... diss. – T.: 1963-yil.
6. Декс П. Самъ Веко романа. - М.: 1962. стр 26-27.
7. Mirvaliyev S. Ozbek Romani. – T.: 1969, 14-18-betlar.
8. Saloxitdinova N. (2021). Development prospects of primary education integration (on the example of exact and natural sciences). Общество и инновации, 2(7/S), 221-225.
9. Salohiddinova, N. (2022). Integration of exact and natural sciences concepts (On the example of exact and natural sciences). Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL), 3(11), 158-165.

## **ПОВЫШЕНИЕ КАЧЕСТВА ОБУЧЕНИЯ СТУДЕНТОВ ВУЗА МЕТОДОМ ВНЕДРЕНИЯ ЭКСПЕРТНОЙ ОЦЕНКИ КОМПЕТЕНЦИЙ**

**Аннотация:** В статье рассмотрен ряд предложенных авторами алгоритмов: построения формализованных критериев для оценки качества объектов образовательного процесса, принятия решений по результатам тестирования, принятия решения на основе неоднородной последовательной процедуры распознавания.

**Ключевые слова:** цифровая экономика, система профессионального образования, интеллектуализация экономики, устойчивое региональное развитие, управление человеческими ресурсами.

### **IMPROVING THE QUALITY OF TEACHING UNIVERSITY STUDENTS BY IMPLEMENTING EXPERT ASSESSMENT OF COMPETENCIES**

**Annotation:** The article considers a number of algorithms proposed by the authors: building formalized criteria for assessing the quality of objects of the educational process, making decisions based on test results, making decisions based on a heterogeneous sequential recognition procedure.

**Key words:** digital economy, vocational education system, intellectualization of the economy, sustainable regional development, human resource management.

### **KOMPETENSIYATLARNI EKSPERTIK BAHOLASH METODI ORQALI, OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARINI O'QITISH SIFATINI OSHIRISH**

**Annotatsiya:** Maqolada mualliflar tomonidan taklif qilingan bir qator algoritmlar ko'rib chiqiladi: o'quv jarayonidagi ob'ektlar sifatini baholashning rasmiylashtirilgan mezonlarini qurish, test natijalari bo'yicha qarorlar qabul qilish, heterojen ketma-ket tanib olish tartibi asosida qarorlar qabul qilish.

**Kalit so'zlar:** raqamli iqtisodiyot, kasb-hunar ta'limi tizimi, iqtisodiyotni intellektuallashtirish, barqaror mintaqaviy rivojlanish, inson resurslarini boshqarish.

**Введение.** Применение экспертного оценивания позволяет получить наиболее полную информацию о состоянии образовательного процесса и особенно тех его составляющих, для оценки которых невозможно использовать количественные показатели. На рис. 1 приведена общая схема оценки качества обучения студентов с использованием разработанных авторами алгоритмов.


Предлагается комплексный алгоритм обработки и анализа результатов экспертных оценок, схема которого представлена на рис. 2. На основе этого алгоритма решена, в частности, задача выявления требований руководителей предприятий и фирм к молодым специалистам [1].

#### **Результаты**

Факторный анализ использовался для понижения размерности множества исходных признаков и получения формализованных критериев для количественной оценки качества объектов образовательного процесса. Основная модель факторного анализа представлена формулой (1) [2].

$$x_i = \sum_{j=1}^k \alpha_{ij} f_j + e_i, i = 1, \dots, p, \quad (1)$$

72 где  $f_j$ ,  $j = 1, \dots, k$  – латентные переменные (факторы),  $k < p$ ;  $x_i, \dots, i = 1, \dots, p$  – наблюдаемые переменные (исходные признаки);  $a_{ij}$  – факторные нагрузки;  $e_i$  – случайная ошибка измерения.



**Рис. 1. Схема оценки качества обучения**

Полученные факторы представляют собой линейные функции вида:

$$Y_i = f_{11} \cdot x_1 + f_{12} \cdot x_2 + \dots + f_{1p} \cdot x_p, \quad (2)$$

где  $i = 1, \dots, m$ ;  $j = 1, 2, \dots, p$ ;  $m$  – количество факторов;  $p$  – количество переменных;  $f_{ij}$  – нагрузка  $i$ -го фактора на  $j$ -ю переменную;  $x_j$  – переменные. Предлагается использовать функцию вида (2) в качестве формализованного критерия для оценки качества объектов образовательного процесса.

Для выделения имеющихся однородных групп (типов) исследуемых объектов в работе использовался метод  $k$ -средних кластерного анализа.

В [3] показана эффективность работы предложенного подхода на примере решения следующих прикладных задач: оценка качества содержания учебных дисциплин; оценка качества преподавательской деятельности. Так, например, в задаче оценки профессиональных качеств преподавателей получены следующие формализованные критерии (исходные признаки  $x_i$  являются результатами анкетирования студентов):

– критерий  $Y_{\text{ПедМ}}$  – для оценки педагогического мастерства преподавателя:  $Y_{\text{ПедМ}} = 0,87x_1 + 0,87x_2 + 0,92x_3 + \dots + 0,83x_4 + 0,88x_5 + 0,78x_6 + 0,89x_7 + 0,68x_8 + 0,79x_{14}$ ;

– критерий  $Y_{\text{ЛичК}}$  – для оценки личностного качества преподавателя:  $Y_{\text{ЛичК}} = 0,93x_9 + 0,73x_{12} + 0,60x_{13} + 0,54x_{18}$ ;

– критерий  $Y_{\text{ПрофК}}$  – для оценки профессиональной компетентности преподавателя:

$Y_{\text{ПрофК}} = 0,86x_{10} + 0,51x_{11}$ , где  $x_1$  – доступное изложение материала;  $x_2$  – разъяснение сложных мест;  $x_3$  – выделение главных моментов;  $x_4$  – умение вызывать и поддерживать интерес аудитории к предмету;  $x_5$  – обратная связь с аудиторией;  $x_6$  – побуждение к дискуссии;  $x_7$  – логика в изложении;  $x_8$  – культура речи;  $x_9$  – умение снять напряжение аудитории;  $x_{10}$  – ориентация на использование изученного материала в будущей деятельности;  $x_{11}$  – творческий подход;  $x_{12}$  – доброжелательность и тактичность;  $x_{13}$  – терпение;  $x_{14}$  – требовательность;  $x_{15}$  – заинтересованность в успехах студентов;  $x_{16}$  – объективность в оценке знаний;  $x_{17}$  – уважительное отношение к студентам;  $x_{18}$  – эрудиция.




Рис. 2. Схема алгоритма обработки и анализа результатов экспертного оценивания

Применение кластерного анализа при решении данной задачи позволило выявить основные типы преподавательской деятельности [4].

### **Обсуждение**

С помощью корреляционного анализа определяется наличие связи между показателями, формируется матрица парных коэффициентов корреляции и на этой основе проводится анализ взаимозависимости показателей.

2. Будет проведен регрессионный анализ выбранных показателей, и на его основе будет создана корреляционно-регрессионная модель востребованности специалистов.

3. Проводится верификация (определение достоверности) прогноза (предсказания). Система прогнозирования опирается на коэффициенты регрессии и их тенденции во времени и включает следующие три основных блока:

- блок системы уравнений регрессии;

Общая среднесписочная численность работников организаций, предоставивших данные по трудоустройству выпускников, составляет более 80% от общей численности работников отрасли, поэтому рассматриваемую выборку можно считать достаточно представительной.

Расчеты потребности в специалистах с высшим образованием проводились по статистическим данным прошлых лет и прогнозным данным до 2022 года, предоставленным предприятиям отрасли.

Распределенный характер предприятий строительной отрасли определяет необходимость учета трудоустройства молодых специалистов по регионам Республики Узбекистан. Как видно из приведенной ниже диаграммы (рис.1), наиболее востребованными в отрасли являются специалисты, окончившие учебные заведения по следующим укрупненным группам направлений подготовки.

Доля специальностей, наиболее востребованных при отборе выпускников организациями

- блок предсказания коэффициента регрессии;
- блок прогнозирования потребности в специалистах.

### **Заключение**

Ниже приведены некоторые данные моделирования и расчета потребности отрасли в выпускниках с высшим профессиональным образованием. В рамках работ по проектированию программного комплекса, реализующего динамическую модель многовариантных прогнозов потребности атомной отрасли в молодых специалистах, был проведен анализ имеющейся статистической информации по данному вопросу.

### **Литературы**


1.Fazilov A.Sh.,Kuchimov M.K. Разработка математической модели и программного комплекса для оптимизации обработки информации и информационных систем.// QarDU XABARLARI Ilmiy-nazariy,uslubiy jurnal.№ 2(44), 2020, Qarshi -B.15-22.(02.00.00; №44)

2.Kuchimov M. K. Yeffiectivye yemploymyent managyemyent model of univyersty graduatyes. //Procyeedings of 5th Intyernational Multidisciplinary Sciyentific Confyeryencye on Innovativye Tyechnology Hostyed from San Fransisco,SA <https://conferencepublication.com> Fyebruary 28th 2021.

3.Kuchimov M.K. Разработка алгоритма оптимизации распределения выпускников ВУЗа //QarDU XABARLARI Ilmiy-nazariy,uslubiy jurnal.№ 1(14), 2021, Qarshi -B.4-7.(02.00.00; №44)

4.Кучимов М.К. Разработка алгоритма и программно-комплексной модели управления эффективным трудоустройством выпускников воза. //Архитектура ва курилиш

### Доля специальностей, наиболее востребованных при отборе выпускников организациями сети.



**Рис. 3. Доля специальностей, наиболее востребованных при отборе выпускников организациями**

## O'QITUVCHILARDA BIOLOGIYA FANIGA DOIR KASBIY KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISH VA TARMOQLASH

*Annotatsiya.* Ushbu maqolada bugungi kunda ta'lim tizimidagi holatlar, O'zbekiston Respublikasining Xalq ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasidan keltirilgan fikrlar, O'zbekiston Respublikasining O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasining "Maktabgacha, umumiyo o'rta, o'rta maxsus, professional va mакtabdan tashqari ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarni atestatsiyadan o'tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari" to'g'risidagi qarorda belgilangan vazifalarini o'qituvchi kasbi uchun keltirilgan jihatlari, hamda ta'limning bir qator shakllari haqida fikr va mulohazalar keltirilgan.

*Kalit so'zlar:* Bilim, ta'lim, kompetentlik, kompetensiya, ta'lim paradigmalari, dual ta'lim.

### ФОРМИРОВАНИЕ И СЕТЬ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ В НАУКЕ БИОЛОГИЯ У ПЕДАГОГИ

**Аннотация:** В данной статье рассмотрено состояние системы образования на сегодняшний день, идеи из Концепции развития системы государственного образования Республики Узбекистан до 2030 года Кабинета Министров Республики Узбекистан «Совершенствование порядка аттестации». педагогических кадров дошкольных, общесредних, среднеспециальных, профессиональных и внешкольных образовательных организаций «Меры» содержат мнения и комментарии по аспектам задач, определенных перед педагогической профессией, а также ряду форм обучения.

**Ключевые слова:** Знания, образование, компетентность, компетентность, образовательные парадигмы, дуальное образование.

### FORMATION AND NETWORK OF PROFESSIONAL COMPETENCE IN THE SCIENCE OF BIOLOGY IN TEACHERS

**Abstract:** In this article, the situation in the education system today, the ideas from the concept of the development of the public education system of the Republic of Uzbekistan until 2030, the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan "Improving the procedure for attestation of pedagogic personnel of preschool, general secondary, secondary special, professional and extracurricular educational organizations "Measures" contains opinions and comments about the aspects of the tasks defined for the teaching profession, as well as a number of forms of education.

**Key words:** Knowledge, education, competence, competence, educational paradigms, dual education.

**Kirish.** Zamonaviy ta'limda o'qituvchi faqat mavzuga oid axborot, ma'lumot va aniq bilimlarni mohirona yetkazuvchi shaxsgina emas, balki o'quvchining yaqin maslahatchisi, yosh tadqiqotchining ilmiy rahbari, shaxsni rivojlantirishga qaratilgan vazifalar majmuasining loyihalashtiruvchisi, ta'lim muhitining "navigatori" kabi vazifalarini bajaruvchi ko'pqirrali faoliyat egasidir (Ya.I. Kuzminov, I.D. Frumin va boshqalar) [2; 49-b].

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** O'qituvchining zamonaviy ta'lim paradigmalarini sharoitlarida shakllangan talablarga muvofiqlik darajasini o'rganish bo'yicha tuzilgan Yevropa mamlakatlari ishchi guruhining xulosasiga ko'ra, bu muammoning yechimi quyidagi vazifalarning bajarilishini o'z ichiga olishi lozim:

a) o'qituvchilar uzlusiz kasbiy ravnaq va kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayoniga qizg'in jalb etilishi va ularning bu jarayondagi faoliyatni rag'batlantirilishi;

b) pedagog kasbiy kompetentliliqi modeli va uning maqsadlariga mos tushadigan vositalar hamda texnologiyalardan foydalangan holda uning kasbiy faoliyatining muvaffaqiyatini ta'minlovchi kompetentlilik darajasini tadqiq etish rejali tarzda olib borilishi;

d) butun kasbiy faoliyati davomida o'qituvchi zarur kompetensiyalarni egallashi, o'z kasbiy va shaxsiy sifatlarini rivojlantirib borishi uchun zarur darajadagi imkon yaratilishi lozim [3, 61-b].

Ta'lim paradigmalari o'zgaruvchan, ta'limning o'zi tizim va jarayon sifatida paradigmal xususiyatga ega ekan, uning barcha subektlari faoliyatini, binobarin, o'qituvchi kasbiy faoliyatini (bizning tadqiqotimizda – o'qituvchining kasbiy kompetentliligini) monitoring qilish metodikasini takomillashtirish modeli ham moslashuvchanlik xarakteriga egadir.

O'qituvchi kasbiy kompetentliligini monitoring qilish metodikasini takomillashtirish modeli qurishda o'qituvchi shaxsi individual kasbiy tajriba manbai sifatida asosiy maqsad obekti o'laroq qaraladi va mazkur modelda biologiya o'qituvchisining kasbiy kompetentliliqi strukturasidagi "yetishmovchilik", uning faoliyat subyekti sifatidagi ehtiyojlari hamda uning kasbiy takomilining asosiy yo'nalishlari ham o'z aksini topadi.

Biz mazkur bobning ikkinchi faslida biologiya o'qituvchisining kasbiy kompetentliliqi shakllanganlik darajasini monitoring qilish metodikasini zamonaviy ta'lim paradigmalari sharoitlariga muvofilashtirish asnosida shaxsiy-jarayonli yondashuv talablaridan kelib chiqib, bu kompetentlilikning beshta strukturaviy majmuadan iboratligini hamda ular orasida psixologik va pedagogik kompetentlilik majmualari muhimlik darajasi bo'yicha yetakchi o'rinda ekanligini qayd etgan edik. Biroq o'qituvchi faoliyatining tadqiqiga bag'ishlangan ishlarning yetarli darajada ekanligiga qaramasdan, uning kasbiy kompetentliligining pedagogik va psixologik strukturaviy majmularini to'liq va ishonarli tarzda aniqlab beradigan metodikalar yetarli emas [4, 29-b].

Shuning uchun o'qituvchi kasbiy kompetentliliqi shakllanganligini monitoring qilish metodikasini takomillashtirish modelida biologiya o'qituvchisi kasbiy faoliyatining psixologik, pedagogik, metodik, umummadaniy va emotSIONAL-AXLOQIY qirralarini o'rganishning axborotli ta'minotini yaratish ustida ish olib borildi. Biz bu maqsadda pedagogik, psixologik, metodik testlar majmuasini ishlab chiqdik. Mazkur testlarni tahlil qilish orqali biologiya o'qituvchisining kasbiy faoliyatini tadqiq etish faoliyatli yondashuvni joriy etish orqali amalga oshirildi. Faoliyatli yondashuv biologiya o'qituvchisining kasbiy kompetentliliqi shakllanganlik darajasini bevosita faoliyat asnosida o'rganish imkoniyatlarini yaratadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Modelni qurishda biologiya o'qituvchisining kasbiy kompetentlilikini monitoring qilish – o'qituvchi kasbiy takomilining axborotli asosi (kompetentlilikning "yetishmaydigan" komponentlarini o'rganish, kasbiy rivojlanish ehtiyojining darajasi haqidagi raqamli va matnli ma'lumotlar) ga ega bo'lishni ta'min etadigan tashxisli-bashorat maqsadidagi kuzatishlarni o'z ichiga olgan refleksiv baholash jarayoni ekanligi [5, 26-b] haqidagi fikrdan kelib chiqildi.

O'qituvchi kasbiy kompetentlilikini monitoring qilish modeli monitoring tashkil qilish va o'tkazish texnologiyalari hamda metodikasida amal qilinadigan barcha tamoyillar asosida ishlab chiqildi. Bu tamoyillar quyidagilardir: ilmiylik, yaxlitlik, obektivlik, usluksizlik, baholash mexanizmlariga asoslanganlik, mezonlar tizimining mavjud sharoitlarga moslashtirilganlik, shaffoflik, relevantlik, axborotning muhofaza qilinganlik va o'qituvchining shaxsi bilan bog'liq boshqa qator tamoyillar. O'qituvchi kasbiy kompetentlilikini monitoring qilish metodikasini takomillashtirish modeli tizim va invariantlilik xususiyatiga ega bo'lgan tuzilma sifatida qaraladi. Bu tuzilmaning tarkibi quyidagi komponentlarni o'z ichiga oladi:

- a) asosiy vazifalar (monitoring doirasida hal etilishi ko'zda tutilgan);
- b) vazifalarning bajarilishini ta'minlash uchun ishlab chiqilgan mundarijaviy mazmun;
- d) monitoring jarayonini boshqarish va monitoring bosqichlari mantiqiy invariantli ketma-ketligini namoyon qiluvchi texnologik amaliyotlar;
- e) monitoring jarayonining texnologik jihatdan mufassal o'tishini ta'minlovchi shart-sharoitlar;
- f) natijalar tahlili va tashxisi.

78 O'qituvchi kasbiy kompetentliligin monitoring qilish metodikasini takomillashtirish modeli doirasida ko'zda tutilgan vazifalar sifatida quyidagilarni belgiladik:

-o'qituvchining yangilangan paradigmalar sharoitida olib boradigan faoliyatining o'zgarishini ta'minlaydigan nazariy-metodologik asoslarni aniqlashtirish;

-o'qituvchi kasbiy kompetensiyalarining yangilangan ta'lism paradigmalari sharoitida pedagogik, didaktik, o'quv vazifalarini muvaffaqiyatli bajarish uchun zarur bo'lgan majmularini monitoring obyekti sifatida ajratib olish va alohida o'rganish;

-o'qituvchi kasbiy kompetentliligin monitoring qilishning mavjud metodikasini biologiya bo'yicha yangilangan ta'lism paradigmalari sharoitlariga muvofiqlashtirish (bu vazifani ushbu bobning 2-faslida bajarilgan deb hisoblash mumkin);

-o'qituvchi kasbiy kompetentliligin monitoring qilish metodikasining takomillashtirilgan variantining samaradorlik darajasini tajriba-sinov ishlari davomida amaliy sharoitlarda tekshiruvdan o'tkazish;

-o'qituvchi kasbiy kompetentliligin monitoring qilishning takomillashtirilgan metodikasini amaliy sharoitlarga tatbiq etish natijasida qo'lga kiritilgan ma'lumotlarni tahlil qilish va natijalar asosida mazkur modelning samaradorlik darajasini tashxislash.

O'qituvchi kasbiy kompetentliligin monitoring qilish metodikasini takomillashtirishning ikkinchi komponenti – modelning mazmun-mundarijasi, uchta bosqichni o'z ichiga oladi:

-biologiya o'qituvchisi kasbiy tayyorlanganligining nazariy va amaliy jihatlarini o'rganish hamda bu boradagi "yetishmovchiliklar", o'z-o'zini kasbiy rivojlantirish ehtiyojining darajasini o'rganish;

-biologiya o'qituvchisining kasbiy tayyorlanganlik darajasiga tayangan holda o'qituvchi kompetentlili shakllanganligini aniqlashning mezonlarini ishlab chiqish (mezonlar majmuasi mazkur bobning 2-faslida ishlab chiqilgan);

-biologiya o'qituvchisining kasbiy kompetentliligin tegishli mezonlar bo'yicha bevosita monitoringini amalga oshirish (mazkur bobning 2-faslida keltirilgan ilovalar, test-topshiriqlari, ijodiy testlar va biologiya bo'yicha viktorinalar. Psixologik, pedagogik, metodik kompetentlilik strukturaviy majmularini aniqlashga qaratilgan testlar, so'rov nomina mazmuni tajriba-sinov ishlari davomida keltirib o'tiladi).

**Tahlil va natijalar.** Modelning monitoring jarayonini boshqarish va monitoring bosqichlari mantiqiy invariantli ketma-ketligini namoyon qiluvchi texnologik amaliyotlar deb nomlangan komponenti:

-shaxsiy yondashuvni joriy etish orqali o'qituvchining erishgan yutuqlariga zamin yaratgan kasbiy sifatlarini, faoliyatni tashkil etish mahsuldarligini o'rganish;

-jarayonli yondashuvni joriy etish orqali o'qituvchining pedagogik, psixologik, kommunikativ faolligini o'rganish;

-faoliyatli yondashuv asosida o'qituvchining bevosita o'quv-tarbiya faoliyatidagi o'ziga xos shaxsiy va kasbiy jihatlarini o'rganishni nazarda tutadi [6, 52-b].

Biologiya o'qituvchisi kasbiy kompetentliligin monitoring qilish metodikasini takomillashtirish modelining monitoring jarayonining texnologik jihatdan mufassal o'tishini ta'minlovchi shart-sharoitlar deb nomlangan komponenti monitoring o'tkazish texnologiyasiga joriy etiladigan didaktik, texnologik, pedagogik va psixologik talablarning bajarilishi talab etadi. Bu talablar monitoring o'tkazish jarayonida amal qilinadigan asosiy tamoyillarga amal qilishni o'z ichiga oladi. Va nihoyat modelning so'nggi komponenti, ya'ni natijalar tahlili va tashxisi deb nomlangan komponent takomillashtirilgan metodikalar asosida olingan yakuniy natijalar, biologiya o'qituvchisining kasbiy kompetentliligin uning o'z-o'zini rivojlantirish va yangilangan ta'lism paradigmalari sharoitidagi talabalar asosida "to'ldirish", metodik tavsiyalar berishni o'z ichiga oladi.

O'qituvchi kasbiy kompetentliliginning strukturasi, o'quv-tarbiya jarayonidagi mohiyatli o'rni va mazmun-mundarijasini to'liq aniqlashtirish orqali bu fenomenni obektiv va haryoqalma baholashga bo'lgan yondashuvlar ko'p bo'lishiga qaramay, ularning ko'plari biz belgilab o'tgan strukturaviy majmualarni yuzaga chiqarish uchun zaxiraviy imkoniyatlarga ega emas. O'qituvchi kasbiy kompetentliligin monitoring qilish texnologiyalari garchi ta'lism paradigmalari natijasida shakllangan talablar o'z aksini topgan bo'lsa-da, ularning mintaqaviy sharoitlarga moslashtirilgan

variantlari ishlab chiqilmagan va aynan shu vogelik refleksif baholashga asoslangan ushbu modelni qurishimiz uchun asos bo‘lib xizmat qildi. O‘qituvchi kasbiy kompetentliliği kategoriya sifatida o‘z talqini va tavsiyaiga ega bo‘lgani holda, fenomen sifatida mubhamlik xususiyatiga ega. Ya’ni bu fenomenni miqdoriy ko‘rsatkichlar bilan ifodalash imkonining kamligi bois, monitoring o‘tkazuvchi shaxslardan tadqiqotning sifatga yo‘naltirilgan usullaridan mohirona foydalanishni talab qiladi. Buning natijasida:

1. Monitoringning yakuniy natijalari statistik metodlarning faqat ayrim o‘rinlarda qo‘llanilishi (faqat raqamli axborotlar olinganda, xususan, fan bo‘yicha kompetentlilikni aniqlashga qaratilgan testlar, ijodiy-topshiriqlar, viktorinalar natijalari umumlashtirilganda).

2. Kasbiy kompetentlilik darajasini ifodalovchi shaklaning ham sifatga yo‘naltirilgan tarzda o‘zgarishini kuzatishimiz mumkin.

O‘qituvchi kasbiy kompetentliligini fenomen sifatida monitoring qilishda miqdoriy usullarning kam qo‘llanilishi bilan bog‘liq ravishda kuzatiladigan ushbu holat monitoringning pirovard maqsadi nuqtai nazaridan o‘zini oqlaydi. Ya’ni asosiy maqsad hisoblangan o‘qituvchi kasbiy kompetentliligini monitoring qilish jarayoni faqat individuallik xususiyatiga ega va olingen natija faqat alohida bir subektga tegishli. Binobarin, natijalar ochiq talqin etilganda monitoringga taklif etilgan o‘qituvchi ularning qanchalik aniq va obyektiv ekanligini bilib olishi mumkin. Biz taklif etayotganimiz monitoring texnologiyasida o‘qituvchining barcha kompetentlilik strukturaviy majmualari bo‘yicha natijalari uning o‘z faoliyatini refleksif tashxislash asosida namoyon qilishini nazarda tutadi. Ya’ni o‘qituvchi kasbiy kompetentliligining barcha strukturaviy majmualari bo‘yicha bu majmualarning shakllanganlik darajasini baholashda ko‘proq o‘qituvchining so‘rovnoma, psixologik so‘rovnoma, testlar, suhabatlar, intervyularga bergan javoblariga tayandik. Faqat fan bo‘yicha kompetentlilikning uchta punkti bo‘yicha natija miqdoriy xarakterga ega. Biz o‘qituvchining o‘z faoliyatini refleksif-tahliliy tashxislashi asnosida bergan javoblarini tadqiqotning kuzatish, meyoriy hujjatlar tahlili, erkin suhabat kabi usullar bilan yanada oydinlashtirdik.

**Xulosa.** Jamiyat, taraqqiyot va ilm-fan o‘rtasida barqaror aloqadorlik mavjud. Ya’ni ilm-fan taraqqiyot uchun yetakchi kuch vazifasini bajaradi va shu barobarida jamiyatning istiqbolini belgilaydi. Ayni vaqtda, jamiyat taraqqiyot oldiga sifat va miqdor jihatdan yangilangan talablarni qo‘yadi, bu esa “yetakchi kuch”ning yanada ravnaq topishi uchun ehtiyoj yuzaga keltiradi. Ilm-fan, taraqqiyot va jamiyat o‘rtasidagi bir-birini rivojlantiruvchilik, bir-birini to‘ldiruvchanlik mazmunidagi bog‘liqliklarning boshlang‘ich nuqtasi ta’lim, ayniqsa, umumiyo‘rta ta’lim sifati bilan uzviy va izchil aloqadorlik kasb etadi. Ya’ni, shu yo‘sinda jamiyatda ta’lim paradigmalari yangilanib, barqaror aloqada bo‘lgan “uchlik” va ular o‘rtasida bog‘lovchilik vazifasini bajaruvchi tizim – ta’lim oldiga yangi talablar qo‘yadi.

Yangilangan ta’lim paradigmalari ta’lim sifati, o‘qituvchilarining kasbiy kompetentliliği va kompetensiyalarining shakllanganlik darajasini monitoring qilish, ta’lim parametrlari qatorida, ta’lim tizimini tashkil etuvchi barcha elementlarini mazmunan va mohiyatan o‘rganib hamda zarur korreksiyalar kiritib borishni taqozo etadi. Yuqoridagilarni nazarda tutgan holda biz o‘qituvchi kasbiy kompetentliligini monitoring qilish metodikasini takomillashtirish doirasida.

### **Adabiyotlar**

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni, IV bob, 42-modda, Toshkent, 2019 y., 19 may.
2. R.X.Djurayev, O‘.Q.Tolipov va boshqalar, “Pedagogik atamalar lug‘ati”, Toshkent – 2008, 42-b.
3. Abdullayeva G. A., Allayarova S. N., Tarbiya jarayoni sifatini kvalimetrik monitoring qilish: muammo va yechimlar, 65 “Zamonaviy ta’lim / Sovremennoye obrazovaniye, 2021, 12.
4. Зимняя И.А. Ключевые компетенции – новая парадигма результата современного образования/ Интернет-журнал “Ейдос” – 2006г, 5 мая..
5. Козирева О.А. Феноменология профессиональной компетентности учителя, 2009, “Наука и образования”, №4.
6. Селевко Г.К. Компетентности и их классификации // Народное образование. - 2004. - №4.

**Badalov Dilmurod Abdixalilovich**

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti  
ijtimoiy gumanitar fanlar kafedrasи o'qituvchisi  
[dilmurodbadalov907@gmail.com](mailto:dilmurodbadalov907@gmail.com)

## BOSHLANG'ICH TA'LIM SOHASIDA BOSHQARUV TIZIMIGA LOGISTIK YONDASHISH

**Annotatsiya.** Maqolada ta'lism sohasidagi boshqaruvga logistika yondashuvi tavsiflangan, pedagogik va ta'lism logistikasining oqimlari, tamoyillari va oliv ta'lism tizimidagi logistika faoliyatining tarkibiy qismlari aniqlangan tuzilmalarida jarayonlarni optimallashtirish tamoyillari majmui sifatida tushunadi. Pedagogik logistika (ingliz tilidan o'quv logistika) - E. M. Goldratt (Eliyahu M. Goldratt) tomonidan logistika va real tizimlarning soddaligi tamoyillariga asoslangan pedagogik oqimlarni boshqarish bilan shug'ullanadigan logistika subyektilarining ahamiyati aks ettirilgan.

**Kalit so'zlar:** logistika yondashuvi, o'quv-pedagogik logistika, logistika oqimi, ta'lism logistikasi tamoyillari, subyekt, metod.

## ПОДХОД К СИСТЕМЕ УПРАВЛЕНИЯ ЛОГИСТИКОЙ В СФЕРЕ НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

**Аннотация.** В статье описывается логистический подход к управлению в сфере образования, выделяются потоки, принципы педагогической и образовательной логистики, определяются составляющие логистической деятельности в системе высшего образования. Педагогическая логистика (Образовательная логистика с англ. языка) — Э. М. Голдратта (Eliyahu M. Goldratt) отражает важность субъектов логистики, участвующих в управлении педагогическими потоками на основе принципов логистики и простоты реальных систем.

**Ключевые слова:** логистический подход, образовательная и педагогическая логистика, логистический поток, принципы образовательной логистики, sub'ekt, metod.

## APPROACH TO THE LOGISTICS MANAGEMENT SYSTEM IN THE FIELD OF PRIMARY EDUCATION

**Annotation.** The paper describes the logistic approach to management in the sphere of education; principles and trends of pedagogical and educational logistics defined, components of logistics in the system of higher education shown. Pedagogical logistics (Educational logistics from English) - E. M. Goldratt (Eliyahu M. Goldratt) reflects the importance of logistics subjects involved in managing pedagogical flows based on the principles of logistics and the simplicity of real systems.

**Key words:** logistic approach, educational and pedagogical logistics, logistic trend, principles of educational logistics, subject, method

**Kirish.** Maktab o'quvchilarining bilimi va ko'nikmalarini shakllantirish, ularni milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalash, o'qituvchi kasbi nufuzini va pedagoglarning sifat tarkibini oshirish, darsliklar va o'quv metodik majmualarni zamon talablari asosida takomillashtirish, maktab ta'limi muassasalarining xalqaro standartlarga javob beradigan zamonaviy modellarini barpo etish maqsadida, shuningdek, 2022 - 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasini "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturiga muvofiq;

jamiyatda o‘qituvchi kasbi nufuzini oshirish, pedagoglar uchun qulay ijtimoiy sharoitlar **81** yaratish va mehnatini munosib rag’batlantirish;

o‘qituvchilarning yoshlarga ta’lim va tarbiya berishdagi mas’uliyatini, doimiy kasbiy rivojlanishdagi talabchanligini oshirish;

umumiyoq o‘rta ta’lim muassasalarini uchun milliy kadrlar zaxirasini shakllantirish, ilg’or maktab direktori va namunali o‘qituvchi mezonlarini ishlab chiqish hamda ular asosida rahbar va pedagog kadrlar faoliyatini baholab borish;

umumiyoq o‘rta ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tizimli tashkil etish, mazkur yo‘nalishda uzlucksiz monitoring, baholash va prognozlash mexanizmlarini yo‘lga qo‘yish, bola ta’lim-tarbiyasida oila, ayniqsa, ota-onaning o‘rnini oshirish;

o‘quvchilarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, ularni kasblarga yo‘naltirish tizimini takomillashtirish;

alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning maktabgacha va maktab ta’limi tizimiga integratsiyasini kuchaytirish hamda inklyuziv ta’lim jarayonlarini jadallashtirish;

Deklaratsiya mualliflari ta’lim tizimini universallashtirish, global innovatsion jamiyatni shakllantirish, xalqaro akademik harakatchanlikni oshirish, hayot va mehnat ko‘nikmalarini rivojlanishdagi, yagona global axborot tarmog‘ini yaratish bo‘yicha chora-tadbirlarni taklif qilmoqda. Shuni ta’kidlash kerakki, iqtisodiyot va biznes sohasida bunday universal mexanizm logistikadir.

Bugungi kunda logistika fan, jarayon, kontseptsiya va boshqaruv vositasi sifatida ta’riflanadi. Yosh fan bo‘lgani uchun u hali barqaror kontseptual apparatga ega emas; Logistikaning ta’rifi o‘zgarmoqda. A.M.Gadjinskiyning fikriga ko‘ra, logistika - bu tizim maqsadlariga erishish va resurslarni optimal sarflash bilan iqtisodiy tizimdagagi moddiy va tegishli ma’lumotlarni, moliyaviy va xizmat ko‘rsatish oqimlarini kelib chiqqan joydan iste’mol joyigacha boshqarish haqidagi fan. ].

Ko‘pgina tadqiqotchilar logistikani iste’molchilar talablarini to‘liq qondirish va resurslarni optimal sarflash uchun moddiy oqimlar va ularga qo‘shiladigan ma’lumotlar, moliya va xizmatlarning harakatini rejalashtirish, tashkil etish va nazorat qilish jarayoni sifatida belgilaydilar.

Yu. M. Nerush ta’rifiga ko‘ra , logistika moddiy oqimlarini va tegishli ma’lumotlarni, moliyaviy oqimlarini va xizmatlarni kompleks boshqarish vositasi bo‘lib, tashkilotning maqsadlariga maqbul xarajatlar bilan erishishga yordam beradi.

Bugungi kunda ta’lim sohasida universal rivojlanish mexanizmini izlash davom etmoqda. Bizning fikrimizcha, oliy ta’lim muassasalarida mablag’lar, kadrlar va axborot tizimlarini izlash va asoslashni ta’minlaydigan logistika markazlarini tashkil etish zarur. Universitet logistika markazining asosiy vazifasi barcha ishtirokchilarga ta’lim logistika xizmatlarini taqdim etish uchun mo‘ljallangan yagona tashkilot maydonini yaratishdir. Ta’limdagagi logistika yo‘nalishining o‘zagini kompleks dasturlar to‘plamiga ega zamонави kompyuterlar bilan jihozlangan axborot-logistika markazi tashkil etadi. Xodimlar tarkibiga tajribali logistika muhandislari va pedagogik tayyorlarlikka ega boshqa mutaxassislar kiradi. Barcha boshqaruv umumiy veb-saytga va Internetga kirishga ega bo‘lgan mahalliy axborot tarmog‘i orqali amalgalash oshiriladi.

Ta’lim tizimidagi jarayonlarning uyg‘un rivojlanishini ta’minlaydigan logistika tizimlari ishini qurishning o‘ziga xos xususiyatlari juda sekin ochilmoqda. Asosiy sabab - ta’limda logistikadan foydalanish bo‘yicha mahalliy amaliyotning sust rivojlanganligi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ichki logistika, eng avvalo, uning ilmiy, amaliy va ta’lim jihatlari shakllanish bosqichida. Turli yo‘nalishdagi o‘qituvchilar logistika tushunchasini tushunishi va qabul qilishi, jarayonni logistika tashkil etishning asosiy usullarini bilishi va uni yo‘llash samarasini kuzatishi kerak. Shu munosabat bilan logistika tizimlarini qurish va logistika oqimlarini boshqarish sohasida universitetlarni tayyorlash zarurati dolzarb bo‘lib qolmoqda.

**Adabiyotlar tahlili.** Pedagogik logistika faqat shu asrning birinchi o‘n yilligining boshlarida alohida yo‘nalish sifatida shakllandi va hali o‘z nomiga ega emas. Shunday qilib, V. A. Denisenko “ta’lim logistikasi” atamasini ishlatadi, u “butun ta’lim faoliyati samaradorligini

82 oshirish nuqtai nazaridan ta'lim funksiyalari (lavozimlari) va jarayonlarini tashkil etish va o'z-o'zini tashkil etish fan va texnologiyasi" degan ma'noni anglatadi. " Bunday logistikaning vazifalaridan biri turli sinflarda bitta parallel yoki bir fan bo'yicha dasturlar va darsliklar doirasidagi fanlarning kombinatsiyasini aniqlashdir.

Yu.V.Krupnovning ta'kidlashicha, o'quv logistikasi - bu ta'lim funksiyalari (lavozimlari) va jarayonlarini bir butun sifatida ta'lim faoliyati samaradorligini oshirish nuqtai nazaridan tashkil etish va birgalikda tashkil etish fan va texnologiyasi.

N.V.Shevchenko ta'lim logistikasi tushunchasini ta'lim tizimlari va tuzilmalarida jarayonlarni optimallashtirish tamoyillari majmui sifatida tushunadi.

Pedagogik logistika (ingliz tilidan o'quv logistika ) - E. M. Goldratt (Eliyahu M. Goldratt) tomonidan logistika va real tizimlarning soddaligi tamoyillariga asoslangan pedagogik oqimlarni boshqarish bilan shug'ullanadigan logistika sub'ekti . Ushbu fan tufayli birinchi marta pedagogik tizimni sinxronlashtirish, uni boshqarish nuqtai nazaridan iqtisodiy tizimlarga yaqinlashtirish imkoniyati paydo bo'ldi. Bu rivojlanish va ta'lim uchun mablag'lardan samarasiz foydalanish xavfini kamaytiradi va shu bilan ushbu sohaga kapital oqimini oshiradi.

**Tadqiqot metotologiyasi.** Bugungi kunda ta'lim va pedagogik logistika o'rtasida aniq farq yo'q, garchi bu sohalarni ajratish kerak. 2015-2020-yillarda pedagogik ta'limni rivojlantirish konsepsiyasida "klasterlardan professor-o'qituvchilarni kasbiy tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini rivojlantirishning magistral elementlari sifatida foydalanish" nazarda tutilgan [1, 10-b.].

Oliy ta'lim tizimida logistika yondashuvining tub yangiligi - bu o'zaro bog'liqlik, barcha sohalar, faoliyatning barcha sohalarini uyg'un tashkil etilgan, oson boshqariladigan va yuqori samarali bo'lgan materiallarni o'tkazuvchi tizimlarni yaratish uchun bog'lashdir.

Logistikaning umumiylarini hisobga olgan holda oliy ta'lim tizimidagi pedagogik va o'quv logistikasi tamoyillariga quyidagilar kiradi:

1. Murakkablik: muayyan sharoitlarda oqimlarning harakatlanishi uchun barcha turdag'i yordamni (rivojlangan infratuzilmani) shakllantirish; resurslar (bilimlar) harakatining bevosita va bilvosita ishtirokchilarining harakatlarini muvofiqlashtirish; ta'lim tizimida tuzilmalar oldida turgan vazifalarning bajarilishi ustidan markazlashgan nazoratni amalga oshirish; universitetlarning tashqi iste'molchilar bilan yaqin hamkorlik qilish istagi, shuningdek, ichki faoliyat doirasida kafedralar o'rtasida mustahkam aloqalarni o'rnatish.

2. Ilmiy: rejalashtirishdan tahlil qilishgacha bo'lgan barcha bosqichlarda hisoblash tamoyilini mustahkamlash, oqim traektoriyasining barcha parametrlarini batafsil hisoblashni amalga oshirish.

3. O'ziga xoslik: logistika jarayonini amalga oshirishda foydalaniladigan barcha resurslarni aniq va to'g'ri baholash: moliyaviy, kadrlar, moddiy va boshqalar; eng kam xarajat bilan barcha turdag'i resurslarni ishlab chiqish; tarkibiy organlar tomonidan logistikani boshqarish, natijalari xarajatlarni kamaytirish bilan o'chanadi.

4. Konstruktivlik: oqimni dispatcherlik qilish, har bir oqim ob'ektining harakati va o'zgarishlarini doimiy ravishda kuzatib borish va uning harakatini tezkor sozlash.

5. Ishonchhlilik: oqimni harakatlantirish va boshqarishning zamonaviy texnik vositalaridan keng foydalanish; axborot oqimining yuqori tezligi va sifati va uni qayta ishlash texnologiyalari.

6. O'zgaruvchanlik: universitetning talabning o'zgarishiga moslashuvchan munosabatda bo'lish qobiliyati (boshqa oliy ta'lim muassasalarida ham davlat, ham nodavlat oliy ta'lim muassasalarida ko'p sonli xilma-xil mutaxassisliklarning paydo bo'lishi, ularga bo'lgan talabning noaniqlik darajasini oshiradi. logistika tizimlari orqali o'tadigan oqimlarning sifat va miqdoriy xususiyatlarining keskin tebranishlari Bunday sharoitda logistika tizimlarining tashqi muhitdagi o'zgarishlarga moslashish qobiliyati bozorda barqaror mavqega ega bo'lishining muhim omilidir) va tashqi omillarning boshqa bezovta qiluvchi ta'siri. muhit.

Finlyandiyada oliy ta'lim muassasalarini ushbu yo'nalishda izchil rivojlanmoqda, bu yerda so'nggi yillarda universitetlar soni 20 tadan 15 taga kamaydi. Daniyada 25 ta universitet va ilmiy markazlardan 8 tasi universitet va 3 ta ilmiy markaz tashkil etilgan. Frantsiyada uchta

universitetning birlashishi natijasida mamlakatdagi eng yirik Strasburg universiteti tashkil etildi. Ta’lim klasterlarini yaratish doirasida universitetlar sonini 87 tadan 10 taga qisqartirish rejalashtirilgan [2, 108 b]. Mamlakatda eng faol rivojlanayotgan klasterlar qatoriga davlat ta’lim muassasalari, ilmiy laboratoriylar, biznes kompaniyalari, ekotizimlarni yaxshilashga yo‘naltirilgan klasterlar kiradi.

Logistika jarayonining barcha ishtirokchilari logistika funktsiyalarining har qanday guruhini amalga oshirishga ixtisoslashgan. Bunday holda, "funksiya" atamasi ushbu harakatlarning maqsadlari nuqtai nazaridan bir hil bo‘lgan harakatlar majmui sifatida yanada tushuniladi. Logistika funksiyasi logistiqa tizimining maqsadlarini amalga oshirishga qaratilgan logistika operatsiyalarining kengaytirilgan guruhidir [3, 472 b.].

Ta’lim tizimidagi logistika funktsiyalarining ikkita xarakterli xususiyatini ta’kidlaymiz:

- ularning barchasi bir-biriga bog’langan va moddiy oqimni boshqarishga qaratilgan, ya’ni agregatdagi logistika funktsiyalarining butun majmuasi ham yagona maqsadga bo‘ysundirilgan;

- barcha funktsiyalarining tashuvchilari logistika jarayonida ishtirok etuvchi sub’ektlardir.

Adabiyotda oqimning bir qancha ta’riflari mavjud, biroq ko‘pchilik olimlarning fikriga ko‘ra, oqim – yaxlit bir butun sifatida qabul qilinadigan, ma’lum vaqt oralig’ida jarayon sifatida mavjud bo‘lgan, ma’lum vaqt oralig’ida mutlaq birlikkarda o‘lchanadigan ob’ektlar yig’indisidir. Oqimni tavsiflovchi asosiy parametrlar:

- boshlang’ich va tugash nuqtalari;
- traektoriya va yo‘l uzunligi;
- oraliq nuqtalar;
- harakat tezligi va vaqt [4. 448 b.].

Hozirgi vaqtida pedagogik logistikada turli xil pedagogik oqimlar (uskunalar oqimi, sog’liqni saqlash oqimi va boshqalar) mavjud, ammo bizning tadqiqotimiz uchun quyidagi turlar qiziqish uyg’otadi.

1. Bilimlarni ishlab chiqarish, eskirgan bilimlarni yo‘q qilish va bilimlarni butun ta’lim maydoniga tarqatish kabi aloqalarni o‘z ichiga olgan bilimlar oqimi.

2. Ikki makondan tashkil topgan ta’lim oqimi: oliy va məktəb, shu jumladan kasbiy. Ushbu oqimning asosiy muammosi yagona ta’lim makonini yaratishdir. Oliy ta’lim uchun esa Boloniya deklaratsiyasi asosida Boloniya jarayoni doirasida hal qilinmoqda. Yagona məktəb maydoni milliy loyihalarni amalga oshirish orqali yuzaga keladi. Məktəb oqimini boshqarishning zaruriy shartlaridan biri bu bir qator mamlakatlarda muntazam ravishda o’tkazib kelinayotgan məktablarda Yagona Davlat imtihonini (USE) joriy etishdir. Yagona davlat imtihoni məktəb o‘quvchilarining bilim darajasini baholashni standartlashtirish, shuningdek, milliy miqyosda baholashni sinxronlashtirish va ta’lim muassasalarini ulardagagi ta’lim sifati bo‘yicha tartiblash imkonini beradi. O‘qitish usullarini optimallashtirish uchun muayyan sharoitlarda eng mos bo‘lgan ta’lim texnologiyalari qo‘llaniladi.

3. B. Geyts tomonidan belgilab berilgan axborot logistikasi tamoyillari asosida ishlaydigan axborot oqimi. Bu oqim butun ta’lim maydonini yagona tizimga bog’laydi.

4. Psixologik oqim, bu ta’lim psixologiyasining ta’lim oqimida allaqachon an’anaviy ishtirokini ta’minlaydi. So‘nggi paytlarda məktablarni psixologizatsiya qilish tendentsiyasi kuchaydi. Ushbu kontseptsiyaga yangi tarkib qo‘shilmoqda. Məktəb psixologlariga o‘quvchilarni rivojlantirish va tarbiyalash vazifasi yuklangan (psixologik gimnaziya), o‘qituvchilarga esa o‘qitish vazifasi yuklangan. Zamonaviy g’oyalarga ko‘ra, psixologik oqim (pre-va perinatal psixologiya) bola tug‘ilishidan oldin ham boshlanadi.

**Tahlil va natijalar.** Materiallar oqimining mavjud ta’riflarini umumlashtirib, shuni xulosa qilishimiz mumkinki, logistikada bu moddiy resurslarni, tayyor mahsulotlarni qazib olish, qayta ishslash va iste’mol qilish (qayta taqsimlash)gacha bo‘lgan logistika operatsiyalari, jarayonlari, bo‘g’inlari va ob’ektlarining maxsus o‘zaro bog’langan to‘plamidir. logistika tizimlarining umumi maqsadlariga erishish.

Materiallar oqimini boshqarish, har qanday boshqa ob’ekt kabi, ikki qismdan iborat: qaror qabul qilish va uni amalga oshirish. Oliy ta’lim tizimida moddiy oqimni boshqaruvning asosiy

84 ob'ekti sifatida ajratib qo'yish pedagogik jarayonlarni ko'rishni biroz soddalashtiradi. Biroq, bu soddalashtirish bizga birlamchi manbadan boshlab, yakuniy iste'molchiga qadar barcha oraliq jarayonlar orqali oqim harakatining oxirigacha monitoringi muammolarini belgilash va hal qilish imkonini beradi. Bir qator omillarni ajratib ko'rsatish va material oqimini tadqiqot va boshqaruvning asosiy ob'ekti sifatida ajratib ko'rsatish yakuniy ta'minot zanjirlarini loyihalash, ularning xatti-harakatlarini o'rganish va bashorat qilish imkonini beradi, shu bilan birga modellashtirish muammolari hajmini sezilarli darajada kamaytiradi, shuningdek, ochiladi. pedagogik jarayonlarni rasmiylashtirish uchun yangi imkoniyatlar yaratish.[5, 448 b]

Logistika funktsiyalarini amalga oshirish samaradorligi mezoni logistikaning oltita qoidasi bilan ifodalangan logistika faoliyatining yakuniy maqsadiga erishish darajasidir - kerakli miqdorda kerakli sifatli mahsulot kerakli vaqtida etkazib beriladi. minimal xarajatlar bilan to'g'ri joyga. Shundan kelib chiqib, oliy ta'lim tizimida logistika faoliyatining quyidagi tarkibiy qismlarini aniqlaymiz.

1. Mahsulot – zarur bilim (bitiruvchi tomonidan olingan malaka).

2. Sifat - muayyan kompetensiyalarini o'zlashtirgan universitet bitiruvchilar uchun malakali talablar. Natijada oliy ta'lim sifati universitet bitiruvchilarining kompetensiyalarini baholash orqali ularning bilim va ko'nikmalarining hayotning ijtimoiy-madaniy, iqtisodiy va kasbiy jabhalarining dinamik talablariga muvofiqligi, ularni ijodiy hal qilishga tayyorligi sifatida izohlanadi. ijtimoiy va shaxsiy hayotning barcha sohalarida muammolar va vazifalar.

3. Miqdor – talaba o'qish davomida o'zlashtirishi kerak bo'lgan standart didaktik birliklar soni (masalan, iqtisodiy fanlar bo'yicha tarkibni tahlil qilish orqali logistika tizimini qurish umumiy didaktik va maxsus birliklarni aniqlash imkonini beradi).

4. Joy - ta'limning turli shakllari ( sirtqi, kunduzgi, masofaviy ta'limning turli modellari va boshqalar).

5. Xarajatlar - tashkilotning boshqaruv faoliyati samaradorligining muhim ko'rsatkichi bo'lib xizmat qiladigan pul shaklida ifodalangan tadbirkorlik[5] sub'ektining xarajatlari.

Logistika nuqtai nazaridan bilimlarni ishlab chiqarish va ulardan foydalanishning tarixan shakllangan tizimini takomillashtirish zarur. V.Livshitsning fikricha, bilim ancha qimmat manba bo'lib, uning "saqlanishi" qarish xavfi bilan bog'liq.[6. 544 b] Ta'minot zanjiriga bilim ishlab chiqarishni kiritish yanada oqilona. Ushbu yondashuv bilan yangi bilimlar o'z vaqtida ishlab chiqariladi. Talaba hech qanday manzilsiz bilim to'playdigan an'anaviy ta'lim tizimi logistika tamoyillariga javob bermaydi. Pedagogik logistika tamoyillariga ko'ra, bilimlarni uzatishni undan foydalanish momentiga yaqinlashtirish samaraliroqdir . Bill Geys axborot oqimini boshqarishga asoslangan biznesda bilimlarni boshqarish tizimini taklif qildi.

Axborot oqimlarini o'rganish va boshqarish axborotni uzatish, qayta ishslash va birlashtirishning texnik vositalari bilan birgalikda amalgा oshiriladi. Shu bilan birga, axborot oqimlarining mavjud bo'lish shakllari texnik vositalarning imkoniyatlaridan (masalan, odamlar o'rtasidagi to'g'ridan-to'g'ri aloqa) kengroqdir. Shunday qilib, axborot oqimlarining namoyon bo'lish shakllarini to'rt turga qisqartirish mumkin: qog'oz hujjat, elektron hujjat, vizual hujjat (fotosuratlar, kino, televideenie va boshqalar), og'zaki (og'zaki) xabarlar va boshqalar [7,66].

Ta'limdagi logistika tizimi yangi bilimlarni kerakli vaqtida kerakli ishechilarga etkazish, shuningdek eskirgan bilimlarni olib tashlash imkonini beradi. Oliy ta'lim tizimida bu moddiy oqimlarni boshqarishga logistika yondashuvi va an'anaviy yondashuv o'rtasidagi tub farqni anglatadi, bu materialning individual bo'g'inlarini pedagogik va uslubiy integratsiyada ilgari bir-biridan farq qiladigan material oqimlarini boshqarishning yagona funktsiyasini ajratishdan iborat. ta'minot zanjiri moddiy oqimlarni samarali boshqarishni ta'minlaydigan yagona tizimga , ya'ni tashqaridan keladigan oqimlar o'qitish tizimidan o'tadi va keyin iste'molchiga boradi.

**Xulasa.** Umuman olganda, axborot oqimi - bu tuzilgan shaklda ifodalangan ma'lumotlarning ma'lum bir muhitdagi harakati. Logistikaga nisbatan axborot oqimi - bu logistika tizimida aylanib yuradigan xabarlar to'plami (bu bir-biri bilan ma'lum bir aloqada bo'lgan, ma'lum bir yaxlitlikni tashkil etuvchi va ma'lum logistika funktsiyalarini bajaradigan elementlarning tartiblangan to'plami), shuningdek, logistika tizimidagi ma'lumotlar oqimi.

logistika tizimi va xabarlarning tashqi muhiti.logistika operatsiyalarini kuzatish va boshqarish uchun zarur. Yuqoridagilardan kelib chiqib, biz shunday xulosaga kelishimiz mumkinki, universitet talabasini tayyorlash ta’lim logistikasi tamoyillari asosida tashkil etiladigan yakuniy material oqimi sifatida tuzilishi kerak. Logistika oqimlari xarajatlarni - kadrlar, moliyaviy, axborot va hokazolarni minimallashtirish imkonini beradi.Logistika markazini yaratish orqali oliy ta’lim tizimida logistikadan foydalanish xarajatlarni tejash va samarali boshqaruvga olib kelishi kerak.

### **Adabiyotlar**

1. 2015–2020 yillarda pedagogik ta’limni rivojlantirish konsepsiysi: tasdiqlandi. Respublika ta’lim vazirligining buyrug’i bilan. Belarus, 25 fevral. 2015 yil, № 156. [Elektron resurs].- Kirish rejimi: <http://bspu.by/admin-panel/vendor/kcfinder/upload/files/klaster/O‘qituvchi ta’limi konsepsiysi>.
2. Galichin, V. A. Ta’lim xizmatlarining xalqaro bozori: asosiy xususiyatlar va rivojlanish tendentsiyalari / V. A. Galichin // Globallashuv asri. - 2013. - No 2. - B.101-112.
3. Gadjinskiy A. M. Logistika: darslik. 14-nashr, qayta ko‘rib chiqilgan . va qo‘shimcha M.: Nashriyot - savdo. korporatsiyasi "Dashkov va K", 2007. 472 p.
4. Golikov E. A. Marketing va logistika: darslik. nafaqa. 4-nashr, rev . va qo‘shimcha M.: Akademik. loyiha, 2006. 448 b.
5. Logistika nazariyasi modellari va usullari: darslik. nafaqa. 2-nashr. / ed. V. S. Lukinskiy . Sankt-Peterburg: Peter, 2007. 448 pp.: kasal.
6. Nerush Yu.M. Logistika: darslik. universitetlar uchun. 4-nashr, qayta ko‘rib chiqilgan . va qo‘shimcha M.: TK Uelbi ; Prospekt, 2006.
7. Semenenko A. I., Sergeev V. I. Logistika. Nazariya asoslari: darslik. universitetlar uchun. Sankt-Peterburg: Soyuz, 2003. 544 b. (Oliy ma’lumot).

Abduqodirov Jasur Baxtiyor o‘g‘li  
Termiz davlat universiteti akademik litseyi  
aniq fanlar kafedrasи katta o‘qituvchisi  
[aabduamatov912@gmail.com](mailto:aabdusamatov912@gmail.com)

## FIZIKA FANINING OPTIKA BO‘LIMIGA DOIR NOSTANDART MASALALAR YECHISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY JIHATLARI

*Annotation.* Mazkur maqolada Umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quvchilarida fizika fani Optika bo‘limiga doir nostandard masalalarni yechishga qaratilgan metodik innovatsiyalarning mohiyatli, maqsadli joriy etilishi haqida fikr yuritilgan. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining davlat ta’lim standarti malaka talablariga javob beradigan, tizimli.

**Kelit so‘zlar:** innovatsiya, Davlat ta’lim standarti, malaka talablari, optika, nostandard masalalarning ta’lim.

### ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МЕТОДОЛОГИИ РЕШЕНИЯ НЕСТАНДАРТНЫХ ЗАДАЧ НА ОПТИЧЕСКОМ ОТДЕЛЕНИИ ФИЗИКИ

**Аннотация:** В данной статье высказывается мнение о необходимости, целенаправленном внедрении методических новшеств, направленных на решение нестандартных задач, связанных с оптическим отделением физики у учащихся общеобразовательных школ. Государственный образовательный стандарт общеобразовательной школы является системным, отвечающим квалификационным требованиям.

**Ключевые слова:** инновации, Государственный образовательный стандарт, квалификационные требования, оптика, образование нестандартных вопросов.

### THEORETICAL ASPECTS OF IMPROVING THE METHODOLOGY OF SOLVING NON-STANDARD PROBLEMS IN THE OPTICAL DEPARTMENT OF PHYSICS

**Abstract:** In this article, there is an opinion about the essential, purposeful introduction of methodical innovations aimed at solving non-standard problems related to the Optics department of physics at the students of general secondary schools. The state educational standard of general secondary schools is systematic, meeting the qualification requirements.

**Key words:** innovation, State educational standard, qualification requirements, optics, education of non-standard issues.

**Kirish.** O‘zbekiston Respublikasining Umumiy o‘rta ta’lim Davlat standartlari tomonidan qo‘ylgan, shuningdek, jamoatchilikning ijtimoiy buyurtmasi sifatida umumta’lim muassasalarida tashkil etiladigan o‘quv jarayonlarining sifat va samaradorligiga qo‘yiladigan talablarga ko‘ra, bugungi davr o‘quvchisi:

- o‘rganilgan ma‘lumotlarni eslab qolish va qayta tushuntirib berish;
- o‘rganilgan bilimlarni tanish vaziyatlarda qo‘llay olish;
- o‘rganilgan bilim va shakllangan ko‘nikmalarni notanish vaziyatlarda qo‘llay olish va yangi bilimlar hoslil qilish;

-mavjud bilim, ko‘nikma va malakalarni kundalik faoliyatda qo‘llay olish qobiliyat1 singari o‘quv-bilish harakatlarini amalga oshirishi lozim [1. 39-b].

**Adabiyotlar tahlili.** Tadqiqotimizda pedagogik-psixologik manbalarning tahlili va yetakchi mutaxassislarining fikrlari asosida optika bo‘yicha nostandard masalalar yechish metodikasini

takomillashtirish uchun, asosan, uchta yo‘nalishdagi vazifalarni belgilab olishimiz lozim bo‘lishi 87 haqida xulosaga kelingan edi. Bu yo‘nalishlar quyidagilardan iborat:

1. Fizika (optika bo‘limi) bo‘yicha nostandard masalalarni yechish metodikasini takomillashtirish orqali muvaffaqiyatli bajariladigan o‘quv-pedagogik, didaktik va ta’limiy-pedagogik vazifalarni aniqlashtirish.

2. O‘quvchilarning fizika (optika bo‘limi) bo‘yicha nostandard masalalarni hal etish uchun zarur bo‘ladigan evristik va ijodiy-tadqiqotchilik qobiliyatlarini (barcha tashkil etuvchi komponentlari bilan) shakllantirish hamda mazkur qobiliyatning samarali tatbiq etilishi uchun zarur bo‘lgan ijodiy-tadqiqotchilik muhitini yaratish.

3. Optika bo‘yicha nostandard masalalarni hal etishning umumta’lim maktablari o‘quvchilari uchun muvofiqlashtirilgan bosqichlari hamda mazkur turdagи masalalarni yechishda amalga oshiriladigan o‘quv harakatlarining algoritmik ketma-ketligini ishlab chiqish.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Optika bo‘yicha nostandard masalalarini yechish metodikasini takomillashtirish maqsadiga erishish uchun birinchi yo‘nalish doirasida quyidagi o‘quv-pedagogik, didaktik va ta’limiy-pedagogik vazifalarning bajarilishini taqozo etadi:

- o‘quvchilarda fizika (optika bo‘limi)ga qiziqishni shakllantirish va davomli rivojlantirish;

- fizika (optika bo‘limini) o‘rganishga undovchi omillar yaralishi uchun muhit barpo etish;

- nostandard masalalarning jalb etuvchilik va fanlararo integrativliv xususiyatlarini namoyon qilgan holda o‘quvchilarda kuchli motivatsiya uyg‘otish;

- o‘quvchilarning eng muhim o‘quv-bilish va tadqiqotchilik (tahlil etish, mulohaza yuritish, diqqatni jamlash, berilgan ma'lumotlarni tasniflay olish, mantiqiy tafakkur, axborotdan mustaqil foydalanish va shu kabi) ko‘nikmalarini shakllantirish va davomli rivojlantirish;

- o‘quvchilarning nazariy bilimlarni o‘zlashtirishga bo‘lgan ehtiyojini oshirish;

- optika bo‘limiga oid kontseptlar, kattaliklar, optik hodisalar va qonuniyatlarini faqat o‘rganibshiga qolmasdan, ularning tub mohiyatini anglash;

- o‘quvchilarning interfaol va kommunikativ muhitda aqliy, intellektual va ijodiy-tadqiqot potentsiali kengroq namoyon bo‘lishi va bu potentsiallardan o‘zaro kommunikativ aloqalarda samarali foydalanishga erishish;

- optika bo‘yicha nostandard masalalar yechish asnosida umumta’lim maktablari o‘quv rejasiga kirgan fanlar o‘rtasidagi integratsiyalashuvning faollashuvi natijasida o‘quvchining boshqa fanlar bo‘yicha bilimlarining mustahkamlanishi;

- optika bo‘yicha nostandard masalalarni hal etish jarayonida interfaol metodlardan foydalanish va tadqiqotchilik yondashuvining joriy etilishi natijasida o‘quvchilarda jamoaviylik, mehnatsevarlik, qat’iyat, iroda, intilish kabi shaxsiy fazilatlarning shakllanishi [2. 67-b].

**Tahlil va natijalar.** Sanab o‘tilgan o‘tilgan vazifalarning bajarilishi optika bo‘yicha nostandard masalalarni yechish metodikasini takomillashtirishning nazariy asoslarini ishlab chiqish yo‘lidagi boshlang‘ich qadam bo‘lib, u navbatdagi ikki yo‘nalishdagi vazifalarning muvaffaqiyatli bajarilishi uchun negiziy poydevor vazifasini o‘taydi.

Ikkinci yo‘nalishdagi vazifalar o‘quvchilarning optika bo‘yicha nostandard masalalarni hal etishlari uchun evristik va ijodiy qibiliyatlarini shakllantirish hamda davomli rivojlantirishdan iboratdir. Biz o‘tgan bobda aytib o‘tganimizdek, o‘quvchilarning evristik va ijodiy-tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirish uchun optika bo‘yicha nostandard masalalarni yechish mahoratini o‘zlashtirish muhim ahamiyat kasb etgani barobarida, optika bo‘yicha nostandard masalalarni muvaffaqiyatli yechish uchun ham o‘quvchida ma'lum darajada evristik va ijodiy-tadqiqot qobiliyati shakllangan bo‘lishi lozim. Ya’ni u ikki vazifa orasida bir-birini to‘ldirish va bir-birisiz mavjud bo‘lolmaslik mazmunidagi bog‘liqlik bor. Biroq har qanday ikki hodisa kabi, ular o‘rtasida ham birlamchilik xususiyati bo‘lishi lozimki, bizning avvalgi bobda isbotlab berganimizdek, dastlab o‘quvchida ma'lum darajada evristik va ijodiy-tadqiqotchilik qobiliyati shakllantirilishi va optika bo‘yicha nostandard masalalar yechish jarayonida bu qibiliyatlar rivojlantirilib borilishi to‘g‘ri bo‘ladi [3. 52-b].

88 Demak, o'quvchilarda evristik va ijodiy-tadqiqotchilik qobiliyatlarini rivojlantirishning metodikasini ishlab chiqish orqali bir vaqtning uchta muhim vazifaning bajarilishi uchun nazariy asos yaratgan bo'laimiz. Ya'ni:

-optika bo'yicha nostandard masalalar yechish natijasida hal etiladigan o'quv-pedagogik, didaktik va ta'limi-pedagogik vazifalar doirasidagi o'quvchilarda tegishli ko'nikma va qobiliyatlarni shakllantirish bilan bog'liq vazifalar;

-yuqoridagi vazifaning muvaffaqiyatli bajarilishi orqali optika bo'yicha nostandard masalalar yechish metodikasini takomillashtirishning nazariy asoslarini yaratish;

-o'quvchilarga optika bo'yicha nostandard masalalar yechish uchun zarur bo'ladigan evristik va ijodiy-tadqiqotchilik qobiliyatini rejali rivojlantirish.

Mutaxassislar (V.N.Sokolov, P.Sharko, Ye.Skafa va boshqalar) o'quvchilarda evristik va ijodiy qobiliyatni shakllantirish uchun quyidagi o'quv-ta'limi masalalarni hal etish lozim deb hisoblaydilar:

A). O'quvchining nostandard masala shartidagi ma'lumotlarni yechim uchun ahamiyat darajasiga qarab tasniflash qobiliyatini shakllantirish.

Mazkur o'quv-ta'limi vazifani hal etishni optika bo'yicha jalg etuvchi nostandard masala yordamida oydinlashtiramiz. Jalg etuvchi (qiziqarli) nostandard masalalardan aynan o'quvchilarda tegishli ko'nikma, mahorat va qobiliyatlarni shakllantirish maqsadida foydalanish bir qator omillar bilan tushuntiriladi. Optika bo'yicha nostandard masalalarning jalg etuvchi (qiziqarli) turi, asosan, topshiriq yoki savol mazmuniga ega bo'ladi va aksar holda ularning yechimi raqam yoki qiymat ko'rinishida emas, balki matn shaklidagi javobdan iborat bo'ladi. Ularni "masala" kontsepti bilan bog'lab turuvchi jihatlari – javob topishning bir necha bosqichdan iborat ekanligi, tahlillar, mantiqiy fikrlash, qiyoslash, umumlashtirish, xulosalar kabi intellektual harakatlar talab qilish kabi xususiyatlardan iborat [4. 28-b].

Birinchidan, optika bo'yicha jalg etuvchi (qiziqarli) nostandard masalalar o'z mohiyatiga, taqdim etilish usuliga ko'ra, qiziqtiruvchi xususiyatga egaki, shu xususiyati bilan ham optika bo'yicha nostandard masalalar yechish metodikasini takomillashtirishning nazariy asoslarini ishlab chiqish doirasida ko'zda tutigan didaktik vazifalarning bajarilishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Ikkinchidan, optika bo'yicha nostandard masalalarning jalg etuvchi (qiziqarli) turi faqat kuzatish, matnni hosil qiluvchi har bir so'zning ma'nosiga e'tibor qilish, masala shartlarini yetkazuvchi holatlarni tasavvur qilish, masala sharti ichida yashiringan optik hodisalar va optika qonunlarini tahlil yordamida anglab olishga qaratiladi.

Uchinchidan, optika bo'yicha nostandard masalalarning jalg etuvchi turi o'quvchidan turli formulalardan foydalanib, arifmetik ifodalarni hal etish, masalani geometriya talablari asosida hal etishni talab qilmaydi.

To'rtinchidan, o'quvchi bunday masalalarni hal etish jarayonida o'z tahlili, mulohazalarining natijalarini kuzatib boradi: bu esa unga motivatsiya beradi. Demak, aytish mumkinki, o'quvchilarda evristik va ijodiy-tadqiqotchilik qobiliyatlarni shakllantirishda optika bo'yicha nostandard masalalarning jalg etuvchi (qiziqarli) turidan foydalanish orqali biz o'quvchilarning motivatsiyasini kuchaytirishdek o'quv-pedagogik vazifani hal etishga hissa qo'shishimiz mumkin.

Shuning uchun o'quvchilarda optika bo'yicha nostandard masalalarni yechish uchun zarur bo'ladigan evristik va ijodiy tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirish jarayonini amaliy tarzda ko'rsatish uchun jalg etuvchi nostandard masalalardan foydalanishni maqsadga muvofiq deb hisobladik [5. 21-b].

**Masala-topshiriq:** Bilamizki, suvning yubqa qatlami shaffof tusda bo'ladi. Nega unda dengiz qirg'og'i bo'yab namchil qumloqda yurganimizda izlarimiz qorayib qoladi?

Ushbu qisqa hajmli nostandard masalada o'quvchi "suv", "qatlam", "shaffoflik", "qum", "namchil qirg'oq" kabi ochqich ma'lumotlarga ega bo'ladi. Biroq har bir ma'lumot zamirida uni yetkazuvchi ob'ektning xossasi ham mujassamligini unutmaslik lozim. O'quvchi chuqur va har tomonlama fikr yuritish natijasida mazkur masala shartida qumning zarrachalardan iborat ekanlik, uning namchil (suvga yaqin) bo'lganligi uchun "zichlanish" faktiga e'tibor qiladi. Ya'ni o'quvchi ma'lumotlarni muhimlik darajasiga qarab tasniflashda:

- a) namchil qumning tez zichlashuvi;
- b) suvning qum sirtida shaffofigini yo‘qotishi;
- d) izning qora tusga kirishi kabi holatlarni ko‘rsatib o‘tilgan ketma-ketlikda o‘rganib chiqadi va har bir holatning sababini oydinlashtiradi.

Mazkur ko‘nikmani shakllantirishda individual yondashuv o‘qitishning tadqiqotchilik metodini qo‘llash orqali joriy etilishi maqsadga muvofiqdir.

O‘quvchi mavjud axborot va ma'lumotlarni o‘zaro qiyoslashni, xossalarga qarab taqqoslashni o‘rganishi lozim. Ma'lumki, taqqoslash o‘quv-tadqiqot usullari orasida eng samarali va keng tarqalgan usullaridan biri, binobarin, jismlarni va holatlarni xossalariga hamda o‘zgarishlariga qarab taqqoslash ko‘nikmasini egallash o‘quvchiga tadqiqotning muhim usullaridan birini o‘zlashtirish imkonini beradi. Yuqorida keltirilgan nostandard masala orqali biz o‘quvchida mavjud axborot va ma'lumotlarni o‘zaro qiyoslash ko‘nikmasini shakllantirish jarayonini ko‘rsatib beramiz. Dengiz qirg‘og‘ining chetidagi namchil qum (aniqrog‘i, suvga to‘yingan qum) bilan quruq qumni o‘quvchi o‘z tasavvurida solishtiradi. Ushbu o‘rinda fizikaning “Mexanika” bo‘limidagi “zichlik” konsepti nuqtai nazaridan odatdagি qum bilan namga to‘yingan qumning zichligini o‘zaro taqqoslaydi. Shuningdek, fizikaning “Mexanika” bo‘limida namga to‘yingan g‘ovakli va zarrachalardan hosil bo‘lgan jismlarning zichlashuv hodisasi tezroq va kattaroq bo‘lishi mumkinligi ham yodga oladi. Binobarin, qiyoslash orqali topshiriq sifatida berilgan nostandard masalaning yechimi bevosita qumning ikki holati o‘rtasidagi farq bilan izohlanishini angraydi. Aytish lozimki, mazkur ko‘nikmani shakllantirishda o‘qituvchi individual yondashuvni joriy etishi va uni o‘qitishning interfaol metodi bilan uyg‘unlashtirishi kutilgan samarani beradi [6. 75 - b].

Tadqiqotning yana bir samarali va keng qo‘llaniladigan usullaridan biri sanalgan umumlashtirish usuli optika bo‘yicha nostandard masalalarni yechish uchun o‘quvchiga zarur bo‘ladigan ko‘nikma va mahorat o‘laroq, fikrlarni umumlashtirish va ulardan yangi fikr hosil qilishdek o‘quv-tadqiqotchilik qobiliyatining shakllanishi uchun zamin yaratadi. Namuna sifatida keltirgan qiziqarli (jalg etuvchi) nostandard masalada ushbu o‘rinda o‘qituvchining ma'lum darajadagi aralashuvi talab etiladi. Xususan, o‘qituvchi o‘quvchilarga mazkur hodisadan bir nechta fikr chiqarish mumkinligini va bu yerda asosiy e'tibor turli jismlarda yorug‘likni yutish va yorug‘likni qaytarish koeffitsiyentlarining turlicha ekanligiga qaratilishi lozimligini bilvosita “bildirib” o‘tishi tavsiya etiladi. Masalan, u: “Yorug‘lik hamma sathlardan bir xil qaytadimi?” yoki “Hamma sathlar ham yorug‘likni bir xil yutadimi?” mazmunidagi savolni o‘rtaga tashlab o‘tishi mumkin. Namuna sifatida taqdim etilgan nostandard qiziqitiruvchi masalani yechish jarayonida o‘quvchilar:

- “dengiz sohilidagi qumning zarralari orasi suv tomchilariga to‘yingan”;
- “suv bilan zichlashgan qatlamning yorug‘likni yutish koeffitsiyenti ortadi”;
- “suvga to‘yingan qumli qatlamning yorug‘likni qaytarish koeffitsiyenti kamayadi” kabi fikrlarni umumlashtirib, ulardan yangi fikr hosil qiladilar. Hosil qilingan yangi fikr esa “Qum zarrachalariga kelib “urilayotgan” yorug‘lik ko‘p martalik qaytishlardan so‘ng, to‘liq ichki yutilishga uchraydi” ko‘rinishida bo‘lishi o‘z-o‘zidan ayon bo‘lib qoladi. O‘quvchilarda masala shartining tahvilini olib borish natijasida kashf etilgan fikrlarni umumlashtirib, yangi fikr hosil qilish ko‘nikmasini shakllantirishda o‘qitishning tadqiqotchilik va interfaol metodlari individual yondashuv asosida olib borilishi maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

O‘quvchilarda o‘z yakuniy fikrini savodli bayon qilish va uni asoslar yordamida argumentlash ko‘nikmasini shakllantirish. Bu vazifaning bajarilishida o‘qituvchining ma'lum darajadagi aralashuvi kuzatilishi mumkin. Ya’ni u fizika (optika bo‘limi)ning mazkur nostandard masala yechimiga oid qonunlar, atamalar, tushunchalar, tayanch formulalar va tegishli kontseptlarni materialni mustahkamlash maqsadida o‘quvchining “yodiga soladi”. Namuna o‘rnida keltirgan masalada o‘quvchilarga yorug‘likning turli sirtlarda sinish, qaytish, yutilish qonunlari eslatib o‘tiladi va bu hodisalarning qanday faktorlarga bog‘liq ekanligi qisman eslatiladi. Shundan so‘ng o‘quvchilar berilgan nostandard masalaning pirovard javobini aytishadi. Ya’ni g‘ovakli va silliq bo‘lmagan sirtlar namlikka to‘yingandan so‘ng, yorug‘likni to‘liq yutadi va natijada esa qoram tir

**90** tusga kiradi. Shaffof suvgaga to‘yingan dengizbo‘yi qumloqda izlarning qoramtilar tusga kirishi ikkita optik hodisa – yorug‘likning qaytishi va yorug‘likning yutilishi hodisalarining namoyon bo‘lishi bilan tushuntiriladi.

**Xulosa.** Ko‘rib turganimizdek, jalb etuvchi turga mansub bo‘lgan nostandard masalalarni yechish orqali biz o‘quvchilarda axborotlarga mantiqiy yondashish, tahlil, mulohaza, axborotlarni tasniflash, fikrlarni umumlashtirish va yangi fikr hosil qilish kabi ko‘plab o‘quv-intellektual ko‘nikmalarni shakllantirishimiz mumkin. Demak, ayta olamizki, o‘quvchilarda optika bo‘yicha nostandard masalalar yechish uchun zarur bo‘ladigan evristik va ijodiy-tadqiqotchilik qobiliyatini shakllantirish uchun ularda qiziqish uyg‘otuvchi, aqlan rivojlantiruvchi, motivatsiyaviy muhit yaratuvchi va muhimi, javobi e’tiroz yoki munozaraga o‘rin qoldirmaydigan nostandard masalalar yechishga o‘rgatishimiz lozim.

### **Adabiyotlar**

1. Казанцева В. Ю. Решение учебных задач как фактор развития эвристического мышления учащихся: дис.... кандидата пед. наук: 13.00.01, С.75
2. Пойа Д. Как решать задачу / гл. ред. Ю. Львы. — Львов: «Квантор», 1991. — 225 с
3. Кодрул, Е. Н. Решение нестандартных задач по физике как фактор развития эвристического мышления обучающихся / Е. Н. Кодрул. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2021. — № 13 (355). — С. 262
4. Демидова, М.Ю. Аналитический отчет по результатам ЕГЭ по физике 2010 г. / М.Ю. Демидова, В.А. Грибов, Г.Г. Никифоров // Физика в школе. – 2010. – №8. – С. 8-26.
5. Елькин, В.И. Из историй Шерлока Холмса // Физика в школе. – 1999. – № 5. – С. 66-68.
6. Перельман, Я.И. Занимательная механика / Я.И. Перельман. – Москва-Ленинград: ОНТИ. – 1937. – 240с.

**To‘raboyeva Muqaddas Yoqubjanovna**

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tadqiqotchisi, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)  
[muqaddastoraboyeva4@gmail.com](mailto:muqaddastoraboyeva4@gmail.com)

## **ONA TILI TA’LIMIDA O’QUVCHILARINING TAFAKKUR TEZLIGINI SHAKLLANTIRISH YO’LLARI**

**Annotatsiya:** Bugungi kun ta’lim jarayonida yosh avlod tafakkurini, intellektini rivojlanтирish o‘z-o‘zidan mavjud pedagogik shart-sharoitlar, metod va usullar bilan emas, balki yangi innovatsion g‘oyalalar, shuningdek, ta’limning rivojlanish bosqichidagi eng so‘nggi yutuqlar orqali amalga oshirilmoqda. Shuningdek, ona tili ta’limida o’quvchilarining tafakkur tezligini shakllantirishni rivojlanтирish ilmiy-metodik jihatlari asoslab berilgan.

**Tayanch so‘zlar:** intellektini rivojlanтирish, o’quvchilar tafakkurni rivojlanтирish, o’quvbiluv jarayoni, tafakkurni rivojlanтирishning psixologik mexanizmlari, tashabbuskor va keng fikrplash, tafakkurning elastikligi, tafakkurning tezligi, mustaqil fikrlay olish, tafakkurning kengligi.

### **ПУТИ ФОРМИРОВАНИЯ СКОРОСТИ МЫШЛЕНИЯ УЧАЩИХСЯ В ОБУЧЕНИИ РОДНОМУ ЯЗЫКУ**

**Аннотация:** Сегодня в образовательном процессе развитие мышления, интеллекта подрастающего поколения осуществляется не только само по себе существующими педагогическими условиями, методами и приемами, но и новыми инновационными идеями, а также новейшими достижениями на этапе развития образования. Обоснованы также научно-методические аспекты развития формирования скорости мышления учащихся в обучении родному языку.

**Ключевое слово:** психологические механизмы развития мышления, инициативного и широкого мышления, гибкости мышления, скорости мышления, способности к самостоятельному мышлению, широте мышления.

### **WAYS TO FORM STUDENTS' SPEED OF THINKING IN MOTHER LANGUAGE EDUCATION**

**Abstract:** Today, in the educational process, the development of thinking, intelligence of the younger generation is carried out not only by itself by existing pedagogical conditions, methods and techniques, but also by new innovative ideas, as well as the latest achievements at the stage of education development. The scientific and methodological aspects of the development of the formation of the speed of thinking of students in teaching their native language are also substantiated.

**Key word:** psychological mechanisms of development of thinking, initiative and broad thinking, flexibility of thinking, speed of thinking, ability to think independently, breadth of thinking.

**Kirish.** Bugungi kun ta’lim jarayonida dunyoning rivojlangan davatlari amaliyotida yosh avlod tafakkurini, intellektini rivojlanтирish o‘z-o‘zidan mavjud pedagogik shart-sharoitlar, metod va usullar bilan emas, balki yangi innovatsion g‘oyalalar, shuningdek, ta’limning rivojlanish bosqichidagi eng so‘nggi yutuqlar orqali amalga oshirilmoqda. O’quvchilar tafakkurini rivojlanтирish, intellektini boyitish jahонning yetakchi davlatlarida turlichа amalga oshiriladi.

**92** Hozirgi kunda AQSHda bu masala bo'yicha P.Torrens, Fransiyada P.Debral- Retzen "Iqtidorli talabalar ustoz modeli"ni taklif qilishgan. Mazkur modelga ko'ra o'qituvchi o'z sohasi bo'yicha o'quvchisida qiziqish uyg'ota olishi, tashabbuskor va keng fikrlashga o'rgata olishi ko'zda tutilgan. AQSHning "Merit" dasturi ham har yili aynan tafakkuri keng, zehnli, fikrlashi teran o'quvchilarni tanlab oladi. Bu esa intellektni aniqlash testlari orqali amalga oshiriladi. Buyuk Britaniyada intellekti yuqori bolalarni tadqiqot qilish Markazi mavjud bo'lib, unda kengaytirilgan va tezlashtirilgan kurslar asosida o'qitish tizimi muhim ahamiyat kasb etadi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** O'quvchilar tafakkurini shakllantirish va rivojlantirish doir fundamental tadqiqotlar, elektron darsliklar, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishning nazariy asoslari hamda o'quvchilar tafakkurni rivojlantirishning psixologik mexanizmlari respublikamiz olimlaridan E.G'oziyev, G'.Shoumarov, V.Karimova, M.Zufarova kabi psixolog olimlar ishlarida o'z aksini topgan; o'yinlar asosida tafakkurni rivojlantirish va o'quv-biluv jarayonini ijodiy tashkil etish muammolari bo'yicha B.Adizov, R.Ibragimov, G.Najimova, S.Sharipov, T.G'afforova, M.Xaqberdiev, M.Saidov, T.G'aniev, J.Tolipova, A.Bobomurodova, S.Nurullaeva, J.Yo'ldoshev, M.Mahmudov, G.Ne'matova, T.Ziyatova, J.Musayev, M.Usmonboeva, O.Aslonova hamda boshqalar tomonidan o'rganilgan.

MDH davlatlari olimlari F.Gonobolin, V.Kabakin, N.Kuzmina, G.Suxobskaya, Y.Osipova va V.Tamarinlarning tadqiqotlarida o'qituvchining tafakkur tezligi va uning o'ziga xos xususiyatlariqa oid masalalar yoritib berilgan. N.Anisimova, L.Treyder. Yu.Kornilov, Yu.Kulyutkin, B.Teplov, O.Tixomirov, D.Cemodanova kabi olimlar tomonidan amaliy va kasbiy tafakkurni rivojlantirishning mexanizmlari bayon etilgan.

Xorijliy olimlardan G.Ayzenk, J.Piaje, D.Poya, G.Kreyg, B.Kleg, Dayana Xalperilar tomonidan intellekt va tafakkurni rivojlantirish muammolari bo'yicha testlar tizimi ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Pedagogik ensiklopediyalarda tafakkur deyilganda "real predmet va hodisalarini muhim xossalari, munosabat va bog'liqligini umumiyl holda aks ettiruvchi, insonning bilish faolligi jarayonidir" deb tushuniladi. SHunday qilib, tafakkur-inson ongiga reallikni aks ettiruvchi, o'rganilayotgan obyektlar o'rtasida o'rnatilgan bog'liqlik va munosabatlarni xossalari hamda mohiyatini ochib beruvchi, umumlashtiruvchi bo'lgan eng yuqori jarayon ekan. [ 1;235-b ].

Tafakkur tushunchalar va tasavvurlarda amalga oshiriladi hamda tafakkur qilinishining asosiy shakli - fikr va mulohaza yuritishdir. "Tafakkur - jamiyat rivojining mahsulidir, lekin, tafakkurning individual rivojanishi, uning o'ziga xosligi, organizmning o'ziga xosligiga, bosh miyaning holati va funktsional imkoniyatlariga bog'liqidir. Tafakkurning individual o'ziga xosligi - tafakkurning kengligi, mustaqil fikrlash, tafakkur tezligi, shoshma-shosharlik va tanqidiy fikrlash bo'lib, mutaxassislar bularni aqlning sifatlariga tegishli deb qarashadi" [2; 105-b].

Bizning fikrimizcha, tafakkur barcha insonlar uchun umumiyl bo'lgan qonuniyatlar orqali amalga oshadi, lekin shu bilan birga tafakkurda insonning yosh jihatlari va individual o'ziga xosligi namoyon bo'ladi.

Tafakkurning individual o'ziga xosligi turli insonlarda turlicha namoyon bo'ladi. Tafakkur faoliyatining bir-birini to'ldiruvchi shakl va ko'rinishlari o'rtasida doimiy munosabatlar paydo bo'ladi (ko'rgazmali- harakatli, ko'rgazmali-obrazli va abstrakt tafakkur).

Tafakkurning individual o'ziga xosligiga bilish faoliyatining boshqa jihatlari: tafakkurning elastikligi, tafakkurning tezligi, mustaqil fikrlay olish kabilalar tegishlidir.

Tafakkurning kengligi - xususiy tomonlarni nazardan qochirmsadan, muammoni to'liq qamrab olish qobiliyatidir.

Tafakkurning teranligi - murakkab savollarning mohiyatigacha kira olish qobiliyatida ifodalanadi. Teran tafakkur qilishga qarama-qarshi bo'lgan sifat - yuzaki fikrlash bo'lib, inson mayda narsalarga e'tibor qaratib, asosiy qismni ko'rmaydi.

Mustaqil tafakkur yuritish insonning yangi muammolarni qo'ya olishi va boshqalarning yordamiga murojaat qilmasdan ularni yechish yo'llarini topish ko'nikmasiga ega bo'lishi bilan tavsiflanadi. Tafakkurning ijodiy tavsifi ana shu mustaqillikda namoyon bo'ladi.

Shoshma-shosharlikda aql yuritish - inson qo'yilgan savolga atroficha o'ylamasdan, qaysidir tomonni ushlab olib, yechimni berishga shoshadi, yetarlicha o'ylanmagan javobni va mulohazani aytadi. Sekinlik bilan fikr yuritish faoliyati esa, nerv tizimi tipiga, ya'ni uni sekin harakatlanishiga bog'liq bo'lishi mumkin.

Tafakkur sifatlari orasida shaxsning intellektini bir-biridan farqlashga xizmat qiladigan xususiyati-tafakkur tezligi hasoblanadi.

"Tezlik" - sezgi vositasida narsa va hodisalarning asl mohiyatini, ma'nosini ziyraklik bilan tushunishga yordam beruvchi quvvat.

Maxmud Qoshg'ariy "Devonu lug'atit turk" asarida aqli odamning zehni o'tkir bo'lishi, u har qanday o'git, nasihatni xuddi yuqorida parvoz etayotgan qushning pastda ovni ko'rgandagi tezlik bilan sho'ng'ishiga o'xshatadi. Oqil odam zehnining, tafakkurining tezligini qush parvoziga qiyoslanadi, ya'ni,

Qush ov ko'rsa, yuksaklardan pastga cho'kar,

Olim kishi o'git bersa darhol uqar [3;53-b].

Shuningdek, xalq og'zaki ijodining tez aytish, topishmoq, chaldirmoq kabi janrlari inson tafakkur tezligi mahsuli sifatida qadrlanadi. Jumladan, chaldirmoq (topishmoqning turi hisoblanib, "so'z bilan urmoq, so'zda mot qilmoq") insondan tafakkur tezligini talab etadi. Emishki: Xiva xoniqamalda qoladi va dushmanga shu nomdagi maktub bitdi: "Xalqimni uch oy qovog'i boqsa, uch oy chavog'i boqadi, uch oy qovuni boqsa, uch oysovuni boqadi". Dushman bu maktubni anglamadi, sarson bo'ldi. Xon dushmani so'zda mot qilgandi. [4; 64-b].

Falsafiy qomusiy lug'atda "Tafakkur tezligi - qiyin vaziyatni tezda anglash, tez qaror qabul qilish va uni to'g'ri yechimini topa olish qobiliyat". Fikrlash tezligi ijobiy ahamiyatga ega, chunki ma'lumotni qayta ishlash jarayoni tezlashadi", - deb ta'riflangan. [5;492-b].

Psixologik ensiklopediyada "Tafakkur tezligi - bu odamning tez javob berish qobiliyatidir, muammoni yechishda bir-biridan farq qiladiganyangi narsalarni oson topa olish qobiliyat", - deya e'tirof etilgan. [6;192- b].

Pedagogik ensiklopediyada "Tafakkur tezligi - bu shunchaki muayyan muammolarni hal qilish uchun yangi strategiyalarni tezda izlash qobiliyat emas, bu avvalambor biror narsaga bo'lgan eski qarashlardan voz kechish va yangi, yanada to'g'ri, foydaliroq, tegishli qarashlarni qabul qila olish" ekanligi aytilgan. [ 1;237-b ].

Ayzenkning ta'rifiga ko'ra: "Aqliy jarayonlarning tezligi yoki tafakkur tezligi-insonlar o'rtasidagi intellektual farqlarning fundamental bazisidir" [ 7;456-b ].

E. G'oziyev: "Tafakkur tezligi qo'yilgan savolga va muammoga to'liq javob olingan vaqt bilan belgilanadi. Uning tezligi qator faktorlarga: jumladan, fikrlar uchun zarur materialni tez yodga tushira olish, muvaqqat bog'lanishlarning tezligi, turli hislarning mavjudligiga, insonning diqqatiga, qiziqishiga bog'liq bo'ladi. Tafakkur tezligi insonning bilim saviyasi, fikrlash qobiliyat, mavjud ko'nikma va malakalarga ham bog'liq bo'ladi", - deb ta'riflaydi. [8;120-b].

P.I.Ivanov, M.E. Zufarovalar: "Tafakkur tezligi-quyilgan savolga uzil-kesil javob olingan vaqt bilan belgilanadi. Albatta bu vaqt oddiy tafakkur jarayonlarida ancha qisqa bo'ladi va murakkab tafakkur jarayonlarida uzunroq bo'ladi. Oddiy tafakkur jarayonlari shu bilan farq qiladiki, bunday tafakkur jarayonlarida savollar qo'yilishi bilanoq darhol shu savolning javobi kelib chiqadi. Shunday kishilar borki, ularda murakkab fikrlash operatsiyalari ham juda tez o'tadi. Bunday kishilarni hozirjavob, zehni o'tkir kishilar deb ataymiz". [9;98-b].

**Tahlil va natijalar.** "Tafakkur" termini "O'zbek tilining izohli lug'ati"da shunday ta'rif berilgan. Tafakkur (arab tilidan olingan so'z bo'lib) fikr yuritish, o'ylash, fikrlash kabi ma'nolarni anglatadi. 1.Obyektiv voqealikning tasavvur, tushuncha va muhokamadagi faol in'ikosi jarayoni, insonning fikrlash qobiliyat; fikrlash. 2.O'ylash, fikr yuritish, muhokama; o'y. Demak, biz tafakkurni rivojlantiruvchi mashqqa quyidagicha ta'rif berishimiz mumkin. O'quvchini fikrlash qobiliyatini oshiruvchi, o'ylash, fikr yuritish va muhokamaga undovchi mashq turi tafakkurni rivojlantiruvchi mashq deyiladi. Tafakkur tezligi insondan juda qisqa muddatda yechim qabul qilinishi talab qilingan paytlarda namoyon bo'ladi. Lekin, u o'quvchilar uchun ham muhimdir, shu sababdan ta'lim jarayonida ularda tafakkur tezligini shakllantirish lozim. Chunki ko'pchilik yaxshi

**94** o‘qiydigan o‘quvchilardan ular uchun yangi taqdim etilayotgan mavzu yuzasidan mashqni doskada bajarish so‘ralganda ular tortinchoqliklaridan-mi o‘zlarini yo‘qotib qo‘yishadi. Bunday salbiy emotsiyalar insonni fikrlashdan to‘xtatib qo‘yadi va fikrlash jarayoni juda sekinlashib boradi hamda muvaffaqiyatsizlikka olib keladi, lekin shuni qayd etishimiz lozimki, oddiy holatlarda shunga o‘xhash yoki undan qiyinroq masalalarni ular tez va bexato hal qiladilar. Emotsiya va sezgilar ta’siri natijasida tafakkurning juda tez sekinlashishi insonning kundalik hayotida ham ko‘p uchraydi. Yuqorida qayd etib o‘tilgan sifatlar va boshqa ko‘rinishlar tafakkurning asosiy sifatlari yoki belgilari bilan chambarchas bog‘langandir. Tafakkur tezligining shakllanishi o‘quvchining muammolar yechimini topish, aniq, to‘g‘ri, optimal yo‘l tanlashga yordam beradi. Bunda o‘quvchi muayyan mashqni bajarishda keraksiz ma’lumotlar, ortiqcha faktlar izlamasdan, mohiyatan aniq tomonga intiladi. Har qanday masaladagi sabablar va oqibatlar xususida o‘ylab ko‘rism ko‘nikmalari o‘quvchida shakllana boshlaydi. Masalan: qo‘yidagi tafakkurni rivojlantiruvchi mashq orqali o‘quvchilarning tafakkur tezligini ona tili darslarida aniqlash mumkin.

2-mavzu: Fonetik va fonologik hodisalar. So‘zlardagi tushirib qoldirilgan harflarni o‘z o‘rniga qo‘ying.

1. .... yiq	1.N... n
2.... nor	2. ... mad
3... sal	3. ... lma

1. Ma...a	1.Bi ... im
2. ... om	2.Ka ... it
3. Bi ... o	3.Gu ... don

2-mashq. Berilgan harflar bilan boshlanadigan suv havzasiga tegishli so‘zlar toping.

Sh.....	J .....	A .....
S .....	F .....	I .....
Q .....	O .....	D .....
D .....	K .....	B .....

**Xulosa va takliflar.** Tafakkur tezligi” tushunchasining uchta talqini mavjud:

- 1.Biologik talqin: “ongli ravishda yangi holatga moslasha olish qobiliyat”.
- 2.Pedagogik talqini: “ta’limga va ta’lim olishga bo‘lgan qobiliyat”.
- 3.A.Bine tomonidan ifodalangan tarkibiy (strukturaviy) yondashuv: intellekt “maqsad sari vositalarni moslashtira olish qobiliyat” sifatida.

Tarkibiy (strukturaviy) yondashuv nuqtai nazaridan tafakkur tezligi -u yoki bu qobiliyatlar to‘plami. Insondagi bilish jarayonlari to‘plami uning tafakkurini va intellektini aniqlaydi. “Intellekt-aqliy harakatlarning global qobiliyati bo‘lib, unda ratsional fikrlash va hayotiy holatlarda tez vato‘g‘ri yechimni qabul qila olish asosiy ko‘rsatgichdir”, ya’ni intellektga insonni atrofdagi olamga tez moslasha olish qobiliyati sifatida qaraladi.

Tafakkur tezligining xususiyatlari:

Tez fikrlash jarayonida o‘quvchi axborot modellari bilan shug‘ullanadi.

Tez fikrlash natijalari amalda sinab ko‘riladi va harakatlar jarayonida tuzatiladi.

tafakkur tezligi vaqt yetishmasligi va boshqa g‘ayrioddiy omillar (nostandard vazifalar, muammoli vaziyatlar, haddan tashqari yuk, og‘irlilik va boshqalar) ta’sirida rivojlanadi.

## Adabiyotlar

2. Утёмов В.В., Зинковкина М.М., Горев П.М. Педагогика
3. Қошғарий М. Девони луготит турк. З томлик. Т: Ўз. ССР ФА Ўз. Фа нашриёти, 1963.
4. Аслонова О.П. Бошланғич таълим жараёнида ўқувчиларни ҳозиржавобликка ўргатиш: Бошланғич синф ўқитувчилари учун методик қўлланма. – Қарши. Насаф. 2011. – Б. 64.
5. Умарова М., Ҳакимова Ш. Ўқиши китоби. ( 3 – синфлар учун дарслик). Т.: Чўлпон номидаги нашриёт матбаа ижодий уйи, 2010.
6. Пиаже Ж. Речь и мышление ребенка / Ж. Пиаже - СПб., 1997. - 256 с.
7. Айзенк Г. Психология для начинающих. “Питер”, 2000.-123с
8. Фозиев Э. Умумий психология. II китоб Т:Университет, 2002.- 240 б.
9. Р.Ибрагимов.Бошланғич мактаб ўқувчиларида билиш фаолиятини шакллантиришнинг дидактик асослари. Пед.фан.док. дисс. Низомий номидаги ТДПИ. –Т.: 2001 .- 250б.
10. Назарова Х.П. Бошланғич синф ўқувчиларининг коммуникатив саводхонлигини таъминлашнинг дидактик асослари. Пед. фанк. ном. дисс. - Т.: 1999, - 239 б.
11. Аслонова О.Р. Бошланғич синф ўқувчиларида тафаккур тезлигини шакллантиришнинг педагогик шарт-шароитлари. Пед. фан бўй.фал. фан.док. ном. дисс. 2020, - 180 б.

**Ma'rufjonova Rohila Lutfulla qizi**  
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti  
pedagogika kafedrasи o'qituvchisi  
[marufjonovarohila69@gmail.com](mailto:marufjonovarohila69@gmail.com)

## **МАКТАБГАЧА YOSHDAGI (5-7) YOSHLI BOLALARDA TADQIQOTCHILIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH**

**Annotatsiya.** Maqolada maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarida tadqiqotchilik faoliyatini rivojlanirish orqali ularda, atrofdagi dunyo ob'ektlari va hodisalariga qiziqishni rivojlanirish, qiziqishni rivojlanirish va ilmiy faoliyatga motivatsiyani shakllantirish, ularning xususiyatlari (shakli, rangi, o'lchami, tuzilishi, tovushliliqi va boshqalar) haqida birlamchi g'oyalarni shakllantirish, aqliy qobiliyatlarni rivojlanirish, tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish, tasniflash, vaqt va makonga yo'naltirish, munosabatlarni o'rnatish, zarur ma'lumotlarni mustaqil izlash uchun ijobjiy motivatsiya yaratish, qiziquvchanlikni, kuzatishni rag'batlantirish, turli asboblar bilan ishlash malakasini shakllantirish haqida bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** tadqiqotchilik, faoliyat, muloqot, ijodkorlik, qobiliyat, psixik jarayonlar, kognitiv faoliyat, rivojlanish markazlari, tajribalar.

## **РАЗВИТИЕ НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ У ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО (5-7) ЛЕТ**

**Аннотация:** В статье через развитие исследовательской деятельности у детей дошкольной образовательной организации, развитие интереса к предметам и явлениям окружающего мира, развитие интереса и формирование мотивации к научной деятельности, первичные сведения о их характеристики (форма, цвет, размер, структура, звук и т.п.) формирование представлений, развитие умственных способностей, анализ, сравнение, обобщение, классификация, ориентация во времени и пространстве, установление связей, создание положительной мотивации к самостоятельному поиску необходимой информации, стимулируя любознательность, наблюдательность, различные инструменты, говорится о формировании умений работать.

**Ключевые слова:** исследование, деятельность, общение, творчество, способности, психические процессы, познавательная деятельность, центры развития, переживания.

## **DEVELOPMENT OF RESEARCH ACTIVITY IN PRESCHOOL (5-7) YEAR OLD CHILDREN**

**Annotation:** In the article, through the development of research activities in the children of the preschool educational organization, the development of interest in the objects and phenomena of the world around them, the development of interest and the formation of motivation for scientific activity, primary information about their characteristics (shape, color, size, structure, sound, etc.) it is stated about the formation of ideas, development of mental abilities, analysis, comparison, generalization, classification, orientation in time and space, establishment of relationships, creation of positive motivation for independent search of necessary information, stimulation of curiosity, observation.

**Keywords:** research, activity, communication, creativity, ability, mental processes, cognitive activity, development centers, experiences.

**Kirish.** O‘tgan davr mobaynida mamlakatimizda o‘sib borayotgan avlodni sog‘lom va har tomonlama yetuk voyaga yetkazish, ta’lim-tarbiya jarayoniga samarali ta’lim va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etishga qaratilgan maktabgacha ta’limning samarali tizimini tashkil etish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi Toshkent shahrida kichik yoshdagi bolalarni tarbiyalash va ularga ta’lim berish masalalari bo‘yicha jahon konferensiyasi «Bu borada, avvalambor, yoshlar va bolalarga e’tibor va amaliy g‘amxo‘rlik ko‘rsatish, ularni jismoniy va ma’naviy barkamol etib tarbiyalashga alohida ahamiyat qaratmoqdamiz. Bolalarni kichik yoshdan boshlab rivojlantirish orqali kelajakda ularning o‘zligini to‘la namoyon etishiga mustahkam zamin yaratayapmiz. Zero, bu ezgu maqsadimiz yo‘lida sarflangan investitsiyalar ertaga bir necha barobar ortig‘i bilan qaytishiga shubha yo‘q», – dedi Shavkat Mirziyoyev (15.10.2022 yil Toshkent shahrida bo‘lib o‘tgan kichik yoshdagi bolalarni tarbiyalash va ularga ta’lim berish masalalari bo‘yicha jahon konferensiyasida so‘zlagan nutqidan). Maktabgacha yoshdagi bolalarning eksperimentlarda tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirish uchun pedagogik shartlarni nazariy jihatdan asoslash, ishlab chiqish va eksperimental ravishda sinovdan o‘tkazish. Muammoga oid ijtimoiy-falsafiy, psixologik, pedagogik va metodik manbalarni o‘rganish. Maktabgacha yoshdagi bolalardagi tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirishdagi muammolarni aniqlash. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarda bolalarda tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirishning bugungi kundagi ahvolini o‘rganish. Maktabgacha yoshdagi bolalarning eksperiment o‘tkazishda tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirishni ta’minlaydigan pedagogik shart-sharoitlarni aniqlash, ularni amalga oshirish usullarini, vositalarini ishlab chiqish.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama tarbiyalash muammosi tarixiy xarakter kasb etib, bu borada sharq mutafakkirlari Abu Nasr Farobi, Abu ali Ibn Sino, A.Navoiy kabi mutafakkirlar tomonidan yaratilgan talim tarbiyaga oid ilmiy adabiyotlarda bola tarbiyasi uning aqliy va ahloqiy rivojlanishi birgaligidan iborat bo‘lishi haqida o‘z asarlarida ko‘rsatib o‘tgan. Yosh avlodga har tomonlama talim-tarbiya berish maqsadida B.Adizov, P.Jo‘rayev, S.G‘oziyev, O.Jamoldinova, M.Inomova, O.Musurmonova, M.Quronovlar Z.Ismoilova, U.Mahkamov, tomonidan ijtimoiy—pedagogik, antropologik va akmeologik masalalar ilmiy darajada o‘rganib chiqilgan. Psixolog olimlardan M.Davletshen, B.Karimova, Z.Nishonova, N.Safaev, E.G‘oziyevlar tomonidan muammoning psixologik jihatlari o‘rganilgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Kuzatish metodi, suhbat metodi, eksperiment metodi, bolalar ijodini o‘rganish metodi, sinov tajriba metodi asosida bolalardagi tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirish tadqiq qilingan.

**Tahlil va natijalar.** Hozirgi kunda ta’lim jarayonida interfaol uslublar innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalanib, ta’limning samaradorligni oshrishga bo‘lgan qiziqish, e’tibor kundan-kunga ortib bormoqda. Zamonaviy texnologiyalar qo‘llanilganda pedagoglar egallayotgan bilimlarni o‘zlari qidirib topishlariga, mustaqil o‘rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o‘zlari keltirib chiqarishlariga qaratilgan. Pedagog bu jarayonda shaxs va jamoaning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi.

Shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo‘naltiruvchi vazifasini bajaradi. Hozirgi davrda sodir bo‘layotgan innovatsion jarayonlarda ta’lim-tarbiya tizimi oldidagi muammolarni hal etish uchun yangi axborotni o‘zlashtirish va o‘zlashtirgan bilimlarni o‘zlari tomonidan baholashga qodir, zarur qarorlar qabul qiluvchi, mustaqil va erkin fikrlaydigan shaxslarga aylanadi. Shuning uchun ham maktabgacha talim tashkilotlarda ta’lim-tarbiya jarayonini sifatli tashkil etish bugungi kunning asosiy vazivasiga aylanib bormoqda

Bugunga qadar olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarida maktabgacha yoshdagi bolaning har tomonlama rivojlanishi uchun asosiy ishlar amalga oshirilib kelindi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda kognitiv faoliyati bolaning ushbu faoliyat sub’ekti sifatida faol transformatsion o‘rni bilan tavsiflanadi [14, B. 56]. Kognitiv faoliyatning tuzilishi tizimning tarkibiy qismlari o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir usuli sifatida belgilanadi va quyidagilarni o‘z ichiga oladi:



### 1-jadval. Kognitiv faoliyatning tuzilishi.

Maktabgacha yoshdagagi bolaning to'liq kognitiv rivojlanishi bolaning mustaqil yoki birgalikdagi faoliyatini tashkil etishga asoslanadi. Yosh bosqichlarida kognitiv jarayonlarning rivojlanishi o'ziga xos xususiyatlar bilan tavsiflanadi. Maktabgacha yoshdagagi aqliy kognitiv jarayonlar o'zboshimchilik bilan xarakterlanadi. Bolalar o'zлari, atrofidagi dunyo haqida bilim oladilar, ma'lumotni maqsadli ravishda o'zlashtiradilar, tahlil qilish, umumlashtirishga murojaat qilishlari mumkin.

Kognitiv faoliylik shakllansh jarayonida, bolaning kelajakdagi rivojlanish darajasini belgilaydi. Maktabgacha tarbiya bosqichiga qanchalik ko'p e'tibor berilsa, maktab hayotida bolalar uchun osonroq bo'ladi. Bola mazkur davrda organizmning tayanch-harakat va yurak-qon-tomir tizimlarining intensiv rivojlanishi hamda takomillashishi, mayda mushaklarning rivojlanishi, markaziy asab tizimidagi ayrim bo'linmalarning rivojlanishi va differensirovkalanishi ro'y beradi. Bolaning vazni oyiga taxminan 200 gr atrofida, bo'yi o'sishi esa 0,5 sm ga ortib boradi, tana proporsiyalari o'zgara boshlaydi. 7 yoshli bolalarning bo'yi o'rtacha 113-122 sm ga, o'rtacha vazni esa 21-25 kg ga teng bo'ladi [7, B. 43]. Miya sohalari deyarli katta yoshli kishilarnikidek shakllangan. Harakat sohalari yaxshi rivojlangan. Suyaklar mustahkamlanishi davom etadi, lekin umurtqa egilishlari hali barqaror emas. Yirik va ayniqsa, mayda motorikaning rivojlanishi davom etadi. Qo'l panjalari mushaklarning koordinatsiyasi intensiv rivojlanadi. Umumiylis jismoniy rivojlanish bolaning nozik motorikasi rivojlanishi bilan bog'liq bo'ladi [6, B. 144]. Qo'l barmoqlarining mashq qildirilishi boladagi intellektni oshirish, nutqni rivojlantirish va yozishga tayyorgarlik ko'rish vositasi bo'lib sanaladi. Ushbu yoshda bolada bir qator psixologik o'zgarishlar ro'y beradi.

Bu yosh bosqichining o'ziga xos tomoni bo'lib bilishga doir va fikriy psixik jarayonlarning faol rivojlanishi hisoblanadi. Bola kuzatishga, qarab izlash kabi ixtiyoriy harakatlarni bajaradi. Mana shu yoshda sensor etalonlar – shakl, rang, o'lcham to'la o'zlashtiriladi. Maydon-makonni anglashning rivojlanishi davom etadi. Bola pastga, tepaga, boshqa tomonga kabi tushunchalar bilan amallarni bajara boshlaydi. Shuningdek, endilikda o'ng va chap tomonni tasavvur qilish aniq shakllangan bo'lishi lozim. Biroq, bu yoshdagagi bolalarda bir vaqtning o'zida turli xildagi belgilarning hisobga olinishi lozim bo'ladigan paytlarda xatolikka yo'l qo'yishlari uchrashi mumkin.

**Diqqat.** Maktabgacha yosh davriga kelib bolada ixtiyoriy diqqat rivojlnana boshlaydi [12, B. 96]. Bola diqqatini ongli ravishda ma'lum bir predmetlarga va ob'ektlarga yo'naltirib va jamlab tura oladi. Diqqatning barqarorligi ortishi – 20-25 daqiqa, diqqat hajmi 7-8 ta predmetni qamrab oladi. Bola ikkiyoqlama tasvirlarni ko'ra olishi mumkin.

**Xotira.** Maktabgacha yosh oxiriga kelib bolada psixik faoliyking ixtiyoriy shakllari paydo bo'ladi. U endilikda predmetlarni qarab chiqsa oladi, maqsadga qaratilgan kuzatishni amalgalash oshira olishi mumkin, ixtiyoriy diqqat paydo bo'ladi va buning natijasida ixtiyoriy xotira elementlari yuzaga kela boshlaydi. Ixtiyoriy xotira bola o'zi mustaqil ravishda maqsadni belgilaganda – eslab qolish va eslash holatlarda namoyon bo'ladi.

Bolaning eslab qolish istagini har tomonlama rag'batlantirish zarur, chunki bu nafaqat xotiraning, balki bilishga doir boshqa qobiliyatlar – anglash, diqqat, fikrlash, tasavvur qilishning ham muvaffaqiyatli rivojlanish garovidir. Ixtiyoriy xotiraning paydo bo'lishi vositalangan xotiraning – eslab qolishning eng mahsuldar shakli rivojlanishiga yordam beradi [12, B. 106]. Bu yo'ldagi birinchi qadamlar eslab qolinadigan materialning o'ziga xosliklari – yorqinligi, ommabopligi, noodatiyligi, ko'rgazmalilik va boshqa shu kabilar bilan shartlanadi. Bu davrda

maktabgacha yoshdagi bolalarmi eslab qolish maqsadlarida tasniflash va guruhlash usullariga 99 maqsadli ravishda o'rgatish mumkin.

**Fikrlash.** Ilgarigidek, yetakchi bo'lib ko'rgazmali-qiyofaviy fikrlash hisoblanadi, lekin maktabgacha yosh oxiriga kelib so'zli-mantiqiy fikrlash shakllana boshlaydi. U so'zlarn ishlata bilish, fikr-mulohazalar mantig'ini tushuna olish mahoratining rivojlanishini ko'zda tutadi. Bu yerda albatta katta yoshlilarning yordami zarur bo'lib hisoblanadi, chunki bolalarning, masalan, predmetlar kattaligi yoki sonini taqqoslashlaridagi bolalarcha fikr-mulohazalarining nomantiqiyligi mavjud bo'lishi ma'lumdir. Maktabgacha bo'lgan yoshda tushunchalarning rivojlanishi boshlanadi. To'la holda so'zli-mantiqiy, tushunchali yoki abstrakt fikrlash o'smirlik yoshiga kelib shakllanadi. Katta maktabgacha yoshdagi bola sabab-oqibatl aloqadorliklarni belgilay olishi, muammoli vaziyatlar yechimini topa olishi mumkin bo'ladi.

**Tasavvur.** Bola hayotining bu davri tasavvur qilishning o'ziga xos faolligi bilan tavsiflanadi. Dastlab bu faqat yaratuvchilik tasavvurlari bo'ladi, ya'ni, biron-bir ertaknamo qiyofalarni tasavvur qilishga imkon beradigan tarzda bo'ladi, keyinchalik esa butunlay yangi qiyofalarni yaratishga qodir bo'lgan ijodiy tasavvurga aylanadi. Bu bolada fantaziyani rivojlantirish uchun o'ta muhimdir.

**Nutq.** Grammatika va leksikaning rivojlanishi davom etadi, nutq ravon bo'la boradi. So'z boyligi ortadi, bolalar umumlashtiruvchi otlarni ishlata boshlaydilar, sinonimlar, antonimlar va sifatlardan foydalana boshlaydilar. Agarda bola bilan birga ko'p o'qilsa va muloqot qilinsa, unda bu yoshga kelib ham monologik nutq (tushuntirishli va talqin qiluvchi, bayoniylig' nutq) hamda muloqotda ishtirot eta olish mahorati yaxshi darajada shakllangan bo'ladi. Yozma nutq shakllana boshlaydi. So'z boyligi taxminan 3 000 ta so'zgacha boyib boradi.

**Shaxs rivojlanishi.** Maktabgacha yoshdagi bolaning ongidagi asosiy o'zgarish bo'lib "harakatlar ichki rejasি" ning paydo bo'lishi hisoblanib, u bolaga nafaqat ko'rgazmali tarzda, balki ongli ravishda ham turli xildagi tasavvurlarni hosil qilishga yordam beradi. Bolaning o'z-o'zini anglashida "Men" obrazini anglashi refleksiv qobiliyatini belgilaydi, ya'ni, tahlil qilishi, o'z harakatlarining maqsadlari va natijalari uchun javob bera olishi, shu jumladan, o'z kechinmalari, hissiyotlarini anglashi. Aynan shu yangilanish bolaning ma'nani rivojlanishining asosi bo'lib hisoblanadi. 6-7 yoshli bolaning psixik va shaxsiy sohalarida rivojlanishining eng muhim yangi hosilasi sifatida motivlarning bo'ysundirilishi hisoblanadi. "Men qilishim kerak", "Men qila olaman" motivlarining anglanishi "Men xohlayman" motivi ustidan ustunlik qila boshlaydi.

**O'z "Men"ini anglash** va mana shu asosida maktab yoshi oxiriga kelib ichki hissiyotlarning paydo bo'lishi yangi ehtiyojlarni tug'diradi. Butun maktabgacha yosh davomidagi faoliyatning yetakchi turi bo'lib hisoblangan o'yin mana shuning natijasida endi bolaning ehtiyojlarini to'la qondira olmay qoladi. Bolada endilikda o'z bolalarcha hayoti doirasidan tashqariga chiqishga intilish, ijtimoiy-ahamiyatli faoliyatda o'z o'rnini egallash istagi yuzaga keladi, ya'ni, bola yangi ijtimoiy hissiyotni – "maktab o'quvchisi o'rnini"ni egallashga intiladi, bu esa 6-7 yoshli bolalarning shaxsiy hamda psixik rivojlanishidagi eng muhim natija va o'ziga xosligi bo'lib sanaladi [13, B. 266]. 6-7 yoshda bola o'zini nafaqat uning o'zi hosil qilgan amaliy harakatlar chegaralarida anglay boshlaydi, balki u o'zining atrof-muhitga va boshqa kishilar orasidagi o'z o'rniga nisbatan munosabatlarini tushuna olish hamda tahlil qila olishga (bu yosh uchun xos bo'lgan shaklda) qobil bo'ladi: o'zini ijtimoiy munosabatlar tizimidagi sub'ekt sifatida tushunish – o'zining ijtimoiy "Men" ini anglash paydo bo'ladi. O'z-o'zini baholash bu yoshdagi bolada qoidaga ko'ra, o'zini ko'ra olish tendensiyasiga ega bo'ladi. Bunda bola tashqi baholashga juda bog'liq bo'ladi, chunki u o'zi haqida ob'ektiv fikrni tuza olish imkoniga ega bo'lmaydi, u o'zining qiyofasini tengdoshlari va kattalar o'z nomiga eshitgan baholardan kelib chiqib tuzadi.

Maktabgacha yoshda bo'lgan bolalar yaxshi, va birinchi bo'lishga jon-dili bilan intiladilar, muvaffaqiyatsizlikka uchraganda juda xafa bo'ladilar, kattalarning munosabati, kayfiyati o'zgarib qolishiga yorqin va emotsiyal ravishda reaksiya ko'rsatadilar. Bu davrda bolalarning guruhda taniqli va yoqimsiz bolalarga ajralib qolishlari aniq namoyon bo'ladi. Maktabgacha yoshdagi bolaning yetakchi ehtiyoji bo'lib ham o'z tengdoshlar, ham kattalar bilan muloqoti sanaladi. Oldingi yosh davridagidek yetakchi faoliyat bo'lib syujetli-rolli o'yinlar qolaveradi. Bu yoshdagi

**100** o‘yinlarning o‘ziga xosligi bo‘lib shu narsa hisoblanadiki, bunda bolalar kishilarning murakkab o‘zaro harakatlarini o‘zlashtirishni va uni amalga oshirib ko‘rishni, atrof-muhitdagi asosiy hayotiy vaziyatlarni sinab ko‘rishni boshlaydilar.

O‘yinlar murakkablasha boradi, ba’zan kattalar har doim ham tushuna olmaydigan alohida mazmunga ega bo‘ladi. Bunda bolalar butun o‘yin maydonini to‘la kuzatib turishga, o‘yindagi barcha ishtirokchilarni ko‘rib turishga va zaruriy o‘yin harakatlariga bog‘liq bo‘ladigan o‘z xulqatvori yoki rolini o‘zgartirib turishga qodir bo‘ladilar Bola hissiyotlarning beshta turi bilan atrof muhitni o‘rganadi. Nima uchun ko‘plab bolalar dunyo va tadqiqot faoliyatiga bo‘lgan qiziqishni yo‘qotadilar? Ehtimol, bizdan - kattalardan so‘rash yaxshiroqdir. Bolaning dunyoni kashf etish istagiga biz odatda qanday javob beramiz? “Qumga tegmang, ko‘lmakka kirmang, uloqtiring, tegmang, iflos bo‘lasiz. Biroz vaqt o‘tgach, katta yoshli bola boshqa bolalar bilan ham gaplashadi va u endi nima uchun qor yog‘ayotgani yoki yomg‘ir yog‘ayotgani, shamol qayerdan esayotgani, nega barglar kuzda tushayotgani bilan qiziqmaydi. Ehtimol, biz - kattalar, atrofimizdagi dunyoga qiziqishni yo‘qotganmiz, shuning uchun endi o‘rganmaymiz va kuzatmaymiz. Shuning uchun, bizning bolalarimiz ushbu kashfiyotchilik qobiliyatini saqlab qolishlari uchun ularni qo‘llab-quvvatlash muhimdir.

Dunyoni o‘rganish paytida kiyimlar ifloslanishi, tutqichlar ifloslanishi muhim emas - bularning hammasini o‘z holiga qaytarish mumkin, ammo yoshga qarab yo‘qolgan dunyoga bo‘lgan qiziqishni tiklab bo‘lmaydi. Bolalarning qiziqishi - bu bolaning normal holati. Bolaning atrof-olamdagagi o‘zgarishlar, hodisalardan ta’sirlanib, hayratlanib savol berishi juda yaxshi holat sifatida qaraladi [10, B. 88]. Bunday vaziyatda tarbiyachi – pedagoglar hamda ota-onalar bolalarning “nega” degan savollariga javob berish kerak, yaxshisi bolalar uchun tushunarli bo‘lgan tilda va undan ham ko‘proq o‘rganish istagi uchun maqtash kerak. Ammo bolani paydo bo‘lgan savollarga mustaqil ravishda javob topishga yo‘naltirsak yaxshi bo‘ladi: empirik yoki entsiklopedik usul Har bir bola o‘rganish uchun turli xil narsalarni juda oson topishi mumkin.

Bolalar uchun atrofimizdagi olam tajribalar uchun ulkan laboratoriya. Bola tadqiqotchi, ota-onalar va o‘qituvchilar ko‘magi bilan, ajoyib kattalar tadqiqotchisi bo‘lib o‘sadi. Bunday odam nafaqat aqli, balki juda kuzatuvchan, mantiqiy fikrlash va xulosalar chiqarishga qodir bo‘ladi. Bunda kattalar atrofida juda ko‘p g‘ayrioddiy va qiziq narsalarni topadi, u atrofdagi hamma narsadan xursand bo‘lishi va chin dildan hayratga tushishi mumkin. Shunday qilib, bolaning rivojlanishida o‘yin faoliyati bilan bir qatorda tadqiqot faoliyati juda katta rol o‘ynaydi. Bu xotirani kengaytiradi, fikrlashni faollashtiradi, kuzatuvchanlikni rivojlantiradi, bolaning ufqini kengaytiradi. Kuzatish, o‘rganilayotgan sub’ektlar bilan bevosita aloqada bo‘lish, tajribalar olib borish maktabgacha yoshdagи bolalarda kuchli bo‘ladi.

Maktabgacha yoshdagи bolalarda tadqiqotlarga qiziqish shakllanadi, eksperimental harakatlar uchun motivatsiya rivojlanadi. Bolalar bog‘chasida tadqiqot faoliyatini tashkil etishdan maqsad maktabgacha yoshdagи bolalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishdir[17, B. 80].

Bugungi kunda maktabgacha talim tashkilotlarida rivojlanish markazlarini tashkil etish Davlat talablari va “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturini amalga oshirishni nazarda tutadi. Markazlarda ishslash har bir bolaning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda eng samarali rivojlanishiga imkon beradigan tarzda, uning individual qobiliyatları, xohishi, qiziqishlari, faoliyat darajasini inobatga olgan holda tashkil etildi.

Bundan ko‘zlangan maqsad, bolaning har tomonlama rivojlanishi, tarbiyalanishi, o‘qishi va yozishi ya’ni uning maktabga samarali tayyorgarligini ta’minlash uchun sharoit yaratishdan iborat.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida faoliyat markazlarini tashkil etishdan ko‘zlangan maqsad quydgilarda o‘z ifodasini topgan. Bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lgan ehtiyojni shakllantirish va individual manfaatlarni qo‘llab-quvvatlash orqali fikrlash jarayonida boladagi va kognitiv qiziqishni faollashtirish hamda rejalshtirish va uning nazoratini bolaga topshirishdan iborat. Bundan tashqari, nostandard holatlarda samarali harakatlarga tayyorlikni rivojlantirish, tashabbuskorlikni rivojlantirish, o‘z fikrlarini ijodiy ifoda etish qobiliyatini rivojlantirish, bolalarni texnik va badiiy ixtiro bilan tanishtirish orqali vizual idrok (yorqin taassurot natijasida paydo

bo‘ladigan aniq ichki sezgi) ni rivojlantirish hamda psixik jarayonlar bo‘lgan diqqat, sezgi, idrok, xotira, tafakkur, xayol, fikrlash, tasavvurni rivojlantirib borishdan iborat. **101**

Kommunikativ ko‘nikmalarni, muloqot qobiliyatini hamda jamoaviy ijodkorlikni rivojlantirish bolalarda tadqiqotchilik qobiliyati va kognitiv faoliyatini rivojlantirish istiqbollarini kengaytirib borish orqali bolaning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirish vazifalarini o‘z oldiga qo‘yadi [12, B. 106].

Maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashda rivojlanish markazlarini tashkil etishning asosiy sharti pedagogdan tayyor bilim olishdan ko‘ra, bolaga rivojlanish markazlarida faoliyatni tanlash imkoniyatini berish, bunda u atrofdagi dunyo haqida bilimlarni mustaqil ravishda egallashi, ko‘nikmalari va qobiliyatlarini rivojlantirish, bolaga qiziquvchanlik, mustaqil izlanish, tadqiqot jarayoniga qo‘shilish imkoniyatini berishdir [7, B. 35].

#### Rivojlanish markazlari funksiyalari

ta’lim	rivojlantiruvchi	rag‘batlantiruvchi	kommunikativ
--------	------------------	--------------------	--------------

#### **2-jadval. Rivojlantirish markazlar funksiyalari**

Maktabgacha yoshdagi bolalar guruhlarida faoliyat markazlarini tashkil etish orqali bolada mustaqillikni rivojlantirish ustida ishflashlari kerak, bolalar va kattalar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning shaxsga yo‘naltirilgan ta’limga asoslangan bolaning tashabbusini rag‘batlantirishi kerak. Guruh xonasidan moslashuvchan va o‘zgaruvchan tarzda foydalanish talab etiladi. Rivojlanish markazlaridagi tematik, didaktik materiallarlar bolaning ehtiyojlari va manfaatlarini qondirishga xizmat qilishi kerak. Markazlarning dizayni estetik, bolalar uchun jozibali bo‘lishi kerak, va mustaqil faoliyatga bo‘lgan istakni keltirib chiqarishi kerak. Guruh xonasida rivojlanish markazlarini yaratishda o‘yin faoliyatining yetakchi rolini hisobga olish kerak. Rivojlanish markazlaridagi jihozlar xavfsiz va didaktik materiallarlar bolaga tegishli bo‘lishi va bolalarning yoshiga mos bo‘lishi lozim. Rivojlanish markazlaridagi didaktik materiallarlar tematik vazifalarni hisobga olgan holda o‘zgarishi kerak [12, B. 107]. Markazlarni uskunalar bilan ortiqcha jihozlamaslik zarur. Rivojlanish markazlari bolalar va kattalar bilan aloqa qilish va birgalikdagi faoliyatni, shuningdek o‘z o‘zi bilan shug‘ullanish imkoniyatini ta‘minlashi hamda tematik rejalashtirishga ko‘ra, pedagog rivojlanish markazlarini didaktik materiallarlar va o‘yin uskunalar bilan ta‘minlash ustida o‘ylashi va to‘ldirishi kerak. Har bir markazning maqsadiga muvofiq haftaning boshida pedagogning tematik rejasiga binoan, materiallarlar tayyorlanadi va jihozlanadi.

**Qurilish, konstruktorlik va matematika markazi:** har xil qurilish to‘plamlari - kublar, legolar, bloklar, konstruktorlar, o‘ynash uchun didaktik o‘yinlar va boshlang‘ich matematik tasavvurlarni rivojlantirish uchun o‘quv materiallarları.

**Syujetli-rolli o‘yinlar va dramalashtirish markazi:** teatrning barcha turlari uchun atributlar va o‘yin materiallarları, rolli, dramatik, rejissyorlik va dramatizatsiya o‘yinlari, shlyapalar - maskalar, o‘yin to‘plamlari va burchaklarda o‘ynash uchun o‘yinchoqlar - masalan “Sartarosh”, “Kasalxona” va “Do‘kon” o‘yinlari atrebutlari.

**Til va nutq markazi:** didaktik o‘yinlar, tematik mavzuli, katta va kichik formatdagi rasmlar, tasviriy materiallarlar, voqealar ketma-ketligini belgilash uchun rasm seriyalari, turli mezonlarga ko‘ra guruhlash va boshqalar, bolalar kitoblari kutubxonasi, tematik albomlar, topishmoqlar albomlari, magnit harflar to‘plami, “Rasmlli Alifbo” kubiklari.

**Ilm, fan va tabiat markazi:** atrof-muhit madaniyati bo‘yicha didaktik materiallarlar, “Tabiat va odam” rasmlari va illyustratsiyalari, valiologiya bo‘yicha maketlar, tabiiy materiallarlarning xususiyatlarini o‘rganish uchun materiallarlar, to‘plamlar, tadqiqotlar va tajribalar uchun, bilim to‘plamlari, o‘ynash uchun o‘yin mavzular to‘plamlari - uy va yovvoyi hayvonlar, dengiz hayoti, hasharotlar, qushlar ko‘rgazmalari bilan jihozalanadi.

**San’at markazi:** tasviriy faoliyat zarur jixozlar, xalq hunardmanchilik mahsulotlari tasvir etilgan albomlar va illyustratsiyalar, dekorativ-amaliy san’at, turli xil xalqlarning hayoti, madaniyati, urf-odat aks ettirilgan rasmlar, bolalar yozuvchisi va O‘zbekiston shoirlari portretlari,

**102** tematik rang-barang kitoblar, erkin ijod uchun rasm chizish albomlari bilan jihozalanadi. Markazlardagi bolalar faoliyati o‘yin, mustaqil nutq, kognitiv, kommunikativ, kognitiv-tadqiqot, eksperimental, ijodiy, kommunikativ, mehnat, samarali, musiqiy, badiiy rolli tarzda tashkil etiladi [7, B. 15].

Rivojlanish markazlarida o‘quv va bilim jarayonini tashkil qilish uchun turli xil usullar, uslublar va o‘yin shakllaridan foydalanish: suhabat, hikoya, shou, badiiy adabiyot o‘qish ensiklopedik adabiyotlarni o‘qish, ko‘rib chiqish va muhokama, tushuntirish, munozara, video namoyishlarni tomosha qilish, kompyuter taqdimotlarini tomosha qilish, ijodiy faoliyat, tadqiqotlar, tajribalar, tajriba jonli va jonsiz tabiatning sirlari va boshqalardan foydalanish pedagogning mohirlik bilan faoliyat olib borishidan dalolatdir.

**Xulosa va takliflar.** Ta’limning poydevori bo‘lgan mакtabgacha ta’lim tarbiyalanuvchilarini Maktabgacha yoshdagi bolada bilish jarayonini rivojlanishi jadallik bilan amalga oshadi. Ushbu jarayon orqali bolada intellektual-anglash malakalari rivojlanadi bu jarayonda bola qiziquvchan, intiluvchan, faol, bilishga qiziqish bildiradi. Bilish jarayonini rivojlanishi orqali bolada atrof-olam haqida mustaqil ma’lumot izlash, kuzatuvlar asosida xulosa qilish va umumlashtirish, yil fasllari va voqeа-hodisa ketma-ketligini aytish, rasmlar bo‘yicha ketma-ketlikni saqlagan holda fikr yuritish, o‘z mamlakati va uning ramzlari, o‘z xalqining ayrim milliy an‘analari va odatlarini bilish ko‘nikmalari rivojlanadi.

132 мотивационной сферы футболистов, обеспечение эффективности тренировок и высоких показателей соревновательной деятельности, формирование умственно-тактического характера, психологическая подготовка футболистов представляют собой сложный процесс стабилизации психического состояния, его постепенного перехода от доминирующего опосредованного состояния в текущей ситуации (текущее психическое состояние) к состоянию доминирующего характера (доминирующее психическое состояние, работа по повышению компетентности специальной психологической подготовки и выявлению психологических факторов, влияющих на нее, является одним из приоритетных направлений научных исследований, проводимых во всем мире).

Теория физической культуры как научная дисциплина представляет собой обобщенную систему научных знаний о сущности физической культуры и закономерностях её использования для физического совершенствования человека.

Развиваясь под влиянием труда, а также в процессе своей игровой, познавательной, коммуникативной деятельности, человек воздействовал на природу, на окружающую среду посредством своих физических сил и двигательных действий. Его физические способности вначале совершенствовались «попутно», в ходе естественного биологического развития и труда. Постепенно человек стал осознавать, что существует зависимость между подготовкой к труду и его результатами. Возникают первобытные, стихийные основы обучения и воспитания как необходимые условия подготовки к жизни, к труду, к многогранной деятельности. Из этого сложного процесса первобытной «педагогики» постепенно, по мере исторического развития общества, выделяются и зачатки физической культуры как области специальной деятельности, в которой решаются задачи собственно физической подготовки людей к различным требованиям жизни.

В ходе развития человека и общественного производства возникла социальная (общественная) потребность определить общие цели и конкретные задачи, а также и специальные средства физической подготовки людей к жизни, методы (способы) использования этих средств.

На первых порах развития человеческого общества все эти вопросы решались интуитивно, стихийно, либо только на основе прямой передачи и освоения опыта предшествующих поколений. Позднее эта деятельность выделилась в самостоятельную и социально необходимую профессию и ее теорию.

Физическая культура постепенно вырастает в область широкой и сложной социальной деятельности, в которой формируются и осуществляются научно-практические подходы с позиций различных наук - философии, истории, педагогики, психологии, биологических наук (физиологии, анатомии и др.), социологии. Поэтому возникает ее теория, которая опирается на данные исторического опыта, современной практики, а также на данные социально-экономических, медико-биологических и психолого-педагогических наук и раскрывает общие законы и закономерности физической культуры.

Таким образом, по мере усложнения и развития общественных требований к физической подготовленности людей, к деятельности в различных областях жизни появляются предпосылки к возникновению теории. Вначале возникают и развиваются взгляды на физическое воспитание как на педагогический процесс и необходимую часть общего образования. Во второй половине XIX в. П.Ф. Лесгафт разработал теорию физического образования, которая была направлена на формирование знаний, умений, навыков в области двигательной деятельности. Он разработал принципы, формы и методы использования физических упражнений для физического и интеллектуального развития человека. В годы советской власти в стране была разработана теория и методика физического воспитания.

В связи с разработкой в 1950 — 1960 гг. зарубежными и отечественными учеными теории культуры, на основе ее концепций в 1970 — 1980-х гг. в стране начинает разрабатываться теория физической культуры (В.М. Выдрин, Б.В. Евстафьев, Л.П. Матвеев, Ю.М. Николаев, Н.А. Пономарев, Н.И. Пономарев, В.И. Столяров и др.).

Теория физической культуры относится к категории педагогических наук, так как связана с процессами образования, обучения и воспитания человека. Теория физической культуры изучает физическую культуру как особый, специфический вид культуры общества, сложную область социально необходимой деятельности, имеющую множество взаимосвязей с другими явлениями и сторонами социальной жизни общества.

Задачи ТФК как науки заключаются в том, чтобы:

- обнаружить и раскрыть взаимосвязи и взаимовлияния культуры общей и физической, закономерности гармонического развития человека,
- обосновать средства, обеспечивающие целенаправленное и всестороннее физическое развитие,
- найти рациональные методы использования средств, целесообразные формы и принципы, обеспечивающие их эффективную реализацию.

В общем, трудно назвать отрасль науки, касающуюся человека, с которой не было бы так или иначе связана теория физической культуры. Как и любая широко обобщающая дисциплина, она использует достижения многих пограничных наук. При этом, что тоже уже подчеркивалось, она не подменяет дисциплины и не поглощает всего их конкретного содержания, а выделяет и синтезирует в характерном для нее теоретико-интегративном аспекте лишь то существенное общее, что соответствует ее собственному смыслу.

В своем современном виде теория физической культуры как учебная дисциплина включает четыре крупных раздела.

Введение в теорию физической культуры, где определяются исходные категории (понятия), составляющие основной понятийный аппарат теории физической культуры, очерчивается ее предмет, методы исследования; здесь же дается систематизация характеристика основных социальных функций и форм физической культуры, прослеживаются тенденции ее развития в обществе.

Общие основы теории физического воспитания. Содержание этого раздела является в значительной мере традиционным в сложившейся науке о физическом воспитании. Здесь рассматриваются общие черты и закономерности физического воспитания как педагогически направленного процесса использования факторов физической культуры в образовательно-воспитательных целях, основные задачи, решаемые в процессе физического воспитания, используемые для этого средства и методы, принципы построения занятий и управления их эффектом и т.д. Особое внимание при этом уделяется характеристике определяющих черт обучения и воспитания в системе физического воспитания, являющейся высшим типом организации социальной практики физического воспитания.

Характеристика типичных направлений и форм использования физической культуры в обществе. В этом разделе анализируются особенности различных направлений и соответствующих им форм целесообразного использования физической культуры в структуре образа жизни людей, особенно в основных сферах жизнедеятельности. Конкретнее говоря, здесь рассматриваются особенности физической культуры в системе общего образования, в образе жизни основного контингента населения и в рамках профессионально-прикладной подготовки, в том числе в системе научной организации труда и в сфере повседневного быта, анализируется при этом и спорт, как один из основных компонентов физической культуры, и специфические формы спортивной деятельности (спортивная тренировка, состязания).

Научно-прикладные основы дифференцированного использования физической культуры в возрастном аспекте. Проблемы целесообразного применения факторов физической культуры рассматриваются в данном разделе как бы в «возрастном разрезе», т.е. применительно к особенностям основных этапов возрастного развития человека. Одновременно характеризуются особенности физкультурных занятий, связанные с изменением конкретных условий жизнедеятельности в процессе жизни.

134

Таким образом, курс теории физической культуры включает обширный комплекс знаний, входящих в теоретический фундамент профессионального образования специалистов. Его значение состоит не только в ценности самих этих знаний. Не менее важно, что он дает возможность будущему специалисту целостно осмыслить суть профессиональной деятельности во всей сфере физической культуры, раздвигает тем самым его кругозор за рамки узкой специальности, связывает ее с общим делом всех работников физкультурного фронта и всем этим содействует формированию широкого профессионального мировоззрения, которым должен обладать специалист нового типа.

### **Литературы**

1. Антология исследований культуры. Т. 1. Интерпретации культуры. СПб.: Университетская книга, 1997.
2. Введение в теорию физической культуры / Под общ. ред. Л.П. Матвеева. М.: Физкультура и спорт, 1983.
3. Визитей Н.Н. Физическая культура личности. Кишинев: Штинца, 1989.
4. Всесоюзная дискуссия по проблемам развития теории физической культуры // Теория и практика физической культуры. 1976. № 3.
5. Выдрин В.М. Теория физической культуры (культурovedческий аспект). Л.: ГДОИФК, 1988.
6. Матвеев Л.П. Вопросы формирования общетеоретических основ физической культуры и спорта // Теория и практика физической культуры. 1975. № 11.
7. Матвеев Л.П. Теория и методика физической культуры. М.: Физкультура и спорт, 1991.
8. Очерки по теории физической культуры / Под общ. ред. Л.П. Матвеева. М.: Физкультура и спорт, 1984.
9. Пономарев Н.И. Социальные функции физической культуры. М.: Физкультура и спорт, 1986.
10. Теория и методика физической культуры / Под общ. ред. Ю.Л. Курамшина и В.И. Попова. СПб.: ГАФК, 1999.

# 19.00.00 – PSIXOLOGIYA FANLARI

Ro‘ziqulov Faxriddin Rasulovich

Navoiy viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga  
o‘rgatish milliy markazi  
pedagogika va psixologiya,  
ta’lim texnologiyalari  
kafedrasи professori

## NIKOH-OILA MUNOSABATLARIDA BOLALAR TARBIYASINING O‘ZIGA XOS IJTIMOIY – PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada oilaning asosiy ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-madaniy, axloqiy va psixologik vazifalari hamda bolalarda shakllanadigan barcha hissiy, ruhiy tuyg‘ular: mehribonlik, oqibatlilik, o‘ziga va atrof-muhitga nisbatan mas’uliyatlilik ko‘nikmalarini avvalo oilada namoyon bo‘lishi tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** Renessans, etnik madaniyat, urf-odatlar, qadriyat, munosabat, mas’uliyat, oilaviy tarbiya, jamiyat.

### СПЕЦИФИЧЕСКИЕ СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ВОСПИТАНИЯ ДЕТЕЙ В БРАЧНО-СЕМЕЙНЫХ ОТНОШЕНИЯХ

**Аннотация:** В данной статье проанализированы основные социально-экономические, духовно-культурные, нравственные и психологические задачи семьи, а также все эмоциональные, психологические чувства, возникающие у детей: доброта, эгоизм, чувство ответственности в отношении себя и окружающей среды в семье.

**Ключевые слова:** Ренессанс, этническая культура, обычаи, ценности, отношения, ответственность, семейное воспитание, общество.

### SPECIFIC SOCIO-PSYCHOLOGICAL FEATURES OF RAISING CHILDREN IN MARRIAGE AND FAMILY RELATIONSHIPS

**Abstract.** This article analyzes the main socio-economic, spiritual-cultural, moral and psychological tasks of the family, as well as all emotional, psychological feelings that arise in children: kindness, selfishness, a sense of responsibility regarding oneself and the environment in the family.

**Keywords:** Renaissance, ethnic culture, customs, values, relationships, responsibility, family education, society.

**Kirish.** Uchinchi renessansga poydevor qo‘yilayotgan bir paytda mamlakatimizda oilalar mustahkamligini, ularda ijtimoiy-ma’naviy muhit barqaror-ligini ta’minalash, jamiyat farovonligini yuksaltirishga qaratilgan tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Konstitusiyamizda ham oila to‘g‘risida alohida bob ajratilib, oila manfaatlari muhofaza qilinayotganligi va oila mustahkamligi tamoyillari belgilanib, kafolatlanganligi bejiz emas. Bularning barchasi negizida inson, o‘zbek halqi va yoshlarning huquq-manfaatlarini har tomonlama muhofaza qilish yotadi.

Bugungi kunda O‘zbekistonda nikoh va oila munosabatlari masalasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgani hech kimga sir emas, albatta. Avvalo, yurt taraqqiyotining tamal toshi jamiyatimizning asosiy bo‘g‘ini sanalmish oilada qo‘yiladi.

136 Oilaning muqaddas makon ekanligi shundan iboratki, unda hayotning davomiyligini ta'minlovchi shaxs shakllanadi, etnik madaniyat, urf-odatlar, axloqiy va ma'naviy qadriyatlar saqlanadi, rivojlantiriladi, jamiyat taraqqiyotini belgilovchi iqtisodiy va madaniy hayot poydevori mustahkamlanadi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi.** Oilada farzand tarbiyasi xususida so‘z yuritganda, biz avlodlarga buyuk mutafakkirlarimiz tomonidan qoldirgan boy merosni ham eslash muhimdir. Mutafakkirlarimiz qoldirgan boy meroslari bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmay, shaxsni shakllantirish, oilada farzand tarbiyalashning yo‘llari to‘g‘risida juda qimmatli fikrlarni bayon etganlar.

Bulardan Abu Ali Ibn Sino yondashuvida oila tarbiyasining umumiy asoslarini bayon etilishi “Agar oila tarbiya usullaridan to‘g‘ri foydalansa, o‘z hayotida baxtga erishadi” deya ta’riflaydi olim.

Ibn Sino oila va nikoh munosabatlarida farzand tarbiyasini ota-onaning asosiy burchi ekanligini bildirib, o‘z nuqsonlarini bartaraf qila olgan kishilargina boshqalarni ham tarbiyalay olishi mumkinligini e’tirof etadi. Ibn Sino farzandni tarbiyalash omillarini tahlil etar ekan, ularning eng ma’quli farzandlar bilan birga bo‘lish va ijobjiy misollardan foydalanish, individual tarzda suhbatlashish, u bilan suhbat davomida chegaradan chiqmaslik uning izzat-nafsiga tegmaslik, deb ta’kidlab, tarbiyada otaning rolini ifodalashga katta ahamiyat qaratadi. Ibn Sino “Ro‘zg‘orshunoslik” kitobining “Otaning bolalarga munosabati” nomli bobida. “Onalar o‘z tabiatlariga ko‘ra, yumshoq ko‘ngildirlar va o‘zlarining erkalashlari bilan bolaning xarakterini buzadilar”, deya ta’kidlaydi. Olimning fikricha, oilada asosiy tarbiyachi ota ekanligi, u maqsadga erishmoq uchun farzandini ba’zan jazolashi, ba’zan rag‘batlantirishi, vaqt bilan maqtashi, ba’zan tanbeh berish, vaqtida qo‘rqitib qo‘yishi kerakligini uqtiradi.

Navoiy hazratlarining asarlarida ham farzand tarbiyasi to‘g‘risida ajoyib fikrlarni ko‘ramiz. Unga ko‘ra, tarbiyada eng muhimi bolalarni sevish, “Bolaga, degan edi ulug‘ shoir, kichikligidan boshlab, yoshini hisobga olgan holda axloqiy tarbiya bermoq zarur” deya ta’kidlaydi.

Abdulla Avloniy ham oilada farzand tarbiyasi xususida muhim ahamiyat kasb etadigan ajoyib fikrlarni bildirgan. Abdulla Avloniy o‘zining “Yashnagan o‘lka va axloq” asarida shunday yozadi, bolaning sog‘lig‘i va baxti avvalo uning yaxshi tarbiyalanishiga, badanining tozaligiga, e’tiqod hosil qilishiga, yaxshi xulqqa ega bo‘lishiga, uni g‘ayri axloqiy xatti-harakatlardan ogohlantirilishiga bog‘liqligini ko‘rsatib o‘tgan.

**Natijalar.** Hikoh - oila munosabatlari orqali, oilaning asosiy ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-madaniy, axloqiy va psixologik vazifalarini qisqacha tahlil qilib ko‘radigan bo‘lsak, bolada shakllanadigan barcha hissiy, ruhiy tuyg‘ular: mehribonlik, oqibatlilik, o‘ziga va atrof-muhitga nisbatan mas‘uliyatlilik ko‘nikmalari avvalo oilada namoyon bo‘ladi. Demak, oila ham o‘z o‘rnida, o‘z vazifasini etarli darajada amalga oshirishi uchun uni belgilangan tartibda, ma’rifiy-metodik qurollantirish, ijtimoiy-ma’naviy tadbirlarni tashkillashtirish orqali unga yordam berib borish lozim.

Bugungi yangi ijtimoiy-tarixiy sharoit oila hamda oilaviy munosabatlar, oilaviy tarbiya borasida ham o‘ziga xos ravishda jiddiy o‘zgarishlarni keltirib chiqarayotgani bunga yaqqol misol bo‘lmoqda. Farzandlarimizni vatanparvarlik ruhida, zamonaviy fikrlovchi shaxs sifatida tarbiyalash oiladan boshlanishini e’tiborga olib, oilaviy tarbiya mazmunini qayta ko‘rib chiqish va uni intellektual jihatdan yanada boyitish, uning asosiy yo‘nalishlarini belgilash va shu asnoda maqsad va vazifalarni hamda ularni qanday usul va vositalar bilan amalga oshirish yo‘llarini aniqlash muhim ijtimoiy-psixologik zaruriyat ekanligidan dalolat beradi.

Mana shu zaruriyatlardan kelib chiqqan holda, oilada bolalarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlardan foydalanish masalasi ijtimoiy-siyosiy va madaniy-ma’rifiy ahamiyat kasb etmoqda. Ammo, mazkur masalalarni hal etish nihoyatda murakkab va ziddiyatli bo‘lib, unga vorisiylik va tarixiylik nuqtai nazaridan yondashish talab etiladi.

Natijada esa, mamlakatimiz rivojlanishining bugungi yangi bosqichi oilaviy tarbiyada milliy qadriyatlardan foydalanishning zamonaviy mezonlarini yuzaga keltirishi tabiiy hol

ekanligini ko'rsatadi. Bu mezonlar vatanparvarlik, milliy g'urur, milliy ong, milliy o'z-o'zini anglash, milliy tafakkur, milliy tarbiya kabi tushunchalarda o'z aksini topgan bo'lib, ular tarbiyaviy jarayonining bugungi kunda rivojlanishi uchun muayyan tarzdagi bir maqsad sari harakat qilayotganligini ta'minlaydi.

**Muhokama.** Oila va nikoh munosabatlarida ma'naviy-axloqiy tarbiya xususida so'z yuritganda, milliy axloq va tarbiyaning o'ziga xos xususiyatini ochib bermoq lozim.

Shu o'rinda milliy axloq va tarbiyada ajdodlarimizning tarixiy tajribalari, asrlar osha sinovidan o'tgan hayot saboqlari va o'gitlari jamuljamligi tufayli ham milliy axloqiy qadriyatlarimiz hozirgi kungacha yashab kelmoqda.

Oilada shaxsni ma'naviy-axloqiy shakllantirish farzandni dunyoga kelishi bilan boshlanadi va u oilaviy munosabatlar xarakteri, ota-onalarning namunasi, ulardagi ma'lumotlilik darjasи, umummadaniy, umuminsoniy salohiyati hamda umumpedagogik madaniyati va oilaviy hayotini qanday tashkil etganligi bilan belgilanadi. Bu omillar oilada farzandni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning mazmunini tashkil etadi va ular o'ziga xos pedagogik-psixologik xususiyatlarni o'z ichiga oladi. Bularni hisobga olish esa farzandni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda milliy axloqiy qadriyatlardan foydalanishning mohiyati o'ziga xosligi va ahamiyatini bilishga ko'makchi bo'lib xizmat qiladi.

Butun mavjudodlar orasida inson eng ulug'i sifatida tushuniladi, demak barcha narsalar uning uchun yaratilgan, degan g'oya islomiy ma'naviyatning negizini tashkil qilsa, insonlarning o'zaro ma'naviy oqibatli bo'lishiga undash va ularda oliyjanob fazilatlarni shakllantirish islam pedagogikasi va psixologiyasining asosi hisoblanadi.

Darhaqiqat islam dini xalqning ijtimoiy hayotiga, xususan, oilaviy munosabatlariga, madaniyati va milliy an'analariga singib ulgurgan ammo, bundan o'zbek xalqining qadimiylari, o'ziga xos takrorlanmas madaniyati, oilaviy qadriyatlari islam dinisiz mavjud bo'lmas edi, degan ma'noni anglatmaydi. Islomiy ma'naviyat manbalarida oila, oilaviy munosabatlar va oilaviy tarbiyaga oid qarashlar tizimi mavjud bo'lib, u oilaning shakllanishi, rivojlanishi va mustahkamlanishiga qaratilgan barcha jihatlarni o'z ichiga oladi. Bu qarashlar ilohiyot nuqtai nazaridan tafakkur maydoni markazida aks etsada, ular insonlarning hayotiy faoliyatlarini, turmush tarzlarini, ijtimoiy ehtiyojlari, nihoyat oilaviy munosabatlari talabidan kelib chiqqanligi uchun ham aqlga va kundalik turmushga muvofiq edi.

Kuzatishlarimizdan shu ma'lum bo'ladiki, Sharq mutafakkirlari merosida ta'lim-tarbiya, xususan, oila va nikoh munosabatlari orqali tarbiya masalalariga nihoyatda keng va beqiyos o'rin berilganligi bilan ajralib turadi. Mutafakkirlarimiz tomonidan oilada farzandlarni tarbiyalashni jamiyat taqdirini, millatning kelajagini belgilaydigan asosiy mezoni sifatida qaraganlar. Ular o'z qarashlari orqali tarbiyada ijtimoiy va biologik tomonlarning o'zaro munosabati haqida to'xtalib, tarbiyada irsiyat va muhit ta'siri birdek ekanligi, tan va ruh salomatligining birligi kabi masalalarni ilgari surganlar. Demak aqliy, mehnat, axloqiy, estetik va jismoniy tarbiyaning birligi hamda ularni amalga oshirish yo'llari haqidagi va oilada bolalar tarbiyasi haqidagi fikrlarni ilgari surishlari natijasida mazkur muammolarining ko'pgina jihatlarini qamrab oladi va ular muayyan tarbiyashunoslik bo'yicha qarashlar tizimini tashkil etadi. Bu qarashlar o'z davrlaridan anchagina ilgarilab ketib, bir necha asrdan beri ajdodlarimiz tafakkurini boyitib, ma'naviy qadriyat sifatida bugungi kunda o'z qiyamatini yo'qotmay kelmoqda. Ular ijtimoiy va oilaviy tarbiya birligi haqidagi masalani ijobiy hal qilishga uringanlar, buni hozirgi zamon pedagogikasi va psixologiyasi ham to'la e'tirof etadi.

Har bir xalqning milliy qadriyatlarni uning tarixi, ma'naviyati, madaniyati, o'ziga xos urfatatlari, an'analarisiz tasavvur qilish qiyin.

Bu o'z navbatida, qadriyatlarning ahamiyatini ko'rsatadi. Milliy qadriyatlар har bir millat uchun ahamiyatga molik bo'lgan etnik jihat va xususiyatlар bilan bog'liq o'ziga xos shakl hisoblanadi. Dunyoda har bir millat o'ziga xos qadriyatlari ega. Milliy qadriyatlар bu har bir millatning tarixi, yashash tarzi, ma'naviyati, madaniyati bilan uzviy bog'liq holda namoyon bo'ladi. So'ngi yillarda mamlakatimizda ham milliy qadriyatlarga e'tibor tobora oshib bormoqda. Bu ona yurtga ehtirom, avlod-ajdodlar xotirasiga sadoqat, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat,

**138** hayo, andisha kabi xususiyatlarning ustuvorligi bilan tavsiflanadi. Qadriyatlarni faqat moddiy va ma’naviy boyliklar sifatida tushunish, izohlash ilmiy jihatdan to‘g‘ri emas.

Qadriyatlar o‘z mohiyatiga ko‘ra xilma-xil bo‘ladi. Qadriyatlar orasida tabiiy, moddiy, ma’naviy, ijtimoiy-siyosiy, axloqiy ko‘rinishlari alohida ajralib turadi. Shu nuqtai nazardan ham, qadriyatlarning eng oliysi bu insonning o‘zi, uning hayoti, huquqi va erki, sog‘lom va farovon turmushi hisoblanadi. Inson qadr-qimmatini, sharafini ulug‘lash-jamiyatimiz poklanishi va ravnaqining muhim omilidir.

Oiladagi shaxslararo munosabatlarda va turmushda go‘zallikka e’tibor qaratish ham alohida ahamiyat kasb etadi. Avvalo ota-onha va oiladagi kattalar o‘zaro munosabatlarida go‘zallikka e’tibor qaratsalar, oila muomalasida ahillik, samimiyyat, hurmat bo‘lsa, shu oilada tarbiyalanayotgan farzandlar xulqida ota-onha istaganidek axloqiy fazilatlar tarkib topib boradi. Demak, oiladagi estetik tarbiya ota-onalar va boshqa katta insonlarning o‘zaro to‘g‘ri munosabatidan boshlanishi lozim.

Bolalar kattalarning yurish-turishlarini, muomalasini, qo‘ni-qo‘shnilari, do‘satlari bilan o‘zlarini qanday tartibda muloqot qilishlarini kuzatadilar. Shu boisdan ham yosh bolalar oldida maqtanish yoki boshqalarni g‘iybat qilish mutlaqo yomon odat bo‘lib, bu farzand tarbiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatishini unutmaslik lozim.

Ammo bolaning otasi yoki onasi yon-atrofdagilarga nisbatan qo‘pol, badfe‘l, jahldor bo‘lsa, arzimagan narsalarga ham nizoli vaziyatlarni yuzaga keltirsa, o‘z bolasining asabini buzadi, bu hol bolalar ruhiyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bunday sharoitda estetik tarbiyaga o‘rin qolmaydi. Bolalarni estetik hislari barkamol kishilar qilib voyaga etkazish uchun oiladagi kattalar o‘zlarini estetika talablariga to‘la amal qiladigan kishilar bo‘lishlarini talab etadi.

Ba’zi oilalarda farzandlariga nisbatan etarlicha shart-sharoit yaratib berilmasligi hamda ular faoliyatini cheklash natijasida – ularda infantillik (o‘zini nochor, yordamga muhtoj his qilish), muammoli vaziyatlardan chiqib ketish qobiliyatining susayishi kabilarga olib kelishi kuzatiladi.

Bugungi XXI-asr o‘smirlarning istak-ehtiyojlari XX-asr o‘smirlarga nisbatan ancha o‘sgan. Ya’ni ular zamon hamnafas yaxshi kiyinishni, o‘z vaqtida dam olishni, turli joylarni ko‘rishni, audio-video, miltimediyaga va zamonaliviy aloqa vositalariga ega bo‘lish istagi yuqori. Oilada esa ushbu imkoniyat mavjud emas. Natijada ushbu ehtiyojlarni qondirish yo‘lida bolada g‘ayriqonuniy xatti-harakatga qo‘l urish istagi paydo bo‘ladi. Bunday istaklar bolani o‘z-o‘zidan g‘ayriqonuniy harakatlarni amalga oshirishga moyilligi yuzaga keltiradi.

Ma’naviy olami, dunyoqarashi va aqliy jihatdan keng rivojlanmagan o‘smir bunday paytda o‘z ehtiyojlarini qondirishning g‘ayriqonuniy yo‘llarini izlaydi va o‘g‘irlik, yo‘lto‘sarlik, bosqinchilik jinoyatlariga qo‘l uradi. Aksariyat hollarda bolalar va o‘smirlar qonuniy yo‘l bilan pul topishni, mehnat qilib boylikka erishishni o‘ylab ham ko‘rmaydilar. Natijada bunday o‘smirlarda g‘ayriqonuniy xulq-atvorning kelib chiqishiga zamin yaratildi.

Shuningdek, bolalar va o‘smirlar shaxsida salbiy illatlarning mavjudligi, ularning ma’naviy dunyosi ko‘lami yaxshi rivojlanmaganligi, badiiy adabiyot, gazeta jurnallar mutolaa qilmasliklari, shuningdek, shaxsning ma’naviy ongini oshiradigan mashg‘ulotlar bilan shug‘ullanmasliklari xulq og‘ishining kelib chiqishiga o‘z ta’sirini o‘tkazadi.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda oila va nikoh munosabatlarida aksariyat hollarda, oila davrasida farzandlar ota-onaga murojaat qilganlarida ular farzandni oxirigacha tinglamasdan, “hozir vaqtim yo‘q”, “shoshib turibman”, “xalaqit berma” kabi bola shaxsining fikriy ehtiyojini qoniqtirmaydigan salbiy javoblar beradilar. Bu kabi munosabatlar farzandlarga salbiy ta’sir ko‘rsatibgina qolmay, bevosita boladagi ijodkorlikni, tashabbuskorlikni so‘ndiradi, natijada esa oila a’zolari bilan maslahatlashish kabi odatlarning so‘nib borishiga xizmat qilishini keltirish mumkin.

### Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakatining IV qurultoyidagi nutqi. 2017-yil, 1-iyul.

2. Сотрудничество учителя и школьного практического психолога. Сборник научно- 139 методических трудов. Под.ред А.К.Марковой. –М.: 2003 г.
3. Shoumarov G‘., Akramova F., Umarov B. Oilada ma’naviy-axloqiy tarbiya. T: 2015.B.20.
4. Hikmatlar xazinasi. To‘plovchi: M.Azamatov. Lug‘at va izohlar tuzuvchi: Naim Norqulov. T., 1977. B.92.
5. Oybek. “Navoiy”.T: “Sharq”, 1995. B.36.
6. To‘lanov J. Qadriyatlar falsafasi. – T; “O‘zbekiston”, 1998. B.333.
7. Oilaviy muhit va bolalar //Qalqon. – 2006, - №1.- B.14-15.
8. Yadgarova G.T., Avlaev O.U. Tarbiyasi qiyin, qaltis guruhga mansub bolalar bilan ishslash (Uslubiy qo‘llanma)T.: 2007 y.
9. Umarov B.M. O‘zbekistonda voyaga etmaganlar jinoyatchiligining ijtimoiy-psixologik muammolari. (Monografiya). “Fan” nashriyoti, Toshkent – 2008, 284 b.
10. Umarov B.M. Tarbiyasi og‘ir bolalar va ular xulq – atvoridagi og‘ishlarning kelib chiqish sabablari. (Uslubiy qo‘llanma) – Toshkent, “Aloqachi” nashriyoti – 2008, 64 bet.

Qodirov Obid Safarovich

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti  
psixologiya kafedrasi mudiri, psixologiya fanlari  
bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

## O‘SMIRLARDA JINOYAT MOTIVLARI SHAKLLANISHINING EMPIRIK O‘RGANISH TAHЛИI

*Annotation.* Maqolada o‘smirlarda jinoyat motivlari shakllanishining empirik o‘rganish tahlili o‘rganilgan. Mazkur maqolada o‘smirlarda jinoyat motivlari shakllanishiga ta’sir etadigan muhim omillarni (tabiiy-biologik, ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-psixologik va tarbiyaviy-pedagogik) o‘rganish bilan ularning mohiyati va xususiyatlarini tarbiyaviy-psixologik me’yorlar asosida baholashga harakat qilingan.

**Kalit so‘zlar:** yoshlar tarbiyasi, mas’ul bo‘lgan ota-onalar, o‘qituvchi-tarbiyachilar, jamoatchilik, barkamol yoshlar, ustuvor vazifalar, tarbiyasida yuzaga kelayotgan muammolar, kamchiliklar.

### ЭМПИРИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ АНАЛИЗ ФОРМИРОВАНИЯ ПРЕСТУПНЫХ МОТИВОВ У НЕСОВЕРШЕННОЛЕТНИХ

**Аннотация.** В статье рассматривается эмпирический анализ формирования преступных мотивов у несовершеннолетних. В данной статье предпринята попытка изучить важные факторы (естественно-биологические, социально-экономические, духовно-психологические и учебно-педагогические), влияющие на формирование преступных мотивов у несовершеннолетних, и оценить их природу и особенности на основе педагогико-психологических данных. стандарты.

**Ключевые слова:** образование молодежи, ответственные родители, педагоги-воспитатели, общественность, всесторонне развитая молодежь, приоритетные задачи, проблемы, возникающие в их образовании, недостатки.

### EMPIRICAL STUDY ANALYSIS OF THE FORMATION OF CRIMINAL MOTIVES IN MINORS

*Annotation.* Empirical study analysis of the formation of criminal motives in minors is studied in the article. In this article, an attempt was made to study the important factors (natural-biological, socio-economic, spiritual-psychological and educational-pedagogical) that influence the formation of criminal motives in minors and evaluate their nature and characteristics based on educational-psychological standards.

**Key words:** youth education, responsible parents, teachers-educators, the public, well-rounded young people, priority tasks, problems arising in their education, shortcomings.

Yoshlar tarbiyasi uchun mas’ul bo‘lgan ota-onalar, o‘qituvchi-tarbiyachilar va jamoatchilik oldida barkamol yoshlarni tarbiyalashdek ustuvor vazifalar turgan bir paytda ba’zi yoshlar tarbiyasida yuzaga kelayotgan muammolar, kamchiliklar, xususan xulq-atvorida namoyon bo‘layotgan jinoyat motivlari va unga mos xatti-harakatlarning uchrab qolayotganligi tarbiya uchun mas’ullarni tashvishga solmoqda.

Psixologiya fanlari sohasida erishilgan jahon tajribasining ko‘rsatishicha motivlarning yuzaga kelishi va motivasion yo‘nalganlik ko‘p jihatdan oila tarbiyasi bilan bog‘liqdir. Oilada qaror topgan o‘zaro munosabatlar, uning ta’sirida yuzaga kelgan tarbiya muhitni va farzandlar tarbiyasiga bo‘lgan e’tibor buning asosini tashkil qiladi. Shu nuqtai nazardan mazkur maqolada

o'smirlarda jinoyat motivlari shakllanishiga ta'sir etadigan muhim omillarni (tabiiy-biologik, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-psixologik va tarbiyaviy-pedagogik) o'rganish bilan ularning mohiyati va xususiyatlarini tarbiyaviy-psixologik me'yorlar asosida baholashga harakat qildik.

Yoshlar tarbiyasi bilan bog'liq muammolar, xususan yoshlar xulq-atvorida yuzaga kelayotgan jinoiy xatti-harakat motivlari, ularni yuzaga kelishi va shakllanish sabablari, yoshlar tarbiyasiga, ma'naviyatiga va dunyoqarashiga putur yekazishi bilan bog'liq oqibatlar va boshqa salbiy natijalar salmog'ini asoslashga urindik. Shunga tayanib, biz ushbu paragrafda o'smirlarda jinoyat motivlari shakllanishini ta'minlaydigan salbiy omillarni, jinoiy xatti-harakatlarning shakllanganlik holatini, yo'nalganligi va ularga ta'sir ko'rsatayotgan tabiiy, iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy va tarbiyaviy-psixologik omillar hamda shart-sharoitlar ta'sirini o'rganishni tadqiqotimizning muhim maqsadi sifatida belgiladik.

O'smirlarda jinoyat motivlari shakllanishini tub sabablari va mohiyatini aniqlashga yo'naltirilgan ijtimoiy-psixologik so'rovnama (IPS) quyidagicha ilmiy-uslubiy tuzilishga ega. «Quyida sizga berilayotgan savollarga o'ylab, o'zingiz aynan to'g'ri deb bilgan sabab va omillarga tayanib aniq javob berishingizni (munosabat bildirishingizni) so'raymiz. Javoblaringiz hayotiy va real voqyelikka asoslanib, ilmiy nuqtai nazardan baholanadi».

Tadqiqot uchun o'rganilayotgan jadvallardagi o'smirlarda jinoyat motivlari shakllanishiga ta'sir etadigan muhim sabablar, omillar va manba'larni aniqlash uchun o'smirlar va ularning tarbiyasi uchun mas'ul kishilar tomonidan omillarning ahamiyatiga qarab tanlanishi aytildi. Ular tomonidan tanlanganlik darajasi (o'rni) 1-o'rin (maksimal) dan 5-o'rin (minimal)gacha belgilandi. Tadqiqot o'tkazilgandan so'ng yoshlarda uchrab qolayotgan jinoiy xatti-harakatlar manba'larini aniqlash uchun yoki belgilarning ahamiyat darajasi (o'rni)ni aniqlash va shunga nisbatan foiz imkoniyatini chiqarish maqsadida biz quyidagi tahlil (formula)dan foydalandik. 1-darajali deb tanlangan belgilar 5 imkoniyatga, 2-darajalilar 4 imkoniyatga, 3-darajalilar 3 imkoniyatga, 4-darajalilar 2 imkoniyatga, 5-darajalilar 1 imkoniyatga ega ekanligini belgiladik.

Ahamiyatiga qarab 1-darajali (5 imkoniyatga ega) deb ko'rsatilgan belgi uchun 100 % (eng yuqori ko'rsatkich) belgilansa, u holda 5-darajali (1 imkoniyatga ega) deb ko'rsatilgan belgi o'z-o'zidan (100% : 5=20%) 20% ga teng bo'ladi. Agar tadqiqot o'tkazilgan o'smir yoshlardagi jinoyat motivlarini aniqlashga xos manbalar yoki belgilar tanlovda ahamiyatiga ko'ra, 1,59 darajani olgan bo'lsa, unda ushbu ko'rsatkich 1-darajalidan 0,59 daraja pastligini bildiradi. Yoki 5 imkoniyatdan 0,59 imkoniyat chiqarib tashlanadi, natijada  $4,41 \text{ imkoniyat} - (5-0,59=4,41)$  hosil bo'ladi. Bir imkoniyat 20 % ga teng bo'lganida 4,41 imkoniyat  $88,2 \% (20\% \times 4,41 = 88,2 \%)$  ga teng bo'ladi. Boshqa manba yoki belgilarning ko'rsatkichlari ham huddi shu tartibda ishlandi.

1-jadval

O'smir xulq-atvorida jinoyat motivlari yuzaga kelishining sabablari n=423

№	SABABLAR	Tanlov natijalari	
		O'rin	Foiz
1.	O'smirlardagi mavjud ehtiyojlarning qondirilmay qolishi ta'sirida	1	90,8
2.	Hayotiy zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy narsalarga o'zi xohlaganidek erishish maqsadida	2	82,9
3.	Tengdoshlari va jamoa orasida o'z mavqyeini saqlash va barqarorlashtirish maqsadida	3	77,6
4.	O'zini namoyon qilish, o'z ta'sirini o'tkazish va o'zini tan oldirish uchun	4	75,6
5.	«Kuchlilik»ni qo'lga kiritish, boshqarishga erishish, o'z mavqyeini ortirish hamda boshqalarga ta'sir doirasini kengaytirish maqsadida	5	65,7

Ijtimoiy-psixologik so'rovnama (IPS) o'smirlar xulq-atvorini aniqlash va atroficha o'rganishga yo'naltirilgan savollardan tarkib topgan bo'lib (1-jadval), ularning hayoti va faoliyatida ko'proq qaysi motivlar (xususan jinoyat motivlari) yetakchilik qilishi aniqlandi. So'rovnama shunday tuzilganki, uni taskil etgan savollar yordamida inson mohiyatini, uni shaxs sifatida shakllanishi va taraqqiyotini ta'minlaydigan tabiiy-biologik, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-

**142** psixologik va tarbiyaviy-pedagogik omillarning ta'sir doirasini, ular o'rtasidagi qonuniyatlarning mushtarakligini, zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlarning ahamiyatini baholash o'rganildi.

Natijalarni psixologik nuqtai nazardan tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, o'rganilayotgan o'smirlarning xulq-atvorida jinoiy xatti-harakatlarni shakllanishiga ta'sir ko'rsatadigan motivlardan quyidagilar boshqa omillarga nisbatan ustunlik qilayotganligi aniqlandi.

Mazkur jadvalda bayon qilingan natijalar tahlili bizga o'smirlarda jinoyat motivlari yuzaga kelishining sabablari, manbalari va yo'nalganligini aniqlashga doir yaqqol tasavvurga ega bo'lishimiz uchun zarur edi.

Biz o'rgangan respondentlar tomonidan o'smirlar xulq atvorida yuzaga keladigan jinoyat motivlarining sabablari (manbalari) ulardagi mavjud ehtiyojlarning o'z vaqtida qondirilmay qolayotganligining ta'siri natijasi (1-o'rinni 90%), sifatida baholandi. Bunda, birinchi navbatda o'smirning ota-onasi, yaqin qarindoshlari, o'qituvchilar va boshqa bolaning jismoniy va psixologik rivojlanishi uchun mas'ul kishilar o'smirlarda kechadigan jismoniy-biologik, ma'naviy-psixologik va tarbiyaviy-pedagogik qonuniyatlarni bilishlari, shunga amal qilib yoshlar tarbiyasida doimiy nazoratda bo'lishlari, tarbiyada o'zgarishlar yoki yutuqlar bo'lganda muntazam kuzatish orqali ularni qayd qilib borishlari, o'smirning keyingi bosqich tarbiyaviy taraqqiyotini ta'minlash va to'g'ri yo'nalish olishi uchun kundalik zarur tarbiyaviy shart-sharoitlarni maslahatli va kengashilgan holda tashkil qilib takomillashtirib borishlari lozim bo'ladi.

Ana shunday tarbiyaviy jarayon va tarbiyaviy bosqichlarda (oilada, maktabda va mahalla-guzarda) o'smirlardagi mavjud ehtiyojlarni qondirilmay qolishi yoki bu ehtiyojlarga e'tiborsizlik, loqaydlik, o'zi bo'larchilikka qoldirish ular tarbiyasida qator muammolar shakllanishiga, eng muhimi o'smirlar xulq-atvorida ulardagi mavjud qondirilishi zarur bo'lgan ehtiyojlarni "O'smirlarga xos vaziyatdan chiqish" yoki muammoni yechish maqsadida noqonuniy yo'llar bilan, jamiyatda odamlar orasida, xususan o'smirlar o'rtasida amal qilib turgan qadriyatlar, urfatlar va me'yordarga (xalq psixologiyasiga) amal qilmay, jinoiy xatti-harakatlarga tayanib, ulardan foydalangan holda amalga oshiriladi (erishiladi). Bunday holatda maqsadga osonlikcha erishish yoki noqonuniy xatti-harakatlarning tez-tez takrorlanib turishi o'smirlarda jinoyat motivlari shakllanishiga asos bo'ladi. O'smirlarda bunday chora va usullarning yuzaga kelishi, takrorlanishi natijasida sterotiplashishi (barqaror sifat va xususiyatlarga aylanishi) o'smirlar uchun hayotiy zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy narsalarga o'zi xohlaganidek erishish maqsadini motivasjon tizimini shakllantiradi.

Biz olib borgan tadqiqotlarimiz tahlillariga ko'ra, respondentlarning (2-o'rinni, 82,9%) o'smirlar xulq-atvorida jinoyat motivlari shakllanishining muhim sabablaridan yana biri o'smirlar kundalik hayoti va faoliyati uchun zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy narsalarga o'zi xoxlaganidek erishish yo'llarini o'zi belgilashidir.

O'smirlik yoshida ko'zga tashlanadigan eng muhim xususiyatlardan biri, bu ularning o'zini-o'zi anglashga bo'lgan e'tiborlarining kuchayishidir. Bu o'rinda o'smir o'zida mavjud bo'lgan, endi yuzaga kelayotgan va yuzaga kelishi kutilayotgan (orzu qilgan) xususiyatlar, sifat va fazilatlarga o'rganadi, aynanlashtiradi, nazorat qiladi, baholaydi va ulardan amaliy turmushida va faoliyatida foydalanim ko'radi. O'zidagi mavjud imkoniyat va imkoniyatsizliklarni yaqinlari, tengdoshlari va boshqa yoshlarniki bilan taqqoslaydi farqlar va imkoniyatlarni baholaydi. O'smirlardagi bu xususiyat tengdoshlari va jamoa orasida o'z mavqyeini saqlash va barqarorlashtirish choralarini ko'rishni taqozo etadi. Tadqiqotlarimizda o'rganilgan o'smirlarga xos ana shunday xususiyatlar ham ular xulq-atvorida jinoyat motivlari shakllanishiga muhim sabab sifatida ta'sir qilishi aniqlandi (3-o'rinni 77,6%).

O'smirlarda xulq-atvor rivojlanishining bunday tus olishi, motivasjon yo'nalganlik o'z tengdoshlari va jamoa orasida "o'zini namoyon qilish, ularga o'z ta'sirini o'tkazish va o'zini tan oldirish" munosabat tizimini shakllantirib boradi. O'rganilgan respondentlar tomonidan o'smirlarda jinoyat motivlari shakllanishi uchun ana shunday xususiyatlarning mavjudligi (4-o'rinni 75,6%) eng muhim sabablar sifatida e'tirof etilgan.

O'smir xulq-atvorida jinoyat motivlari shakllanishining yuqori bosqichi sifatida yuzaga keladigan "Kuchlilikni qo'lga kiritish, boshqarishga erishish, o'z mavqyeini ortirish hamda boshqalarga ta'sir doirasini kengaytirish"ga intilish (5-o'rinni 65,7%) jinoiy xatti-harakatlarga tayyorgarlik, yo'nalganlik, natjalarga erishishni ta'minlash bosqichini ham ifodalaydi.

Bu holatlar aynan shunday o'smirlar yashayotgan oilalarda ota-onalarda munosabatlardagi beqarorlik, tarbiyaviy jarayonlarga yengil-yelpi qarash oqibatida tarbiyaning yaxshi kechmayotganligi, oilaning moddiy va ma'naviy taqsimotidagi kamchiliklar, uzilishlar eng muhim, oilaviy tarbiyada loqaydlik, beparvolik, o'zi bo'larchilikka qoldirish, e'tiborsizlik holatlarining hukm surishi natijasidir.

Tadqiqotlarimiz maqsadiga ko'ra 1-jadvalda bayon qilingan natijalar tahlili bizga o'smir xulq-atvorida jinoyat motivlari yuzaga kelishining manbalari va yo'nalganligini aniqlash maqsadida yaqqol tasavvurga ega bo'lishimiz uchun zarur edi. Biz shunga tayanib, o'smirlarda jinoyat motivlari shakllanishining asosiy sabablarini aniqlashga harakat qildik. O'zbek milliy-madaniy muhitida shakllanayotgan o'smir yoshlar, ularning ota-onalari, o'qituvchilari, tarbiya uchun mas'ul huquq-tartibot organlari va jamoatchilik bilan o'smirlarda jinoyat motivlari shakllanishining asosiy sabablarini aniqlash maqsadida tadqiqot ishlari olib borildi.

Xulosa. O'smirlarda jinoyat motivlari shakllanishining psixodiagnostikasi va psixokorreksiysi muammosini tadqiq qilishda hozirgi zamondagi psixologiyasi amaliyotida samarali qo'llashga mo'ljallangan insonning shaxslilik xususiyatlari, motivasion yo'nalganligi, hissiy-irodaviy holatlar va individual-tipologik imkoniyatlarini hamda ularning aqliy, axloqiy-ma'naviy, huquqiy tarbiyalanganlik darajasi va dunyoqarashini o'rganishga yo'nalgan anketa hamda test metodikalaridan foydalanildi. Metodologik pozisiyalarni birlashtirish esa bugungi kun o'smirlarining xulq-atvori, motivasion yo'nalganligi, tarbiyalanganlik darajasi va tarbiyaning istiqbolli andozalarini izchilroq o'rganish imkoniyatini yaratdi.

1. O'smirlarga xos jinoyat motivlarining shakllanishi, yo'nalganligi, mazmuni, mexanizmi, manbalari, boshqa kategoriyalar bilan izchil aloqasi, iyerarxiyasi, ularning faoliyat, xulq-atvor va muomala jarayonida namoyon bo'lishi aynan shu yoshdagilarning turmush tarzi bilan bog'liq bio-fiziologik, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy va tarbiyaviy-psixologik omillar hamda ularni ta'minlovchi zarur shart-sharoitlarga uzviy bog'liqligi aniqlandi.

### **Adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. - Toshkent: O'zbekiston, 2023.
2. O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonuni, 2016-yil 14-sentabr. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjalari to'plami, 37-son, 426-modda.
3. O'zbekiston Respublikasining "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni, 2008 yil.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. - Toshkent: Adolat, 2017. - 112 b.
5. Jabborov A.M. O'qituvchi etnopsixologiyasi. Qarshi "Nasaf" nashriyoti, 2015, -180 b.
6. Karimova V.M. Yoshlarda o'zbek oilasi to'g'risidagi ijtimoiy tasavvurlar. Psix. fan. dok. diss. - T.: ToshDU, 1994. - B.309.
7. Фозиев Э.Ф., Жабборов А.М. Фаолият ва хулқ-атвор мотивацияси. Т.: 2003, -124 б.
8. Qodirov O.S.. Umumiy psixologiya // O'quv qo'llanma. - Samarqand, 2022.-250 b.
9. Qodirov O.S., Xotamov Sh.N.. Ijtimoiy psixologiya //Darslik. - Samarqand, 2023.-346 b.
10. Safarovich Q. O. et al. O'quvchilar xulq-atvori profilaktikasida maqsadga yo'naltirilgan tarbiyaviy ta'sir modeli //pedagog. – 2023. – T. 6. – №. 2. – S. 382-386.
11. Safarovich Q. O. et al. Tarbiyasi qiyin o'quvchilarning xulq-atvori bilan bog'liq muammolarni bartaraf etish masalalari //pedagog. – 2023. – T. 6. – №. 2. – S. 367-371.
12. Safarovich Q. O. et al. Teenager child psychology //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2022. – T. 10. – №. 5. – S. 454-462.

## O'SMIRLIK DAVRINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK MUAMMOLARI VA DESTRUKTIV XULQ-ATVORNING IJTIMOIY PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada o'smirlik davrining ijtimoiy-psixologik muammolari va destruktiv xulq-atvorning ijtimoiy psixologik xususiyatlari tahlil qilingan, psixodiagnostika, psixokonsultatsiya va psixologik trening dasturi ishlab chiqilgan. O'smir va o'spirinlarda destruktiv xulq-atvor psixokorreksiyasi bo'yicha amaliyotchi psixologlar, ota-onalar va tarbiyachilarga mo'ljallangan qo'llanmalar ishlab chiqilgan. O'smir va o'spirinlarda destruktiv xulq-atvor psixokorreksiyasi muammosining psixologik talqini olib borilgan. O'smir va o'spirinlarda destruktiv xulq-atvor psixokorreksiyasini tadqiq qilish usullarini qo'llash haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** xulq-atvor, destruktiv, shaxs shakllanishi va psixik rivojlanishi, agressiya, psixokonsultatsiya, depressiya, pxsixokorreksiya, diagnostika.

### СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ ПОДРОСТКОВОГО ВОЗРАСТА И СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ДЕСТРУКТИВНОГО ПОВЕДЕНИЯ

**Аннотация.** В данной статье проанализированы социально-психологические проблемы подросткового возраста и социально-психологические особенности деструктивного поведения, разработана программа психодиагностики, психоконсультирования и психологического тренинга. Разработаны пособия для практикующих психологов, родителей и воспитателей по психокоррекции деструктивного поведения у подростков и подростков. Проведена психологическая интерпретация проблемы психокоррекции деструктивного поведения у подростков и подростков. Речь идет о применении методов исследования психокоррекции деструктивного поведения у подростков и подростков.

**Ключевые слова:** поведенческий, деструктивный, становление и психическое развитие личности, агрессия, психоконсультация, депрессия, психокоррекция, диагностика.

### SOCIO-PSYCHOLOGICAL PROBLEMS OF ADOLESCENCE AND SOCIAL PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF DESTRUCTIVE BEHAVIOR

**Annotation.** This article analyzed the socio-psychological problems of adolescence and the social psychological characteristics of destructive behavior, developed a program of psychodiagnostics, psychoconstruction and psychological training. Guidelines for destructive behavioral psychocorrection in adolescents and adolescents have been developed for practicing psychologists, parents, and caregivers. A psychological interpretation of the problem of destructive behavioral psychocorrection in adolescents and adolescents has been carried out. There is talk of using methods to research destructive behavioral psychocorrection in adolescents and adolescents.

**Key words:** behavior, destructive, personality formation and psychic development, aggression, psychoconsultation, depression, pxsychocorrection, diagnostics.

**Kirish.** Har bir jamiyat o‘zining mavjudligining o‘ziga xos tarixiy shartlaridan kelib chiqadigan ijtimoiy og‘ishlarning ma’lum shakllari - ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, axloqiy va boshqa xususiyatlar bilan tavsiflanadi. Ijtimoiy og‘ishlar hajmi ma’lum bir jamiyatning ma’naviy muhitini, qonuniylik va tartib darajasini baholashga imkon beradi.

Ijtimoiy voqelikdagi tub o‘zgarishlar ijtimoiy fanlar paradigmasini o‘zgartirish zarurligini tushunishga olib keldi. Sotsiologiya va psixologiyadagi zamonaviy tushunchalar shunday ta’kidlaydilar: ijtimoiy “voqelikning o‘zi deviantdir”, deviatsiya hodisasi jamiyatning ajralmas qismidir”. Bugungi kunda voyaga yetmaganlar jinoyati haqida ko‘proq gapirilmoqda. Mamlakatdagi tub ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar, jamiyatning “tabaqalarga bo‘linishi, yosh avlodni tarbiyalashga qaratilgan ijtimoiy institutlar ta’sirining zaiflashishi sabab bo‘ldi.

Voyaga yetmaganlarning destruktiv xulq-atvori muammosi zamonaviy fanning asosiy ijtimoiy-psixologik muammolaridan biridir. Ushbu hodisaning ko‘plab tadqiqotchilar ta’kidlashicha, halokat aynan o‘smirlilik davrida namoyon bo‘ladi, chunki aynan shu davr har bir inson hayotidagi qiyin davrlardan biridir.

Har yili deviant xulq-atvori bo‘lgan voyaga etmaganlar sonining ko‘payishi tendensiyasi mavjud. O‘smirlarning xatti-harakatlardagi og‘ishlar nafaqat e’tiborni tortadi, balki ota-onalar, o‘qituvchilar va jamoatchilikni xavotirga soladi.

**Adabiyotlar tahlili.** L.I.Bojovich, I.P.Bashkatov, B.T.Kondrashchenko, A.N.Leontev, N.D.Levitov, G‘.B.Shoumarov, E.G‘oziev, V.M.Karimova, N.S.Safayev, B.M.Umarov, R.S.Samarov, Z.T.Nishonova, N.A.Sog‘inov, T.Malikova, G.K.To‘laganova, X.A.Qodirova, X.A.Ruhiyeva, Z.F.Kamaletdinova, E.Quljonov, N.Komilova, K.Farfiyeva, Sh.F.Mustafayeva kabi Rossiya va O‘zbekiston psixolog olimlarining ta’kidlashlaricha, shaxs ongi, xulqi hamda faoliyati mazmunini ularni qurshab olgan muhit belgilaydi. Ularning fikriga ko‘ra, kishi ongi, xulqi, xarakteri mikro va makro muhitdagi faoliyati orqali boshqariladi.

Buzg‘unchi xatti-harakatlar (lotincha *Destructio* - "yo‘q qilaman") - bu ijtimoiy va psixologik me’yorlardan chetga chiqadigan buzg‘unchi xatti-harakatlar, bu insonning hayot sifatining buzilishiga, o‘z xatti-harakatlariga tanqidiy munosabatning pasayishiga, sodir bo‘layotgan narsalarni idrok etish va tushunishda kognitiv buzilishlarga olib keladi. o‘z-o‘zini hurmat qilishning pasayishi va hissiy buzilishlar, natijada bu shaxsning ijtimoiy disadaptatsiyasi holatiga, uning to‘liq izolyatsiyasiga olib keladi.

Buzg‘unchilik har bir insonda muqarrar ravishda mavjud, ammo u ko‘pincha hayotning tanqidiy davrlarida aniqlanadi. Bu, ayniqsa, o‘smirlarga taalluqlidir, chunki o‘smirlilik davridagi ichki qiyinchiliklar jarayonlardan boshlab, o‘z-o‘zini konsepsiyasini qayta qurish bilan yakunlanadi.

O‘sish davri chuqur psixologik muammolarning paydo bo‘lishiga olib kelishi mumkin. Inqiroz davrida biologik va psixologik jarayonlarning tezlashishi xatti-harakatlardagi og‘ishlarning to‘satdan paydo bo‘lishiga olib keladi. Shunday qilib, butunlay gullab-yashnagan o‘smir, atrofidagilar uchun kutilmaganda, to‘satdan hissiy qo‘pollik, shafqatsizlik, tajovuzkorlik va zo‘ravonlikka moyillik paydo bo‘ladi.

O‘smirlar va yoshlar alohida ijtimoiy guruhdir. Keling, ijtimoiy og‘ishlarning shakllanishiga ta’sir qiluvchi muayyan ijtimoiy-yosh guruhlari (o‘smirlar va yoshlar)ning ba’zi ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini ko‘rib chiqaylik. N.A.Gorlova o‘smirlilik davri inson ontogenetik rivojlanishining alohida davri bo‘lib, uning o‘ziga xosligi ikki davr, ya’ni bolalik davri va yetuklik davri o‘rtasidagi oraliq holatda ekanligini ta’kidlaydi. Bu yosh hayotning muhim davrini qamrab oladi, o‘smirlilik 11-12 yoshda boshlanadi va 17-18 yoshda tugaydi. O‘smirlilik chegaralari aniq ko‘rsatilmagan, ular har bir o‘smir uchun moslashuvchan va individualdir. O.G.Kravsov o‘smirlilik davri odadta o‘smirlilik va o‘tish davriga bo‘linishini aniqlaydi. O‘smirlilik davrida o‘smir o‘zi bilan ichki ziddiyatlarni, boshqalar bilan tashqi ziddiyatlarni boshdan kechiradi, bu xatti-harakatlarning beqarorligi va tashqi buzilishlarni keltirib chiqaradi. Bu yoshda ongli xulq-atvor asoslari yaratilib, axloqiy g‘oyalari va ijtimoiy munosabatlarni shakllantirishda umumiyo yo‘nalish vujudga keladi. A.A.Artemova o‘z tadqiqotini yoshlarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari muammosiga bag‘ishlaydi. Muallif quyidagi xususiyatlarni ko‘rsatadi: o‘smirlilik va erta balog‘at davrida insonning shaxsiy va kasbiy o‘zini o‘zi belgilashi, uning ijtimoiy mas’uliyatli sub‘ekt sifatida shakllanishi sodir bo‘ladi. Shu bilan birga, yoshlar eng dinamik, faol, ijtimoiy

Tadqiqotlarga ko'ra butun dunyoda 3 milliard kishi, sayyorada 40 foiz inson va shundan 2 milliard yoshlarni ijtimoiy tarmoqlardan foydalanadi. Izlanishlar bir kunda o'rtacha ikki soat ijtimoiy tarmoqlarda vaqt o'tkazishni taqozo qilyapti. Ijtimoiy tarmoqlarning kundalik

hayotimizdagи o'rnini inkor qilib bo'lmaydi. Ammo tahlikali jihatlariga ham ko'z yumolmaymizki, ijtimoiy tarmoqlarda nafaqat vaqtimiz, balki ruhiy sog'ligimizni ham qurban beryapmiz. Ijtimoiy tarmoqlar yangi hodisa bo'lgani uchun uning atrofida hali hanuz to'liq tadqiqotlar olib boorilmagan. Biroq bu borada shu kungacha olib borilgan ishlar mavjud. Ularda ijtimoiy tarmoqlarga tobe talaba yoshlar ruhiyatidagi salbiyt o'zgarishlar keltirilib o'tilgan [10].

Stress.

Aksariyat talabalar kundalik stress va tashvishlardan uzoqlashish uchun ijtimoiy tarmoqlardan panoh topishga urinishadi. Biroq, taqdqiqotlar ijtimoiy tarmoqlar stressni ozaytirish uchun emas, aksincha, ruhiy ziqlik va asabiylikni ortirish uchun xizmat qilishini ta'kidlaydi. 1800 ko'ngilli qatnashgan sinov tajribasida, ijtimoiy tarmoqlardan foydalanadigan ayollar erkaklardan ko'ra ko'proq ruhiy ziqlikka giriftor bo'lishi ko'rsatgan.

Ruhiy holat.

2017-yilda Avstriyalik tadqiqotchilar tomonidan o'tkazilgan tajribada 20 daqiqa Facebookdan foydalangan foydalanuvchining ruhiy holatida kayfiyatsizlik, tushkunlik, alamzadalik paydo bo'lishi aniqlangan. Foydalanuvchilar bu tushkunlikka Facebookga vaqt isrofi deb qaraganlari sabab bo'lishi mumkin. Boshqa bir tadqiqotda esa yaxshi va yomon kayfiyat kishilarga ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqalishi ta'kidlanadi. Ko'ngilsiz xabarlar va ijtimoiy tarmoqdan bir paytda foydalanayotgan foydalanuvchilarning salbiy-o'y xayollari ular ulashayotgan mulohazalar orqali bir hissaga ko'payadi. Ijobiy, ko'ngilochar xabarlarning esa ruhiy holatga ta'sir qilish-qilmasligi haqida hanuz aniq bir xulosa yo'q [11].

Xavotir (vahima).

Tadqiqotlar natijasida, ijtimoiy tarmoqlarga qaram bo'lgan talaba yoshlarda xavotir, vahima, asabiy tajanglik va behalovatlik boshqalarga nisbatan ko'proq ko'zga tashlanishi aniqlandi. Yetti va undan ko'proq ijtimoiy tarmoqlardan foydalanadigan foydalanuvchilar umuman foydalanmaydigan va yoki 1-2 akkuantdan foydalanadiganlardan ko'ra ko'proq xavotir hamda tajanglikda yuradilar.

Ruhiy tushkunlik (depressiya).

Ba'zi tadqiqotlar ruhiy tushkunlik va ijtimoiy tarmoqlar orasida qat'iy bog'liqlik mavjudligini ko'rsatsa-da, ayrim mutaxassislar ijtimoiy tarmoqlarni ruhiy tushkunlikdan xalos etuvchi ijobiy jarayon sifatida ham baholashadi. 700 talaba qatnashgan ikki tadqiqotda noxush kayfiyat, o'zini keraksiz bilish, umidsizlik kabi ruhiy tushkunlik belgilari ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish ta'sirida yuzaga kelganini ko'rsatadi. Shunga o'xshash boshqa biro tadqiqot 2016-yilda 1700 kishi bilan o'tkazilgan. Unda haddan ortiq ijtimoiy tarmoqlarda vaqt o'tkazadiganlarda ruhiy tushkunlik va vahima tahlikasi uch baravar ortishini taqozo qildi. Bunga sabab qilib ijtimoiy tarmoqlardagi keskin xabarlar, mutlaqo notanish insonlarning hayoti xususida fikrlar to'qnashushi, ijtimoiy tarmoqlarda vaqtini behuda sovurilayotgani uchun pushaymonlik hissingining ta'sirlari ko'rsatilmoqda. Ayni kunda mutaxassislar ijtimoiy tarmoqlar yordamida ruhiy ziqlik va asab kasalliklarini ertaroq aniqlash xususida izlanishlar olib borishmoqda [12].

Diqqatning susayishi.

Diqqatning susayishi tufayli yoshlarda giperaktivlik buzilishi rivojlanadi. Bunda axborotlarning ko'pligi natijasida va bir vaqtning o'zida har bir ma'lumotlarni o'zida singdirish va paralel bir necha jarayonlarni amalga oshirish uchun vasvasaga tusha boshlaydi. Bu bizning fikrlash qobiliyatimiz uchun yomon. Masalan, kitob o'qiyotganda diqqatingizni uzoq vaqt ushlab turish qiyinlashadi. Ortirilgan odatga amal qilgan ongimiz bir ob'ektdan ikkinchi ob'ektga sakray boshlaydi.

**Xulosa.** Shu o'rnida aytishimiz mumkinki, bu muammo ayniqsa yosh avlod o'rtasida keskin kechadi. Bolalar tafakkuri kattalarga qaraganda ancha "plastik" va shuning uchun ijtimoiy tarmoqlar, shu jumladan, shakllanadigan zararli fikrlash standartlarini yanada oson qabul qilishi mumkin.

Ijtimoiy tarmoqlarda ko'p vaqt sarflaganingizda miyangiz ma'nosiz va maqsadsiz faoliyat bilan band bo'lib, uni to'laqonli intellektual ish deb atash mumkin emas. Siz uni faqt biron bir narsa bilan band qilib qo'yasiz, shunda u har doim band bo'lib, keladigan ma'lumotlarning sifati

176 haqida o‘ylamaydi. Buning o‘rniga, siz biron bir narsa haqida o‘ylashingiz, hayotdagi muammolarni hal qilishingiz, kelajak uchun rejalar tuzushingiz, foydali g‘oyalari bilan chalg‘ishingiz, yaxshi kitob o‘qishingiz lozim. Siz eng yoqtirgan narsangizni ham ayta olmaysiz, chunki siz hamma narsani iloji boricha tezroq yutishga shoshilgansiz va baholash, qandaydir hissiy javobni shakllantirish uchun vaqt yo‘q edi. Bundan tashqari, oldingizda hazmsizlik bo‘ladi.

Shuni ta’kidlash kerakki, zararning yuqorida aytib o‘tilgan oqibatlari nafaqat ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik tufayli paydo bo‘lishi mumkin. Ushbu alomatlar ham kompyuter o‘yinlariga va umuman internetga bo‘lgan haddan tashqari extirosning natijasi, ham zamonaviy hayotning ko‘plab ko‘rinishlarining natijasi bo‘lishi mumkin: shiddatli ish, hayotning tez sur’ati, ma’lumotni tartibsiz iste’mol qilish, zerikish va hokazo.

### **Adabiyotlar**

1. Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimda so‘zlagan nutqi. – 2016.
2. Akhmadjonova, S., & Abdullajanova, D. (2023, May). Socio-psychological features of family conflict resolution. In Academic International Conference on Multi-Disciplinary Studies and Education (Vol. 1, No. 6, pp. 101-108).
3. Mukhamedova, D. G., & Abdullajanova, D. S. (2020). The actuality of the gender aspect of the manager’s constructive interaction in the conflicting situation. Journal of Critical Reviews, 7(12), 228-231.
4. Mukhamedova, D., Abdullajanova, D., Tukhtabekov, K., Fuzailova, G., Babadanova, S., & Rahmonova, Z. (2019). The main directions of accounting socio-psychological characteristics of the manager of education in the process of optimizing management activities in Uzbekistan. Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems, 11(10 Special Issue), 1035-1038.
5. Abdullajanova, D. S. (2023). Socio-psychological criteria for the selection and placement of personnel in management (on the example of women). Confrencea, 5(05), 401-411.
6. Мухамедова, Д. Г., & Абдуллаханова, Д. С. (2021). Социально-психологические особенности развития кадрового резерва: формы и механизмы инновационной активности. being a music fan: fandom effects on the psychological well-being of its participants
7. . 12, 187.
8. Рахимова, И. И., & Сафарова, Э. М. (2022). Безвозвратный шаг в никуда: сравнительный анализ суицида. Особые случаи у подростков. Вестник интегративной психологии 2022г, 25.
9. Рахимова, И. И., & Сайитова, У. Х. (2020). Психологическое положительное влияние компьютерных игр на детей студенческого возраста. In European Scientific Conference (pp. 248-250).
10. Рахимова, И. И. (2014). Факторы формирования психологической зависимости от компьютерной игры в подростковом возрасте. Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук, (1-2), 221-226.
11. Рахимова Индира Игоревна (2016). Экспериментальное выявление психологической особенности проявления зависимости от компьютерной игры испытуемых младшего школьного возраста. Проблемы современного образования, (4), 74-79.
12. Rakhimova, I. I., Berdikulova, G. N., Axmedova, Z. J., & Sayitova, U. H. (2022). Positive aspects of the communicative psychological effect of social networks on the individual. Asian Journal Of Research In Social Sciences And Humanities, 12(1), 349-353.
13. Mamirova Feruza Sulaymonovna (2023). Study and significance of youth dependence on social networks. Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali, 1 (17), 205-212.

**Ismoilova Asilpashsha Rojabovna**

Urganch davlat universiteti

pedagogika va psixologiya kafedrasи o‘qituvchisi

[asilpashshaismoilova@gmail.com](mailto:asilpashshaismoilova@gmail.com)

## **TAFAKKUR PSIXOLOGIYASI: NAZARIYALAR VA ILMUY YONDASHUVLAR**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada psixologiya fanida tafakkur jarayonining o‘rganilishi, tafakkurning ilmiy va psixologik tavsiflari, tafakkur jarayonini Assotsiatsiv yo‘nalish vakillari, Bixevoizm yo‘nalish vakillari, Vyursburg maktabi vakillari, Geshtalt psixologiyasi yo‘nalish vakillari, Psixoanaliz vakillari tomonidan o‘rganilishi va ta’riflari, jarayonni namoyon bo‘lishi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** Tafakkur, aqliy faoliyat, reproduktiv tafakkur nazariyasi, Assotsiativ psixologiya, tafakkur jarayonlari, Bixevoizm, nutq, noverbal muloqot vositalari, Vyursburg maktabi, Geshtalt psixologiyasi, Assimilyatsiya, Psixoanaliz, Determinizm.

### **ПСИХОЛОГИЯ МЫШЛЕНИЯ: ТЕОРИИ И НАУЧНЫЕ ПОДХОДЫ**

**Аннотация.** В данной статье изучен процесс мышления в науке психология, научно-психологические описания мышления, изучение и преподавание процесса мышления представителями ассоциативного направления, представителями направления Бихевиоризма, представителями Вюрицбургской школы, представителей направления Гештальт-психологии, а также представителей психоанализа, была проанализирована информация о проявлении.

**Ключевые слова:** мышление, мыслительная деятельность, теория репродуктивного мышления, Ассоциативная психология, мыслительные процессы, Бихевиоризм, речь, невербальные средства общения, Вюрицбургская школа, Гештальт-психология, Ассимиляция, Психоанализ, Детерминизм.

### **PSYCHOLOGY OF THINKING: THEORIES AND SCIENTIFIC APPROACHES**

**Annotation.** In this article, the study of the thinking process in the science of psychology, the scientific and psychological descriptions of thinking, the study and teaching of the thinking process by representatives of the associative direction, representatives of the behaviorism direction, representatives of the Würzburg school, representatives of the Gestalt psychology direction, and representatives of psychoanalysis. reefs, the information about the manifestation of the process was analyzed.

**Key words:** thinking, mental activity, theory of reproductive thinking, Associative psychology, thought processes, Behaviorism, speech, non-verbal means of communication, Würzburg school, Gestalt psychology, Assimilation, Psychoanalysis, Determinism.

**Kirish.** Psixologiyada tafakkur deganda insonning faol kognitiv faoliyatni hamda ushbu faoliyatni rejalashtirish va tartibga solishning ichki jarayoni tushuniladi. Tafakkurni bunday tushunish uning boshqa psixik jarayonlar bilan bog‘liqligini hisobga olish imkonini beradi va kognitiv faoliyatning rivojlanishini, uning sifat bosqichlari va amalga oshirish usullarini, shuningdek, amaliy intellektni o‘rganishni tavsiflaydi.

Tafakkurni hali-hanuzgacha o‘rganilishi bir qator afzallikkarga ega. Birinchidan, tafakkurni shaxsning turli rivojlanish bosqichlarida va insonning har xil faoliyat turlarida o‘rganishga imkon beradi. Ikkinchidan, diqqat tafakkurni qolipli aqliy jarayonlardan ajratib turadigan bilishning ijodiy tomoniga qaratiladi. Uchinchidan, tafakkurni o‘rganishga shaxsning integral xususiyatlari,

**178** ya'ni uning motivlari, emotsiyalari, individual xususiyatlarini aqliy faoliyat subyekti tushunchasini kengaytirgan holda jalb qilish imkonini beradi.

Tafakkurning birinchi ilmiy va psixologik tavsiflaridan biri ong psixologiyasi doirasida paydo bo'lgan. Amerikalik psixolog Uilyam Jeymsning "Psixologiya tamoyillari" (1890) asarida tafakkurni tor ma'noda tavsiflovchi umumiy xususiyatlar va mexanizmlar aniqlangan. Yangi sharoitlarda harakatlanish qobiliyati tasavvurlar assosiatsiyasi sifatida talqin qilingan tafakkurning o'ziga xos xususiyati hisoblangan. Zero, g'oyalarni ko'paytirish aqliy faoliyatning assosiativ nazariyasining asosiy masalalaridan biri bo'lgan, uni ko'pincha reproduktiv tafakkur nazariyasi deb atashgan.

**Adabiyotlar tahlili.** Assotsiatsiyalar qonuniyatlarini ingliz olimlari Devid Gartli (1747), Jozef Pristli (1847), Jon Styuart Mill (1843), Aleksandr Ben (1855) va boshqalarning asarlarida tadqiq etilgan. Ushbu yo'naliш vakillari assotsiatsiyalarning predmet dunyosidagi aloqalarga bog'liqligi va ularning miya faoliyati bilan bog'liqligi haqidagi masalani talqin qilishda ham, assosiatsiyalarning alohida turlarini talqin qilishda ham bir-biridan o'zaro farqlandilar. Biroq assotsiatsiya psixik jarayonning asosiy tarkibiy birligi sifatida tan olinganligi, assotsiatsiya tushuntirish prinsipi sifatida ham ishlataligani ularni asosiy xususiyat sifatida birlashtirardi. Obraz-tasavvurlarning beixtiyor ketma-ketligi har qanday aqliy jarayonning bir turi sifatida qabul qilingan: fikrlash har doim obrazli tafakkur, tafakkurning rivojlanishi assotsiatsiyalarni yig'ish jarayoni sifatida ko'rib chiqilgan.

Assotsiativ psixologiya ko'plab savollarga shu jumladan tafakkurning maqsadga yo'nalanligini tushuntirishga ham javob bera olmaydi. Tafakkur jarayonida assotsiatsiyalarning maqsadga muvofiqligi va mantiqiy tartiblangan yo'naliшini tushuntirish uchun psixologiyaga perseveratsiya (qat'iyat) tushunchasi kiritildi. Shunday qilib, inson ongida ikkita qarama-qarshi, ya'ni assotsiativ (ongdag'i har bir tasavvur u bilan bog'liq bo'lgan boshqasini keltirib chiqaradigan) va perseverativ (ongga singib kiradigan har qanday tasavvurni kuchaytiradigan, unda ushlanib qoladigan) tendensiya mavjud deb taxmin qilingan: Agarda tasavvur u bilan bog'liq bo'lgan boshqasi bilan siqib chiqarilsa, u holda assotsiativ jarayon imkon bo'lishi bilanoq, albatta avvalgi assotsiatsiyalarga qaytadi.

Assotsiativ va perseverativ tendensiyalarning biriktirilishi orqali psixologiya tafakkur jarayonini tushuntirishga harakat qiladi. Masalan, G.Ebbingaus hisoblashicha, tafakkur barqaror tasavvur (anglangan tafakkur ob'yekti, maqsad) va assotsiativ zanjir (biz fikrlarimizga kerak bo'lgan narsani tanlaydigan assotsiatsiyalar harakati) o'rtaida barqaror momentni ta'minlaydi.

Assotsiativ psixologiya uchun tafakkurni rivojlantirish jarayoni shundan iboratki, assotsiativ va perseverativ tafakkur funksiyasi qurilgan elementlar - bola tug'ilishidanoq birlashmagan bo'ladi va faqat katta bo'lish jarayonida bu tendensiyalarning birlashishi, ularning mustahkamlanishi tafakkurni rivojlantirishning asosiy yo'naliшini tashkil etadi. Tafakkur jarayonlarini assotsiativ va perseverativ tendensiylar nuqtai nazaridan yetarli darajada tushuntirilmaganligi tafakkur rivojlanishini o'rganadigan tajribalar oqimining uch yo'naliшga bo'linishiga olib keldi:

- 1) assotsiativ psixologyaning keyingi rivojlanishi (N. Axning eksperimental ishlari);
- 2) bixevoizm (D. Uotson va uning izdoshlari);
- 3) vyursburg maktabi (O. Kyulpe va uning talabalari).

N. Ax o'zining eksperimental ishida ixtiyoriy faoliyatni yangi tendensiya bilan bog'liq faoliyat sifatida o'rganib chiqdi va eksperimental psixologiyada allaqachon mavjud bo'lgan ikkita umumiy qabul qilingan assotsiativ va perseverativ tendensiylarga uchinchi – deterministik tendensiyanı qo'shadi.

Ushbu uchta tendensiyaning kombinatsiyasi orqali N. Ah tafakkur asoslarini tushuntirishga harakat qildi va assotsiativ jarayonning ko'r-ko'rona o'yinini tartibga soluvchi teleologik ta'sirli maqсадli tasavvur qo'shilishi bilan tafakkurning oqilona xarakteri paydo bo'lishini ko'rsatishga harakat qildi.

Bixevoizm asoschisi, amerikalik psixolog J. Uotson (1903) tafakkurni xulq-atvor hodisasi deb hisoblagan. J. Uotsonga ko'ra, xatti-harakatlarning asosiy tarkibiy birligi rag'batlantirish bilan

reaksiyaning aloqasi deb hisoblangan. U inson tafakkurini juda keng tushungan, uni ichki nutq va hatto noverbal muloqot vositalari bilan taqqoslagan. Shunday qilib, tafakkur xulq-atvori psixologiyasida markaziy o'rinni egallaydigan ko'nikmaga yaqinlashadi.

Xulq-atvorni o'rganishga nisbatan yangicha yondashuv D. Miller, Yu. Galakter va K. Pribram tomonidan "Xulq-atvor rejalar va tuzilishi" kitobida taklif qilingan va mualliflar tomonidan "sub'yektiv bixevoirizm" deb nomlangan. Xulq-atvorning tarkibiy tuzilishi mualliflar tomonidan tizimga ta'sirini o'tgan holatlar bilan taqqoslash sifatida tushunilgan. Mualliflar xulq-atvor tuzilishi haqidagi tushunchalarini konkretlashtirib, "obraz" va "reja" tushunchalarini kiritadilar. "Obraz" - bu bilim, o'tgan tajriba, vositachilik harakati, "reja" ma'lum bir natijaga qanday erishish mumkinligini ko'rsatish. Biroq, ushbu konsepsiya tanlab qidirishni amalga oshiradigan yangi rejalar va mezonzlarni yaratish jarayonlarini tahlili berilmagan.

Vyursburg maktabi vakillari - Osvald Kyulpe, Karl Byuler va b. - tafakkurni o'rganishning eksperimental usuli sifatida introspeksiya usulidan foydalangan holda ichki faoliyat sifatida o'rganib chiqishgan. Vyursburg maktabi vakillari tafakkurni muammoni hal qilish jarayoni sifatida ko'rib chiqqan holda tafakkur va aqliy faoliyatni to'g'ri ajratish usullarini belgilab oldilar, keyinchalik tafakkur psixologiyasi kontekstida asosiy hisoblangan tashqi va ichki faoliyat, tafakkur va til, tafakkur va hissiy obrazlar mutanosibligi kabi masalalar doirasini oldindan belgilab oldilar.

Vyursburg maktabining g'oyalari ma'lum darajada tafakkurni intellektual operatsiyalarning ishlashi sifatida talqin qilgan O. Zels asarlarida ishlab chiqilgan. O. Zels o'z oldiga aqliy faoliyatning ma'lum bir natijasi qanday shakllanishini ko'rsatish, intellektual faoliyat har bir bosqichining funksiyasini ko'rsatish vazifasini qo'ydi. O. Zels tafakkurning eksperimental tadqiqotlari tarixida birinchi marta uni vaqt o'tishi bilan izchil rivojlanib boradigan, uning oldingi bosqichlari keyingi bosqichlarni tayyorlaydigan va shartlaydigan jarayon sifatida o'rganishni boshlaydi. Shuningdek, O. Zels psixologiya tarixida birinchi bo'lib asosiy intellektual operatsiyalar muammoosini qo'yadi va ularning tarkibini bat afsil o'rganishga harakat qiladi. Rus psixologiyasida tafakkur jarayon sifatida A.V. Brushlinskiy va uning shogirdlari asarlarida tahlil qilingan.

Muammoli vaziyat tuzilishining yaxlitligini tiklash jarayoni sifatida tafakkurni talqin qilish Geshtal't psixologiyasida tafakkurni o'rganishga ta'sir ko'rsatadi, uning vakillari tafakkurni vaziyatlarni qayta qurish akti deb hisoblashadi.

Assotsiatsiyazmni tanqid qilgan nemis psixologlari V. Keler, K. Dunker (1935), M. Vertgeymer (1945) asarlarida tafakkurning yangi jihatni aniqlangan. Har qanday psixik jarayonning birlamchi va asosiy mazmuni alohida sezgi-elementlar emas, balki ayrim yaxlit konfiguratsiyali shakllanishlar, shakllar yoki "gepgaltlar"dir. Tafakkur haqidagi psixologik tasavvurlar uni muammoli vaziyatdagi muhim munosabatlarni to'satdan tushunish - oldingi tahliliy faoliyat tomonidan to'g'ridan-to'g'ri tayyorlanmagan tushuncha sifatida talqin qilishdan iborat edi. Muammoning yechimi shundaki, muammoli vaziyatning qismlari yangi munosabatlarda, yangi geshtaltda idrok etila boshlanadi. Muammoli vaziyat qayta tuzilganida muammoni hal qilishning mohiyati ob'yektning yangi munosabatlarda idrok etilishi bilan belgilanadigan yangi xususiyatini ochishni bildiradi.

**Muhokama.** Geshtalt psixologiyasi vakillari tomonidan ishlab chiqilgan funksional rivojlanish muammozi zamонави fikrlash psixologiyasida markaziy muammolardan biri hisoblanadi.

L.S. Vigoskiy geshtalt psixologlarining, xususan V. Kelerning ishlari psixologiyada o'ziga xos tendensiyani yaratishga olib keldi, deb hisoblagan va uni inson tafakkuriga nisbatan biologik yondashuv deb atagan. Tafakkur biologik jarayon sifatida J. Piajening kognitiv nazariyasida ko'rib chiqilgan. U "tafakkur" emas, "intellect" tushunchasini ishlatgan. Eng umumi shaklida intellekt u tomonidan ba'zi bir asosiy biologik xususiyatlarning keyingi rivojlanishi sifatida tushunilgan. Tashkil etish va adaptatsiya (moslashish) aqlning asosiy xususiyatlari va funksiyalari sifatida ajratilgan. Adaptatsiya, o'z navbatida, ikkita o'zaro bog'liq jarayonlarni o'z ichiga oladi, J. Piaje tomonidan bu assimilyasiya va akkomodatsiya deb nomlanadi. "Assimilyasiya"

**180** terminining mazmuni sub'yekt tomonidan uning kognitiv faoliyat davomida tanib olinadigan ob'yektning ba'zi xususiyatlarini qayta tiklashni ta'kidlash uchun qo'llaniladi. "Akkomodatsiya" deganda o'zini o'rganayotgan sub'yektining ob'yektiv dunyoning turli talablariga moslashish jarayoni tushunilgan.

J. Piaje ma'lum bir davrda ma'lum bir shaxs tomonidan to'plangan kognitiv tajribani kognitiv tuzilma deb atadi va inson intellekti faoliyatining xususiyatlaridan biri shundaki, tashqi dunyodan olingan har qanday mazmun individ tomonidan o'zlashtira olinavermaydi (assimilyasiya qilinmaydi), faqat uning ichki tuzilishiga taxminan mos keladigan narsagina o'zlashtirilishi mumkin.

J. Piaje bolalarda operasion intellektning rivojlanishini hisobga olgan holda, uning rivojlanishining quyidagi bosqichlarini aniqlaydi:

- sensomotorn intellekt (taxminan 2 yoshgacha),
- operatsiyadan oldingi tafakkur (2 yoshdan 7 yoshgacha),
- aniq operatsiyalar davri (7 yoshdan 12 yoshgacha),
- formal operatsiyalar davri (11-12 yoshdan 14-15 yoshgacha)

Shunday qilib, J. Piajega ko'ra, bolada intellektning rivojlanishi uning nutqidan oldin boshlanadi, bosqichlar ketma-ketligi esa rivojlanishning ichki qonuniyatini aniqlaydi. Bosqichlar, garchi aniq bo'imasada, ma'lum bir yoshga bog'langan bo'ladi. Bunda o'qish-o'rganish rivojlanish jarayonlarini tezlashtirishi yoki sekinlashtirishi mumkin bo'ladi. Rivojlangan intellekt tashqi, ob'yektiv harakatlardan kelib chiqqan ichki harakatlardan iborat operatsiyalar tizimi sifatida tushuniladi.

Operasion tuzilishga parallel ravishda tafakkurning motivasion komponenti o'rganiladi. Tafakkurga nisbatan motivasion jarayon sifatida yondashish psixoanalistik yo'nalishga xos bo'lgan, uning vakillari tafakkurning inson motivlari va ehtiyojlariga bog'liqligini o'rganib, ongsizlikning tafakkurdagi roliga e'tiborni qaratadilar. Z.Freydning "O'tkir aqllilik (ostrouumiye) va uning ongsizlikga munosabati" asarida o'tkir aqllilik uning asosida ongsiz birlamchi motivlar yotgan ijodiy tafakkurning ko'rinishlaridan biri sifatida tushunilgan. Motivni anglash masalasi tafakkur psixologiyasi muammolari bilan ham bog'liq bo'lgan. Klassik psixoanalizda ongsiz motiv tafakkur faoliyatini amalga oshirish imkoniyatini istisno qilmaydi, ammo motivni haqiqiy tushunish o'rniga, bu xayoliy bo'lishi ham mumkin.

Psixoanaliz vakillaridan farqli o'laroq, motivatsiyaning kognitiv nazariyasi tarafdarlari (G. Bauer, R. Shepard va b.) inson xulq-atvorining motivatsiyasi amalga oshiriladigan kognitiv faoliyatga muvofiq ravishda qurilishiga ishongan holda, bilishdan motivga qarab mulohaza yuritishgan. Ushbu yondashuv doirasida yutuq motivatsiyasining klassik tadqiqotlari muhokama qilingan, buning natijasida real ishlab turuvchi motiv ikki tendensiyaning, ya'ni muvaffaqiyatsizlikdan qo'rqish va muvaffaqiyatdan zavqlanish istagini o'zaro ta'siri mahsuli sifatida, bilish esa - polimotivlashgan faoliyat sifatida talqin etila boshlanadi.

Rus fanida tafakkur muammoi an'anaviy ravishda L. S. Vigotskiy, A. N. Leontyev, S. L. Rubinshteyn, P. Ya. Galperin, L.A. Venger, A.V. Brushlinskiy, N.F.Talizina, O.K. Tixomirov , N.A. Abulxanova-Slavskaya va b.ning asarlarida amalga oshirilgan prosessual-faoliyatli yondashuv doirasida ko'rib chiqilgan.

L.S. Vigotskiy bo'yicha tafakkurning rivojlanishi ongning butun tuzilishi va psixik funksiyalar faoliyatining butun tizimi uchun markaziy hisoblanadi. Bu bilan barcha boshqa funksiyalarni intellektualizatsiyalash g'oyasi chambarchas bog'liq bo'lgan, ya'ni tafakkur rivojlanishning ma'lum bir bosqichida ushbu funksiyalarni tushunishga olib kelishiga qarab ularni o'zgartirish va bola o'z psixik faoliyatiga oqilona munosabatda bo'lishni boshlaydi .

Inson tafakkurining sifat jihatidan farqi ramziylashtirish qobiliyatidadir. So'z yagona bo'lmasa-da, eng noyob ramz hisoblanadi. Tafakkur, L.S. Vigotskiyning so'zlariga ko'ra, so'zdan yaratiladi. "Tafakkur va nutq" kitobida (1934) L.S.Vigotskiy keng eksperimental materialarga tayanib, bolalardagi tushunchalarning rivojlanishini o'rganadi .

L.S. Vigotskiy psixologik tizim haqidagi tushunchani kiritadi. Uning o'zaro bog'liq funksiyalari tarkibiy komponentlaridir. Bu bitta alohida olingan funksiya (xotira, tafakkur yoki

tasavvur) emas, balki funksiyalarining ajralmas tizimi rivojlanadi. Bunda turli yosh davrlarida funksiyalarining mutanosibligi o‘zgaradi. (Masalan, maktabgacha tarbiyalanayotgan bolaning xotirasi, maktab o‘quvchisida esa tafakkur boshqalar orasidagi eng yetakchi funksiyasi hisoblanadi). Bolaning madaniy rivojlanishidagi har qanday funksiya, eng avvalo, ijtimoiy jihatdan interpsixik kategoriya sifatida vujudga keladi, so‘ngra intrapsixik kategoriya sifatida bolaning “xususiy mulki” ga aylanadi. L.S. Vigotskiy ushbu g‘oyasi asosida rivojlantiruvchi o‘qitishning turli nazariyalarining nazariy asosi bo‘lgan “rivojlanishning yaqin zonasi” tushunchasini shakllantirdi. Shunday qilib, L.S. Vigotskiyning nazariyasida rivojlanish prinsipi funksiyalararo aloqalarning turli shakllarini anglatuvchi tizimlilik prinsipi bilan biriktiriladi. Ushbu tizimlarni yaratishda fikrlashning asosiy vositasi bo‘lgan so‘zning ma’nosiga asosiy rol beriladi.

A. N. Leontyevning fikriga ko‘ra, tafakkur bu inson idrokining eng yuqori bosqichi bo‘lgan ob‘yektiv voqelikni aks ettirish jarayonidir. Sezgi va idrokdan, ya’ni bevosa hissiy aks ettirish jarayonlaridan farqli o‘laroq, tafakkur voqelikning bilvosita, murakkab vositalangan aksidir.

**Natija.** Tafakkur – bu nazariy va amaliy faoliyatning o‘ziga xos turi bo‘lib, tadqiqot, transformasion va kognitiv xarakterdagi harakatlar va operatsiyalarini o‘z ichiga olgan tizimdan iborat hisoblanadi.

Tafakkur o‘zining rivojlangan shakllarida ob‘yektlarni aks ettirish jarayonidir, zero bu ularni sub‘yektiv obrazlarining inson ongidagi odamlar hayoti sharoitida hal qilish uchun ularning mazmuni va ma’nosи, yangi maqsadlari uchun, yangi kashfiyot vositalari va rejalgarda erishtiruvchi ijodiy o‘zgartirilishidir.

A. N. Leontyev inson tafakkurining yuqori shakllarining beixtiyoriy xususiyatini, ularning madaniyatdan kelib chiqishini va ijtimoiy tajriba ta’siri ostida rivojlanish imkoniyatlarini alohida ta’kidlagan holda, inson tafakkuri jamiyatdan tashqarida, tildan tashqarida, insoniyat tomonidan to‘plangan bilimlardan va u tomonidan ishlab chiqilgan mantiqiy, matematik va boshqa harakatlar va operatsiyalardan iborat aqliy faoliyat usullaridan tashqarida mavjud bo‘lmasligini yozadi. Alohida inson til, tushunchalar, mantiqni o‘zlashtirgandan keyingina tafakkur sub‘yektiga aylanadi.

Tafakkurning faoliyat nazariyasi bolalarni o‘qitish va aqliy rivojlantirishi bilan bog‘liq ko‘plab amaliy vazifalarini hal qilishga yordam berdi. Uning negizida rus psixologiyasini asosiy ta’lim nazariyalarini, jumladan, P. Ya. Galperinning aqliy harakatlarning bosqichma-bosqich shakllanishi nazariyasi, L.V.Zankov va V.V.Davidovning rivojlanish ta’lim nazariyasi yaratiladi (ularni tafakkurni rivojlantirish nazariyalarini deb ham hisoblash mumkin).

Sub‘yektlar faoliyat yondashuvi va S. L. Rubinshteyn va uning maktabi tomonidan ishlab chiqilgan shunga tegishli nazariya uchun (dastlab amaliy va nazariy), uning ichida esa psixik jarayon sifatidagi faoliyat tafakkurning asosiy va o‘ta xilma-xil darajalari hisoblanadi. Shaxsiy planda tafakkur, eng avvalo, faoliyat, ya’ni sub‘yektning motivlari va maqsadlari, uning refleksiyalari, u tomonidan amalga oshirilgan aqliy harakat va operatsiyalar va h.k. shaklida namoyon bo‘ladi. Biroq, tafakkur bu nafaqat faoliyat, balki uning ichida doimiy ravishda shakllanuvchi uzluksiz (nodiz'yunktiv) psixik, ya’ni ma’lum bir sub‘yekt hayotining yangi va shuning uchun hali ham noma’lum holatlarini tahlil qilish, sintez qilish va umumlashtirish jarayonidir. Bunday o‘ta plastik, labil, uzluksiz shakllanadigan jarayon yordamida individ muammoli vaziyatning o‘zi uchun yangi, umuman konkret xususiyatlari va vazifalarini ularga muvofiq ravishda o‘zida mavjud bo‘lgan nisbatan barqaror aqliy operatsiyalarini qo’llab va o‘zgartirib, yangicha intellektual harakatlarni shakllantirgan holda aniqlashtirib oladi va h.k.

Agar tafakkur faoliyat sifatida, operatsiyalar tizimi sifatida inson tomonidan asosan ongli ravishda amalga oshirilsa, uning ichida tafakkur jarayon sifatida, aksincha, asosan ongsizlik miqyosida shakllanadi, garchi subyektning bilvosita nazorati (uning maqsadlari, ongli motivlari va b.) ostida bo‘lsa ham .

“Tafakkur agar uning yo‘nalishi qonuniyatlarini haqidagi masala birinchi o‘rinda turgan bo‘lsa, jarayon sifatida namoyon bo‘ladi. Bu jarayon alohida bo‘g‘inlar yoki aktlar (aqliy harakatlar)ga bo‘linadi. Tafakkur asosan sub‘yekt va u hal qiladigan vazifalar bilan bog‘liq holda

182 ko'rib chiqilganda faoliyat sifatida paydo bo'ladi. Faoliyat sifatidagi tafakkurda nafaqat uning prosessual oqimining muntazamligi, balki tafakkurning barcha inson faoliyati bilan umumiy bo'lgan shaxsiy-motivasion jihatni ham zohir bo'ladi".

S.L. Rubinshteyn o'zining "Tafakkur va uni tadqiq qilish usullari to'g'risida" kitobini har qanday hodisalar, shu jumladan psixik hodisalar nazariyasi har bir nazariyaning markazida ushbu hodisalarini tartibga soluvchi qonunlarni ochib berish vazifasini qo'yishini ta'kiddashdan boshlaydi. Har bir nazariya negizida shuning uchun ham tegishli hodisalar determinatsiyasining biror bir tarzda anglanishi yotadi.

Determinizmni shunchaki tashqi turtki sifatidagi mexanik tushunishga qarshi chiqqan holda, u qonun formulasi tashqi sabablar va ichki sharoitlarni ma'lum bir tarzda o'zaro bog'lashi kerak, deb hisoblaydi. Faqat ana shunday formula orqaligina har qanday hodisalarning qonuniyatini aniqlash mumkin.

Uning psixologik tadqiqotning boshlang'ich predmeti sifatida qaraladigan tafakkur jarayoni nazariyasidagi asosiy fikr determinizmning dialektik-materialistik tamoyilining tafakkurni tadqiq etilishiga tatbiq etilishi natijasida bo'lgan. Ob'yekt, Rubinshteynning fikriga ko'ra, bevosita emas, balki tahlil jarayoni orqali tafakkurni determinatsiyalaydi, ya'ni tafakkurning boshlang'ich tashqi sharoitlari uning natijalari bilan tafakkur jarayonining tabiiy ichki yo'nalishi vositachilida bog'liqdir.

**Xulosa.** Shunday qilib, boshqa psixik jarayonlar bilan umumiy xususiyatlarga ega bo'lgan tafakkur o'ziga xos xususiyatlarga ham ega.

"Tafakkur" tushunchasi bilan inson uchun fundamental va o'ta muhim psixologik qobiliyatlardan biri ifodalanadi. Ushbu qobiliyat insonning fikrlashda o'zini umumiy turga mansub mavjudot sifatida namoyon qilishi bilan bog'liq bo'lgan uchun fundamental hisoblanadi. Aql uning o'ziga xos farqlovchi xususiyatidir. Ushbu faktning har bir inson ongida aks etishi fikrlashning ijtimoiy va shaxsga taaluqli ahamiyatini belgilaydi.

Tafakkur jarayonida tasodifiylikdan zaruriylikga, birlidan umumiyligka o'tish amalgalashiriladi. Zarurat bilan muhim aloqalar muhim bo'laman holatlardagi turli xil o'zgarishlar bilan keng tarqalgan. Shuning uchun tafakkur voqelikning umumlashtirilgan in'ikosi sifatida ta'riflanadi. Har qanday tafakkur umumlashtirishlarda sodir etiladi. "Tafakkur – bu alohidalikdan umumiyligka va umumiylidan alohidalik tomoniga olib boruvchi fikr harakatidir".

Tafakkur jarayonida subyekt predmetli va ijtimoiy dunyoning muhim bog'liqliklari va munosabatlariga kirib borish maqsadida insoniyat tomonidan ishlab chiqilgan turli xil vositalar: amaliy harakatlar, obrazlar va tasavvurlar, modellar, sxemalar, ramzlar, belgilardan foydalanadi. Madaniy vositalarga, bilish vositalariga tayanish tafakkurning vositalilik kabi xususiyatining borligidan dalolat beradi.

Xullas, tafakkur voqelikni uning muhim aloqalari va munosabatlarida umumlashtirilgan va vositali aks ettirish jarayonidir. Tafakkur ob'yektiv dunyoning chuqr mohiyatini, uning mavjudlik qonunlarini bilish imkonini beradi; faqat tafakkurdagina paydo bo'layotgan, o'zgarayotgan olamni bilish mumkin; tafakkur kelajakni oldindan ko'rishga, amaliy faoliyatni potensial imkoniyatlari bilan ishlashga imkon beradi.

Tafakkurni psixologik tahlili uchun uning inson tafakkurining o'ziga xos fazilatlarini tavsiflovchi yana ikkita xususiyati – tafakkurning faoliyat va nutq bilan bog'liqligini ta'kidlab o'tish muhimdir. "Tafakkur faoliyat bilan chambarchas bog'liq. Inson voqelikni unga ta'sir qilish orqali o'rganadi, dunyonni o'zgartirish orqali tushunib boradi. Tafakkur nafaqat faoliyat yoki fikrlash faoliyati bilan birga keladi; faoliyat tafakkur mayjudligining birlamchi shaklidir. Tafakkurning birlamchi turi – bu faoliyatdagi tafakkur va harakat, harakatda sodir bo'ladigan va harakatda zohir bo'ladigan tafakkurdir".

Demak, tafakkurni jarayon-faoliyat paradigmасida tadqiq qilish umuman barcha hodisalar va xususan tafakkurni determinatsiyalashni dialektik-materialistik tushunishdan kelib chiqadigan nazariy ustanonkalarning umumiyligi bilan birlashadi, unga ko'ra tashqi sabablar ichki sharoitlar orqali harakatlanadi. Shu munosabat bilan, tafakkurni psixologik tadqiq etishning asosiy vazifasi

inson aqliy faoliyatining ichki sharoitlarini tashqisi bilan o‘zaro bog‘liqligida ochib berishdan **183** iboratdir.

### **Adabiyotlar**

1. Берулава Г.А. Диагностика и развитие мышления подростков. Бийск,1992.
2. Выготский Л.С.Мышление и речь. М.,1996.
3. Гарнец О.Н.Развитие гибкости мыслительных действий у школьников. Диссер.на соис...канд.психол .наук. Киев.1979.
4. Гальперин П.Я. Психология мышления и учение о поэтапном формировании умственных действий.//Исследование мышления в советской психологии . М.,1966.С.236-277.
5. Гуревич К.М.,Горбачева Е.И.Умственное развитие школьников: критерии и нормативы .М.,1992.
6. Давыдов В.В.Теория развивающего обучения. М.,1996.
7. Джемс У.Мышление //Хрестоматия по общей психологии .Психология мышления. /Под ред. Ю.Гиппенрейтер.В.В.Петухова.М.,1981.
8. Ismoilova Asilpashsha Rojabovna. (2023). Ta`lim jarayonida o`smirlar tafakkurining rivojlanish xususiyatlari. Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan, 1(2), 36–41. Retrieved from <https://universalpublishings.com/index.php/jsiru/article/view/1165>
9. Леонтьев А.Н.Деятельность. Сознание. Личность. Избр.психол.произв. Т.2.М.,1983.с.94-231.
10. Пиаже Ж.Природа интеллекта.//Избранные психологические произведения. М.,1994.
11. Рубинштейн С.Л.Основы общей психологии .Т.1.М.,1989.

Rahmatova Nasiba Sobirovna  
Navoiy innovatsiyalar universiteti  
ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasи,  
pedagogika va psixologiya  
ta'lim yo'nalishi o'qituvchisi

## SHAXSDA IRODAVIY BOSHQARUV NAMOYON BO'LISHINING YOSH VA JINS XUSUSIYATLARIGA BOG'LIQ O'ZGARISHI

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada shaxsda irodaviy boshqaruv namoyon bo'lising yosh va jins xususiyatlariga bog'liq o'zgarishi, iroda muammosining o'r ganilganligi, irodaviy sifatlarning yosh dinamikasiga doir tadqiqotlarda eksperimental metodlardan foydalanilganligining muhim psixologik jihatlari aniqlangan.

**Tayanch so'zlar:** iroda, yosh va jins, yosh dinamikasi, qat'iyatlilik, jasurlik, sabr toqatlilik.

### ИЗМЕНЕНИЕ ПРОЯВЛЕНИЯ ВОЛЕВОГО УПРАВЛЕНИЯ ЛИЧНОСТИ В ЗАВИСИМОСТИ ОТ ВОЗРАСТНЫХ И ПОЛОВЫХ ОСОБЕННОСТЕЙ

**Аннотация:** В данной статье определены важные психологические аспекты изменения проявления волеизъявления личности в зависимости от возрастных и половых особенностей, изучения проблемы воли, использования экспериментальных методов в исследованиях по динамике возраста волевых качеств.

**Ключевые слова:** воля, возраст и пол, динамика возраста, настойчивость, смелость, терпение.

### CHANGES IN INDIVIDUAL VOLUNTARY CONTROL DEPENDING ON AGE AND GENDER CHARACTERISTICS

**Abstract:** This article identifies important psychological aspects of changes in the expression of personal will depending on age and gender characteristics, studying the problem of will, the use of experimental methods in research on the dynamics of the age of volitional qualities.

**Key words:** will, age and gender, age dynamics, persistence, courage, patience.

**Kirish.** Iroda muammosining psixologiyada yetarlicha o'r ganilmaganligi bugungi kunda zamonaviy psixologlar tomonidan tan olingan. Psixologiyaga doir konsepsiyalarda uzoq vaqt davomida markaziy o'rinni egallab turgan ushbu tushunchani hozirgi paytda muhokama qilganimizda, o'zining to'laqonli ma'nosini bildirishiga ko'ra ayrim noaniqliklar yuzaga kelmoqda. Tadqiqotchilar orasida irodani aniqlash va u bilan bog'liq bo'lgan irodaviy harakatlar, shuningdek irodaviy kuchlanish, irodaviy boshqarilish, ayniqsa, irodaviy o'zini o'zi boshqarish masalalarining barchasi tortishuvlarga, bahslarga sabab bo'layotganligi bois, iroda termini bilan ma'no anglatuvchi voqeliklar haqidagi fikrlarda o'zaro bir xulosaga kelinmagan.

**Asosiy qism.** Xususan, E.V.Eydman o'pkada nafasni ushlab turish mashqidan foydalangan holda sabr-toqatlilik sifatining yosh bilan bog'liq xususiyatlarini ochib bera olmaydi [1]. Balkim, bu tadqiqot olib borilgan tekshiriluvchilarining kamsonliligi bilan bog'liqdir. Ayni damda bu bilan birga shu narsa aniq bo'ldiki, kichik sinf o'quvchilarida irodaviy zo'r berish tashqi stimulyatsiya bilan bog'liq bo'lsa, yuqori sinf o'quvchilarida esa bunda ichki qiziqish bilan kechar ekan. Masalan, o'zini yengish, xayoliy musobaqa.

N.D.Skryabin 9 yoshdan 26 yoshgacha bo'lgnalarda irodaviy sifatlardan jasurlikni o'r ganadi. Erkak jinsi vakillarida jasurlik 11-12 yoshdan 15-16 yoshgacha bosqichma-bosqich rivojlanib boradi. Shunga binoan jasurlikning past darajasini o'zida namoyon etuvchilar 35% dan

11% gacha pasayib boradi. Shundan so'ng jasurlik sifatining yuqori darajasini o'zida aks ettiruvchilar soni qisqarib, past darajasini aks ettiruvchilar soni 9-10 yoshli bolalar holatigacha o'sib boradi, ya'ni 38% gacha.

Qizlarda ham shunga o'xshash dinamika kuzatiladi, lekin ular o'rtasida jasurlikning yuqori darajasini aks ettiruvchilar kam bo'ladi. 13-14 yoshda bundaylar soni eng yuqori ko'rsatkichiga ega bo'ladi. Ayollar orasida jasurlikning past ko'rsatkichiga ega bo'lganlar soni erkaklarga qaraganda ko'p bo'ladi, 9-10 yoshdagidan tashqari past ko'rsatkich bu yoshdan 21-22 yoshgacha 27.5%dan 51%gacha ko'payib boradi.

Jasurlik asosan har ikkala jins vakillarida jinsiy yetilish paytiga kelib yuqori darajaga ko'tariladi.

Jasurlikning ko'rsatib o'tilgan yosh dinamikasini gormonal o'zgarishlar va bunday o'zgarishlar bilan bog'liq nerv sistemasining tipologik xususiyatlari bilan bog'liqdir. Jinsiyyetilish davrida nerv sistemasining kuchi yanada rivojlanadi, qo'zg'atuvchi tormozlovchidan ustun bo'ladi[2].

Qat'iyatlilikning davriy o'zgarishlarini I.P.Petyaykin (1976) o'rgangan. Har ikkala jinsdagi 7-8 yoshli bolalarda qaror qabul qilish uchun eng ko'p vaqt sarflangan. So'ng 9 yoshda bu vaqt ko'rsatkichi darhol pasayadi va katta o'zgarishlarsiz 13 yoshgacha bir xil past balandlikda bo'lib turadi. Bu paytdan so'ng (14-17 yoshda) qaror qabul qilish vaqt cho'ziladi, bu dadillik, qat'iyatlilikning pasayishidan guvoh beradi.

14 yoshdan boshlab qizlarda o'g'il bolalarga nisbatan qat'iyatlilik, jasurlik sifati past bo'ladi. Bu ularga bajarish uchun berilgan xavfli topshiriqlarni bajarishda yanada yaqqol ko'zga tashlanadi. Misol uchun jismoniy mashqlarni bajarishdan (orqaga yiqilish) bosh tortish bolalar va qizlarda turli yoshda ifodalanadi. Bolalarda hamma yoshda (8-9 yoshda kam miqdorda kuzatilgan) ham kuzatilmagan, qiz bolalar 10-11 yoshdan tashqari hamma yosh davrida bu mashqni bajarishdan bosh tortganlar.

Yuqorida keltirilgan irodaviy sifatlarning yosh dinamikasiga doir tadqiqotlarda eksperimental metodlardan foydalanilgan. Berilgan metodlar shuni isbotlaydiki, irodaviy sifatlarning yosh dinamikasi har xil vaqtda turlicha ifodalaniladi. Misol uchun, jasurlik o'g'il bolalarda asosan jinsiy yetilish davrida yorqin namoyon bo'ladi; sabr-toqatlilik jinsiy yetilish davri 15-16 yoshdan so'ng o'sib boradi; qat'iyatlilik 8-11 yoshda ko'proq namoyon bo'ladi. Jinsiyyetilish vaqtini undan so'ng sabr toqatlilik o'sib boradi, jasurlik va qat'iyatlilik pasayib boradi[3].

P.A.Rudik irodaviy tayyorgarlik mazmuniga shaxs irodasining ayrim tomoni sifatida: maqsadga intilish, intizomlilik, ishonch, tashabbuskorlik, mardlik, mustaqillik, qat'iyatlilik, matonat, dadillik, o'zini tuta bilish, chidamlilikni kiritadi.

V.A.Kruteskiy fikricha, xarakterning irodaviy qirralari (muallif shaxsnинг irodaviy sifatlarini shunday atagan) qo'yilgan maqsadlarga erishish yo'lidagi to'siqlarni yengib o'tgan holda o'z xulq-atvori, o'z faoliyatini aniq bir prinsiplar asosida ongli yo'naltirish ko'nikmasi va odatda shunga tayyorlikda namoyon bo'ladi[3].

Ta'rifa xarakterning irodaviy qirralari irodaga ham keng ma'noda (ixtiyoriylik), ham tor ma'noda (irodaviy boshqaruv, iroda kuchi) taalluqli bo'lishi mumkin. Bu ifodalashda irodaviy sifatlarning spesifikasi aks etmagan.

B.N.Smirnov quyidagi ta'rifi aytib o'tgan: "yengib o'tilayotgan to'siqlarning xarakteri bilan shartlangan holda irodaning aniq bir namoyon bo'lishi shaxs irodaviy sifatlari deb nomlanadi." [4]

Irodaviy sifatlar tarkibi haqida gapirganda, biz ularning yig'indisini, ya'ni ularning miqdori, farqi va ular o'rtasidagi aloqani nazarda tutamiz. Turli mualliflar 10tadan 34tagacha shaxsnинг irodaviy sifatlarini farqlashadi (N.F.Dobrinin, V.K.Kalin, S.A.Petuxov, A.S.Puni, P.A.Rudik, R.Assadjioli).

Iroda masalasi ko'rilgan konferensiyalardan birida hatto irodaviy sifatlarni 20ta deb hisoblash qarori qabul qilingan. Ammo bu holat turli psixologiya bo'yicha darslik va o'quv qo'llanmalarda irodaviy sifatlar ro'yxati va ta'riflanishini bir qolipga solmagan. Ularda irodaviy sifatlar to'plami ba'zi taxminlardek tuyuladi. Masalan, K.N.Kornilov irodaviy sifatlar qatoriga

**186** iroda kuchini, o‘zini tuta bilish va bardoshlilikni, chidamlilik yoki qat’iylik, mustaqillik va intizomlilikni kiritgan.

X.Xekxauzen faqatgina qattiq tura olishlilikni yozgan bo‘lib, uni maqsadga erishish jarayonida harakat tendensiyasi barqarorligini quvvatlab turish sifatida keltirib o‘tgan.

Sovet psixologiyasi kitoblarida irodaviy sifatlar to‘plami birmuncha kengroq keltirilgan bo‘lib, ularda maqsadga intiluvchanlik, qat’iyatlilik, bardoshlilik, mustaqillik, jasurlik, matonatlilik, o‘zini tuta bilish va tashabbuskorlik kabi sifatlar ko‘proq keltirib o‘tilgan.

Ba’zi bir xususiyatlar: tang ahvolda qolish, bajaruvchanlik, ishchanlik, tirishqoqlik va o‘ziga ishonganlik kabi sifatlarning irodaviy sifatlarga taalluqli bo‘lishi anchagina shubhali. Shu vaqtning o‘zida bir qator katta intensivlikka ega irodaviy xatti-harakatlar ko‘rinishlari (misol uchun, kuchlilik, tezlik va aniqlik talab etadigan ishlarni bajarishda) haligacha o‘z nomini olgani yo‘q va shu bois ular irodaviy sifatlarga taalluqli emas.

Ilk bolalik. Inson ontogenezida uning 1 yoshdan 3 yoshgacha o‘sish davri alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki, bu davrda inson zotiga xos eng muhim sifatlar, xarakter xislati, atrof-muhitga, o‘zgalarga munosabat, xulq-atvor, tafakkur va ong kabi psixik aks ettirishning turli ko‘rinishlari shakllanadi. Bularning barchasi qarama-qarshiliklar kurashi ostida tarkib topadi. Bolaning yurishga urinishi, turli narsalar bilan ovunishi va mashg‘ul bo‘lishi imkoniyatlari kengayishi, uning kattalarga bevosita tobelligi, ularga bog‘liqligi nisbatan kamayishiga olib keladi. Bir yoshli va undan sal oshgan bolaning har xil harakatli o‘yinlarda muvaffaqiyatsizlikka uchrashi ko‘zlagan ishni bajarishidagi noxush kechinmalar uning ruhiy dunyosida dastlabki jazava (affektiv) tuyg‘u va hisni vujudga keltiradi.

2 yoshdan 3 yoshga o‘tish vaqtida nutqning reguliyativ funksiyasi asosi shakllanadi. Bolalarda kattalarning ikkita so‘z signallariga bildiradigan reaksiyasi ulardagi irodaviy sifatlarning shakllanishida katta ahamiyat kasb etadi. Bular bolaning xohishi e’tiborga olinmay biron harakatni talab qiluvchi “kerak” so‘zi va bola xohishini taqiqlovchi “mumkin emas” so‘zi. Bu yoshda bola xatti-harakatlari real tashqi stimullar ta’sirida nazorat qilinadi.

S.L.Rubinshteyn yosh bolalarni o‘zini nazorat qila olmaydigan, impulsiv qiziquvchanlik va instinktlar asosida harakat qiladi deb hisoblash noto‘g‘ri deb biladi. Bolalar hayotining 3-yilidayoq o‘zini tutabilishlik xususiyatiga ega bo‘ladi. Bu ularning o‘zlarini uchun yoqimli bo‘lgan biror narsadan voz kechishlarida kuzatiladi, shuningdek yoqimsiz, ammo qilish kerak bo‘lgan biror narsani bajarishida namoyon bo‘ladi. Taxminan shu vaqtida (3-4 yoshda) bola hamma vaqt ham xohlagan ishini qilishi mumkin emasligini tushuna boshlaydi. Bu shundan dalolat beradiki, bolalar o‘z ehtiyojlarini cheklay biladilar. Bu vaqtida tanlovchanlik (misol uchun ikkita sevimli o‘yinchoqdan bittasini tanlash) hali qiyin bo‘ladi.

3 yoshga kelib, ba’zan undan ham erta, bolalarda mustaqillikka intilish paydo bo‘ladi. Ularda “Men o‘zim” tuyg‘usi shakllanadi. Kattalarning yordamiga qat’iy qarama-qarshilik ko‘rsata boshlaydi. Yosh bolaga buning o‘rniga boshqa narsani qil degan buyruqdan ko‘ra, biror narsani qilma degan buyruqqa bo‘ysunish ancha murakkab hisoblanadi. Shuning uchun kattalar uchun o‘z talablarini negativ ko‘rinishda emas, balki pozitiv ko‘rinishda ifodalashlari foydali bo‘ladi. Misol uchun “Sen endi katta qizsan, qani ko‘rsatchi sen buni qanday qila olarmikansan”.

3 yoshli bolalar agar bu ulardagi qoniqish tuyg‘usini oshirsa, o‘zlarida sabr va chidamni namoyon qiladilar. E.P.Ilin bolalarda haqiqiy sabot biroz kech namoyon bo‘ladi deb hisoblaydi. Bu 6-8 yoshdagagi bolalarning aniq maqsadga qaratilgan sport yoki musiqa bilan shug‘ullanishlarida ko‘rinadi.

Maktabgacha yosh davri. Bu yoshda o‘yin yoshi birmuncha faollashadi. Madomiki, o‘yin faoliyati maktabgacha yoshdagagi bolalarda asosiy faoliyat ekan, bola bilan birgalikda qandaydir o‘yin o‘ynash unda irodaviy sifatlarni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

4 yoshdan boshlab o‘z harakatlarini nazorat qilish rivojlanib boradi. 4-5 yilda bolalar kattalarga qulq sola boshlaydilar, qandaydir majburiyatni bajarmaslik oqibatida kattalar oldida aybdorlik hissini sezal boshlaydilar. Bu yoshda bola irodaviy rivojlanishda oldinga katta qadam tashlaydi, ya’ni u biron bir topshiriqni bajarishni o‘z zimmasiga ola boshlaydi. 6 yoshli bola maqsad tanlashda tashabbuskorlik, mustaqillik, qat’iylikni namoyon qiladi.

Katta maktabgacha yosh davridagi bolalarda biron bir faoliyatni amalga oshirishda “kerak”, “mumkin”, “mumkin emas” so‘zлari asosiy o‘rinni egallaydi. Bu bolada iroda kuchining birinchi marotaba mustaqil namoyon bo‘lishidir.

Biroq bu yoshdagi bolalar uchun iroda kuchining salbiy namoyon bo‘lishi ham xarakterlidir. Bu ulardagi qaysarlik, o‘jarlik, o‘zboshimchalikda namoyon bo‘ladi. A.P.Larinning fikriga ko‘ra, bolalardagi o‘jarlik ularning mustaqilligini, erkinligini keskin cheklash, shuningdek, nazoratsizlik natijasida kelib chiqadi.

Kichik mакtab yoshi. Bolaning mакtabga chiqishi uning irodaviy sifatlari rivojlanishidagi yangi bosqich boshlanganini ko‘rsatadi. Unga qo‘yilgan talablar ta’sirida sabr-toqat sifati kuchli rivojlanadi. Bu esabola xulq-atvoridagi intizomlilik shakllanishiga asos bo‘ladi.

E.I.Ignatyev, V.I.Selivanov va boshqalarning tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, 1-3-sinf o‘quvchilar aqliy faoliyatlarida irodaviy zo‘r berish yorqin namoyon bo‘ladi. Ular endi ixtiyoriy aqliy harakatlarni tartibga sola boshlaydilar: ixtiyoriy esda olib qolish, o‘quv materialini esga tushirish, ixtiyoriy diqqat, yo‘naltirilgan va barqaror kuzatuvchanlik, masalalarni yechishdagi qat’iylik va boshqalar[5].

Agar 1-2-sinf o‘quvchilar irodaviy harakatlarni kattalarning, shuningdek, o‘qituvchining ko‘rsatmasiga binoan amalga oshirgan bo‘lsa, endi 3-sinfga kelib irodaviy aktlarni o‘zlaridagi motivlar ta’sirida amalga oshiradilar. Kerak bo‘lgan paytda bolalar biron bir harakatdan o‘zini tiya oladilar, misol uchun qarash taqiqlangan narsalar bo‘lganda yuzlarini boshqa yoqqa buradilar yoki boshqa ish bilan mashg‘ul bo‘ladilar. O‘quvchilar darsga qiziqishi bo‘lgan holatda o‘zlarida matonatni namoyon qiladilar. Misol uchun, S.I.Xoxlovning ta‘biricha, qachonki o‘quvchilarning irodasi past rivojlangan bo‘lsa ham predmetga nisbatan qiziqish bo‘lsa o‘zlarida yuqori va mustahkam faollikni namoyon qiladi, sevimli bo‘limgan predmetlarni o‘zlashtirishda faqatgina irodaviy sifatlari yuqori rivojlangan o‘quvchilar faoliyik ko‘rsata oladilar. Bu yoshda bolalarda irodaviy mexanizmlar tashqi ta’sirlarga berilib ketmaslik darajasida hali rivojlanmagan bo‘ladi. Kichik sinf o‘quvchilar tez-tez irodaviy folliklarini kattalarning e’tiborini, hurmatini qozonish uchun namoyon etadilar.

Mustaqillikka intilishning va o‘zini anglashning kuchayib borishi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini umumiyl qonun-qoidalarga bo‘ysunmaslikka turki bo‘ladi. Bunday xulq-atvor orqali ular o‘zlarining ulg‘ayganligi va mustaqilligini ifodalaydilar. Ba’zan o‘zlarining qarorlari, fikrlari va harakatlarini himoya qila turib qaysarlik qiladilar. Hattoki, nohaq ekanliklarini bilsalar ham bolalar o‘z qarashlarini astoyidil himoya qiladilar. Kichik mакtab yoshidagilarning qaysarligi qat’iylik sifatida baholanadi. O‘quv faoliyatida qaysarlik qilish uchun bahona bo‘lib o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi “nohaq qo‘yilgan baho” xususidagi konflikt xizmat qiladi. Bunday holat asosan o‘qituvchi bolaga muttasil ravishda tanbeh bergen holatda, uni maqtamagan holatda ko‘p uchraydi. Bunday holatda qaysarlik qat’iy norozilik sifatida vujudga keladi va darsga javob bermaslik yoki o‘qituvchining talablariga bo‘ysunmaslik sifatida namoyon bo‘ladi. Kichik mакtab yoshidagi bolalarda jasurlikning namoyon bo‘lishi uning tengqurlari davrasida ekanligiga bog‘liq.

Kichik mакtab yoshidagi bolalarda vazminlikni tadqiq etgan olima V.F.Ivanova aytadiki, agar birinchi sinf o‘quvchilarini yuqori ko‘rsatkichdagи vazminlikka ega bo‘lsalar, o‘z imkoniyatlarini sust anglaydilar va namoyon qiladilar. Ta’sirchan bolalarga qaraganda qizlar vazminroq bo‘ladilar (E.I.Ignatyev, V.I.Selivanov)[6]. Mualliflar buni asosan oiladagi sharoit bilan tushuntiradilar. Oilada asosan uy ishlari yuzasidan ko‘p vazifalar qizlarga yuklatiladi va bu ularda bosiqlikni shakllanishiga sababchi bo‘ladi.

S.A.Petuxovning fikricha, uchinchi sinf o‘quvchilar o‘yin va o‘qish jarayonida o‘z faoliyatiga qaraganda ko‘proq tashabbuskor bo‘lishar ekan. Matonatlilik kichik sinfdagilarda hali yaxshi rivojlanmagan bo‘ladi.

Bolalar matonat, qat’iylikni harakatli o‘yinlarda yaxshi namoyon qilishlari mumkin, lekin bu uy vazifalarini bajarishda yetarli emas (V.I.Selivanov).

O‘smirlilik davri. O‘smirlarda mustaqillikka intilish kichik mакtab yoshidagilarga nisbatan farqlanadi. Tartib intizomlilik darajasi pasayib ketadi, o‘jarlik, qaysarlikning namoyon bo‘lishi

**188** kuchayadi. Bu qisman o‘z “men”ini qaror toptirish, shaxsiy fikrini himoya qilish, kattalarning maslahatini o‘zining nuqtayi nazariga nisbatan tanqidiy hisoblash sababli kelib chiqadi. Sabertoqatlilik, qat’iylik faqatgina qiziqarli ishlarda namoyon bo‘ladi. O’smirlardagi jinsiy yetilish ularning irodaviy jihatlarining o‘zgarishiga olib keladi. Nerv sistemasidagi qo‘zg‘aluvchanlikning ortib ketishi taqiqlarni qabul qilishni qiyinlashtiradi, o‘zini nazarat qilish pasayib ketadi.

**Xulosa.** Iroda psixologiyasida haligacha irodaviy faollikni bildiruvchi tushunchalarini ajratishda yoki identifikatsiya qilishda katta qiyinchiliklar mavjud. Ushbu qiyinchiliklar qat’iylik va dadillik, intizomlilik-u tashabbuskorlik, axloqiylik yoki irodaviylik kabilarni o‘rganishni talab etmoqda va u shaxs psixologiyasida nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham qiziqish uyg‘otmoqda. Chunki, shaxs faoliyatida irodaviy aks ettirishlar diagnostikasining metodlari hamda aynan bir irodaviy sifat taraqqiyotining pedagogik metodlari ushu muammolar yechimiga bog‘liqdir.

### **Adabiyotlar**

1. Ейдман Йе.В. Волевая регуляция деятельности в условиях пределных физических напряжений: Автореф. Дис. ... канд. Наук. М., 1986.
2. Скрябин Н.Д. Возрастные особенности проявления смелости // Спортивная и возрастная психофизиология. Л., 1974.
3. Петяйкин И.П. Возрастные особенности проявления решительности при выполнении физических упражнений // Психомоторика., Л., 1976.
4. Крутецкий В.А. Воспитание воли. М., 1957., Ст.– 68.
5. Смирнов Б.Н. Воля // Психология: Учебник для техникумов физической культуры. М., 1984. Ст.–95.
6. Игнатев Йе.И. Експериментальное изучение простейших компонентов воли у школьников // Вопросы психологии личности. М., 1960.
7. Хохлов С.И. Психологические вопросы взаимосвязи интереса а воли в деятельности учащихся подростков: Автореф. Дис. ... канд. Наук. Рязан, 1970.

Jumabayev Timur Jalgasbayevich

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali  
Jismoniy tarbiya nazariyasi va gumanitar fanlar kafedasi o‘qituvchisi

## **SPORTCHILARNI MUSOBQAGA PSIXOLOGIK TAYYORLASH JARAYONIDA UMUMIY VA MAXSUS PSIXOLOGIK TAYYORGARLIK ASOSLARI**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada psixologik tayyorlash tizimida irodaviy sifatlarni rivojlantrish muammosi hamda sportchilarni musobqaga psixologik tayyorlash jarayonida umumiy va maxsus psixologik tayyorgarlik asoslari o‘rganilgan. Bundan tashqari Shaxs faolligi va irodaviy sifatlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik jihatlari va futbolchilarning maxsus psixologik tayyorgarligini tadqiq etishning ilmiy-amaliy jihatlari haqida so‘z boradi.

**Kalit so‘zlar:** maxsus psixologik tayyorgarlik, ijtimoiy-psixologik xususiyatlar, motivatsiya, hissiyot, kayfiyat, faollik.

## **ОСНОВЫ ОБЩЕЙ И СПЕЦИАЛЬНОЙ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ В ПРОЦЕССЕ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ СПОРТСМЕНОВ К СОРЕВНОВАНИЯМ**

**Аннотация.** В данной статье рассмотрена проблема развития волевых качеств в системе психологической подготовки, а также Основы общей и специальной психологической подготовки спортсменов в процессе психологической подготовки к соревнованиям. Далее рассматриваются аспекты взаимодействия активности личности и волевых качеств, а также научно-практические аспекты исследования специальной психологической подготовки игроков.

**Ключевые слова:** специальная психологическая подготовка, социально-психологические особенности, мотивация, эмоции, настроение, активность.

## **THE BASICS OF GENERAL AND SPECIAL PSYCHOLOGICAL TRAINING IN THE PROCESS OF PSYCHOLOGICAL TRAINING OF ATHLETES FOR COMPETITION**

**Annotation.** This article explores the problem of developing volitional qualities in the system of psychological training and the basics of general and special psychological training in the process of psychological training of athletes for competition. In addition, there is talk about the aspects of interaction between personality activity and volitional qualities and the scientific and practical aspects of the research of the special psychological training of players.

**Key words:** special psychological training, socio-psychological characteristics, motivation, emotion, mood, activity.

**Kirish.** Jahon miqyosida futbol sport turi bo‘yicha raqobatning kuchayib borayotganligi, shuningdek, futbolchi shaxsi faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish, jismoniy va ruhiy tayyorgarlik darajasini, ya’ni shaxsdan alohida xotirjamlikni, safarbarlikni, fidoyilikni va yuqori professionallikni talab qiladigan kasbiy faoliyat turlarini oldindan maxsus tashkil etilgan tizimli psixologik yondashuvni, bir tomonidan, futbolchilarning ijtimoiy-psixologik tayyorgarligini oshirish zarurati, ikkinchi tomonidan, boshqariladigan o‘quv-mashg‘ulot jarayonida uni shakllantirishning nazariy va uslubiy asoslarining yetarli darajada rivojlanmaganligi o‘rtasidagi qarama-qarshilikni bartaraf etish, zamonaviy futbol nazariyasi va metodologiyasining dolzarb muammolariga alohida e’tibor qaratilmoqda.

**Adabiyotlar tahlili.** Sportchilarni musobaqaga tayyorlash, start oldi holatni muvofiqlashtirish, irodaviy sifatlar, musobaqa motivatsiyasining shakllanishi, sportchilarga xos

**190** psixologik komplekslar, sportchilar shaxsiy sifatlari shakllanishi kabi masalalar mamlakatimiz olimlaridan R.A.Abdurasulov, D.N.Arziqulov, Z.G.Gapparov, T.Usmonxo'jayev, F.Kerimov, R.Salomov, A.Pulatov, A.I.Rasulov, B.Jo'rayev, M.M.Mamatov, Y.N.Masharipov, E.N.Sirliyev, R.Xalmuxamedov, A.U.Xaitov va boshqa olimlar tomonidan o'rganilgan. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi olimlaridan B.Ananyev, A.Bodalev, L.Vigotskiy, G.D.Gorbunov, E.P.Ilin, A.Leontev, V.Melnikov, V.Navroskaya, V.Norakidze, Y.Palayma, R.Piloyan, A.Puni, A.Rodionov, V.Safin, V.I.Selivanov, N.Xudadov va boshqalar tomonidan sportchilarni muayyan musobaqaga psixologik tayyorlash asoslari, umumiy va maxsus psixologik tayyorlash tizimi, emotsiyal, irodaviy hamda motivatsion jihatdan tarbiyalash tizimini amalga oshirish jarayoni ilmiy-nazariy asoslari tadqiq etilgan.

Bugungi kunda sportchilarning jismoniy-ruhiy imkoniyatlarini rivojlantirishga alohida e'tibor berilmoqda. Sportchining psixologik muhofazasi va uning xususiyatini o'rganish, murabbiylarning bu boradagi psixologik bilimlarini oshirish, sportchini ruhan qo'llab-quvvatlash, mashg'ulotlar jarayonida uchraydigan qiyinchiliklarni yengib o'tishga yordam beradigan shaxslararo munosabatlarni rivojlantirish, stressni yengishga yordam beradigan usullar ishlab chiqilmoqda va amalga qo'llanilib kelinmoqda.

Psixologik tayyorgarlikning umumiy maqsadi sportchining sportda yuqori darajadagi yutuqlarga erishishi uchun zarur bo'lган psixik sifatlarni rivojlantirish, unda psixik barqarorlik va mas'uliyatli musobaqalarda ishtirok etishga tayyorlik holatini qaror toptirishdan iboratdir. Biroq sportchini psixologik tayyorlashning maqsadli yo'naliши faqatgina shundan iborat emas. Uning oldiga jahon sport rekordlarini o'rnatish uchun shart-sharoitlar yaratish, sport iste'dodlarini yetishtirish yo'llarini izlash va shu kabi yana bir qator maqsadlar ham qo'yilgan.

Z.G.Gapparovning aytishicha, sportchini umumiy psixologik tayyorlash va sportchini muayyan musobaqaga psixologik tayyorlash kabi turlari farqlanadi. Psixologik tayyorgarlikning har ikkala bo'limi ham o'ziga xos vazifalarga ega, biroq ularning hal etilishi bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir.

Umumiy psixologik tayyorgarlikning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Sportchi shaxsining ijobjiy xususiyatlarini shakllantirish va o'stirish.
2. Sporchining bilishga oid psixik jarayonlarini yuqori darajada rivojlantirish.
3. Sportga oid his-tuyg'ularni kengaytirish va chuqurlashtirish ularni boshqarish bo'yicha ko'nikmalarni shakllantirish.
4. Sportchining irodasini mustahkamlash, uni irodaviy zo'riqishini safarbar etishga o'rgatish.
5. Barcha psixik funksiyalarni ongli ravishda boshqarish usullari bilan quollantirish.
6. O'z harakatlari va faoliyati, shuningdek organizmning funksiyalarini ongli ravishda boshqarish darajasini oshirish.
7. Sportchilar jamoasida ijobjiy «psixologik iqlim»ni yaratish.

Sportdagи psixologik tayyorgarlikning yuqorida tilga olingan vazifalari sportchilarni tayyorlashdagi bu murakkab jarayonlarga xos imkoniyatlarning barchasini qamrab olmaydi, balki umumiy psixologik tayyorgarlikning asosiy tendensiyasini ifodalaydi.

Professor E.G'oziyevning ta'kidlashicha, emotsiyal holatlar yoki tor ma'noda emotsiyalar hissiy kechinmalarining o'ziga xos xususiyatli shakllaridan bittasidir. Emotsiya u yoki bu hissiyatning inson tomonidan bevosita kechirilishi (kechishi) jarayonidan iboratdir. Qo'rquin, daxshat kuchli hissiy kechinma sifatida obyektlarga shaxsning munosabatini aks ettirib, turlichal shaklda namoyon bo'lishi mumkin: odam daxshatdan qotadi, qo'rquvdan angrayib qoladi, o'zini idora qila olmay har tomonga uradi, hatto xavf-xatarga o'zini tashlashi ham mumkin.

*Maxsus psixologik tayyorgarlik* sportchini samarali musobaqa faoliyatiga tayyorgarligini shakllantirishga yo'nalan. Bunda quyidagi vazifalarni yechishga qaratiladi:

- sportchi uchun muhim bo'lган sotsial qadriyatlarga yo'nalganlik;
- sportchida psixik «ichki tayanch»ni shakllantirish;
- psixik baryerlarni, ayniqsa ma'lum raqib bilan kurashda paydo bo'luvchi, yengish;
- oldindagi jang sharoitini psixologik modellashtirish;

- bevosita jangdan oldin harakatning psixologik programmasini yaratish.

Sportchilarni psixologik tayyorgarlik vositalari mavjud bo'lib, unga psixologik mashqlar, psixologik ta'sir o'tkazish, o'z-o'zini anglash, o'z-o'zini tarbiyalash va o'z-o'zini takomillashtirish kiradi.

Startoldi emotsiyonal qo'zg'alishning yuzaga kelishini quyidagi omillar asosida tavsiflash mumkin:

*Sportchining intilishi darajasi:* oldindagi musobaqaning rasmiy martabasi emas sportchining intilishi darajasi unda paydo bo'lgan reaksiyaning sifat va me'yorini belgilaydi. Agar intilish darajasi yuqori bo'lsa, masalan sportchi shahar, respublika terma jamoasiga tushishni xohlasa, startoldi hayajonlanish kuchliroq ifodalanadi. Asosiysi intilish darajasi mavjud imkoniyatdan yuqori emas mos bo'lishi lozim, undan past bo'lmasligi ham mumhimdir, chunki bu sportchida emotsiyonal beqarorlikka olib keladi. Emotsional barqaror sportchilar o'z imkoniyatlarini o'rta darajadan yuqori baholaydilar.

*Musobaqa sharoiti:* musobaqaning bayramona va tantanavorligi, ko'p sonli tomoshabinlarning mavjudligi sportchining startoldi hayajonini kuchaytiradi, tetiklishtiradi, ruhlantiradi.

*Kuchli raqiblarning mavjudligi:* kuchli raqib sportda kurashni kuchaytiradi, sportchining muvaffaqiyatga ishonchini kamaytiradi, bu esa qo'shimcha hayajonni keltiradi. Agar sportchi va musobaqaning boshqa ishtirokchilari orasidagi sport ustaligi darajasi farqi katta bo'lsa, unda startoldi emotsiyonal qo'zg'alish kamroq bo'ladi.

*Shaxsiy yoki jamoaviy musobaqa:* ko'pgina sportchilarda, agar ular jamoa uchun kurashga chiqayotgan bo'lsa startoldi hayajonlanish kuchliroq ifodalanadi.

*Sportchi tajribasi* ham startoldi hayajonlanish xususiyatini yuzaga keltiradi. Tadqiqotlardan ko'rinaldiki, ko'pchilik sportchilarda startoldi hayajonlanish holati sport faoliyati davomida pasayadi, faqat ba'zilarida ko'payadi.

**Xulosa.** Sportchi shaxsida irodaviy sifatlar o'ziga xos ichki regulyatsion jarayon sanalib, hozirga qadar bu borada ko'plab psixologik yondashuvlar, ilmiy konsepsiylar hamda psixologik maktab yo'naliishlari mavjud. Biroq, hanuzgacha tadqiqotchilar o'rtasida irodaviy sifatlarning mohiyatini batafsil, aniq tushuntiruvchi yagona qarashlar birligi mavjud emas. Shu bois, biz o'z ishimizning maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda, inson irodaviy sifatlarining fenomenologik tabiatini va uning shakllanish asoslarini tushuntirishga harakat qildik.

## **Adabiyotlar**

1. Философия: энциклопедический словарь / под ред. А. А. Ивина. – Москва : Гардарики, 2004. – 1072 с.
2. Чумаков М.В. Развитие эмоционально-волевой сферы личности: Учебное пособие. Курган: Изд-во Курганского гос. ун-та, 2012. – 126 с.
3. Rasulov A.I.Sportda o'zi-o'zi nazorat qilishning psixodiagnostik usullari xususida // Res.ilmiy maqolalar to'plami. T.O'zMU, 2014.– S.89
4. Моросанова В.И. Опросник «Стиль саморегуляции поведения»/ В. И. Моросанова// Журнал практической психологии и самоанализа.- 2004. - №2. - С.32 - 40.
5. Mamatov M.M. Sport psixologiyasi kursidan ma'ruza mavzulari va uning matni. Universitet. 2002. – 140 b.
6. Кузнецов А. Футбол. Настольная книга детского тренера. — М.: Профиздат, 2011. –156 с.
7. Ильин Е.П. Психология волевой усилия.- СПб.: ПИТЕР, ДОМ НАУКА, 2009. – 368 с.
8. Ильичёва И.М. Психология воли. Информационно-методические материалы к теме. - Коломна: КПИ. 2006. – 120 с.

## TALABALARDA INTERNETGA TOBELIKNING DIAGNOSTIK TAHLILI

**Annotatsiya.** Kibermakonning o'ziga xosligi shundaki, yosh odam unda o'zini juda qulay sharoitda his qiladi. Internet hayoti insonni butunlay o'ziga singdirishga, uni atrofidagi real dunyo voqealari va munosabatlaridan uzoqlashtirishga qodir ekanligi aniq. Global tarmoq xizmatlaridan foydalangan holda, subyekt o'z xohish-istikclarini amalga oshirish, eng ezgu orzusini amalga oshirish uchun eksklyuziv imkoniyatga ega bo'ladi. Biroq, shaxsning internetga tobeklarning oqibatlari yoshlarning butun hayoti uchun juda jiddiy ahamiyat kasb etadi. Biz ushbu maqolamizda tadqiqotimiz yuzasidan olib borilgan internetga tobe talabalarning psixologik xususiyatlarini ochib berishga harakat qildik.

**Kalit so'zlar:** Internet, internetga tobeklik, kiber makon, kommunikativ qobiliyat, tashkilotchilik qobiliyati, o'zini o'zi boshqarish qobiliyati, korrelatsion aloqaga, ijtimoiy frustratsiya.

## ДИАГНОСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ИНТЕРНЕТ-ЗАВИСИМОСТИ У СТУДЕНТОВ

**Аннотация.** Особенность киберпространства в том, что молодой человек чувствует себя в нем очень комфортно. Понятно, что жизнь в интернете способна полностью поглотить человека, отдалить его от событий и отношений окружающего его реального мира. Воспользовавшись услугами глобальной сети, субъект получит эксклюзивную возможность реализовать свои желания и реализовать свою лучшую мечту. Однако последствия зависимости человека от интернета очень серьезны для всей жизни молодых людей. В данной статье мы попытались раскрыть психологические особенности студентов, зависимых от интернета, что было проведено в связи с нашим исследованием.

**Ключевые слова:** Интернет, интернет-зависимость, киберпространство, коммуникативные способности, организаторские способности, способность к самоконтролю, корреляционная коммуникация, социальная фрустрация.

## DIAGNOSTIC ANALYSIS OF INTERNET ADDICTION IN STUDENTS

**Annotation.** The peculiarity of cyberspace is that a young person feels very comfortable in it. It is clear that the life of the internet is able to completely absorb a person, to distance him from the events and relationships of the real world around him. Using the services of the global network, the subject will have an exclusive opportunity to fulfill his wishes and realize his best dream. However, the consequences of a person's addiction to the internet are very serious for the entire life of young people. In this article, we tried to reveal the psychological characteristics of students addicted to the internet, which was conducted in connection with our research.

**Key words:** Internet, Internet addiction, cyberspace, communicative ability, organizational ability, self-management ability, correlational communication, social frustration.

**Kirish.** Bugungi kunda internetning qamrov sohasi va imkoniyatlari shunchalik kengki, ko'pincha yoshlari global tarmoqda o'tkazadigan vaqtlarini nazorat qilmaydilar va undan ta'lim maqsadida foydalananish o'rniiga ko'ngilochar o'yinlar va ijtimoiy tarmoqlar uchun foydalananadilar. Bunday harakatlar oxir-oqibat internetga tobeklikka olib kelishi mumkin.

O'tkazilgan tadqiqotimiz natijasida talabalarning internetga tobeklikka moyilligi tarkibiy tuzilmasi aniqlandi, bu ularning axborot faoliyatining motivatsion sohasi, ijtimoiy-psixologik

moslashuvi, xatti-harakatlarini o‘z-o‘zini tartibga solish, kommunikativ va tashkiliy qobiliyat darajasi, kommunikativ nazorat kabi o‘ziga xos xususiyatlarda namoyon bo‘lishiga asoslangandir.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Shu o‘rinda qayd etish joizki, T.D. Shevelenkova hamda P.P. Fesenkolarning fikriga ko‘ra, internetga tobe odamlardagi shubhali shaxslararo muosabatlarning yuqori ko‘rsatkichi xulosa chiqarish qobiliyati, hissiylik, matn mazmunini anglash va tasodify harflar to‘plamini yodlash qobiliyati, o‘zini o‘zi boshqarish qobiliyati, sevgi va mehnatsevarlik qadriyatlarning ko‘rsatkichlari bilan salbiy korrelatsion aloqaga egadir. Internetga tobe bo‘lgan odamlardagi pedantriya ko‘rsatkichi tasodify harflar to‘plamini yodlash qobiliyati bilan salbiy korrelatsion aloqaga va intensivlik ko‘rsatkichi bilan ijobiy korrelatsion aloqaga ega.[4] Internetga tobe odamlarda depressiya ko‘rsatkichi tasodify harflar to‘plamini yodlash qibiliyati bilan salbiy korrelatsion aloqaga va kasbni egallash motivi ko‘rsatkichlari bilan ijobiy korrelatsion aloqaga ega.[2] Internetga tobe odamlardagi ekzaltatsiya ko‘rsatkichi xulosa chiqarish va tasodify harflar to‘plamini yodlash qibiliyati, o‘zini o‘zi boshqarish va hayotiy donoligi qadriyati ko‘rsatkichlari bilan salbiy korrelatsion aloqaga ega. Internetga tobe odamlardagi ekzaltatsiya ko‘rsatkichi kasbni egallash motivi ko‘rsatkichlari bilan ijobiy korrelatsiyaga egadir. Shaxsiyat ierarxik strukturasining oliv quyisi tuzilmalari (tajriba va yo‘nalganlik) munosabatlari internetga tobe odamlardagi fikrlash, xotira, his-tuyg‘ular, idrok va istaklar, dunyoqarash, qiziqishlar, e’tiqodlar, ideallar o‘rtasidagi munosabatlar mavjudligini ko‘rsatadi. Internetga tobe odamlarning o‘zini o‘zi nazorat qilish darajasi pastligi ko‘rsatkichi matn mazmunini anglash qobiliyati bilan salbiy korrelatsion aloqaga va xulosa chiqarish qibiliyati bilan ijobiy korrelyatsion aloqaga ega [1].

A.I. Lavrovichning fikricha, internetga tobeklikka moyil bo‘lgan odamlarda fikrlash, xotira va idrokning individual funksiyalarini amalga oshirishda sezilarli nuqsonlar namoyon bo‘ladi. Internetga tobe bo‘lgan odamlarga xos bo‘lgan barcha aqliy funksiyalarning oliv darajadagi integratsiyalashuvidan ko‘rinib turibdiki, axborotga bo‘lgan ehtiyojni qondirish uchun salbiy rivojlanayotgan tizimli sxemada axborotni qayta ishslash va qaror qabul qilishning barcha bosqichlari va darajalarida maxsus tarzda turli kognitiv jarayonlar kuzatiladi. Bundan tashqari, muallif hissiy holatlardagi quyidagi o‘zgarishlarni internetga tobe odamlarda uchrashini ta’kidlaydi:


- havotir;
- depressiya;
- yolg‘izlik;
- ijtimoiy frustratsiya [3]

Olimlar tomonidan Internetga tobeler odamlar bilan o‘tkazilgan suhbatlar natijasi shuni ko‘rsatdiki, bunday odamlar uchun eng yuqori xavf zonasini ijtimoiy xavotirning haddan tashqari oshib ketishi bo‘lib, bu odatda real hayotda to‘liq ijtimoiy aloqalarni o‘rnatishga to‘sqinlik qiladi.[5] Shu bilan birga, bir tomonidan, ijtimoiy xavotir virtual makonda ishtirok etishga hissa qo‘sadi, chunki eskapizm nutq va umuman kommunikativ xatti-harakatlar ustidan keragidan ortiq nazorat qo‘yilishini yengib o‘tishga imkon beradi, boshqa tomonidan, muloqot qilish holatlaridan ochish virtual dunyoga ko‘proq qo‘silihsga olib keladi.[6]

**Tahlil va natijalar.** Internetga tobeklik rivojlanishini o‘rganish uchun olib borilgan empirik tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, respondentlarning ko‘philibida (52,6% / 123 kishi) internetga tobeklik xavfi bosqichi kuzatildi (1-rasm).

Bunda, eng kam sonli talabalardagina 3,8 foizida internetga tobeklik xavfining yo‘qligi aniqlangan. Internetga tobeklik ishtiyoqining ko‘payish bosqichi respondentlarning 16,2 foizida, internetga tobeklikning shakllanish bosqichi esa respondentlarning 27,4 foizida, internetga tobeklik mavjudligi 52,6 foizida aniqlandi.

Bu toifadagi talabalar uchun global tarmoqdagi muayyan informatsiyani qabul qilish, asosan, virtual muloqot doirasida sodir bo‘ladi. Boshqacha aytganda, bu toifadagi talabalarning internetda ko‘p vaqt o‘tkazishining asosiy sababi juda uzoq vaqt davom etuvchi onlayn muloqot jarayonidir. Shu bilan birga, ular idrok etilayotgan axborotning o‘ziga xos xususiyatlariga emas, balki uning manbasiga yoki kommunikatorlarga asosiy e’tiborlarini qaratadilar.



**1-rasm. Talaba yoshlarda internetga tobelik rivojlanishini o‘rganish uchun olib borilgan empirik tadqiqot natijalari (n=234)**

**Xulosa va takliflar.** Shunday qilib, yuqorida natijalarga asoslanib, yoshlar o‘rtasida internetga tobelikning asosiy sabablari sifatida quyidagilarni aniqlandi:

foydanuvchiga katta kuch sarflamasdan, juda keng doiradagi haqiqiy ehtiyojlarni qondirish imkoniyatini beruvchi virtual makon sharoitlarini doimiy ravishda yaxshilash;

foydanuvchi shaxsiyatining individual psixologik xususiyatlari: ular juda keng kompleksni, shu jumladan shaxs motivatsion sohasining maxsus strukturasini o‘z ichiga oladi, odatda, optimal muloqotni o‘rnatish va qo‘llab-quvvatlashdagi qiyinchiliklar, nizolar, o‘zini o‘zi tasdiqlashdagi qiyinchiliklar, o‘zini o‘zi - oshkor qilish va boshqalar shular jumlasidandir.

### **Adabiyotlar**

1. Mukhamedova, D., Rakhimova, I., Majidov, N., Abdullayev, B., & Nigmatullina, L. (2020). Psychological aspects of addiction to social media, computer and computer games. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 24(2), 319-324.
2. Rakhimova, I. I., Mukhiddinova, U. A., Berdiqulova, G. N., Suleymanova, D. I., & Sayitova, U. H. (2021). Positive And Negative Aspects Of The Psychological Impact Of The Virtual World. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 3(05), 25-29.
3. Рахимова, И. И., & Сайитова, У. Х. (2020). Психологическое положительное влияние компьютерных игр на детей студенческого возраста. In European Scientific Conference (pp. 248-250).
4. Рахимова, И. И. (2014). Факторы формирования психологической зависимости от компьютерной игры в подростковом возрасте. Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук, (1-2), 221-226.
5. Рахимова, И. И., & Османова, Д. (2019). Влияние интернета на нашу жизнь. Студенческий вестник, (3-1), 43-45.
6. Сафаев, Н. С., & Рахимова, И. И. (2018). Зависимость от компьютерных игр в юношеском возрасте. In Человек в условиях социальных изменений (pp. 115-117).

Уразимбетова Марджина Султамуратовна  
Соискатель Нукусский филиал  
Узбекского государственного университета  
физического воспитания и спорта

## **МЕТОДИКА ОБУЧЕНИЯ ДЕТЕЙ ПЛАВАНИЮ БРАССОМ**

**Аннотация.** В статье рассказывается о методике обучения детей плаванию брассом. Также сегодня перед школами и всеми организациями, работающими с детьми, ставится задача именно регулярных занятий спортом, кроме подготовки к плаванию идет научное размышление о свойствах физической культуры, способствующих улучшению плавучести, здоровью, укреплению организма.

**Ключевые слова:** Брасс, зона для плавания, интеллектуальные способности, способности, состав тела, плавание, здоровый образ жизни.

## **BOLALARNI BRASS USULIDA SUZISHGA O'RGATISH METODIKASI**

**Annotatsiya.** Maqolada bolalarni brass usulida suzishga o'rgatish metodikasi haqida so'z borgan. Shuningdek bugungi kunda maktablar va bolalar bilan ishlaydigan barcha tashkilotlar oldida aynan sport bilan muntazam shug'ullanish vazifa qo'yilgan, Bundan tashqari suzishga tayyorlarlik jismoniy tarbiya suzish qobiliyatni, salomatlikni yaxshilaydi, tanani mustahkamlashga yordam beradigan xususiyatlar haqida ilmiy fikr mulohazalar boradi.

**Kalit so'zlar:** Brass, suzish maydoni, intellektual qobiliyat, layoqat, tana tuzilishi, suzish, sog'lom turmush tarzi.

## **THE METHOD OF TEACHING STUDENTS TO SWIM IN THE BREASTSTROKE METHOD**

**Annotation.** The article covered the methodology of teaching children to swim in the brass method. Also today, it is in front of schools and all organizations working with children that the task is to regularly engage in sports, in addition, the preparation for swimming physical education carries out scientific caviar reflections on the ability to swim, improve health, help strengthen the body.

**Key words:** brass, swimming area, intellectual ability, competence, body structure, swimming, healthy living.

**Введение.** Плавание - физическое действие, основанное наудержании в воде и перемещении в воде человека без поддерживающих средств в необходимом направлении. Оздоровительное, лечебное и гигиеническое значение плавания трудно переоценить. Во время плавания человек, преодолевая зн ачительное сопротивление воды, постоянно тренирует мышечные группы (в том числе и очень мелкие), радикально способствует устранению различных дефектов осанки. Регулярные занятия плаванием закаляют организм, формируют стойкий иммунитет. Умение плавать это отличное средство для всестороннего физического развития изалог безопасности на воде. В программу профессионального образования студентов вузов плавание входит составной частью дисциплины «Физическая культура».

Брасс - один из популярных способов плавания. Возможности его применения многосторонны.

Так, хорошо известно оздоровительное значение плавания брассом, благоприятное гигиеническое воздействие его на организм человека. Брасс используется как одно из

**196** средств лечебной гимнастики. Движения приплавании этим способом служат отличным корректирующим упражнением, применяемым для улучшения осанки, исправления искривлений позвоночника. Брасс является одним из видов физических упражнений для людей пожилого возраста, позволяющим легко дозировать нагрузку.

Технику этого способа можно использовать в самых разнообразных ситуациях, возникших в водной среде, свободно изменяя направление и скорость проплыивания.

#### **Общее представление о технике плавания брасом:**

1. Пловец скользит вперед (после отталкивания ногами) в горизонтальном и обтекаемом положении: руки вытянуты, кисти соединены и развернуты ладонями вниз-наружу; ноги расслаблены и вытянуты, носки оттянуты; лицо в воде (пловец смотрит на кисти).

2. Начало гребка: руки опираются ладонями о воду и движутся в стороны-вниз (локти удерживаются выше кистей); пловец продолжает смотреть под водой вперед, сохраняя вытянутое и обтекаемое положение тела; ноги расслаблены, бедра и голени - у поверхности воды; начинается постепенный выдох через рот и нос.

3. Усиление гребка руками: кисти с ускорением движутся в стороны и вниз-назад (пловец непрерывно давит ладонями на воду), локти сохраняют высокое положение и развернуты наружу; туловище и ноги хорошо обтекаемы; продолжается выдох.

4. Наиболее энергичная, завершающая часть гребка: кисти и предплечья с высокой скоростью движутся внутрь, отталкиваясь от воды. После того, как гребок завершен, пловец направляет подбородок вперед, к поверхности воды, энергично выдыхает остатки воздуха и, как только рот оказывается над поверхностью воды, начинает вдох. Ноги начинают плавно сгибаться в коленях.

5. Кисти без промедления соединяются под подбородком и направляются вперед, локти движутся вслед за кистями. Вслед за локтями пловец вновь опускает лицо в воду. Ноги продолжают сгибаться в коленных и тазобедренных суставах, стопы подтягиваются пятками к ягодицам на ширине таза. Через мгновение ноги окажутся в положении своего максимального сгибания для начала отталкивания стопами назад.

6. Стопы быстро разворачиваются носками наружу - пловец мгновенно начинает отталкивание ногами (стопами и голенями) в стороны-назад. Руки находятся в хорошо обтекаемом положении спереди, кисти соединены; взгляд пловца устремлен под водой вперед. Дыхание задержано.

7. Завершается отталкивание ногами - стопы движутся по дугам наружу-назад-внутрь. Пловец, отталкиваясь стопами и голенями от воды, посылает себя вперед вслед за руками в обтекаемом положении. Дыхание задержано или начинается выдох.

8. Отталкивание ногами закончено, ноги выпрямлены. Бедра, лени и стопы расслабляются; ноги как бы всплывают к поверхности воды. Пловец скользит вперед в хорошо обтекаемом положении: тело полностью вытянуто, голова между руками; пловец смотрит под водой вперед, на кисти вытянутых рук. Выполняется вдох в воду через рот и нос.

Прикладное значение способа браса велико. Он позволяет человеку в случае необходимости: плыть в одежде; плыть при большой волне; сохранять во время плавания хорошую видимость перед собой; преодолевать большие расстояния, сохраняя силы. С помощью движений ногами брасом удобно буксировать большой «дмет (например, плотик), толкая его перед собой, или плыть с небольшим предметом в руках, удерживая его над водой. При оказании помощи при несчастных случаях на воде способом браса (на груди или на спине) удобно транспортировать пострадавшего. Этот способ используют при нырянии без помощи ласт. Брас рекомендуют во многих случаях на занятиях оздоровительным плаванием (например, с людьми пожилого возраста).

#### **Положение тела и движения ногами**

Тело пловца при плавании брасом сохраняет на протяжении большей части полного цикла вытянутое и хорошо обтекаемое положение. После отталкивания ногами, когда

пловец скользит с вытянутыми вперед руками, угол атаки тела минимален и равен примерно 3-5°. В конце гребка руками, когда плечевой пояс и голова приподнимаются над поверхностью воды, угол атаки возрастает и может доходить до 12-17°. Это не окажет отрицательного влияния, если пловец будет удерживать бедра в хорошо обтекаемом положении.

Ноги при плавании брассом выполняют одновременные и сим-метричные движения. В цикле движений ногами выделяют две фазы: подтягивание и отталкивание (после отталкивания в движениях ногами наблюдается пауза).

Подтягивание - подготовительное движение; оно начинается с плавного сгибания ног в коленях. При этом бедра сохраняют обтекаемое положение и не опускаются вниз; расслабленные стопы движутся у самой поверхности воды; колени расходятся в стороны примерно на ширину таза. В заключительный момент подтягивания бедра, голени и стопы быстро возвращаются в исходное положение для начала отталкивания: колени разводятся несколько шире таза, стопы приближаются к ягодицам, голени почти перпендикулярны поверхности воды (через мгновение последует быстрый разворот стоп носками наружу и отталкивание назад). Подтягивание выполняется плавным движением с ускорением к моменту разворота стоп.

Отталкивание - рабочая фаза движений. Она начинается мгновенным разворотом стоп носками наружу и энергичным движением стоп и голеней в стороны и назад-внутрь. Во время отталкивания стопы и голени хорошо опираются на воду, стопы движутся по дугам; ноги разгибаются в коленных и тазобедренных суставах. По завершении отталкивания ноги смыкаются и расслабляются, бедра направляются к поверхности воды. Затем следует непродолжительная пауза, во время которой пловец скользит вперед; ноги - у поверхности воды в хорошо обтекаем положении.

### **Движения руками и дыхание**

В полном цикле движений руками условно выделяют две фазы: гребок (захват и основная часть гребка); сведение рук и выведение их вперед.

Во время гребка руки одновременно и симметрично разводятся в стороны и немного вниз. Кисти при этом развернуты ладонями наружу, чтобы хорошо опираться о воду и отталкиваться от нее. Рачало гребка выполняется почти прямыми руками, затем они сгибаются в локтях. На протяжении всего гребка локти удерживаются выше кистей и развернуты в стороны. Как только кисти приближаются к линии плечевого пояса, они с ускорением направляются пловцом внутрь, под подбородок. Это завершающая часть гребка, самая быстрая и энергичная; в конце ее кисти должны двигаться внизу, под подбородком. В это время пловец, хорошо опираясь о воду кистями и предплечьями, как бы выталкивает себя вперед и немного вверх. Плечевой пояс и голова приподнимаются над поверхностью воды, и пловец выполняет вдох. Так как вдох происходит в конце гребка, его называют «поздним».

Во время вдоха руки не прекращают своих движений; гребок переходит в выведение рук вперед. Кисти сближаются под подбородком, поворачиваются ладонями немного внутрь; пловец, разгибая руки в локтевых суставах, вытягивает их вперед для начала очередного гребка.

### **Общее согласование движений**

Рациональным вариантом техники, который доступен начинающим пловцам, является последовательное согласование движений руками и ногами, которое должно обеспечить непрерывное продвижение пловца вперед с высокой скоростью и оптимальной затратой сил.

Пловец начинает гребок руками при хорошо вытянутом и почти горизонтальном положении тела. Почти на всем протяжении гребка ноги вытянуты и расслаблены, они начинают немного сгибаться в коленях лишь к концу гребка. После окончания вдоха, когда руки полностью завершили гребок, ноги быстро выполняют основную часть подтягивания, разворачиваются носками в стороны и вслед за выведением рук вперед выполняют

**198** отталкивание. Основная часть отталкивания приходится на тот момент, когда руки почти полностью вытянуты вперед и тело пловца хорошо обтекаемо.

По окончании отталкивания ногами пловец какое-то мгновение скользит вперед в горизонтальном положении с вытянутыми руками и ногами (обратите особое внимание на этот элемент техники в процессе ее освоения).

### **Литературы**

1. Булгакова Н.Ж. Познакомьтесь – плавание. - М.: ООО «Издательство АстаСтрель», 2002.- 160 с.,ил.
2. Плавание: Учебник для вузов / Под общ. Ред. Н.Ж. Булгаковой.- М.: Физкультураи спорт, 2001.- 400 с., ил.
3. Оздоровительное, лечебное и адаптивное плавание: Учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений / Под ред. Н.Ж. Булгаковой – М.: Академия, 2005.– 432 с.
4. Степанова М.В. Обучение плаванию в системе физического воспитания студентов вузов: Методическое пособие. - Оренбург: ГОУ ОГУ, 2003.- 103 с. 5. Непочатых М.Г., Богданов а В. А., Лабзо К.С., Никитина И.Ю., Алексеева О.И., Смирнов А.М. Теория и методика обучения плаванию студентов высших учебных заведений: Уч.- методическое пособие. – СПб.: Изд-во 2009.- 69 с.
6. Литвинов А. А., Ивченко Е.В., Федчин В.М. Азбука плавания.– СПб., «Фолиант», 1995.– 108 с., ил.
7. Макаренко Л.П. Техника спортивного плавания: Пособие для тренеров / Л.П. Макаренко.– М.: Всероссийская федерация плавания, 2000.– 136 с., ил.

## **ICHKI ISHLAR XODIMLARIDA MULOQOTNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK KOMPETENTLIK BILAN BOG'LQLIGI**

**Annotatsiya.** Ichki ishlar organlari xodimlarining ijtimoiy-psixologik kompetentsiyasini shakllantirish, ularning kasbiy rivojlanishi, jamiyatda qonun va qoidalarni saqlash samaradorligining muhim jihatni yoritib berilgan. Bundan tashqari maqola ichki ishlar xodimlarining ijtimoiy va psixologik kompetentsiyasining ahamiyatini o'rganilgan va bu ularning turli xil aholi qatlamlari bilan samarali muloqot qilish, potentsial o'zgaruvchan vaziyatlarni bartaraf etish va yuqori stressli ish vaziyatlarda o'zlarining ruhiy farovonligini saqlab qolish qobiliyatiga ta'sirini haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** ehtiyoj, faoliyat, metod, konsepsiya, kompetensiya, qobiliyat, bilim, ko'nikma, hissiy aql, muloqot, empatiya, stereotip.

### **ИНДИВИДУАЛЬНО - ТИПОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПАМЯТИ УЧАЩИХСЯ В УСЛОВИЯХ ИЗУЧЕНИЯ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ**

**Аннотация.** Освещается важный аспект формирования социально-психологической компетентности сотрудников органов внутренних дел, их профессионального развития, эффективности соблюдения правопорядка в обществе. кроме того, в статье исследуется значение социально-психологической компетентности сотрудников органов внутренних дел, которая заключается в их способности эффективно общаться с различными слоями населения, преодолевать потенциально изменяющиеся ситуации и повышать свою психическую работоспособность в стрессовых рабочих ситуациях. речь идет о влиянии на способность поддерживать хорошее самочувствие.

**Ключевые слова:** потребность, деятельность, метод, концепция, компетенция, способности, знания, навыки, эмоциональный интеллект, общение, сочувствие, стереотип.

### **INDIVIDUAL-TYPOLOGICAL FEATURES OF THE MEMORY OF STUDENTS IN THE CONDITIONS OF MASTERING FOREIGN LANGUAGES**

**Annotation.** In addition, an important aspect of the formation of socio-psychological competence of employees of internal affairs bodies, their professional development, the effectiveness of maintaining laws and regulations in society is highlighted, the article explores the importance of social and psychological competence of internal affairs employees, and talks about their impact on the ability to effectively communicate with different segments of the population.

**Key words:** need, activity, method, concept, competence, ability, knowledge, skill, emotional intelligence, communication, empathy, stereotype.

**Kirish.** Ichki ishlar orgnlari xodimlarida ijtimoiy-psixologik kompetentsiyani shakllantirish, ularning jamiyatda o'z burch va majburiyatlarini samarali bajarishi hal qiluvchi omildir. Huquq va tartibni saqlash uchun masul bo'lgan shaxslar sifatida ichki ishlar xodimlari turli xil ijtimoiy munosabatlarni boshqarish, potentsial o'zgaruvchan vaziyatlarni bartaraf etish va yuqori stressli muhitda o'zlarining ruhiy barqarorligini saqlab qolish uchun zarur bo'lgan ko'nikma va bilimlarga ega bo'lishlari juda muhimdir. Ichki ishlar organlari xodimlarining ijtimoiy va psixologik kompetentsiyasini rivojlantirish nafaqat ularning kasbiy samaradorligi, balki ular xizmat

200 qilayotgan jamoalarning umumiy xavfsizligi, farovonligi uchun ham muhimdir. Ushbu vakolatlarni rivojlantirishga ko'maklashish orqali ichki ishlar xodimlari o'zlaridagi shaxslarni yaxshiroq tushunishlari va ular bilan yaxshi munosabat o'rnatishlari mumkin, bu esa yanada ijobiy va samarali o'zaro munosabatlarga olib keladi. Bundan tashqari, keskin vaziyatlarni bartaraf etish va ruhiy farovonlikni saqlash qobiliyati keraksiz nizolarning oldini olish va jamoat a'zolarining xavfsizligini ta'minlash uchun juda muhimdir. Ichki ishlar organlari xodimlarida ijtimoiy va psixologik kompetentsiyani shakllantirishga ko'maklashish uchun kompleks o'quv dasturlarini amalga oshirish, qo'llab-quvvatlash tarmoqlarini tashkil etish va doimiy ravishda malaka oshirish imkoniyatlarini ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Ushbu tashabbuslar xodimlarga murakkab ijtimoiy dinamikani va qiyin vaziyatlarni samarali boshqarish uchun zarur ko'nikma va bilimlarni rivojlantirishga yordam beradi, shu bilan birga ularni ruhiy farovonligini saqlab qolish uchun zarur bo'lган yordam va resurslar bilan ta'minlaydi.

**Adabiyotlar tahlili.** Zamonaviy dunyoda har bir inson tinch, osoyishda muhit bo'lган jamiyatda istiqomat qilishni xohlashi tabiiy hol hisoblanadi. Bu borada albatta har bir jamiyat uchun tinchlikni ta'minlashda ichki ishlar xodimlarining o'rni ajralmas hisoblanadi. Albatta, ularning malakasi va hayot tajribasi yuzaga kelishi mumkin bo'lган tir xil nizoli holatlarni oldini olishga va butunlay bartaraf etishda asosiy rol o'ynaydi. Turli rus (Vladimir Petrovich Zinchenko, Yury Alexandrovich Zinchenko Irina Vladimirovna Kuznetsova) va garb psixologlari (Albert Bandura, Daniel Goleman, John Gottman) o'zlarining tadqiqotlari orqali ichki ishlar xodimlarining kompetentligi ularda ehtimoliy yuzaga kelishi mumkin bo'lган psixologik o'zgarishlarini o'z tadqiqotlarida o'rganganlar va bir qancha takliflarni berib o'tganlar. Jumladan rus psixologi Vladimir Petrovich Zinchenko - ijtimoiy va tashkiliy psixologiya sohasidagi faoliyati bilan tanilgan taniqli rus psixologi. U huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining ijtimoiy va psixologik kompetentsiyasini rivojlantirish bo'yicha tadqiqotlar olib bordi, bunda hissiy aql, muloqot qobiliyatları va nizolarni hal qilish qobiliyatları samarali va axloqiy politsiya amaliyotini saqlashda muhimligini ta'kidladi.

Yuriy Aleksandrovich Zinchenko ichki ishlar xodimlarining psixologik tayyorgarligi va malakasini oshirishga e'tibor qaratgan yana bir taniqli rus psixologidir. Uning tadqiqotida huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatida psixologik chidamlilik, stressni boshqarish va axloqiy qarorlar qabul qilishning o'mi ko'rsatilgan, kasbning ham ijtimoiy, ham psixologik jihatlarini qamrab oluvchi kompleks o'quv dasturlari zarurligini ta'kidlagan.

Irina Vladimirovna Kuznetsova rossiyalik psixolog bo'lib, huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarida ijtimoiy-psixologik kompetentsiyani shakllantirishni gender nuqtai nazaridan o'rgangan. Uning tadqiqoti huquqni muhofaza qiluvchi tashkilotlarning erkaklar ustunlik qiladigan madaniyatida samarali muloqot qilish, yetakchilik va nizolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishda ayol zabitlar duch keladigan noyob muammolarni aytib o'tgan.

Bundan tashqari Daniel Golemanning hissiy intellektga oid ishi samarali bo'lib ijtimoiy va psixologik kompetentsiyani rivojlantirishda o'z-o'zini anglash, o'zini o'zi boshqarish, empatiya va ijtimoiy ko'nikmalarning ahamiyatini ta'kidlaydi. Ichki ishlar xodimlari o'zlarining va boshqalarning his-tuyg'ularini yaxshiroq tushunish uchun ushbu tamoyillarni qo'llashlari mumkin, bu esa o'zaro munosabatlarni yaxshilashga va nizolarni hal qilishga olib keladi.

Syuzan Fiskening ijtimoiy bilish haqidagi tadqiqotlari ijtimoiy o'zaro munosabatlarni shakllantirishda stereotiplar, noto'g'ri qarashlar va ijtimoiy kategoriyalashtirishning rolini ta'kidlaydi. Ichki ishlar xodimlari ushbu kognitiv jarayonlarni tushunishdan turli xil ijtimoiy dinamikani boshqarish va o'z jamoalari ichida ijobiy o'zaro munosabatlarni rivojlantirish uchun foya olishlari mumkin.

Jon Gottmanning shaxslararo munosabatlar va nizolarni hal etish bo'yicha ishi ijtimoiy o'zaro munosabatlar dinamikasi va keskin vaziyatlarni bartaraf etish uchun zarur bo'lган ko'nikmalar haqida qimmatli tushunchalar beradi. Ichki ishlar xodimlari ushbu tamoyillarni mojarolarni samarali boshqarish va jamoa a'zolari bilan ijobiy munosabatlarni saqlab qolish uchun qo'llashlari mumkin.

Martin Seligmannning ijobiy psixologiya bo'yicha tadqiqotlari ruhiy salomatlik va psixologik kompetentsiyani rivojlantirishda chidamlilik, optimizm va farovonlikning muhimligini ta'kidlaydi. Ichki ishlar xodimlari yuqori stressli muhitlarni engish va ruhiy farovonligini saqlab qolish uchun ushbu fazilatlarni rivojlantirishdan foyda olishlari mumkin.

Karen Xornining shaxslararo munosabatlar va nevrozlar haqidagi nazariyalari ijtimoiy va madaniy omillarning shaxsnинг psixologik farovonligiga ta'sirini ta'kidlaydi. Ichki ishlar xodimlari ushbu dinamikani tushunishdan turli kelib chiqishi bo'lgan shaxslar bilan yaxshiroq aloqa qilish va ijobiy ijtimoiy o'zaro munosabatlarni rivojlantirish uchun foyda olishlari mumkin.

Karl Rojersning shaxsga yo'naltirilgan yondashuvi samarali muloqot va munosabatlarni o'rnatishda empatiya, samimiylit va so'zsiz ijobiy e'tibor muhimligini ta'kidlaydi. Ichki ishlar xodimlari hamjamiyat a'zolari bilan ishonch va munosabatlarni o'rnatish uchun ushbu tamoyillarni qo'llashlari mumkin, bu esa yanada ijobiy o'zaro munosabatlarga olib keladi.

Kurt Levanning maydon nazariyasi ijtimoiy va atrof-muhit omillarining shaxslarning xulq-atvori va psixologik farovonligiga ta'sirini ta'kidlaydi. Ichki ishlar xodimlari murakkab ijtimoiy vaziyatlarni samarali boshqarish va o'z jamoalarida ijobiy natijalarga erishish uchun ushbu dinamikani tushunishdan foyda olishlari mumkin.

Elizabet Loftusning xotira va guvohlarning guvohliklari bo'yicha tadqiqotlari inson xotirasining noto'g'riliгини va ijtimoiy ta'sirlarning shaxslarning voqealarni eslab qolishiga ta'sirini ta'kidlaydi. Ichki ishlar xodimlari ziddiyatlari vaziyatlarda turli nuqtai nazarlarni to'g'ri baholash va ularga javob berish uchun ushbu kognitiv jarayonlarni tushunishdan foyda olishlari mumkin.

F.Skinnerning bixevoiristik yondashuvi individlarning xulq-atvori shakllantirishda kuchaytirish va jazolashning rolini ta'kidlaydi. Ichki ishlar xodimlari ushbu tamoyillarni ijobiy ijtimoiy o'zaro munosabatlarni rivojlantirish va tegishli mustahkamlash strategiyalari orqali qiyin vaziyatlarni samarali boshqarish uchun qo'llashlari mumkin.

**Muhokama.** Ushbu psixolog olimlar tadqiqotlarining muhim natijalardan biri bu kasbdagi ijtimoiy va psixologik kompetentsiyaning ko'p qirrali xususiyatini tan olishdir. Psixologlar samarali va axloqiy politsiya amaliyotini qo'llab-quvvatlashda hissiy intellekt, muloqot qobiliyatları, nizolarni hal qilish qobiliyatları, psixologik chidamlilik, stressni boshqarish va axloqiy qarorlar qabul qilish muhimligini ta'kidladilar. Ularning tadqiqotlari shuni ko'rsatdiki, kompetentsiyaning ushbu turli jihatlarini hal qilish uchun o'qitishga kompleks yondashuv zarur, chunki ularning barchasi huquqni muhofaza qilish rollarida muvaffaqiyatli ishslash uchun juda muhimdir. Bundan tashqari, psixologlarning ishi ichki ishlar xodimlari duch keladigan o'ziga xos muammolarni, xususan, huquqni muhofaza qiluvchi tashkilotlarda gender dinamikasi kontekstida yoritib berdi. Irina Vladimirovna Kuznetsovaning tadqiqotlari, ayniqsa, erkaklar ustunlik qiladigan madaniyatda samarali muloqot qilish, etakchilik va nizolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishda ayol ofitserlar duch keladigan o'ziga xos ehtiyoj va muammolarni hal qilish zarurligini ta'kidladi. Ushbu topilma huquqni muhofaza qilish organlarida ishlaydigan shaxslarning turli tajribalari va istiqbollarini hisobga olgan holda moslashtirilgan o'quv dasturlari muhimligini ta'kidlaydi. Qo'shimcha ravishda bir qancha ijtimoiy-psixologik konsepsiylar ichki ishlar xodimlaridagi shakllanadigan kompetensiyanı rivojlantiradi va mustahkamlaydi. Ular

1. Boshqalarning nuqtai nazari va his-tuyg'ularini faol tinglash orqali xodimlar o'z hamkasblari va jamiyat a'zolarining ehtiyojlari va tashvishlarini yaxshiroq tushunishlari mumkin, bu esa nizolarni yanada samarali hal qilish va muloqotga olib keladi.

2. O'z-o'zini anglash ichki ishlar xodimlari uchun o'zlarining his-tuyg'ulari va reaksiyalarini, ayniqsa yuqori bosim yoki sezgir vaziyatlarda tan olish va boshqarish uchun juda muhimdir. O'z-o'zini anglashni rivojlantirish xodimlarga psixologik barqarorlikni saqlashga va stressni samarali boshqarishga yordam beradi.

